

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM,
FAN VA INNOSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

M.A. ATAVULLAYEV

**IJTIMOIIY DAVLAT: GENEZISI, SHAKLLANISHI,
MUAMMOLARI
(FALSAFIY-HUQUQIIY YONDASHUV)**



Monografiya



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

M.A.ATAVULLAYEV

**IJTIMOIIY DAVLAT:
GENEZISI, SHAKLLANISHI, MUAMMOLARI
(FALSAFIY–HUQUQIY YONDASHUV)**

MONOGRAFIYA

**Toshkent
“Ma’rifat”
2026**

UO‘K: 340.12:316.422

KBK: 66.0+60.56

A 87

Atavullayev M.A. Ijtimoiy davlat: genezisi, shakllanishi, muammolari (falsafiy–huquqiy yondashuv). Monografiya.

–T.: “Ma’rifat”, 2026. 180 bet.

Monografiyada ijtimoiy davlatning ilmiy va falsafiy-huquqiy talqinlari, sotsiosubstansional asoslari, modernizasiya va evolyutsion taraqqiyotni ta’minlashda huquqiy qadriyatlarning o’rni, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimi hamda ijtimoiy himoya va madaniy taraqqiyot strategiyasi o’rganiladi, “Ijtimoiy davlat” tushunshasi davlat genezisi va uning evolyutsion rivojlanish jarayonlari bilan bog’liq tarzda kelishi tadqiq etiladi. Monografiya huquq falsafasi, siyosiy, falsafiy-huquqiy hamda ijtimoiy davlat barpo etish bilan qiziquvchi mutaxassis va kitobxonlarga mo’ljallangan.

UO‘K: 340.12:316.422

KBK: 66.0+60.56

A 87

Mas’ul muharrir:

B.T.To‘ychiyev – falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

V.Alimasov – falsafa fanlari doktori, professor

S.Norqulov – falsafa fanlari doktori, professor

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnik kengashining 25.02.2026-yil 02-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-258-58-9

© “Ma’rifat” nashriyoti, Toshkent, 2026 y.

MUNDARIJA

	KIRISH	4
I BOB.	IJTIMOIIY DAVLAT: TUSHUNSHASI, ILMIY NAZARIY VA FALSAFIY-HUQUQIY TALQINLARI	5
1.1.	“Ijtimoiy davlat” tushunshasi va uning sotsiosubstansional mohiyati	5
1.2.	Ijtimoiy davlat modellari va ularning falsafiy-huquqiy tahlili	15
1.3.	Ijtimoiy davlatning demokratik xususiyatlari va belgilari	25
1.4.	Ijtimoiy davlat: ilmiy siyosiy, falsafiy-huquqiy va aksiologik diskurslar	35
II BOB.	IJTIMOIIY DAVLATNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI VA ULARNING FALSAFIY-HUQUQIY JIHATLARI	44
2.1.	Ijtimoiy adolatni ta’minlash ijtimoiy davlatning bosh funksiyasi sifatida	44
2.2.	Ijtimoiy davlatda ijtimoiy himoya siyosati	53
2.3.	Ijtimoiy tenglik konsepsiyasining falsafiy-huquqiy jihatlari	60
2.4.	Ijtimoiy farovonlik va hamkorlikni ta’minlashning falsafiy-huquqiy masalalari	72
III BOB.	IJTIMOIIY DAVLAT-HUQUQIY DAVLAT: MODERNIZATSIYA VA EVOLYUTSION TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA HUQUQIY QADRIYATLARNING O’RNI	81
3.1	Ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy-konstitutsion asoslari	81
3.2	Jamiyatni modernizatsiyalashda huquqiy-iqtisodiy qadriyatlarning ahamiyati	89
3.3	Ijtimoiy davlat va huquqiy-siyosiy qadriyatlar	104
3.4	Milliy evolyutsion taraqqiyot va ijtimoiy davlatda parlamentarizm	119
IV BOB.	YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY DAVLATNI MUSTAHKAMLASHNING FALSAFIY-HUQUQIY MASALALARI	131
4.1.	Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimini takomillashtirish borasidagi tajribalar tahlili (yuridik himoya va ijtimoiy adolat)	131
4.2.	Ijtimoiy davlatda fuqarolar siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari	138
4.3.	Ijtimoiy himoya va ma’naviy-madaniy taraqqiyot strategiyasi	147
4.4.	Ijtimoiy davlat institutsional tizimlarini mustahkamlashning ssiyentik va falsafiy-huquqiy masalalari	156

Kirish

“Ijtimoiy davlat” tushunshasi endi ilmiy iste’molga kirmoqda. G‘arb olimlari asarlarida u ushrasa-da, MDH tadqiqotchilari uchun mutlaq yangi voqeylikdir. Shu paytgasha siyosiy va falsafiy-huquqiy adabiyotlarda “adolatli davlat”, “huquqiy davlat”, “ideal davlat”, “demokratik davlat” kabi tushunshalar ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa, endi ular qatoriga “ijtimoiy davlat” tushunshasi ham qo‘shilmoqda.

“Ijtimoiy davlat”ning ilmiy iste’molga kiritilishi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning nomi va uning yangi O‘zbekiston konstitutsiyasini qabul qilish tashabbusi bilan bog‘liqdir. Aynan Prezidentimiz 2016-yildan keyingi tub o‘zgarishlardan kelib chiqib Yangi O‘zbekistonni ijtimoiy davlat deb atashni taklif etdi.

Mazkur monografiya ijtimoiy davlatning chet ellardagi modellari, ularning huquq, demokratiya, siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq falsafiy-huquqiy masalalari tadqiq etiladi. Bu borada g‘arb tadqiqotchilari, Sh.Monteskye, I.Kant, Gegel, Lorens fon Shteun kabi faylasuflarning falsafiy-siyosiy qarashlari o‘rganiladi. AQSh, Skandinaviya davlatlari, Finlyandiya, Kanada, Shvetsariya, Germaniya, Belgiya davlatlari tajribalari tahlil qilinadi. Ijtimoiy davlatning liberal, konservativ, korporativ, sotsial-demokratik modellari va ularning falsafiy-huquqiy jihatlari ochib beriladi. Ijtimoiy davlatning demokratik-huquqiy xususiyatlari, ayniqsa, ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgani aniq misollar va tajribalarda ochib beriladi.

Ijtimoiy davlat murakkab ijtimoiy-siyosiy hayotni, jarayonlarni soddalashtirish, boshqarishni yengillashtirish niyati emas, jamiyat hayoti va taraqqiyotning obyektiv talabi, xalq orzu-istaklarining ifodasidir. Unda xalq manfaatlari va orzu-istaklari mujassamdir.

Barsha uchun teng ijtimoiy makon va huquqiy shart-sharoitlar yaratish, aholining yordamga muhtoj qismini qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatning tabaqalanishiga, sinfiy antogonizmning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik ijtimoiy davlatning bosh vazifasidir. Monografiyada ushbu insonsevarlik maqsadiga yetishga oid falsafiy-huquqiy masalalar muhokama qilinadi.

Ijtimoiy davlat borasidagi qarashlar va tajribalar endi ilmiy, falsafiy-huquqiy umumlashtirilmoqda, shu sababli unda qiyomiga yetmagan yoki yetarli ochilmay qolgan masalalar bo‘lishi tabiiy holdir. Muallif tadqiqotchi, faylasuf, davlat va jamiyat muammolari bilan qiziquvchilardan fikr va mulohazalar, takliflar kutib qoladi.

1 BOB. IJTIMOIIY DAVLAT: TUSHUNCHASI, ILMIY-NAZARIY VA FALSAFIY-HUQUQIY TALQINLARI

1.1. “Ijtimoiy davlat” tushunchasi va uning sotsiosubstansional mohiyati

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda tadqiqot obyekti (predmeti)ning ijtimoiy borliqdagi o‘rni va gnoseologik masalalari, uning substansional asosi, immanent belgilari, tashqi va ichki aloqalari orqali tadqiq qilinishi zarurligi ta’kidlanadi. Tadqiqot obyekti (predmeti)ning universal belgilari, tashqi va ichki tizimlarining ijtimoiy borliq bilan aloqalari obyekt (predmet)ning “o‘zi-o‘zi uchun” bo‘lib qolmasligining kafolati sifatida keladi, aks holda, u nafaqat ichki, immanent xususiyatlarini, shuningdek, sotsiosubstansional asosini ham yo‘qotadi. Obyekt (predmet)ga gnoseologik, psixologik, antropologik yondashuvlar yetarli emas, ular qanchalik muhim bo‘lmasin, tadqiqotchi obyektning sotsiosubstansional asosi ham borligini unutilmaydi. Ilmiy kashfiyotlar va gnoseologik muammolar ko‘lamini bugun falsafa yetarli anglab ololmayotgan, “undagi eski postulatlar zamonaviy ilmiy taraqqiyot talablariga javob berolmayotgan”¹ bir paytda, obyekt (predmet)ning universal yoki borliq bilan substansional bog‘liq xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot obyekti (predmeti)ning aynan borliq bilan universal, keng bog‘liqligi, sotsiosubstansional asosiga ega ekanligi nafaqat obyekt (predmet) tashqi va ichki aloqalarini to‘g‘ri anglashga, shuningdek, uning evolyutsiyasini, ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rnini ham to‘g‘ri belgilab olishga yordam beradi, aks holda gnoseologiya “o‘z predmetini yo‘qotadi”².

Falsafa, gnoseologiya “o‘z predmetini yo‘qotmasligi uchun ham obyekt (predmet)ni borliq bilan uyg‘un, sotsiosubstansional asosi nuqtayi nazaridan tadqiq etishi darkor. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, “ijtimoiylik ontologik xususiyat emas, u bilish jarayonida paydo bo‘ladigan voqeylikdir”³. “Bilish jarayoni” esa insonning olamni, voqeyliklarni, obyekt (predmet)ni anglashga qaratilgan faoliyat turidir. Demak, ijtimoiy davlat haqidagi tasavvurlar, tushunchalar va talqinlar insonning gnoseologik qiziqishlari mahsulidir.

¹ Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетейя, 2019, С.4.

² Гартман Н. Познание в свете онтологии//Западная философия. Итоги тысячелетия. – Екатеринбург: Бишкек: Илим, 1997. С.469–470.

³ Новая философская энциклопедия. В 4 томах. 2 е изд. – Москва: Мысль, 2010; [https // cfs. hce. ru social-disc-O](https://cfs.hce.ru/social-disc-O).

Siyosiy va falsafiy-huquqiy tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, bilish jarayonida "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan birga "adolatli davlat", "huquqiy davlat", "ideal davlat", "demokratik davlat", "insonparvar davlat", "axloqiy davlat", "farovonlik davlati", "ijtimoiy federativ davlat", "barchaning ijtimoiy ishtiroki", "sotsialistik davlat" kabilar ham paydo bo'ladi. Ular tahlili bizning ijtimoiy davlat haqidagi fikrlarimizni oydinlashtiradi, chunki ularning har biri, ma'lum ma'noda va siyosiy tamoyiliga ko'ra, ijtimoiy belgilariga ega. Mazkur belgilarni aniqlash va qiyoslash, farqlash ijtimoiy davlat haqidagi qarashlarimizni ratsionallashtiradi.

"Adolatli davlat" haqidagi fikrlarni ilk siyosiy, falsafiy-huquqiy manbalardayoq uchratamiz. Qadimgi hind kitobi "Arxashastra yoxud siyosat ilmi" kitobida ta'kidlanishicha, davlat boshlig'ining vazifasi har bir fuqaro uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib berish, adolat o'rnatib, boshqarish ishlarida pastdagi xizmatchilariga o'rnak bo'lishdir. Quyi pog'onadagi xizmatchilar, amaldorlar mudom tepadagi amaldor xatti-harakatlariga qarab ish tutishlarini shoh unutmashligi zarur⁴. Asarda boshqarish pog'onalari, har bir amaldorning vazifalari, markaziy idora bilan bog'liq jihatlari haqida fikrlar bildiriladi. Varna tizimi qo'llab-quvvatlanadi, braxmanlarning yetakchi sinf ekani ta'kidlanadi. Braxmanizmning davlat boshqarish tizimiga ta'siri markaziy idorani mustahkamlashga, ya'ni xalq ommasini ma'lum bir g'oya, e'tiqod atrofida birlashtirib boshqarish taktikasi qo'llanilgan. Bu hozirgi ma'nodagi teokratiya emas, ammo xalq ommasi ongidan, turmush tarzi va madaniyatidan joy olgan braxmanizm boshqarishni adolat tamoyillari bilan olib borish imkonini, kafolati edi. Aslida "Qadimgi Sharqda siyosiy tafakkur alohida, mustaqil soha bo'lmagan, u har doim falsafa, etika, din va mistikaning qismi bo'lgan. U mifologik qarashlarning ajralmas qismi sifatida diniy mifologik shaklda ifodalangan. Miqlar esa ko'p vaqtlar qadimgi sharqona siyosiy tafakkurning ifoda shakli bo'lib kelgan"⁵.

Qadimgi Xitoyda adolat g'oyasi axloq bilan bog'liq. Boshqarishda an'analar, axloqqa, farzandning otaga, xizmatchining "oliyjanob er"ga bo'ysunishi ma'lum bir siyosiy tafakkur, tartib, davlatchilik an'anasi

⁴ Артхашастра или наука политики. – Москва: Изд. АН СССР, 1959. С.6–32.

⁵ Бичехвост А.Ф. Политическая мысль Древнего Востока // Ж. Правовая политика и правовая жизнь. 2009, №4. С.195.

sifatida qaralgan. Konfutsiylik, daosizm va legizm davlat ishlarini axloqiy imperativlar, “adolat” (i) tushunchasi bilan bog‘langan⁶. Masalan, Konfutsiy oliyjanob kishi amal qiladigan, mudom qayg‘urishi lozim bo‘lgan narsalardan biri “adolat haqida o‘ylashdir”, deb hisoblaydi. Kishi adolatga intilib, ezgu amalni ulug‘laydi. “O‘zining shaxsiy manfaatidan adolatni yuqori qo‘yadigan kishi yetukdir.” Demak, ezgu amalni, xalq manfaatlarini o‘ylaydigan kishi yetukdir”. Konfutsiy hatto yomonlikka ham adolat bilan javob berish zarur” deb hisoblaydi”⁷.

Adl, adolat haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlari ham muhim fikrlarni bildirishgan, podshohni adolatli boshqarishga da’vat etishgan. Adolatli podshoh adolatli davlat modeli edi. Umuman, Sharq davlatchiligida davlat modeli shohdan, uning turmush tarzi, siyosati va boshqarish usullaridan ajratilmagan, ular kosubstansional voqeyliklar sifatida idrok etilgan. Adolat boshqarishning shunday tamoyili ediki, unga amal qilmay davlatning mavjudligi haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas edi. Shuning uchun adolatli boshqarish davlat mavjudligining atributidir. Ijtimoiy davlat asrlar davomida shakllangan ushbu tamoyilga tayanadi, uni davlat, boshqaruv bilan xalq, omma o‘rtasidagi uyg‘unlikni, hamkorlikni ta’minlashning eng samarali usuli deb biladi.

“Huquqiy davlat” siyosiy ta’limotlar, huquqiy adabiyotlarda ko‘p ishlatiladigan tushunchadir. Inson huquq va erkinliklari, demokratik taraqqiyot muammolariga bo‘lgan e’tiborning, qiziqishning oshishi bilan ushbu tushunchaning sotsiosubstansional masalalari kun tartibiga chiqdi. Huquqiylik davlatning azaliy atributimi yoki uni sotsiosubstansional asoslariga ega boshqa voqeyliklar keltirib chiqaradimi? Huquqiy bo‘lmagan davlat bormi, axir har qanday ijtimoiy boshqarish huquq mexanizmlariga tayanmaydimi? Bir qarashda huquqiylik davlat boshqarishining azaliy atributidek ko‘rinadi, chunki antik davrdan beri, ayniqsa, davlatning sivilizatsion rivojlanishdagi rolining oshishi bilan u umummajburiy mexanizmlarga ehtiyoj sezgan. Hududlar va boshqarish obyektlarining ko‘payishi, etnosiyosiy omillar, tashqi aloqalar, urush xavflari kabilar davlatni umummajburiy mexanizmlarni kashf etishga, ya’ni huquq imkoniyatlaridan samarali foydalanishga undadi.

⁶ Древнекитайская философия в двух томах. – Москва: Мысль, 1972; Ли Сюй. Концепция справедливости в философских школах Древнего Китая “Преподаватель XXI век”. 2013 С.230–238.

⁷ Қаранг: Алимасов В. Конфуцийлик ва Шарқ давлатчилиги. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр., 2006. –30 б.

Davlatshunoslar davlat genezisini huquq genezisi bilan uyg'un qarashga moyil, ularni kosubstansional voqeyliklar sifatida idrok etadilar. Haqiqatan ham, davlatni huquq mexanizmlaridan, huquqni esa davlat, siyosiy boshqaruvdan ayriqcha qarash, anglash mumkin emas. Ammo huquqni mutlaq davlat instituti bilan yoki davlatni mutlaq huquq bilan aynanlashtirish mumkin emas. Davlatning siyosiy institut, suveren subyekt sifatidagi funksiyalari huquqnikidan keng, shuning uchun huquq davlatning boshqaruv ishlarini amalga oshirishda qo'llanadigan mexanizmdir. Keyingi yillarda huquqiy davlat alohida fenomen sifatida tilga olinmoqda, uning funksional xususiyatlari butun ijtimoiy borliq, jamiyat bilan bog'liq tarzda kelayotgani e'tirof etilmoqda⁸. Bu yondashuvda huquq fenomeni davlat instituti bilan aynan voqeylik (aslida kosubstansional voqeyliklar) sifatida qaraladi.

Mazkur yondashuvda, bir tomondan, huquqni umumijtimoiy voqeylikka aylantirish, huquqiy normalarni fuqarolar va jamiyat hayotiga singdirish istagi yotishi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, rang-barang va serqirra hayotni unifikatsiyalashga intilish kuzatiladi. Birinchisida huquq fenomenini mutlaqlashtirish xavfi mavjud, ikkinchisida esa boshqarish jarayonlarini osonlashtirishga intilish ustuvordir. Ularning har birida o'ziga xos, ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Masalan, huquqni mutlaqlashtirish boshqa, ayniqsa, axloqiy imperetivlar, urf-odatlar va an'analar rolini inkor qilishga olib kelishi mumkin, bunday yondashuv nafaqat ijtimoiy tarixiy rivojlanish qonunlariga, shuningdek, huquqiy makonni barpo etish talablariga ham ziddir. Huquqni barcha ijtimoiy munosabatlar, axloqiy tartiblar, urf-odat va an'analar o'rnini bosishi mumkin deb hisoblash noto'g'ri, inson va jamiyat hayotini to'g'ri anglamaslikdir. Huquqiy davlat hali mavjud an'analarni, faoliyat turlari va turmush tarzini huquq bilan almashtirishni anglatmaydi. Huquq qanchalik ijtimoiy siyosiy taraqqiyot uchun qanchalik zarur bo'lmasin, u etnomadaniy an'analarni, milliy turmush tarzi bilan bog'liq urf-odatlarning regulyativ rolini bosolmaydi. Ijtimoiy davlatning huquqqa e'tibor berishi, ba'zi adabiyotlarda qilinganidek, uning huquqiy davlat deb atalishi etnomadaniy an'analar va tajribalarni huquq bilan almashtirishga olib kelmaydi. Huquq har doim,

⁸ Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО “Юридический центр Пресс”, 2012; Верховенство права и правовое государство: проблемы теории и практики. Материалы X Международной научно теоретической конференции (13–16 апреля 2015 г.) – Москва: РГУП, 2016; Шарифходжаев М. Ўзбекистонда очик фукаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарк, 2012.

bizning fikrimizcha, ijtimoiy-siyosiy boshqarishning bir vositasi, mexanizmi bo‘lib qolaveradi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlatni “ideal davlat” tarzida qarash ham uchraydi. Aslida bu retroperspektiv, ya’ni tarixiy tajribani kelajakka proyeksiya qilishga intilishdir. Shuning uchun ham davlatshunos va siyosatshunoslar Platonning ideal davlat g‘oyasiga murojaat qilishadi, undan o‘zlarining falsafiy–huquqiy va siyosiy maqsadlariga asos qidirishadi⁹.

Haqiqatan ham, falsafada, umuman, ijtimoiy-siyosiy tafakkur olamida ilk bor Platon ideal davlat haqida fikr yuritgan. Bu davlat tepasida faylasufni ko‘rishni istagan. Bu bilan u K.Popper fikriga ko‘ra, o‘zini davlat tepasida bo‘lishiga ishora qilgan bo‘lishi mumkin¹⁰. Biroq u ideal davlatni ezgu niyatli, sof fikrlovchi, bilimli, poeziyani va adolatni sevuvchi, ijtimoiy manfaatlarni o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yuvchi arbob boshqarishi haqida, ba’zan gipotetik xususiyatga ega fikrlarni bildirgan¹¹.

Ideal davlat, ideal jamiyat haqida Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Ibn Rushd kabi Sharq allomalari ham betakror fikrlarni bildirishgan¹². Biroq ideal davlat haqidagi qarashlarda irratsional xususiyatga ega fikrlar ko‘p, ijtimoiy davlat g‘oyasi esa ko‘proq ratsional yondashuv tarafdoridir. Ijtimoiy davlat insonning yon-atrofni o‘zgartira olish va boshqarish ishlarini obyektiv ehtiyojlarga muvofiq qurish imkoniyatini nazarda tutadi. Ijtimoiy birlikka, inson va jamiyatlarga xos bu imkoniyatlar davlat boshqarishida ratsionalga tayanish zarurligini bildiradi.

Demokratik davlatda ham ma’lum bir irratsionallik, ideal davlatdagidek yondashuv mavjud. Yigirma yetti asrdan beri faylasuflar demokratiya va demokratik davlat haqida fikrlar yuritib kelayotgan bo‘lsa-da, u hamon utopiya, amalga oshmas tilak, orzu bo‘lib qolmoqda. Amalga oshmas narsani istash, orzu qilishda irratsionallik mavjud. To‘g‘ri, g‘arb tadqiqotchilari demokratiya va demokratik davlatning ko‘p qirralari va xususiyatlarini ochib berishgan, har bir ijtimoiy-siyosiy voqeylikdan demokratiyaga oid elementlarni topishga intilishadi. Ammo bunday

⁹ Аристов Е.В. Социальное государство: исторический аспект. Монография. – Москва: IUNITI DANA, 2021; Кричинский П.Е., Морозова О.С. Основы социального государства. Учебное пособие. – Москва: Инфра М., 2017.

¹⁰ Поппер К. Открытое общество и его враги. Том 1. – Москва: Культурная инициатива, 1990. С.128.

¹¹ Платон. Государство. – Москва: АСТ, 2022.

¹² Игнатенко А.А. В поисках счастья. Общественно–политические воззрения арабо–исламских философов средневековья. – Москва: Мысль, 1989.

irratsional yondashuv real borliqning o'zidan emas, ko'pincha tadqiqotchining xayollaridan unib chiqadi. Bunday metafizik konstruksiyalar, mulohazalar fikrni rivojlantirish uchun muhim, qiziqarli, ammo ular har doim ham real hayotni takomillashtirishga olib kelavermaydi.

Masalan, Suqrot, Platon va Aristotelning "yetuk davlat" va "yetuk jamiyat", Polibiyning "aralash davlat boshqaruvi", F.Bekonning "bilimli davlat", Tomas Morning "ideal boshqarish", Sen Simonning "farovon davlat" va "farovon hayot", A.Blajenniyning "ilohiy davlat", N.Makiavellining "adolatli idora", Jan Jak Russoning "ijtimoiy shartnoma", K.Marks va F.Engelsning "proletar davlati" va "kommunistik jamiyat", zamonaviy "davlatchilikning postmodern shakli" kabilarda ayrim ratsional jihatlar mavjud bo'lsa-da, ulardagi utopiyaning ko'rmaslik mumkin emas. Insoniyat hayotida ularning birortasi ham o'zining ko'rinishini topmagan, har bir davlat shaklida tadqiqotchilarning real borliqdan yiroq nazariy konstruksiyalari mujassamdir. Shunday ekan, ular falsafiy-huquqiy ta'limotlar ichidan joy olishini rad qilmaslik, balki ulardagi ratsional jihatlarni olish, zamonaviy yondashuvlar bilan boyitib foydalanish zarur bo'ldi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasida ana shunday yondashuvga imkon bor. Demokratiyani ideal bilish ijtimoiy davlat konsepsiyasiga zid kelmaydi, chunki demokratiyasiz ijtimoiy davlat bo'lishi amri maholdir. Ijtimoiy davlat modelida rivojlanayotgan ilg'or Yevropa davlatlari, avvalo, o'zini demokratik tamoyillarga sodiq siyosiy institut deb bilishadi va barcha yutuqlarini demokratiya talablariga, tamoyillariga muvofiq baholashadi. Biroq, ming afsuski, bu siyosiy jarayonlar silliq kechayotgani yo'q. Yevropa va AQShda XX asrning 70-yillari oxirlariga kelib ijtimoiy davlat g'oyasi inqirozga uchray boshlaydi. AQShda "kuchli davlat" rolini oshirishga va Reygan hukumatining siyosiy va iqtisodiy boshqarishni mutlaq o'z qo'liga olishga qaratilgan ijtimoiy siyosati, ya'ni "reyganomika" mamlakatdagi ijtimoiy himoya mexanizmlarini deyarli yo'qqa chiqardi. Aholini ijtimoiy himoya qilish o'rniga uni o'zini o'zi boqish va o'zini o'zi boshqarish ishlariga jalb etish amalga oshirildi. O'sha paytlarda AQSh tadqiqotchilari davlatning aholini ijtimoiy himoyalashdan cheklanishini tanqid qilishgan, ammo Reygan hukumati, unga ergashgan Buyuk Britaniyadagi Tetcher hukumati ham, neoliberal demokratiya

bayrog‘i ostida tabaqalanish, “kim qancha boyisa boyisin” degan pozitsiyani qo‘llab-quvvatladi. Reygonomika ham, tetcherizm ham davlatni xalq ommasiga xizmat qilishdan yiroqlashtirdi, bu esa ijtimoiy davlat konsepsiyasiga katta salbiy ta‘sir etdi. 2013—yili Niderlandiya qiroli V.Aleksandr esa “farovonlik davlati” tugatilganini, uning o‘rniga “barchaning ijtimoiy ishtiroki”ga, ya‘ni davlat sarf-xarajatlarini xalqning, aholining ustiga yuklash, shu tariqa barchaning davlat ishlarida ishtirokiga erishish konsepsiyasini ilgari surdi. Bu yevropada ijtimoiy davlat g‘oyasining tanazzuli edi¹³.

“Insonparvar davlat” g‘oyasi gumanistik qarashlar va an‘analarning siyosiy borliqdagi ifodasidir. XVI–XVIII asrlardagi gumanistik qarashlar siyosiy jarayonlarga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Gumanistlarning inson va uning axloqi, aqli, ijodiy kuchlari, ma‘rifati, o‘zini-o‘zi oliyjanob qilish imkoniyatlari haqidagi fikrlari “insonparvar davlat” g‘oyasining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Petrarka, Bokkacho, Lorenzo Valla, Piko della Mirandola, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo asarlarida insonga bo‘lgan ishonch, uning axloqiy fazilatlarini kuylash, ijtimoiy hayotni gumanistik tamoyillarga qurish masalalari yana kun tartibiga qo‘yildi. Sxolastika o‘rniga ratsional fikrlashga, inson aql-u irodasini harakatga keltirishga e‘tibor qaratildi. Ijtimoiy borliq, shu jumladan, davlat ishlari ham, inson manfaatlaridan tashqarida bo‘lmasligi zarur, degan falsafiy konsepsiya uchun nazariy asos yaratildi.

“Insonparvar davlat” degan atamasini kim ilmiy iste‘molga kiritgani ma‘lum emas, biroq siyosiy ta‘limotlar tarixida, falsafiy–huquqiy izlanishlarda davlat boshqaruvini gumanistik tamoyillarga muvofiq tashkil etish g‘oyasi Suqrotning “axloqiy shaxs”, Platonning “adolatli hayot” fikrlariga borib taqalishi uqtirib kelinadi. N.Makiavellining davlat konsepsiyasida insonparvar davlat yo‘q, biroq u, o‘z davrining gumanistik qarashlariga tayangan holda, inson va davlat munosabatlarini tahlil qilgan. Siyosiy falsafada esa Gegelning davlatni umumiy maqsadlarga xizmat qiluvchi institut sifatida qaralishi, unda inson huquqlari o‘z ifodasini topishi zarurligi, I.Kantning esa axloqiy imperativining sotsial borliqqa ta‘siri haqidagi fikrlar keltiriladi¹⁴. Agar I.Kantning axloqiy imperatividan

¹³ ru.m. wikipedia. org.

¹⁴ Қаранг: Гриценко Н.Н., Волгин Н.А., Попов Ю.Н., Шарков Ф.И., Шулус А.А. Основы социального государства. Учебник. – Москва: Изд. дом АТиСО, 2016. С.24.

kelib chiqsak, “insonparvar davlat” g‘oyasini Kant falsafasidan keltirib chiqarish mumkin.

Ijtimoiy davlatda jamiyat manfaatlari ustuvor ahamiyatga ega, ammo bu uning insonparvarlik xususiyatini inkor qilmaydi. Umumijtimoiy manfaatlar bilan inson manfaatlari uyg‘unlashib, davlatning gumanistik mohiyatini oshiradi. Aslida ijtimoiy davlatning funksiyalaridan hisoblanadigan adolat, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy himoya mohiyatan insonparvarlik ifodasidir. Shuning uchun ijtimoiy davlatning insonparvarligi umumijtimoiy manfaatlarining inson manfaatlari bilan uyg‘unlashuvida aks etadi.

“Axloqiy davlat” inson xatti–harakatlarini va jamiyatdagi ustuvor qadriyatlarni qanday xususiyatga ega ekaniga qarab ishlatiladigan tushunchadir. Axloq va axloqiy qadriyatlar insoniyat tomonidan yaratilgan va ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlab kelayotgan, davlat boshqaruvini ham yuksak axloqiy tamoyillarga muvofiq yo‘lga qo‘yadigan, sotsiosubstansional ahamiyatga ega voqeyliklar hisoblanadi. Faqat axloqning o‘zi emas, uning ijtimoiyligi, jamiyat hayoti, keng munosabatlar, turmush tarzi, oila bilan bog‘liq tarzda inson va jamiyatni integratsiyalashuvini ta’minlaydigan jihatlari muhimdir. Axloq “o‘z– o‘zi uchun” bo‘lolmaydi, u mudom kim uchun, nima uchundir. Aynan ushbu jihati tufayli axloq davlat boshqaruvining atributiga, siyosiy faoliyatning ma’nosiga aylanadi¹⁵. “Axloqiy davlat”ning boshqarish funksiyalari axloq talablari va normalariga muvofiq bo‘ladi, unda barcha qonunlar, huquq mexanizmlari axloqni e’zozlashga, undagi oliyjanob normalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Axloq davlat o‘rnini egallamaydi yoki siyosiy institutlar faqat axloqni targ‘ib etish bilangina shug‘ullanmaydi, ammo barcha boshqaruv faoliyati axloqiy normalarga, talablarga quriladi.

Sof axloqiy davlat yo‘q, axloqiylikka tayanish ijtimoiy davlatlar amal qiladigan tamoyildir. Axloqning sotsiosubstansional mohiyati uning jamiyat hayoti talablaridan kelib chiqqanida, ijtimoiy normalar tarzida kishilar hayotiga, tasavvurlari va turmush tarziga ta’sir etib kelayotganidadir. Ijtimoiy davlat o‘z funksiyalarini axloqiy normalarga tayanib bajarishi uchun undagi boshqaruv ishlari ham axloqiy voqeyliklar bo‘lishi shart. Buni davlat boshqaruvi axloqning o‘zi bo‘lishi zarur, degan

¹⁵ Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ. – Тошкент: Фан, 1999. 23–26 б; Отамуродов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафси. Дарслик–Тошкент:ILM–ZIYO–ZAKOVAT, 2025.479–484б.

ma'noda tushunmaslik kerak. Axloq, u qanchalik kuchli va e'zozlanadigan bo'lmasin, davlat instituti o'rnini bosolmaydi, ular falsafiy–huquqiy mohiyatiga ko'ra, kosubstansional voqeyliklardir. Hech bir davlat va hech bir jamiyat axloqiy qadriyatlarga tayanmay, undagi oliyjanob fazilatlardan o'ziga ideal izlamay rivojlanmaydi. Ba'zan ilmiy adabiyotlarda qaysi muhim huquqmi yoki axloq, davlat boshqaruvimi yoki axloqiy imperativ, degan savollar uchraydi. Bizning fikrimizcha, ularni antogonistlar sifatida talqin qilmaslik kerak, ular mohiyatan kosubstansional voqeyliklar hisoblansa-da, bir-birini taqozo etib, bir-birini to'ldirib keladi. Ulardagi ushbu integratsion jihat davlat institutini mustahkamlash, boshqarishni samarali amalga oshirish, pirovard natijada jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir. Biz boshqarish va axloqning u yoki bu ko'rinishlarini yoqtirmasligimiz mumkin, biroq ularning ikkalasi ham biz uchun muhimdir. "Axloqiy davlat" ideal, sof axloqiy davlat uchramaydi. Shunday ekan, ijtimoiy davlatdagi axloqiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlash, unda ushbu ideal namunalari ko'proq bo'lishini ta'minlash ezgu ishlarimiz bo'lishi darkor.

Ilmiy adabiyotlarda "farovonlik davlati" degan tushuncha ishlatiladi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasini ilgari suruvchi tadqiqotchilar ijtimoiy davlatning asosiy funksiyalaridan biri barcha uchun zarur farovonlikni ta'minlash, deb ko'rsatishadi. Buning uchun ular jamiyat boyliklarini ayrim guruhlar qo'lida to'planib qolmasligiga yo'l qo'ymaslik, ular jamiyat a'zolari o'rtasida ma'lum bir ijtimoiy tartiblarda taqsimlanishi zarur, deb hisoblashadi¹⁶. Moddiy ne'matlarning teng taqsimlanishi ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi, jamiyatdagi antogonistik kurashga o'rin qoldirmaydi, shu tarzda ijtimoiy adolat tamoyili o'rnatiladi. Shunga yaqin fikrlarni biz Platon, Monteske, J.J.Russo, Marks, E.Fromm asarlarida ham uchratamiz.

Ijtimoiy tenglik orqali jamiyatda farovon hayotni ta'minlash jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb, bahsli mavzulari bo'lib keladi. Farovonlik faqat iqtisodiy voqeylik emas, u ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, sinflarni paydo qiladi, boshqarish mexanizmlarini manfaatlarga yo'naltirishni keltirib chiqaradi. Farovonlik davlatining ayrim jihatlari G'arb davlatlarida, masalan, Shvetsariyada uchraydi. Ammo bu

¹⁶Каранг: Кричинский П.Е., Морозова О.С. Основы социального государства. Учебное пособие. – Москва: Инфра. М., 2017. С. 57–59.

Shvetsariya ham mutlaq farovon, unda hech qanday ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqiy muammolar yo‘q degani emas. Demak, “farovonlik davlati”, xuddi Platonning ideal davlati kabi, orzudir. Orzuga esa ayb yo‘q, deyishadi. Insoniyat ham ijtimoiy davlatda farovonlik timsolini ko‘rayotgan, undan ushbu maqsadga yetishni talab qilayotgan bo‘lsa, orzuni qoralash mumkin emas. Biroq ilm-fan orzularga emas, obyektiv borliqni takomillashtirish talablariga xizmat qilishni yoqtiradi, agar orzu real natijalarga olib kelsa, ilm-fan uni qo‘llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy farovonlikka erishish insoniyat fikrini egallab keladi, kishilar qiladigan xizmatlar, mehnat pirovard natijada farovonlikni ta‘minlashi kerak.

Bugun ijtimoiy farovonlikning turli parametrlari va o‘lchovlari ishlab chiqilgan, demak, farovonlik o‘zining real ko‘rsatkichlariga ega. Bu o‘rinda ko‘pincha moddiy ne‘matlarning ishlab chiqilishi va iste‘mol qilinishi, daromad va maoshlar, ijtimoiy ta‘minot mexanizmlari va ularning kishilar hayotida aks etishi, madaniy xizmatlar, aholining o‘z turmushidan mamnunligi kabilar nazarga olinadi. Agar ushbu ko‘rsatkichlarga, indekslarga erishilsa, har qanday davlat shaklini “farovon davlat” deb atash mumkin. Ammo ijtimoiy davlatning sotsiosubstansional xususiyati insonning mehnati natijasini farovon yashashida ko‘rishga intilish maqsadini ifoda etishidadir.

Siyosiy va falsafiy-huquqiy adabiyotlarda “ijtimoiy federativ davlat” tushunchasi, uning ijtimoiy davlat bilan yaqinligi masalalari tahlil qilinadi. Umuman federativ davlat g‘oyasi I.Altuzius, A. Leypxart “federativ doktrinasi”ga borib taqaladi¹⁷. Bugun dunyoda 22 ta ijtimoiy federativ davlat mavjud, ularga Rossiya, AQSh, Kanada, Braziliya, Germaniya, Hindiston, Avstraliya, Meksika, Argentina, Pokiston, Shveytsariya, Shvetsiya, Belgiya kabilar kiradi. Ularda davlat boshqaruvi ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirilgani, davlat siyosati esa barcha uchun teng sharoitlar yaratib berayotgani bilan ajralib turadi. To‘g‘ri, ularning barchasi ham ijtimoiy taraqqiyotning bir pog‘onasida turmaydi, ammo ijtimoiy davlatga xos bo‘lgan ayrim jihatlarni o‘zida aks ettiradi.

Sotsialistik davlat g‘oyasini K.Marks va F.Engels nomi bilan bog‘lashadi. U davlat shakli ko‘p jihatlari bilan zamonaviy ijtimoiy

¹⁷ Қаранг: Гриценко Н.Н., Волгин Н.А., Охотский Е.В., Ппов Ю.Н., Шарков Ф.И. Основы социального государства. Учебник. 2 изд. – Москва: Изд. корпорация “Дашков и К”, 2019. С.35 – 36; Бочарев М.П. От социальных ценностей к социальному государству. – Москва: Луч, 1997 С.125 – 128.

davlatni eslatadi. Ijtimoiy tenglik, ijtimoiy mulk, ijtimoiy himoya kabi sohalarda XX asrda ro'y bergan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sotsialistik davlat g'oyasi bilan bevosita bog'liqdir. O'g'il va qiz bolalarning birga ta'lim olishi, maktab ta'limini bepul qilish, sakkiz soatlik ish kuni o'rnatish, kasal bo'lganda tibbiy yordam olish, kishini kishi ekspluatatsiya qilmasligi, xotin-qizlar diskriminatsiyasini tugatish, sinflarning bo'lmasligi kabi g'oyalar (bugun ular odatiy hol ko'rinadi, XIX asr oxirlarida ular inqilobiy g'oyalar edi) marksizm tufayli keng tarqaldi. Lekin marksizm barcha vazifalarni proletar davlati zimmasiga yukladi, u insonning xususiy mulkka intilishini, erkin mehnati orqali moddiy boylik orttirishi, farovon yashashi mumkinligini hisobga olmadi. Natijada davlat rolini mutlaqlashtirishga imkon berdi.

1.2. Ijtimoiy davlat modellari va ularning falsafiy-huquqiy tahlili

Ijtimoiy davlatning oldingi paragrafda tadqiq qilgan sotsiosubstansional xususiyatlari ijtimoiy davlat modellarini ham o'rganishga undaydi. Mavjud modellar yaratilajak ijtimoiy davlatning ko'rinishlari, ulardagi ijobiy va salbiy jihatlar, foydalanilishi yoki tadbqiq etilishi mumkin bo'lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, xorijiy tajribalarni o'rganish muammoga aniq yechimlar topish uchun zarurdir.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi XIX asrda paydo bo'lgan. O'sha paytda ijtimoiy davlat deganda barchaning, turli sinflarga taalluqli bo'lgan o'zini o'zi belgilovchi shaxslarning o'z hokimiyati orqali mutlaq tengligini ta'minlaydigan institut tushunilgan. Bunday davlat fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti haqida qayg'uradi, “bir kishi hamma uchun hamma bir kishi uchun” degan tamoyilga amal qiladi. U ijtimoiy tenglikni shaxs erkinligi bilan uyg'unlashtirib ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydi¹⁸. Mazkur ta'rif keyinchalik u yoki bu ko'rinishda boshqa ta'limotlarda ham uchraydi. Lekin u ijtimoiy davlatning barcha qirralarini qamrab olgan emas, “ijtimoiy davlat” haqidagi tasavvurlarning o'zi ham hali shakllanmagan edi.

Bugun o'zbek davlatchiligi yangi bir siyosiy institutga ro'para kelmoqda. U prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ilgari surayotgan “ijtimoiy davlat”dir.

¹⁸ ru.m. wikipedia. org.

Keyingi o'n yil ichida jamiyatimiz va davlatimiz hayotida ro'y bergan paradigmalar o'zgarishlar, ayniqsa, davlat institutlarini xalqqa xizmat qilish tomon yo'naltirilgani, inson manfaatlarini ko'zlab uning huquq va erkinliklarini ta'minlanayotgani davlatimizning sotsial mohiyatini qayta anglashga, uning yangi reallik nuqtayi nazaridan ijtimoiy funksiyalarini aniqlashtirilga undamoqda. Shu maqsad "ijtimoiy davlat" tushunasi nima, bu haqda siyosiy va falsafiy-huquqiy ta'limotlar nima deydi? Biz qaytadan velisoped ixtiro qilayotganimiz yo'qmi? O'zbek davlatchiligida ijtimoiy davlat instituti uchraydimi, degan savollarga javob izlashimiz kerak.

Davlat, o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy, siyosiy, madaniy va tashkiliy institutdir. Ijtimoiylik davlatning atributi, uning barcha faoliyati va funksiyalarini jamiyat manfaatlariga yo'naltirilganini ifodalovchi belgisidir. Hatto absolyut monarxiya va o'rta despotik davlat ham "o'zi o'zi uchun" mavjud bo'lmaydi, ular ham ma'lum bir qatlam, guruh va kishilarning manfaatlarini himoya qiladi, mavjud kuch va imkoniyatlarini ana shu tor doiraning siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratadi. Davlatchilik tarixida sof, "o'zi o'zi uchun" mavjud davlat uchramaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy bo'lish davlatning atributi, uning substansional asosi va mavjudlik shartidir.

Ilmiy adabiyotlarda "ijtimoiy davlat" atamasini 1850– yilda nemis davlatshunosi va iqtisodchi Lorens fon Shteyn kiritgan¹⁹. Uning ta'rifiga ko'ra, "ijtimoiy davlat o'zi fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qilish shart bo'lgan, pirovard natijada, bir kishining taraqqiyoti qolgan kishilar taraqqiyotining sharti bo'lgan sharoitlarni yaratib beradigan davlatdir. Barcha ijtimoiy sinflarning, xususiylariga ega shaxslarning o'z hokimiyati orqali mutlaq tengligini ta'minlashga qaratilgan davlatdir"²⁰. Bu ta'rifda I.Kant, Gegel, hatto K.Marksning ta'siri borligi ko'zga tashlanadi. Biroq Shteyn ta'rifida Marksdagidek "ekspluatatorlarni ekspropriatsiya qilish" emas, balki davlatni turli aholi qatlamlari o'rtasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash vazifasi davlat ustiga yuklatilgan. To'g'risini aytganda, bu subyektiv g'oya, uni real voqeylikka qanday tadbiq etish mumkinligi,

¹⁹ Каранг: Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетея, 2019, С.4.

²⁰ Каранг: Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетея, 2019, С.4.

ayniqsa, kapitalistik munosabatlar avj olgan XIX asrdagi Yevropada, qanday amalga oshirish mumkinligi haqidagi tasavvurlar mavhum qolgan. Boylik va mulk orttirishga o'ch kapitalistlarni subyektiv fikr orqali jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglik o'rnatishga erishib bo'larmidi? Antagonistik ziddiyatlarni nahotki, Shteyn ko'rmagan bo'lsa?

Ijtimoiy davlat g'oyasi va tajribasini o'rgangan olimlar Germaniya 1871– yili baxtsiz hodisalarga oid ijtimoiy sug'urta, 1880-yili tibbiy sug'urta, 1883-yili kasallik paytida moddiy yordam olish, Avstriya 1887, Fransiya 1898, Norvegiya 1894, Shvetsiya 1901-yili baxtsiz hodisalarga qarshi sug'urta tizimini joriy etishganini keltirishadi²¹. Mazkur yon bosishlarni ixtiyoriy tarzda, hukmron burjuaziyaning tashabbusi bilan amalga oshirilganiga ishonish qiyin. Sinfiy kurashlar avj olgan XIX–XX asrlardagi Yevropa ko'p jihatdan K.Marksning haqligini ko'rsatgan. Burjua davlatlarining ijtimoiylashish tomoniga yon bosishi, bizning fikrimizcha, ana shu antagonistik kurashlarning mahsuli edi. To'g'ri, ijtimoiy davlat nazariyasi tarafdorlari muammoning ushbu siyosiy asosini aytmaslikka intiladilar.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasini ayrim belgilari, yuqoridagi tadqiqotchilarni fikricha, AQShda ham tarqaladi. 1930-yillardagi "buyuk depressiya" paytida D.Ruzvelt hukumati pastqatlamga mansub aholini ijtimoiy himoya qilishga oid choralar ko'radi. 1964-yili esa L.Jonson Great Society dasturiga muvofiq "Amerikada kambag'allikka qarshi beayov kurash" e'lon qiladi. Buyuk Britaniyada esa 1942-yili "farovonlik davlati" haqida gapirila boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa davlatlarida sotsial demokratlarning davlat tepasiga kelishi (masalan, Fransiya kommunistlarning) ta'sirida tibbiyot, transport, energetika, og'ir sanoat sohalari natsionalizatsiyalashtiriladi va ularda turli sug'urtalash, ijtimoiy himoyalash tizimlari shakllantiriladi²².

SSSRdagi totalitar boshqarish Z.Bzejinskiy, A.fon Xayek, K.Popper, E.Fromm, J.Soros, P.Krugman, K.Arendt, R.Aron asarlarida tanqidga uchragach, undagi keng ommaga qaratilgan ijtimoiy himoya

²¹ Қаранг: Гартман Н. Познание в свете онтологии//Западная философия. Итоги тысячелетия. – Екатеринбург: Бишкек: Илим, 1997. С.469–470.

²² Қаранг: Новая философская энциклопедия. В 4 томах. 2 е изд. – Москва: Мислы, 2010; [https // cfs. hse. ru social-disc-O.C.47-51](https://cfs.hse.ru/social-disc-O.C.47-51)

tizimi ham g‘ayritaraqqiy voqeylik, stalinizm barpo etgan g‘ayriinsoniy institut sifatida rad qilinadi. “1970–1980-yillardagi reygonomika va tetcherizm ta’sirida ijtimoiy davlat g‘oyasi inqirozga uchray boshladi”²³.

XX asrning oxirlaridan boshlab, ayniqsa, SSSR o‘rnida paydo bo‘lgan milliy davlatlarda aksariyat aholining qashshoqlashuvi ta’sirida BMT va boshqa nufuzli Xalqaro tashkilotlar davlatlarni aholini ish bilan band etish, diskriminatsiya va korrupsiyani bartaraf etish, qashshoqlikni tugatishga oid qator hujjatlarni qabul qilib, milliy davlatlarni ushbu hujjatlardagi vazifalar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga undadi. Har yili davlatlarning qashshoqlikni, korrupsiya va dikriminatsiyani tugatish, demokratik rivojlanish, urbanizatsiya va farovonlik ko‘rsatkichlari, reytinglari e’lon qilinadigan bo‘ldi. Mazkur reytinglarga muvofiq bugun ijtimoiy davlatlar qatoriga “shved modeli” ni qo‘llayotgan Skandinaviya davlatlari, Finlyandiya, Niderlandiya, Kanada, Shveytsariya, Germaniya, Belgiya ba’zan esa Angliya, Fransiya, Avstriya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Yaponiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Estoniya, Litva, Latviya, Fors ko‘rfazidagi davlatlar, Liviya kabilar kiritilmoqda. Rossiya esa o‘zini 1993–yili, Konstitutsiyasining 1- bobi rasmiy tarzda “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilgan.

Mavjud falsafiy-huquqiy va siyosiy adabiyotlar (ular barmoq bilan sanarli)ni o‘rganish ko‘rsatadiki, bugun “ijtimoiy davlat” tushunchasi haqida turli, goho ziddiyatli qarashlar mavjud. Ularni quyidagi yo‘nalishlariga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Ijtimoiy davlat – aholi qatlamlari o‘rtasida teng taqsimotni, barcha uchun taalluqli adolatni qaror toptirishni nazarda tutadigan davlat. Bu modellari davlat e’tiborini jamiyatning boy va badavlat qatlamlarga bo‘linib, sinflashib ketmasligini istaydi. Antagonistik sinflar mavjud ekan, jamiyatda ittifoqni, birdamlik va ijtimoiy birlikni ta’minlash qiyin. Tarix guvohki, jamiyatdagi kurashlar, revolyutsiyalar va davlat to‘ntarishlari ana shunday antagonistik ziddiyatlar tufayli yuzaga kelgan. Jamiyat taraqqiyotini istagan har bir davlat ijtimoiy tenglik va adolat g‘oyalarini qattiq turib himoya qilishi lozim.

²³ Гартман Н. Познание в свете онтологии//Западная философия. Итоги тысячелетия. – Екатеринбург: Бишкек: Илим, 1997. С.469–470.

2. Ijtimoiy davlat demokratik–huquqiy taraqqiyotni nazarda tutuvchi, barcha sohalarda demokratiya va huquq tartiblarini qaror toptirishni bosh vazifasi deb biluvchi davlat. Ijtimoiy tenglik va adolatni qonunlarsiz o‘rnatib bo‘lmaydi. Demokratiya va huquq uyg‘undir, ular uyg‘unligi jamiyatda ijtimoiy birlikni shakllantiradi. Shuning uchun Prezidentimiz nazarda tutayotgan ijtimoiy davlat mustaqillik yillaridagi demokratik-huquqiy tajribalarni rad etmaydi, balki ularni yangi reallikka muvofiq rivojlantiradi. Xuddi shuningdek, mustaqillik yillarida o‘zbek davlatchiligi, demokratik-huquqiy davlat qurishning ilmiy asoslarini o‘rganish borasida e‘tiborli izlanishlar amalga oshirilgan. Ulardagi ilmiy-kratologik umumlashma va xulosalar²⁴ milliy ijtimoiy davlat uchun zarur nazariy manbalar bo‘lishi mumkinligini unutmasligimiz kerak.

3. Fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy-madaniy faolligini uyushtirishga, qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati institutlari uchun zarur barcha shart-sharoitlarni yaratib berish ijtimoiy davlatning funksiyalari bo‘lib qoladi. Bunday institutlarsiz jamiyatda demokratik qadriyatlarni shakllantirish, aholi va kishilar tashabbusiga tayanish mumkin emas. Bugun Prezidentimiz markaziy organlarining ayrim funksiyalarini hududiy boshqaruv organlariga berish, mahallaning ijtimoiy rolini oshirish kabi vazifalarni kun tartibiga qo‘yayotganida ijtimoiy davlat fuqarolik jamiyati institutlariga tayanmay shakllana olmaydi. Sh.M.Mirziyoyev ilgari surayotgan hududlarni kompleks rivojlantirish konsepsiyasi joylarda ijtimoiy davlatni qaror toptirish kafolati hamdir.

4. Ijtimoiy davlatni barpo etishning bosh omili kuchli iqtisodiyotdir. Chet ellardagi ijtimoiy davlatlarning tajribasi ko‘rsatadiki, kuchli iqtisodiyot, tadbirkorlik va biznes, erkin iqtisodiy zonalar, agrokomplekslar, zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimi, xalqlar iqtisodiy aloqalar, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi moddiy farovonligini ta‘minlash ijtimoiy davlatga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlamay aholi turmushini farovonlashtirish, uning davlatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalardagi islohotlarini qo‘llab-quvvatlashishiga erishish qiyin.

²⁴Артхашастра или наука политики. – Москва: Изд. АН СССР, 1959. С.6–32.

Kambag'allikni tugatish, mehnatkash layoqatli kishilarni ish bilan ta'milash, yoshlarni zarur larga tayyorlash ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

5. Ijtimoiy davlat ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat olib boruvchi davlatdir. Tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish ba'zan ayrim biznesmen, tadbirkor va ishbilarmonlar foydasiga ham xizmat qilishi mumkin. Tadbirkorlik nazariyasining asoschilaridan biri Y.Shumpeterning fikriga ko'ra, tadbirkor mulk orttirish, hatto mavqe topish uchun kurashadigan kishidir²⁵. Aynan mulk orttirish niyati tadbirkorni jon kuydirib ishlashga, o'zining egoistik manfaatlari uchun kurashishga undaydi. Demokratik jamiyatda iqtisodiy erkinlik tadbirkorga, mulk egasiga shunday imkoniyatlar beradi. Ijtimoiy davlat tadbirkorning huquqlarini buzmagani tarzda uni topgan mablag'lari bilan yonidagilar, yordamga muhtoj kishilar bilan bo'lishish usulini qo'llaydigan davlatdir.

Yuqoridagi tushuncha va qarashlar ijtimoiy davlatning ma'lum bir modellari borligini tasdiqlaydi, chunki o'zining ichki xususiyatlariga va boshqarish tizimlariga ega bo'lib, ijtimoiy siyosiy borliqdan joy olgan, davlat konstitutsiyalarida e'tirof etilgan siyosiy voqeylik ma'lum bir model bo'lmasligi mumkin emas. Vikipediya da berilishicha, ijtimoiy davlatning: 1) liberal modeli; 2) konservativ modeli; 3) korporativ modeli; 4) sotsial-demokratik modeli kabilari borligi keltiriladi²⁶.

Liberal modeldagi ijtimoiy davlat aholi uchun yuqori sifatli tibbiy, madaniy va kommunal xizmatlar ko'rsatishni, nafaqa ta'minlashni, ta'lim olishi uchun zarur barcha sharoitlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi. U aholini uy-joy va ish bilan band qilishni o'zining ichki siyosatiga aylantiradi. Bunday davlat, ayniqsa, kam ta'minlangan, moddiy yordamga muhtoj, ma'lum bir sabablarga ko'ra ijtimoiy mehnat jarayonlarida qatnashishi qiyin ayrim qatlamlarni o'z himoyasiga oladi. Ularni jamiyat a'zosi sifatida yashashiga ko'maklashadi. Liberal modelda kishilar iqtisodiy hayotda faol qatnashish, istagan mehnat turi bilan shug'ullanish,

²⁵Қаранг: Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО “Юридический центр Пресс”, 2012; Верховенство права и правовое государство: проблемы теории и практики. Материали X Международной научно теоретической конференции (13-16 апреля 2015 г.) – Москва: – РГУП, 2016; Шарифходжав М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2012. С.184–186.

²⁶ Қаранг: spvochnik.ru

xususiy mulk orttirish, huquq va erkinliklari uchun kurashish, ularni ro'yobga chiqarishda davlatning qo'llab-quvvatlashiga tayanish imkoniga ega bo'ladi. Xususiy mulk antogonistik kurashlar boisi bo'lolmaydi, aholi ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashib, farovon va badavlat yashashi mumkin. Jamiyat va davlat boshqarishida qonun ustuvorligi ta'minlangan bo'ladi, kishilar o'z xatti-harakatlarini qonunlar bilan o'lchash, me'yorlash va yo'lga qo'yishni ijtimoiy zaruriyat, norma, talab deb biladilar. Qonunlar ustuvorligi jamiyatda barqarorlik va tinchlikni, o'zaro musobaqani, konsensus muhitida yashashni ta'minlaydi. Liberal modelga AQSh, Kanada, Avstraliya kabi davlatlar kiradi. Mutaxassislarning fikricha, liberal modelning asosiy belgilari:

- davlatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash ustuvordir;
- umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilinadi;
- har bir kishiga munosib turmush tarzi, mavjud ijtimoiy himoya va madaniy boyliklardan bahramand bo'lish kafolatlanadi;
- jamiyatda axloqiy normalarga rioya etish qaror topgan bo'ladi;
- fuqarolik jamiyati institutlari rivojlangan bo'ladi;
- demokratik institutlar va qadriyatlar keng tarqaladi;
- iqtisodiy rivojlanish ta'minlanib, moddiy boyliklardan ratsional, ayniqsa, kam ta'minlangan aholi qatlami hisobga olinib, foydalanish tartibi majud bo'ladi;
- davlat boshqaruvida xalqning vakillik organlari faol ishlaydi²⁷.

Konservativ modeldagi davlat etnosiyosiy an'analar va tajribalarni zamonaviy yondashuvlar va usullar bilan boyitadi, davlat, xususiy sektor, ijtimoiy fondlar va xayr-ehson bilan shug'ullanuvchi uyushmalar hamkorligi, birgalikda ijtimoiy taraqqiyot uchun harakat qilishi ta'minlanadi. Ijtimoiy iqtisodiy hayotda aholining ko'pchiligi yuqori darajadagi turmush tarziga erishadi, ijtimoiy sohalarning samarali ishlashi orqali aholi tasodifiy kataklizmalar va inqirozlardan himoya qilinadi, jamiyatda "oqilona ehtiyoj" tamoyili qaror topib, kishilar o'z istaklari va ehtiyojlarini o'sha "oqilona ehtiyoj" talablariga muvofiq shakllantiradilar. U ayrim shaxslarni manmanlikka, o'z boyligini ko'z-ko'z qilib maqtanishga, kishilar o'rtasida boylik orttirishga o'chlik instinktini avj

²⁷ Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО "Юридический центр Пресс", 2012.

oldirishga yo‘l qo‘ymaydi. Jamiyat kishilar xatti-harakatlarini, o‘zini tutishi va turmush tarzini o‘sha “oqilona ehtiyoj” doirasida idora etadi. Davlat kishilarga o‘zining ijodiy potensialini, kreativ faolligini ro‘yobga chiqarish uchun teng sharoitlar yaratib beradi. Konservativ modelga Angliya, Shotlandiya, Irlandiya va Turkiya kabi davlatlarni kiritish mumkin²⁸.

Konservativ modelda:

- etnosiyosiy tajribalar hisobga olinadi;
- etnomadaniy an‘analarni jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi;
- har bir kishining kreativ faolligini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratiladi;
- ijtimoiy adolat tamoyillari qaror topadi;
- shaxs bilan jamiyat o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik, konsensus ta‘minlanadi.

Korporativ modelda asosan aholining ijtimoiy hayotini talab darajasiga ko‘tarishda xususiy sektorga, korporatsiyalarga urg‘u beriladi. Unda xususiy sektorni ijtimoiy faollashtirish. Ularning imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyoti manfaatlari tomon yo‘naltirish davlat ichki siyosatining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Korporatsiyalar aholini nafaqa bilan ta‘minlash, tibbiy va madaniy xizmatlar ko‘rsatish, ta‘lim olishida ishtirok etish, iqtidorli bolalarga grantlar ajratish, bolalar bog‘chalarini barpo etish va ulardagi personallarga maoshlar berish, yo‘llarni, hovli va uylar atroflarini obodonlashtirish, davlatning ijtimoiy himoya ishlarida qatnashish kabilar bilan shug‘ullanadi. Korporativ modelni Avstriya, Belgiya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya kabi davlatlarda ko‘rish mumkin.

Korporativ modelga xos asosiy belgilar quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlik va korporatsiyalarning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga alohida e‘tibor qaratiladi;
- xususiy mulkka ega korporatsiyalarning imkoniyatlaridan foydalanishning alohida mexanizmlari yaratiladi;
- aholi turmush tarzini oshirish va yaxshilashda korporatsiyalar, xususiy sektor keng ishtirok etadi;

²⁸ Капанг: справочник. ru

– korporativ boshqarish munitsipial boshqarish tizimida, faoliyatida faol qatnashadi.

Sotsial–demokratik model Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Shvetsariya kabi davlatlarda uchraydi. Ushbu model davlatni xalqqa, xalq manfaatlariga xizmat qilishga undaydi. Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qashshoqlikni tugatish, har bir kishining farovon yashashi, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la qondirishi uchun zarur sharoitlar yaratish, iqtisodiy yuksalishda davlatning, bozor iqtisodiyotining emas, rolini oshirish, ijtimoiy masalalarni hal etishda intervensionistik siyosat olib borish sotsial demokratik modeldagi ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir.

Sotsial-demokratik modelning asosiy belgilariga:

– ijtimoiy adolatni ta'minlash; davlat institutlarini halqqa xizmat qildirish;

– iqtisodiy boyliklarni xalq o'rtasida taqsimlanishiga erishish;

– ayrim kishilarning haddan tashqari boyib ketmasligi uchun ular mulklariga oshib boruvchi soliqlar o'rnatish;

– ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish;

– tibbiy va madaniy xizmatlar saviyasini oshirish;

– uy-joy masalalarini hal etishning samarali va aholiga qulay usullarini izlash;

– bolalarni o'qitishda davlat standartlariga va ta'minotiga tayanish kabilar kiradi.

Mazkur model ijtimoiy taraqqiyot uchun davlatni mas'ul qilib qo'yadi. Ilmiy adabiyotlarda yuqoridagilardan tashqari milliylashtirilgan falsafiy-huquqiy modellar ham tilga olinadi. "AQSh sotsial davlat modeli", "Isroil sotsial davlat modeli", "Shvetsiya ijtimoiy davlat modeli", "nemis ijtimoiy davlat modeli", "xitoy ijtimoiy davlat modeli", "yapon ijtimoiy davlat modeli" kabilar shular jumalasidandir. Bu modellarning ichki xususiyatlari haqida, yetarli bo'lmasa-da, ba'zi falsafiy-huquqiy fikrlar bildiriladi, ularning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatiladi. Ularni tahlil qilish bizning maqsadimizga kirmaydi. Biroq ulardagi asosiy falsafiy–huquqiy g'oyani, konsepsiyani e'tirof etib o'tishimiz kerak. Bu vazifa kelgusi paragraflarda, mavzular doirasida tilga olinadi. Shu o'rinda ba'zi bir fikrlarni aytib o'tishimiz darkor.

Birinchidan, yuqoridagi modellar ko‘proq gipotetik xususiyatga ega nazariy konstruksiyalardir. Har qanday nazariy model, konstruksiya cheklangan, ular obyektning barcha qirralarini qamrab ololmaydi. Nazariy modelda tadqiqotchining cheklangan qarashi, fikrlari va kelajakni ko‘ra olish imkoni o‘z aksini topadi. Shuning uchun yuqoridagi modellardan to‘la obyektivlikni, ayniqsa, obyekt bilan aynan bo‘lishini talab qilish mumkin emas.

Ikkinchidan, yuqoridagi modellar insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida, bosqichlarida va ma‘lum bir ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllangan davralarda yaratilgan. Ijtimoiy davlat haqidagi qarashlar ijtimoiy taraqqiyot bilan birga o‘zgarishi, transformatsiyaga uchrashi tabiiy holdir. Masalan, o‘tgan asrda yaratilgan nazariy modellar bugungi ijtimoiy taraqqiyotga to‘la to‘g‘ri kelmaydi, davr va ilmiy tafakkurdagi o‘zgarishlar muammoga boshqacha yondashishni talab qiladi. Demokratiya, liberal g‘oyalar, siyosiy qarashlar va davlatchilik nazariyasi o‘tgan asrdagi tajribalardan keskin farq qiladi, shuning uchun o‘tgan davrdagi ijtimoiy davlat modellarini (ta‘riflar, tushunchalar va kelajagi haqidagi fikrlar) bugunga, ayniqsa, kelajakka to‘g‘ridan to‘g‘ri interpolyatsiya qilish mumkin emas. Ha, xorijiy davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, ilmiy-texnik kashfiyotlardan foydalanish tajribasiga havas qilish mumkin, ammo bu ulardagi ijtimoiy davlat modelini milliy tajribalar va xususiyatlarni, etnosiyosiy jarayonlar va ma‘naviy axloqiy tartiblarni, mentalitetni hisobga olmay to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy zaminga ko‘chirishni anglatmaydi. Hatto umuminsoniy qadriyat sifatida e‘zozlanayotgan demokratiya, inson huquq va erkinliklari ham milliy zaminda darrov, osonlikcha o‘z ifodasini topavermaydi, bu o‘rinda ichki (etnosiyosiy, etnomadaniy va etnopsixologik omillar) omillarni hisobga olish zarur bo‘ladi. G‘arbona modellarni interventiv tarzda milliy davlat tajribasiga kiritish milliy davlatning zaifligi belgisidir, kuchli milliy davlat o‘z manfaatlarini himoya qiladi. Ko‘chirilayotgan modelni o‘z maqsadlariga muvofiqlashtiradi. Bu xorijiy tajribalarni rad etish emas, balki xalqni, millatni assimilyatsiyalashishdan himoya qilish vositasidir.

Uchinchidan, bugun xorijiy tajribalarga ko‘r-ko‘rona ergashish, mavjud etnotajribalar va etnoimkoniyatlarni yetarli hisobga olmay, modernizatsiyalashtirish va ilg‘or davlatlar bilan tenglashish bayrog‘i

ostida, ijtimoiy hayotni o'zgartirishga berilish avj olgan. Bu yondashuvdagi asosiy kamchilik shundaki, o'sha xorijiy tajribalarning o'zi bugun o'zini o'zi rad etmoqda. Buni liberal modelda ko'rish mumkin. Inson huquq va erkinliklarini, xususiyl mulkni, so'z erkinligini demokratik qadriyat deb atayotgan AQSh va Yevropa davlatlari o'zlarining ekspansiv siyosatini amalga oshirish uchun har qanday milliy davlatlarga, ularning etnosiyosiy tajribalarini yakson qilishga qarshi harbiy tajovvuzlar uyushtirayotganida ko'rish mumkin. O'zining konstitutsiyalarida "ijtimoiy davlat" ekanini ochiq bildirgan, bu bilan jahonga jar solgan AQSh, Angliya, Germaniya va militaristik yo'l tutayotgan Ukraina, Polsha va Pribaltika davlatlari liberal qadriyatlarni sariq chaqaga ham olayotgani yo'q. Demak, g'arb liberal, umuman barcha, ijtimoiy davlat modeliga to'la ishonib bo'lmaydi. Lekin ulardagi ijobiy jihatlarni o'rganish, milliy zamanga tadbiq etish foydadan xoli bo'lmaydi.

1.3. Ijtimoiy davlatning demokratik xususiyatlari va belgilari

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlatning demokratik xususiyatga ega ekani, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik jamiyati rivoji uchun barcha sharoitlarni yaratib berish uning asosiy vazifalaridan ekani yakdillik bilan qayd etiladi. Ha, ba'zi tadqiqotchilar ijtimoiy davlatning ushbu xususiyatidan kelib chiqib, uni davlatchilik rivojining eng yuqori bosqichi, demokratik taraqqiyotning yuksak ko'rinishi sifatida ko'rsatadilar. Xullas, ijtimoiy davlat – demokratik davlat, uning asosiy vazifasi jamiyatda huquqiy qadriyatlarni qaror toptirishdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda: birinchidan, ijtimoiy davlat ilgari o'rganilgan, ijtimoiy funksional va institutsional xususiyatlari ochib berilgan demokratik davlatning navbatdagi bosqichidir. U mavjud demokratik davlat haqidagi nazariy, falsafiy-huquqiy ta'limotlarga zid chiqishi mumkin emas. Demokratiya haqidagi g'oyalar, nazariy-falsafiy postulatlar ijtimoiy davlat uchun ham muhimdir. Ikkinchidan, ijtimoiy davlatning o'ziga xos ichki xususiyatlari, institutsional va funksional belgilari mavjud. Ushbu belgilar ularni "demokratik davlat" degan tushuncha bilan to'la aynan qilib qo'yadi. Aslida esa demokratiya ijtimoiy davlatning bir qismi, atributi sifatida keladi. Demak, ijtimoiy davlat va demokratiya alohida voqeliklar sifatida qaralishi mumkin, bu tadqiqot obyektni boshqa obyektlardan farqlash, uning differensial xususiyatlarini anglash imkonini

berdi. Uchinchidan, demokratik davlatda asosiy e'tibor siyosiy institutlarning xalqchilligiga qaratiladi. Demokratik qadriyatlar xalqchillik tamoyilini ro'yobga chiqarish omilidir. Ijtimoiy davlat esa asosiy e'tiborini butun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarni rivojlantirishga qaratadi. Demokratiya ijtimoiy davlatning ushbu maqsadlariga xizmat qiladi. To'rtinchidan, ijtimoiy davlatning huquqiy xarakterini barcha tadqiqotchilar e'tirof etishadi. Haqiqatan ham, ijtimoiy davlat inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligiga erishish orqali o'zining maqsadlariga erishadi. Bu maqsad davlat konstitutsiyasi va qonunlarida o'z aksini topadi.

Mazkur jihatlar ijtimoiy davlatning demokratiya bilan bog'liqligini falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan asoslashni taqozo qiladi.

“Demokratiya” xalq hokimiyatchiligidir, degan ta'rif keng tarqalgan²⁹. Ushbu klassik ta'rif keyingi asrlarda keng talqin qilinayotgan, demokratiyaning yangi-yangi shakllari, belgilari ochib berilayotgan bo'lsa-da, ularning barchasi o'z ta'riflarini xalq hokimiyatchiligi tamoyili asosiga quradi. Masalan, so'z erkinligi, vijdon erkinligi, siyosiy partiyalar tuzish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida qatnashish, madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ta'lim olish huquqlarining barchasi demokratiyaga oid qadriyatlar hisoblanadi. Demokratiya ushbu qadriyatlarni real hayotga tadbiq etilishini anglatuvchi voqeylikdir.

“Demokratiya ideal sifatida qanchalik qadrli bo'lsa, uni ideal hayotga tadbiq etish ham shunchalik qadrlidir”³⁰.

Shunday bo'lsa ham, falsafiy-huquqiy va siyosiy ta'limotlar uchun muhim, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega, ma'lum bir savollar uyg'onadi. Masalan, ijtimoiy davlat demokratiyaning qaysi ko'rinishlari yoki mexanizmlaridan ko'proq foydalanadi? Ijtimoiy davlatda demokratiyaning o'ziga xos jihatlari bormi, agar bor bo'lsa, ular nimalarda aks etadi? Umuman, demokratiya ijtimoiy davlatning atributi, uni davlatchilikning ideal ko'rinishiga yetaklovchi siyosiy omili bo'lsa, ularning zarurligini qayta asoslashga hojat bormi?

²⁹ Қаранг: Отамуродов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафаси. Дарслик. – Тошкент: ILM-ZIYO ZAKOVAT, 2025, 296–297– б.

³⁰ Салмин А.М. Современная демократия: очерки становления. – Москва: Интер пресс, 1997; Ильин В.В. Политология. – Москва: “Книжный дом” Университет, 1999; Дзоло Д. Демократия и сложность: реалистический подход. – Москва: Изд. дом. Гос. Университета Высшей школы экономики, 2010; Сохань И. Философия благотворительности. Счастье и грех. – Киев: “Науково думка”, 2010.

Demokratiyaning deyarli barcha ko‘rinishlari, mexanizmlari ijtimoiy davlat uchun zarur, u demokratiyada g‘ayrisiyosiy, g‘ayritaraqqiy omillar borligini bilmaydi. Aynan mana shu joyda demokratiyaning milliy mentalitet va milliy zamin bilan bog‘liq jihatlari yuqoridagi fikrga zid kelishi mumkinligini ko‘ramiz. Masalan, AQSh va g‘arbiy Yevropa davlatlarida geylar uyushmalari, ularning maydonlarda yurishi, hatto ijtimoiy harakat sifatida qonunlarda tan olinishi demokratiya hisoblanadi. Shunday “demokratiya” sharq davlatlari Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Qozog‘iston kabi ijtimoiy davlatlarda o‘z o‘rinini topishi mumkinmi? Bugun AQSh, g‘arbiy Yevropa, ayniqsa, Malta, Germaniya, Niderlandiya kabi ijtimoiy davlatlar geylar, lesbiyankalar va gomoseksuallar harakatini qo‘llab-quvatlaydi, ularning huquqlarini himoya qiluvchi geylar, lesbiyankalar, biseksual va transgenderlar, interseksuallar Xalqaro asossiatsiyasini (ILGA) tashkil etishgan. Ushbu tashkilot Yevropadagi 49 davlatda geylarga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganib, ularning huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan rezolyutsiyalar, tavsiyalar ishlab chiqqan³¹. Shunday “demokratiya” sharqda paydo bo‘layotgan ijtimoiy davlatlarda vujudga kelishi, ularning qonunlar bilan himoya qilinishi mumkinmi? Masalan, O‘zbekistonda gomoseksual xatti-harakatlar qoralanadi, agar shunday harakatlar sodir etilsa, gomoseksuallar qonunlarga muvofiq uch yilga ozodlikdan mahrum etilishi mumkin. Demak, g‘arb ijtimoiy davlatlaridagi demokratik tamoyillar va ularni tushunish har doim ham ijtimoiy, milliy talablarga muvofiq kelavermaydi. Bir jinsli nikoh Malta (birinchi o‘rin), Belgiya, Norvegiya va Buyuk Britaniya (ikkinchi o‘rin) ijtimoiy davlatlarida qonuniy tarzda tasdiqlangan, bunday nikohga kirish shaxsning huquqi, demokratiya belgisi hisoblanadi. Qarangki, Italiya bir jinsli nikohga 1890-yili, Ispaniya 1979-yili, Islandiya 1940, Irlandiya 1993-yili, Portugaliya 2011-yili rasman ruxsat etgan. Geylar demokratiyasi bugun Kanada, Shvetsiya va Polsha faol qo‘llab-quvvatlamogda³². Vaholanki, ushbu davlatlar o‘zini ilg‘or ijtimoiy davlat hisoblaydi.

³¹ dw.com

³² Салмин А.М. Современная демократия: очерки становления. – Москва: Интер пресс, 1997; Ильин В.В. Политология. – Москва: “Книжный дом” Университет, 1999; Дзоло Д. Демократия и сложность: реалистический подход. – Москва: Изд. дом. Гос. Университета Высшей школы экономики, 2010; Сохань И. Философия благотворительности. Счастье и грех. – Киев: “Науково думка”, 2010.

Amerikadagi demokratiya to'g'risida alohida to'xtalishga to'g'ri keladi, chunki bugun Amerikani demokratiyaning yuksak ko'rinishi qaror topgan, insonning huquq va erkinliklari keng ta'minlangan, shaxsning kamoloti uchun deyarli barcha shart-sharoitlar yaratilgan yetuk ijtimoiy davlat, deb targ'ib qilishadi. Amerika ijtimoiy demokratik davlat sifatida 1776-yili tashkil etilgan. Uning Mustaqillik deklaratsiyasi va 1787-yili qabul qilingan Konstitutsiyasida inson baxtli yashash uchun tug'ilgan, uning erki va huquqlarini himoya qilish davlatning vazifasi ekani e'tirof etilgan. Agar hokimiyat xalq manfaatlariga xizmat qilmasa, xalq bunday hukumatni o'zgartirish va boshqa hukumatni saylash huquqiga ega ekani uqtirilgan. Amerika Konstitutsiyasiga muvofiq davlat barcha fuqarolari, xalqi uchun zarur bo'lgan umumiy ijtimoiy farovonlik, barqarorlik va tinchlikni ta'minlaydi³³. Umumfarovonlikni ta'minlash davlatning ijtimoiy funksiyalaridan biridir. Aynan aholining farovon yashashiga xizmat qilish va buni konstitutsiyada ifodalash demokratik huquqiy yondashuv hisoblanadi. Har bir kishining, fuqaroning farovon yashashi uchun zarur sharoitlarni (erkin mehnat qilish, tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan shug'ullanish, yaratilgan ne'matlar taqsimotida qatnashish, xususiy mulkka ega bo'lish kabilar) yaratish ijtimoiy davlatning maqsadini ifoda etadi. Mamlakatning Asosiy qonuni va unga tayanadigan boshqa qonunlar har bir kishiga farovon yashashni kafolatlaydi. Bu yaratilgan ne'matlarni va boyliklarni to'g'ridan to'g'ri har bir fuqaro ehtiyojlariga muvofiq taqsimlash emas, balki uning ijtimoiy mehnat jarayonlarida erkin qatnashishi, imkoni boricha o'z mehnatiga haq olishi va farovon yashashi uchun minimumni berishi bilan bog'liqdir. Minimumdan keyingi yaratiladigan ne'matlar va boyliklar shaxsning ishchanligi, farovon yashashga intilishi natijasi bo'ladi. Fransuz publitsisti va sayohatchisi Aleksis de Tokvil o'zining "Amerikada demokratiya" asarida shaxsning erkin mehnatini qanday ijobiy voqeylikka aylanganini, aynan tadbirkorlik va ishbilarmonlik amerikaliklar fazilatiga aylanganini, ular o'zlari istagan farovonlik ana shu tashabbuslari mahsuli ekanini tasvirlagandi³⁴. Hududiy administrativ boshqaruviga ko'ra, Amerika prezidentlik, federativ davlatdir. Unda 50 shtat va Kolumbiya federal okrugi bor, markaziy, federativ boshqaruv tizimlarida mahalliy (shtatlar) aholi tomonidan

³³ Конституция Соединенных Штатов Америки. – Москва: Инфра М., 1997. С.3.

³⁴ Алексис де Токвиль. Демократия в Америке. – Москва: Наука, 1976.

saylangan vakillar qatnashadi. Prezident saylovida barcha fuqaroning erkin qatnashishi oʻrnatilgan. Oliy davlat boshqaruvi qonunchilik palatasi (Kongress), ijro hokimiyati (Prezident) va sud federal sudlar tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv hokimiyat boshqaruvi tizimlarini bir-birini kuzatishga, ulardan birining oʻzboshimchaligiga yoʻl qoʻymaslikka imkon beradi. Amerika demokratiyasining ushbu hokimiyatni taqsimlash orqali boshqarish tizimi bugun demokratik boshqarishning ideal modeli sifatida eʼtirof etiladi va milliy demoratik taraqqiyot yoʻlini tanlagan davlatlar uni oʻziga tadbiq etadi. Amerikada demokratiya ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi, har bir fuqaroning erkin va farovon yashashiga imkon beradi³⁵. Baʼzi ijtimoiy iqtisodiy koʻrsatkichlarda (ichki yalpi mahsulot taqsimoti) Xitoy dunyoda birinchi oʻrinda (17, 8 %, Amerikada esa 15,4 %) tursa, ilmiy-texnik ishlanmalar, robototexnika, biofarmatsevtika, nanotexnologiya, aerokosmos sohalarida AQSh yetakchilik qilmoqda. Bu shunchaki raqamlar emas, unda farovonlik indeksi namoyondir. Shu paytgacha Amerika ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarda yetakchi oʻrinni egallab kelgan, uning jahon bozoridagi oʻrni juda katta, barcha davlatlar uchun ibratli edi. Ammo bugun Xitoy liderlikka daʼvogar, u ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari bilan xalqi uchun farovonlikni taʼminlashni oʻzining ijtimoiy siyosatiga aylantirgan. Amerika demokratiyasini zamonaviy siyosatshunoslik va falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan oʻrgangan mutaxassislar bu borada jiddiy toʻsiqlar, hatto demokratiyaga zid hodisalar AQShda ildiz otganini taʼkidlashadi. Bularga ular Amerika demokratiyasida:

- yuzakilik;
- korrupsiyaga botganlik;
- saylovchilari ongsiz;
- oldingi siyosatga muvofiq kelavermaslik;
- siyosiy savodxonlikning yetishmasligi;
- omma ijtimoiy fikrini manipulyatsiya qilish;
- oppozitsiya fikrini manipulyatsiya qilish ildiz otgan, deb gʻayridemokratik va gʻayriqonuniyliklar borligini koʻrsatishadi³⁶. Amerika demokratiyasiga yolgʻon, fahsh va ommani laqillatish siyosiy

³⁵ Власихин В.А. Американский конституционализм // Ж. США Канада: политика, экономика, культура, 1999, № 10. С.69–76.

³⁶ <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>.

texnologiyasi aralashganini boshqa mutaxassislar ham ta'kidlashadi³⁷. Hatto ularning ba'zilar "Amerika demokratik davlatmi?" deb savol qo'yishadi va unda g'ayriqonuniylik va g'ayridemokratik elementlar oshib-toshib yotganini ochib berishadi. Ular "AQSh na rasman konstitsiyaviy, na amaliy demokratik davlat" degan salbiy xulosaga kelishadi va ushbu fikrini asoslash uchun yetarli misollar keltirishadi. 2020-yili o'tkazilgan prezidentlik saylovi, oligarxlarni har qanday qonunni, demokratik tamoyillarni toptashini ko'rsatdi³⁸.

Shunday bo'lsa-da, amerikaliklar demokratiya mavjudligiga ishonishadi, AQShni dunyodagi ibrat olgulik farovon ijtimoiy davlat deb bilishadi. Har yili Osiyo davlatlaridan AQSh ga 4 millionga yaqin kishi yo ish qidirib, yoki unda qolish niyatida ko'chib o'tishining o'zi ham ma'lum bir xulosalar chiqarishga undaydi. Ammo bu o'rinda farovon yashash bilan demokratiya o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q, degan fikr uyg'onadi. Keyingilarni mensimay ham aholining farovon yashashini ta'minlash mumkin ekan da?!

Demokratiya genezisi antik davrlarga borib taqalsa, "konstitutsiya" XVIII asrning oxirlarida paydo bo'lgan tushunchadir. Bu o'rinda, avvalo, 1787-yili AQSh Konstitutsiyasi esga olinadi. Asosiy qonun asoschilari konstitutsiyaga barcha qonunlar amal qiladigan, davlat va jamiyat boshqaruvi uning normalariga muvofiq keladigan, siyosiy tizim va institutlar qat'iy bo'ysunadigan, strategik ahamiyatga ega hujjat sifatida qaraganlar. Bu borada juda ko'plab asarlar yozilgan, tadqiqotlar o'tkazilgan. Amerika konstitutsiyasining Yevropa bo'ylab tarqalishiga fransuz publitsisti va sayohatchisi Aleksis de Tokvilning "Amerikada demokratiya" asari turtki bo'ldi. XIX asrda konstitutsiya tuzish asri bo'ldi deyish mumkin. Shu asosda "ijtimoiy davlat" konsepsiyasiga yetib kelindi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi to'g'risida gap kelsa, "shved modeli" (Skandinav modeli ham deyishadi) eslanadi. Ushbu atama o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Bugun uni "shved sotsializmi" deb ham atashadi. Mutaxassislarning aytishicha, shved ijtimoiy davlatchilik modeli asosida ikki –kapitalistik va kommunistik tuzumlar o'rtasidagi kurash, konfrontatsiyadan olingan hayotiy tajribalar, xulosalar yotadi. Aynan

³⁷ Флинт Г.С. Политика, секс, ложь. – Москва: Альфа пресс, 2008.

³⁸ Глигич Золотарева М.В., Кирюхин К.С. Демократия в Америке? [https:// doi.org/ 10.21686/2073-1051-2021-3-142-168](https://doi.org/10.21686/2073-1051-2021-3-142-168).

shuning uchun shved modeli jamiyatda antogonistik ziddiyatlar bo'lmashligi uchun yaratilgan moddiy ne'matlarni, boyliklarni kishilar o'rtasida teng taqsimlash tamoyiliga qurilgan. Unda mehnatga layoqatli har bir fuqaro ijtimoiy hayotda faol qatnashishi o'rnatilgan, jinslar o'rtasida huquqiy tenglik ta'minlagan, aholining farovon yashashi uchun ishonchli egalitar va ijtimoiy yordam, himoya tizimi shakllantirilgan³⁹. Shved modeli ijtimoiy bozor munosabatlariga, ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qartilgan tenglik va iqtisodni boshqarish tamoyillariga tayanadi. Bozor iqtisodiyoti har bir fuqaroga ixtiyoriy tarzda mehnat qilishga imkon beradi, iqtisodiy demokratiyani qaror toptiradi, ijtimoiy davlat esa yaratilgan boyliklarni jamiyat va aholining farovon yashashi uchun sarflashni amlga oshiradi. Sinfiy tabaqalanishga yo'l qo'yimaslik, barchani demokratik saylovlarda qatnashishini ta'minlash, konstitutsionalizm tamoyiliga asoslangan tarzda ijtimoiy himoya siyosatini olib borish davlatning vazifasidir.

Shvetsiyada gidroenergetika, o'rmon xo'jaligi va temir rudalarini ishlab chiqish, olingan tabiiy boyliklarni eksport qilish rivojlangan. Ishchi xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirish, tibbiy himoyalash, dam olish va hordiq chiqarishini uyushtirish, bolalarini bepul o'qitish, yuqori saviyada ta'limni tashkil etish, yuksak darajada madaniy, transport va kommunal xizmatlar ko'rsatish kabilar ijtimoiy davlatning qanday afzalliklarga ega ekanini ko'rsatadi. Shvesiyada amal qiladigan ijtimoiy siyosat asosan uch yo'nalish aholi daromadlarini oshirib borish, kishilarni ish bilan bandligini ta'minlash va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish hamda kommunal xizmatlarni uyushtirishga qaratilgan. Ular markazida davlatning ijtimoiy hayotga faol, pozitiv va konstruktiv ta'sirini ta'minlash turadi. Davlatni xalq, aholi manfaatlariga xizmat qilish institutiga aylantirish shved sotsialistlarining asosiy pozitsiyasi, davlatchilik ta'limotidagi bosh g'oya bo'lib keladi. Ijtimoiy boyliklarni teng taqsimlash g'oyasi marksistik, sotsialistik ta'limotdan olingan, biroq shved modeli "ekspluatatorlarni ekspropriatsiya" qilishga emas, balki xususiy sektor va badavlat kishilarni ijtimoiy ahillik, birlik va teng, farovon yashashga o'z hissasini qo'shishga da'vat etib turadi. Bu antogonistik kurashlarning oldini olishga qaratilgan pozitiv, taraqqiyparvar siyosatdir. Mamlakat konstitutsiyaga muvofiq har bir fuqaroning "shaxsiy, iqtisodiy va madaniy

³⁹ [https // spravochnick. ru. >socialnaya](https://spravochnick.ru/socialnaya)

farovonligi davlatning asosiy maqsadi bo'lishi kerak. Davlat barchaga mehnat qilish, turar joy, ta'lim huquqini ta'minlashi, shuningdek, ijtimoiy ta'minot, xavfsizlik va yashashi uchun yaxshi sharoit yaratib berishi kerak. Jamiyat esa barcha sohalarda demokratik g'oyalarni asosiy yo'nalish bo'lib qolishi haqida qayg'urishi kerak. Jamiyat erkak va ayollarning teng huquqli bo'lishini ta'minlashi, shuningdek, shaxsiy va oilaviy hayotni himoya qilishi zarur"⁴⁰.

Shvetsiya konstitutsion monarxiya hisoblanadi, davlat rahbari qirolidir. Ichki tashkiliy va ijro ishlarini mamlakat hukumati va mahalliy kommunalar amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi organ parlament, Riksdagdir. U har to'rt yilda bir marta umumxalq saylovida, Bosh vazir, hukumat a'zolari esa Riksdag tomonidan saylanadi. 1975-yilgacha qirol absolyutizmi saqlangan. 1975- yili qabul qilingan konstitutsiyada esa xalq davlat hokimiyatining manbai sifatida e'tirof etildi va qirol absolyutizmi parlamentarizm va demokratizm tomon yo'naltirildi. Qirol barcha fuqarolar kabi soliqlar to'laydi, o'zining daromadlari haqida deklaratsiya topshiradi. Uning oilasi davlat ta'minotida tursa ham, har bir oila a'zosi Riksdag tomonidan qabul qilingan qonunlarga bo'ysunadi, o'zining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari uchun sudga tortilishi mumkin. Shvetsiya tarixida shakllangan "avval konstitutsiya keyin qirol" shiori xalq vakillaridan iborat Riksdagning demokratiyasiga xizmat qilishini, monarxiyada ham qonunlar ustuvor bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Demokratiya tamoyillariga qat'iy amal qilinishiga ko'ra, Shvetsiya dunyodagi demokratik davlatlar ichida uchinchi o'rinni egallab keladi. Xalqining farovonligi, davlatning har bir fuqarosi uchun qayg'urishi, uni ish va zarur mablag'lar bilan ta'minlashi bo'yicha Shvetsiya yuksak darajadagi ijtimoiy davlatdir.

Angliya konstitutsiyasi (Constitution of the United Kingdom) turli qonunlar to'plamlaridan iborat bo'lib, u barcha shtatlar ya'ni Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya uchun birdir. U boshqa davlatdagidek yagona qonun tarzida shakllantirilmagan, shu bois uni "yozilmagan konstitutsiya" deb ham atashadi. Davlat rahbari monarx hisoblanadi. U Bosh vazir va boshqa vazirlarni tayinlash, parlamentni tarqatish, uning yig'ilishlarini tayinlash va ularda qatnashish, tashqi siyosatni belgilash,

⁴⁰ Правовая библиотека.lagalns.com

chet el davlatlar delegatsiyalarini, elchilarini qabul qilish kabi huquqlarga ega. Milliy parlament Lordlar palatasi va jamoalar palatasidan iborat. Agar birinchisi lordlarning umrboqiy a'zolik tartibi bo'yicha tashkil etilsa, ikkinchisining a'zolari besh yilga xalq tomonidan saylanadi. 1990-yillarning oxirlarida Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Uels shtatlari ma'lum bir avtonomiya huquqlarini qo'lga kiritdi, bu esa qirollik absolyutizmini, markazlashtirilgan boshqarishni federativ qilishga undadi.

Yevropa davlatchiligida demokratiyaning shakllanishi turli yo'nalishlar va omillar bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun mutaxassislar demokratiyani: 1) demokratik ideologiya (g'oyalar va konsepsiyalar); 2) qonunlar qabul qilinishiga oid jarayonlar, siyosiy tortishuv va bahslar; 3) demokratik tuzum o'rnatish maqsadi bilan bog'liq siyosiy jarayonlar; 4) siyosiy-huquqiy reallik, ya'ni mamlakatda qonuniy normalarni qabul qilishga oid siyosiy huquqiy tajribalarning borligi; 5) yuridik natijalar; 6) huquqiy demokratik vositalar (konstitutsion o'zgarishlar haqidagi ijtimoiy fikrni shakllantirish mexanizmlari va oppozitsiyani, huquqqa qarshi kuchlarni murosaga keltirish mexanizmlaridan foydalanish); 7) mamlakat huquq tizimining normativ asosi tiplarining mavjudligi (ya'ni huquqiy normalarni huquq doirasidan tashqarida muhokama qilish mumkinligi); 8) demokratik normalarning "Jamiyat-Davlat-Shaxs" munosabatlari tizimida qaralishi (ya'ni davlat hokimiyatini liberal tipda minimallashtirishni yoki ijtimoiy tipda Davlat va Shaxs konsepsiyasini Jamiyat oldidagi mas'ulligini ta'minlash); 9) konstitutsiyaviy, demokratiya, ya'ni xalqchillik tipidagi munosabatlar; 10) demokratik siyosiy tuzum tipi (xalq nomi bilan amalga oshiriladigan liberal va yuridik formal tarzidagi davlat hokimiyati) tarzida qarash mumkin, deb ko'rsatishadi⁴¹.

Ko'rinib turibdiki, demokratiya tamoyili butun davlatchilik, boshqaruv va ijtimoiy-huquqiy borliq bilan bog'liqdir. Bu o'rinda gap davlat hokimiyati ta'sirini kamaytirish (bu ham juda muhim) ustida emas, balki qonun ustuvorligini ta'minlash orqali davlat va shaxs munosabatlarini liberallashtirish, ularga demokratik erkinlikni singdirish asosiy maqsad

⁴¹ Сафонов В.Е. Европейский конституционализм и его рецепция в североамериканских колониях Англии // Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г.Белинского. Ж. "Общественные науки", 2012, №25. С. 157.

qilib qo'yiladi. Ushbu gumanistik yondashuv davlat boshqaruvini emas, inson huquq va erkinliklarini qaror toptirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir.

Konstitutsion demokratiyada markazlashgan davlat boshqaruvini mustahkamlash, demokratiya va huquqni ushbu boshqarish nuqtayi nazaridan himoya qilish istagi yashiringan. Konstitutsiya va unga tayanadigan huquq, qonunlar va qonunosti aktlari, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlashni kafolatlasa-da, u ushbu funksiyalarini davlat boshqaruvi institutlari, shu jumladan, markazlashgan davlat boshqaruvi orqali amalga oshiradi. Bunday mexanizmsiz huquq va qonun, shu jumladan, Konstitutsiya ham, oddiy qog'ozga, undagi moddalar oddiy da'vatga aylanadi. Biz demokratiyani, demokratik belgilarni qanchalik e'zozlamaylik, ularning real voqeylikka, jamiyat hayotining atributiga, inson amal qiladigan tartiblarga aylanishi mudom davlat institutiga, uning ijtimoiy funksiyalariga, strategik maqsadi va bu maqsadni amalga oshirishda tayanadigan gumanistik qadriyatlariga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy davlat ana shu gumanistik qadriyatlari orqali demokratiya va demokratik belgilarni qaror toptiradi, ularga insoparvarlik baxsh etadi.

Konstitutsion demokratiya davlatning shaklanish genezisi va rivojlanish bosqichlari ifodasi bo'lib keladi. Biroq AQShda u davlatchilikdan oldi ya'ni Buyuk Britaniya davlatchiligida shakllangan edi. AQSh konstitutsiyasion demokratiyasi Buyuk Britaniya tajribalariga tayangan, ulardagi normalarni davom ettirgan⁴².

Sharq davlatlarida qadimdan "sharqona despotiya" hukm surgan degan fikr ilmiy va falsafiy-huquqiy asarlarda qaror topgan. Mazkur fikrga ko'ra, monarxiya boshqaruviga monarxni ilohlashtirish va uning hokimiyatini nasldan-naslga o'tuvchi qilish, shohni barcha jarayonlarni mustaqil o'zi hal etuvchi yakka hukmdor bilish, totalitar tartiblar asosiga qurilgan markazlashgan boshqaruvning mavjudligi, kishilar taqdiri hukmdor amriga (masalan, jinoyatchini kechirish yoki kechirmaslik, shahar va tumanlarni yaxshi ko'rgan kishisiga sovg'a qilish, u yoki bu kishilarni soliqlardan ozod qilish kabilar) bog'liqlidir⁴³. Demak, sharq

⁴² Сафонов В.Е. Европейский конституционализм и его рецепция в североамериканских колониях Англии // Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г.Белинского. Ж. "Общественные науки", 2012, №25. С. 157.

⁴³ История государства и права зарубежных стран. Часть 1. — Москва: Норма Инфра М., 2001. С. 17). Бундай шароитда демократия ва демократик ҳуқуқ ҳақида гапириш қийин. Бироқ кейинги йилларда ўтказилган илмий изланишлар "шарқ деспотияси" ҳақидаги фикрларни рад қилади. Масалан, Қадимги Бактрия ва Сўғд давлатларида конфедерация бошқаруви бўлганини тасдиқлайди

davlatlari tarixini sinchiklab o'rganish, ulardagi demokratik belgilarini topish, ochib berish kelgusi tadqiqotlarning vazifasidir.

1.4. Ijtimoiy davlat: ilmiy-siyosiy, falsafiy-huquqiy va aksiologik diskurslar

Ijtimoiy davlat siyosiy xususiyatga ega voqeylikdir. Davlat va jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarish har qanday davlatni siyosiy institutga, voqeylikka aylantiradi. Shuning uchun davlat haqidagi mulohazalar siyosiy ta'limotlar va diskurslarga borib taqalishi tabiiy holdir. Davlatni ilmiy-siyosiy nuqtayi nazardan o'rganish o'ziing zavqli tarixiga ega, har bir jiddiy tadqiqotchi inson va kishilik jamiyati haqida fikrlovchi faylasuf, ijtimoiy munosabatlarni o'rganuvchi sotsiolog, kelajak haqida qayg'uruvchi futurolog, mutafakkir davlat va uning siyosiy xususiyati haqida fikr bildirmay o'tmagan. Ijtimoiy-siyosiy borliq inson va jamiyat hayotining o'zi, mohiyati, sotsiosubstansional asosi bo'lib kelganki, shuning uchun har bir ongli, fikrlovchi shaxs uni anglashga, o'zicha takomillashtirishga, yanada oliyjanob va insonparvar qilishga intilgan. Davlat shunchaki siyosiy institut, voqeylik emas, u shaxs ijtimoiy borlig'ining o'zi. Davlat hatto inson manfaatlariga xizmat qiladigan ideal institut bo'lganida ham shaxs ushbu institut qo'ynida, uning yordamida, qo'llab-quvvatlashida o'zini xavfsiz, baxtiyor, kerakli sezadi.

Davlat inson uchun zarur shunday ijtimoiy-siyosiy borliqki, undan insonni, insonni undan ajratish, ularni bir biriga qarshi qo'yish aslo mumkin emas⁴⁴.

Kishilik tarixi, sivilizatsiya "davlat" deb ataladigan siyosiy institutga shunday ko'nikib, moslashib qolganki, ushbu ijtimoiy-siyosiy borliqning bo'lmasligi, davlat siyosiy institutining rad qilinishi, shubhasiz tarzda, insonni cheksiz fojialarga olib kelgan bo'lardi. Ha, insoniyat duch kelgan qirg'in-barot urushlar, etnoslarning bir-biri ustiga yurishi, despotizm va totalitarizm tufayli inson huquqlari, sha'ni toptalganligida ma'lum jihatdan militaristik, agressiv siyosiy tuzumlarning aybi bor. Aynan shunday siyosiy tuzumlar, davlatlar va ularni boshqargan shaxslar sababli ideal davlat va jamiyat barpo etish amaldan yiroq orzu, istak bo'lib keldi. Shunday ekan, davlatning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini anglash, uni inson va taraqqiyot manfaatlariga xizmat qildirish muammolar muammosi bo'lib qolmoqda.

⁴⁴ Қаранг: Отамуродов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафаси. Дарслик. – Тошкент: ILM-ZIYO ZAKOVAT, 2025, 224-226– б.

Ijtimoiy davlat ushbu muammoni amaliy hal etish tomon tashlangan o'ta muhim siyosiy qadam, buyuk siyosiy iroda va go'zal, oliyjanob strategiya ifodasidir. Suqrot adolat va adolatsizlik haqida mulohazalar yurita turib, davlatda ezgu ishlarga, maqsadlarga yo'naltirilgan barcha narsa, harakatlar adolatli, deydi⁴⁵. Ezgu narsa adolat mezoni, ko'rsatkichi. Agar ijtimoiy davlatning bosh funksiyalaridan biri adolat o'rnatish, ijtimoiy hayotni va boshqarish ishlarini adolatli yo'lga qo'yish ekan, uning ushbu maqsadiga qo'shilmay, uni qo'llab-quvvatlamay bo'lmaydi. Ijtimoiy siyosiy borliq sotsiosubstansional asosiga muvofiq adolat ifodasi bo'lishi, ushbu adolatni kishilar kundalik hayotida, turmushida va faoliyatida ko'rishi, sezishi zarur. Bunday ijtimoiy-siyosiy borliqni shakllantirish davlat zimmasidagi vazifadir. Bu vazifani u o'zining suveren huquqidan to'la foydalanishi bilan amalga oshirishi mumkin. Bu suveren huquq uni goho absolyut bo'lishga undaydi. "Chindan ezgu maqsadli, adolatli va ongli yo'naltirilgan absolyutizm, – deydi davlat boshqarishining barcha murakkabliklari va fojialarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'z tajribasidan o'tkazgan Otto fon Bismark. Qaerda u bo'lmasa, hammasi tarqalib ketadi: biri uni istaydi, boshqasi buni, natijada doim ikkilanish va turg'unlik yuzaga keladi"⁴⁶. Ijtimoiy davlatda absolyutizm bo'lishi mumkin emas, ammo bu yuksak ideal, orzu, real munosabatlar ularni ba'zan rad etib turadi. Masalan, rivojlangan ijtimoiy davlatlar hisoblangan AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiyada turli ichki nizolar, antogonistik to'qnashuvlar va ish tashlash, g'alayonlar bo'layotganiga istangancha misollar kltirishimiz mumkin. Hatto "a'lo ijtimoiy davlat" Shvesiyada ham kriminalistik romanlarga yetarlicha mavzu beradigan voqeyalar uchrab, jamiyatni bezovta qilib turadi. Manbalarda keltirilishicha, 2010-yildan beri Shvetsiyada har 100 ming kishiga 15 ming jinoyat to'g'ri kelmoqda, o'ldirish bilan bog'liq jinoyatlar 50% ga, nomusga tegish esa 175 % ga oshgan⁴⁷. Demak, davlatning strategik maqsadi, ijtimoiy davlat bo'lish istagi hali real voqeylikning ifodasi bo'lavermaydi. Tag'in biz ideal davlat konsepsiyasiga duch kelmayapmizmi, ota-bobolarimiz, mutafakkirlarimiz, xalqimiz orzu qilib kelgan ideal davlat haqidagi utopiya yana bizning o'y-xayollarimizdan joy olmayaptimi?

⁴⁵ Платон. Государство. – Москва: Изд. АСТ, 2022. С. 12–15.

⁴⁶ Бисмарк фон Отто. Афоризмы немецкого канцлера. – Москва: Эксмо, 2019. С. 113.

⁴⁷ Қапанг: <https://aussiedlerbote.> Ве 2022/09

Ijtimoiy davlatni ilmiy-siyosiy tadqiq etish shunday savollarga javob berishi kerak, biroq bu borada tanqidiy ratsional tahlildan ko‘ra, ilmiy asarlarda yo‘qni bor qilib ko‘rsatish ustuvordir. Birorta ham ilmiy siyosiy asar, monografiya ijtimoiy davlat oldidagi fundamental masalalarni chuqur tahlil qilmaydi, ularni yechishning ilmiy ratsional usullarini qidirmaydi. Biz nima uchun kecha demokratik jamiyat, bugun esa ijtimoiy davlat haqida fikrlashimiz yoki yozishimiz kerak? Ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat. Ne‘matlar va boyliklarning teng taqsimlanishi haqidagi fikrlar qanchalik real hayotga muvofiq keladi? Shu paytgacha ulug‘lanib, ko‘kka ko‘tarilib maqtanilgan bozor demokratiyasi va erkinligi ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik, ne‘matlar va boyliklarni teng taqsimlash tamoyillariga mutlaq zid–ku? Endi biz bozor demokratiyasiga qurilgan kapitalistik munosabatlardan voz kechamizmi?

Har kuni siyosiy taraqqiyot pozitsiyasini o‘zgartiradigan, modernizatsiya bayrog‘i ostida etnoan‘analarni siqib chiqarishga qaratilgan tajribalar xalqni, millatni islohotlardan bezdirmaydimi, holdan toldirmaydimi? Savollar ko‘p, ammo siyosatshunoslar ularni yo esga olmaydi, yoki ularga birorta yechim topib berishga tayyor emas. Mana, nima uchun ijtimoiy davlat ilmiy-siyosiy tadqiqotga muhtoj, bunday tadqiqotlar siyosiy fundamental masalalarini ochib berishi, jamiyatni chayqalib, bezovta bo‘lib emas, balki bir maromda, barqaror rivojlanishini asoslab beradigan siyosiy ta‘limotlar yaratishi zarur. Bugun jamiyatlar har qachongidan ko‘ra siyosiy fanlarning faolligiga, dolzarb masalalarni o‘rganib siyosiy institutlar, avvalo, davlatni samarali ishlashini ta‘minlaydigan siyosiy doktrinalar, ta‘limotlar va boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Siyosatshunoslik fanining, ayniqsa, amaliy siyosatshunoslikning yetarli shakllanmagani ijtimoiy davlat haqidagi tasavvurlarni shunchaki so‘z o‘yinlariga, besamar va bemaqsad va‘zlarga aylantiradi. Siyosatshunoslik va amaliy siyosatshunoslik, ayniqsa, mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘liga kirgan yosh davlatlar uchun muhimdir.

Ijtimoiy taraqqiyotda ilm-fan, intellektual izlanishlar va ishlanmalarning roli ortib borayotgan bugungi dunyoda ijtimoiy davlat haqidagi rasmiy, siyosiy dogmatik fikrlar yetarli emas, ilm-fan kelajak, ijtimoiy-siyosiy borliqning rivojlanishi haqida o‘zining fikrlarini bildirishi,

jamiyatda siyosiy ong va siyosiy faollikni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishi darkor.

Ijtimoiy davlat masalalariga bag'ishlangan ilmiy asarlarda uni huquqiy davlat, demokratik davlat, adolatli davlat, insonparvar davlat va konstitutsiyaviy davlat kabi ilgari siyosiy tajribalar bilan uyg'unlashtirishga intilish ustuvordir. Ijtimoiy davlat bu huquqiy yoki demokratik davlatdir, degan aksiomatik iboralar ham uchraydi. Bunday yondashuv ijtimoiy davlatda hech qanday yangilik yo'q, bor yangilik etimologik talqinda xolos, degan fikrni uyg'otadi. Agar shu paytgacha huquqiy davlat, adolatli davlat, insonparvar davlat kabi iboralar, atamalar ishlatilib kelinayotgan bo'lsa, ular ilmiy va keng jamoatchilik tomonidan qabul qilingan bo'lsa, yangi atamaga ne hojat? Ijtimoiy davlat mavjud atamalarni rad etmasa, hatto ular bilan nomlansa, ijtimoiy fikrni chalg'itish zarurmi? Bunday savollarning cheki–chegarasi yo'q, ularga, avvalo, siyosatshunoslik ilmi javob qidirishi lozim.

Ijtimoiy hayot bir joyda turmaydi, u o'zgarishlarga, transformatsiyaga moyil. Ilgari keng e'tirof etilgan atamalar keyinchalik yangi talqinga yoki boshqacha atalishga muhtoj bo'ladi. Bu obyektiv talab "ijtimoiy davlat" atamasining ham paydo bo'lishiga, ishlatilishi va ilmiy-siyosiy iste'molga kiritilishiga sabab bo'ladi. Biroq har qanday ijtimoiy siyosiy voqeylik kabi ijtimoiy davlat ham quruq joyda paydo bo'lmaydi, u oldingi davrdan, tajribalardan nimalarnidir oladi, o'zlashtiradi. Shuning uchun ijtimoiy davlatda oldingi davrlarda ishlatilgan atamalar, funksiyalar va mexanizmlar kelishi tabiiy holdir.

Shu bilan birga, ushbu ilgari mavjud bo'lgan atamalar mutlaq eski mazmunda va ma'noda qolmasligini esdan chiqarmaslik kerak. Ularni o'ziga muvofiqlashtirgan obyekt ular mazmuni va ma'nosiga yangi davr talqinini beradi, ularni zamonaviy qarashlar bilan boyitadi, yangi, samarali mexanizmlarga moslashtiradi. Yangi davr talabi eski atamalarni tubdan yangilamasa–da, ularni o'z davri talablariga muvofiq zamonaviylashtiradi. Masalan, o'rta asr falsafasida adolat ilohiyat bilan bog'liq holda talqin qilingan. Adolatni xudo ta'minlashi mumkin, inson xatti-harakatlarining adolatli yoki adolatsiz ekanini faqat u biladi, degan qarash ustuvor edi⁴⁸. "Kishining jinoyatkorona xatti-harakati xudoga, ilohiy haqiqatga qarshi

⁴⁸ История этических учений. Учебник. Под ред А.А.Гусейнова. – Москва: Гардарики, 2003. С.263.

jinoyat” sifatida baholandi⁴⁹. Zamonaviy falsafa esa uni inson hayoti, xatti-harakatlari va dunyoviy ishlar bilan bog‘laydi. Insonni adolat va adolatsiz xatti-harakatlar uchun mas’ul qilgan zamonaviy falsafa, undan yuksak axloqiylikni talab etadi. Adolat predmeti ham kengaydi, endi u qonun, me’yor, ijtimoiy talab va tartib, huquq, sotsial normalar kabilar orqali qaraladi⁵⁰. Demak, adolat talqinlari bugun o‘rta asrdagidek talqin qilinmaydi, u zamonaviy hayotga yaqin voqeyliklar bilan uyg‘un qaraladi, har bir atama adolatning bir qirrasini sifatida keladi. “Ijtimoiy davlat” atamasiga ham ana shunday yondashiladi.

Ijtimoiy siyosiy hayot, davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlari o‘zining betakrorligi, murakkabligi va ba’zan mavhumligi bilan ongni, tadqiqotchini hayratga soladi. “Siyosat aniq fan emas. Yaxshi siyosatchini esa qarmog‘iga baliq ilinishini kutib o‘tirgan baliqchiga qiyoslash mumkin”⁵¹. Ijtimoiy davlat haqidagi tasavvurlar, siyosiy qarashlar hali aniqlik kasb etgani yo‘q, ular ideal model tarzida xayoliy sxemalar, orzular va utopiyalardan iborat. Aniq rejalari bilan esa davlat ana shu xayoliy sxemalarga, orzularga, utopiyaga aniqlik kiritishi, xayoliy tasavvurlarni obyektiv o‘zgarishlar bilan boyitishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichlarida ijtimoiy davlat xayoliy model tarzida kelishi tabiiy holdir, ammo uning xalq o‘yidan, hayotidan joy olishi uning real islohotlar o‘tkazishiga, kishilarni va jamiyatni bezovta qilayotgan illatlardan qutulish yo‘llarini ishlab chiqishiga, siyosiy irodasi bilan boshqarish institutlaridagi korrupsiyani, to‘rachilikni bartaraf etishga kirishishiga bog‘liq bo‘ladi. “Siyosat, – deydi Otto fon Bismark, – mumkinlik fani. Mumkindan tashqaridagi barcha narsalar turmushga chiqish umidini allaqachon yo‘qotgan qari qizlar xo‘rsinib o‘qiydigan ojiz adabiyotlardir”⁵². Siyosiy jarayonlar qanchalik mavhum, noaniq bo‘lmasin, ular davlat xizmatchisidan muammolarga yechimlar topish imkonini beradi. Demak, siyosatchi yechim topishi mumkin, lekin u bu yechimni topishga intilishi zarur. Agar bugun ijtimoiy davlat xayoliy sxema tarzidan namoyon bo‘layotgan, uning ko‘p tomonlari noaniq, mavhum qalayotgan bo‘lsa, bu uni barpo etish mumkin emas, degan fikrni bildirmaydi.

⁴⁹ Сафронов А.В. Правовое беззоснательное: Русская правовая картина мира // Логос, 2002, №1. С.8.

⁵⁰ Анисимов А.С., Агеева М.А. Понятие справедливости в современной социологии // Социология, 2011, №1. С.259.

⁵¹ Бисмарк фон Отто. Афоризмы немецкого канцлера. – Москва: Эксмо. 2019. С. 115.

⁵² Бисмарк фон Отто. Афоризмы немецкого канцлера. – Москва: Эксмо. 2019. С. 160

Siyosatdagi mumkinlik hayoliy modelni real voqeylikka aylantirish mumkinligidadir.

Masalan, buyuk zamindoshimiz Abu Nasr Forobiy fozil odamlar shahrini ya'ni aholisi oqil, bilimli va donishmand odamlardan iborat ideal davlatni orzu qilgan edi. U xayoliy sxema, utopiya edi, albatta. Ammo bugun kishilik jamiyati ilmi, ma'rifatli jamiyatni barpo etish aslo xayol o'yinlari, utopiya emasligini ko'rsatmoqda, ilm-fanga, bilim olishga, intellektualizmga intilish obyektiv voqeylikka aylangan. Bu misol ijtimoiy davlatdagi xayoliy, utopik elementlarni obyektivlashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu vazifa, mumkinlik, avvalo, siyosatshunoslar va siyosatchilar zimmasiga tushadi.

Ijtimoiy davlat haqidagi tasavvurlarning, bilimlarning shakllanishida davlatchilik ilmi, davlat nazariyasi va tarixi, huquq falsafasi, falsafiy-huquqiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy borliqda, jamiyat va shaxs munosabatlarini ratsional tashkil etishda, xalqni ijtimoiy-etnologik sifatida shakllanishida davlatning yetakchilik rolini inkor qilish mumkin emas. Xalq, millat, etnik birliklar davlati orqali o'zining ijtimoiy borliqning va o'zgarishlarning subyekti ekanini namoyon qiladi. Davlat institutiga tayanmaydigan, uning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lmagan xalq, millat, etnik birlik uchramaydi. Shuning uchun ham amerikalik faylasuf va sotsiolog F.Fukuyama global dunyodagi muammolarni hal qilish, farovon turmush tarzini ta'minlash uchun, avvalo, milliy davlatlar kuchli bo'lishi zarur, degan falsafiy-huquqiy konsepsiyani ilgari suradi⁵³. Ijtimoiy davlatdan ham kuchli bo'lish talab etiladi, chunki milliy, hududiy muammolarni faqat milliy davlatlar hal etishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy davlat zimmasiga insonlar hayotini asrash, xavfsiz muhitni shakllantirish, xalqaro munosabatlarda milliy hududiy xavfsizlikni ta'minlash, agressiv uyushmalar xurujidan aholini himoya qilish kabi vazifalar ham yuklatiladi. Milliy va hududiy xavfsizlikni ta'minlash, harbiy imkoniyatlardan foydalanish muammolari hali kun tartibidan olingan emas, ijtimoiy davlatlar ham ulardan xoli bo'lolmaydi. Urush va tinchlik muammosi barcha davrlarda, barcha davlatlarda hayot–momot, tarix sahnasida qolish yoki undan tushib qolish masalasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ijtimoiy davlat o'zining harbiy doktorinasiga, xalq va davlat

⁵³ Фукуяма Ф. Сильное государство. – Москва: АСТ, 2002.

xavfsizligini ta'minlash uchun harbiy imkoniyatlaridan foydalanish taktikasiga ega bo'lishi lozim. Ijtimoiy davlatning harbiy doktrinasini urushish uchun qurollanishga emas, balki xalq va davlat xavfsizligini ta'minlash uchun harbiy imkoniyatlardan foydalanish tamoyiliga qurilishi kerak. Ijtimoiy davlatning harbiy doktrinasini, bizning fikrimizcha, xalq va davlat xavfsizligini ta'minlash falsafasi bo'ladi.

Ijtimoiy davlat asoslarini o'rgangan olimlar diqqatini hozirda mavjud Davlat–Jamiyat–Shaxs tizimining Shaxs–Jamiyat–Davlat tizimiga aylanishi jarayonlariga qaratishadi⁵⁴. Ushbu triadalar ma'lum bir fikrlarni bildirishga undaydi. Birinchi triadada urg'u davlatga beriladi. Bu antik davrdan beri davom etib kelayotgan huquqiy an'anadir. Davlatning rolini va ahamiyatini kuchaytirish hukmron sinf manfaatlarini himoya qilishning kafolati ediki, aynan shuning uchun ham barcha kuchlar, shu jumladan, intellektual kuchlar ham, o'sha manfaatlariga xizmat qilgan. Tashqi va ichki xavf davlat institutini, saroy boshqarishini kuchaytirishni talab etgan, armiya va boshqaruv organlari har qanday norozilikni, tashqi hujumlarni qaytarish vositalariga aylangan. Davlatning kuch bo'lishi obyektiv talab edi. Ijtimoiy davlatda (ikkinchi triadada) urg'u insonga, shaxsga beriladi. Unda Jamiyat va Davlat inson manfaatlariga xizmat qilishi zarurligiga ishora bor. Jamiyat va davlatda amal qiladigan tartiblar, qonunlar va boshqarish ishlari insonga xizmat qilishi bilan e'tiborlidir. Ikkinchi triadada inson manfaatlarining birinchi o'ringa qo'yilishi jamiyat va davlat rolini kamaytirmaydi, balki ularning inson manfaatlariga xizmat qilishdagi ahamiyatini oshiradi. Endi ularni vazifalari Platon nazarda tutgan butun (davlat, jamiyat)ga emas, balki aniq inson, shaxs manfaatlariga xizmat qilishga qaratiladi. Jamiyat va davlat funksiyalari markaziga inson, uning manfaatlariga xizmat qilish qo'yiladi. Bu hozircha umumiy falsafiy yondashuv, amalda u qanday ro'y beradi? Ijtimoiy muhit, milliy mentalitet, davlatchilik an'analari bu o'zgarishlarni qanday qabul qiladi? Shaxs manfaatlariga urg'u berish g'arb individualizmiga yetaklamaydimi? Sharqona kommunitaristik hayot tarzi, jamoaviylik an'analari nima bo'ladi? Demak, triadalardagi paradigmalar o'zgarish butun ijtimoiy hayotga, milliy mentalitet va etnomadaniy jarayonlarga ta'sir etadi, asrlar davomida e'zozlangan an'analarni transformatsiyaga uchratadi. Inson

⁵⁴ Гриценко Н.Н., Волгин Н.А., Попов Ю.Н., Шарков Ф.И. Шулуус А.А. Основы социального государства. Учебник. – Москва: Изд. дом. АТиСО, 2016. С. 236–240.

shaxsini va uning manfaatlarini himoya qilish, e'zozlash ezgu maqsad, barcha gumanistik ta'limotlar insonga yo'naltirilgani tufayli jamiyatda birlik, barqarorlik, axloqiy qadriyatlarga itoat etish kabilar saqlanib keladi. Shunday bo'lsa-da, g'arb jamiyatlari shaxsdagi egoistik xislatlarni qo'llab quvvatlashi orqali individualizmni avj oldirganini unutib bo'lmaydi. Sharq xalqlarida esa jamoaviylik tamoyiliga bo'ysunish ustuvor, ular o'zini ushbu ana'anadan tashqarida deb bilmaydilar. Ijtimoiy davlat modelida esa ushbu g'arbona turmush tarzini sharqona turmush tarziga, sharq kishisi ongiga singdirishga intilish kuzatiladi. Shuning uchun falsafiy-huquqiy tadqiqotlar insonning jamiyat va davlat bilan bo'ladigan aloqalarini, ular manfaatlarini garmonizatsiyalash masalalarini o'rganishi kerak. Bizning ishonchimizcha, bunday tadqiqotlar sharqona turmush tarzini, Sharqning go'zal va serma'no kommunitaristik (jamoaviylik) an'analari rad etishni ko'zlamasligi zarur.

Falsafiy-huquqiy tadqiqotlar ijtimoiy davlatning ideal ko'rinishdan, xayoliy sxemadan, utopiyadan real hayotga aylanish qonunlarini ochib berishi zarur bo'ladi. Ideal modelning real modelga aylanishi qonunlarini aniqlash, qanday qilganda ijtimoiy davlat barpo etishning aniq usullarini, yo'llarini topish mumkin, degan savolga javob izlash falsafiy-huquqiy izlanishlar zimmasidadir. Ideal modelning real modelga aylanishi triadadagi barcha qismlarni uyg'unlikda qarashga undaydi, ularning birortasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ijtimoiy borliq va ijtimoiy munosabatlar, umuman, jamiyatning rivojlanishi faqat shaxs manfaatlarini bilan o'lchanmaydi, jamiyat rivoji barcha qismlar faolligining natijasi bo'lishi mumkin. Inson yashayotgan ijtimoiy muhitni, u kirishadigan ijtimoiy munosabatlarni gumanizatsiyalash muammolari chuqur nazariy falsafiy diskurslarni taqozo etadi.

Ijtimoiy davlatning yuridik aksiologik asoslarini o'rganish hali ilmfan aniqlamagan muammolarga ro'para qiladi. Huquq masalalarining borligini, ijtimoiy davlatning huquqiy xarakterini qayd etish yetarli emas. Ijtimoiy davlat huquq fenomenini asosiy qadriyat sifatida e'tirof etishi ijobiy yondashuv, albatta. Biroq, huquqiy qadriyatning ijtimoiy davlat funksiyalaridan biriga aylanishi mexanizmlari nimalardan iborat? Huquqni mutlaqlashtirish ijtimoiy hayotni unifikatsiyalashtirishga olib kelmaydimi? Bunday bo'lmasligi uchun huquqiy qadriyatlar bilan axloqiy normalar,

an'analar va urf-odatlarining regulyativ vazifalari qiyoslanishi kerak. Ijtimoiy davlatda huquq e'zozlanadigan qadriyatga aylanadi, ammo u boshqa sotsial normalarni rad etmaydi. Demak, rasmiy huquq bilan norasmiy huquq ya'ni axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analarning regulyativ funksiyalari o'rtasidagi muammolar ijtimoiy davlatda ham saqlanib qoladi.

Rasmiy huquq bilan norasmiy huquq o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy davlatdagi sotsionormalarni harakatchan, davr va ehtiyojlar talablariga muvofiq o'zgaruvchan qiladi. Ular ijtimoiy hayot dinamizmi va mobilligini ifoda etib, butun jamiyatni harakatga keltiruvchi qadriyatlarga aylanadi⁵⁵. Huquq qanchalik samara bermasin, jamiyat axloqni ko'proq e'zozlaydi, uning regulyativ kuchiga ko'proq ishonadi. Sharq xalqlarida axloqqa ishonish shunchalik kuchliki, ular siyosat, huquq, yuridik mexanizmlar ta'sirini ham ma'naviy omillar bilan o'lchashga moyil. Mazkur an'analarini hisobga olmay yangi, ijtimoiy davlat talablariga muvofiq keladigan huquqiy qadriyatlarni shakllantirib bo'lmaydi. Axloqdagi stixiyalik, har doim ham davlat qarorlari va institutlariga bo'ysunavermaslik, sub'ektivlik bor⁵⁶. Xalq hayotiga va har doim ham anglanavermaydigan va har doim ham boshqarilavermaydigan ong jarayonlari bilan bog'liklik esa uni (ya'ni axloqni) "ijtimoiy mobil" (P.A.Sorokin) qiladi. Ijtimoiy davlatda, bizning fikrimizcha, ma'naviy-axloqiy normalar ustuvorlik, huquqqa nisbatan yetakchilik qiladi, aks holda jamiyatning, dalat boshqaruvining gumanistik ahamiyatini oshishiga ishonch paydo bo'lmaydi. Ijtimoiy munosabatlarning axloqiy qadriyatlarni alohida e'zozlashi huquqni, boshqarishni ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga xizmat qilishi zarurligini anglatadi. Agar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga munosabatlarda keskin ijobiy o'zgarish sodir bo'lmasa, jamiyatning olg'a siljiganiga ishonish qiyin. Ijtimoiy munosabatlarning gumanistik o'zgarishlar tomon siljishi jamiyatni insonparvarlashtirishga oid islohotlar amalga oshirilganini tasdiqlaydi. Aslida bu ideal davlat tomon tashlangan navbatdagi qadamdir.

⁵⁵ Каранг:Сорокин П.А. Социальная мобильность. – Москва: Academia LVS, 2005. С. 238–242.

⁵⁶ Каранг:Теория государства и права. Учебник для взов. – Москва: Изд. НОРМА ИНФРА М., 2001. С.255.

II BOB. IJTIMOIIY DAVLATNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI VA ULARNING FALSAFIY-HUQUQIY JIHATLARI

2.1. Ijtimoiy adolatni ta'minlash ijtimoiy davlatning bosh funktsiyasi sifatida

Ijtimoiy adolat ideal davlat barpo etishning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. “Kishilik jamiyati tarixi ko‘rsatadiki, ijtimoiy adolat haqida fikr yuritmagan, uni ta'minlash ustida bosh qotirmagan davr, mutafakkir, kishi topilmaydi. Ijtimoiy adolatni ta'minlash masalalari falsafiy–huquqiy tadqiqotlarda ham tilga olinadigan mavzudir”⁵⁷.

Mavzu qanchalik qadimiy bo‘lsa-da, unga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj ijtimoiy ong, ijtimoiy munosabatlar hamda davlatchilikka oid tadqiqotlarda muhokamadan tushib qolmagan. Har bir davr va har bir davlat undan o‘ziga muvofiq jihatlarni qidirgan, ijtimoiy adolatning yangi yangi qirralarini kashf etgan. Ijtimoiy davlat esa ijtimoiy adolatni ta'minlashni o‘zining bosh maqsadi, vazifasiga aylantirgan. Shuning uchun ijtimoiy davlatning asosiy funksional xususiyatlarini o‘rganish ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyatlarini aniqlash va ochib berishdan boshlanishi zarur.

“Adolat” va “ijtimoiy adolat” falsafiy axloqiy tushunchalar sifatida Suqrot davridan beri muhokama qilib kelinadi. Ularga bag‘ishlangan bahs, munozara va diskurslarning soni sanog‘i yo‘q. Ularni tahlil qilish va boshqacha talqin yoki ilmiy konsepsiyani ilgari surish bizning vazifamiz emas. Ammo ularning ijtimoiy davlat konsepsiyasini shakllantirish, uning ideal modelini real modelga olib chiqish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur falsafiy-huquqiy jihatlarni ochib berish muhimdir.

Suqrotning Frasimax bilan bahsi mavzumiz uchun betakror manba bo‘lishi mumkin. O‘z fikrlariga mahliyo Frasimax davlat boshqaruvining tiraniya, demokratiya va aristokratiya shakllari borligini qayd etadi. Suqrot bu fikrga, klassifikatsiyaga e’tiroz bildirmaydi, uni qabul qiladi. Keyin Frasimax, “har bir davlatda kim hokimiyat tepasida bo‘lsa, u kuchga ega” deydi. Bu fikrga ham Suqrot e’tiroz bildirmaydi, uni tasdiqlaydi. Kim hokimiyat tepasida bo‘lsa, u o‘ziga zarur qonunlarni o‘rnatadi, deydi Frasimax. Uning fikricha, “demokratlar demokratik qonunlarni, tiranlar tiraniyaga oid qonunlarni, va boshqalar ham shu tarzda o‘ziga ma’qul

⁵⁷ Қаранг: Алимасов В. Ижтимоий давлат нима? // Тафаккур, 2024, №1. – 26 б.

qonunlarni oʻrnatadi, ushbu qonunlarni oʻrnatganlar kuchlilar, ularni adolatli deb biladilar va ularni buzganlarni adolatni buzganlar sifatida jazolaydilar. Barcha davlatlarda hokimiyatga ega kishilar oʻzlariga muvofiq qonunlarni adolatli deb biladilar. Barcha davlatlarda mavjud hokimiyatga foydali narsalar adolatlidir”⁵⁸. Frasimax fikrlariga qoʻshilgan Suqrot uning “kuchlilar” degan soʻzini bilmasligini aytadi. Keyin Frasimax “kuchlilar” degan qonunlar qabul qiladiganlarni bildiradi va ular qabul qiladigan qonunlar qolganlar uchun adolat sifatida qabul qiliishini bildiradi. Goho “adolatsizik adolatdan kuchli” degan xulosani bildiradi. Bu oʻrinda, ikkin narsani eʼtiborga olish darkor. Birinchidan, qonunlarni boshqarish organlari, hukumatdagilar qabul qiladi. Bu qonunlarni qabul qilishda qatnashadigan xalq vakillari xalq irodasini ifoda etadi, deyish qiyin. “Xalq irodasi” soʻzining oʻzi mavhum tushunchadir. Ushbu mavhum tushunchani qonunlarga singdirishni tasavvur qilib boʻlmaydi, amalda mumkin emas. Demak, qonunlar xalq irodasini ifoda etadi, deyish “adolat”ni ham soʻz oʻyiniga aylantiradi. Qonunlarni qabul qiladiganlar esa qonunlar ishlab chiqishda oʻzining yoki oʻzi mansub guruhlarining, partiyaning manfaatlarini ifoda etadilar. Bu tabiiy jarayondir. “Kuchlilar” qabul qiladigan qonunlar adolatni emas, balki oʻzi yoki oʻzining guruhi, partiyasi manfaatlariga muvofiq keladigan, adolatli deb biladigan tartiblarni oʻrnatadilar. Bu tartiblar xalq irodasini ifoda etavermasligi odatiy holdir. Ikkinchidan, qonunlarni adolatga aynanlashtirish bir tomonlama, tor yondashuvdir. Xalq irodasini ifoda etadigan adolat qonunlar doirasiga sigʻmaydi, ular qonunlardan keng, shuning uchun ularni qonunlar bilan cheklash mumkin emas. Bu oʻrinda axloqiy meʼyorlar, urf odat va anʼanalar birinchi oʻringa chiqadi, ular, tabiiy ravishda, qonunlar doirasini kengaytiradi yoki ularni umuman rad etishi mumkin. Suqrot qonunlarning adolatli boʻlishini ana shu axloqiy meʼyorlar orqali baholashga intiladi. U adolatni “ezgu amal va donolikda” koʻradi⁵⁹. Ezgu amal barchaga mos, ammo donolikni barchadan talab qilib boʻlmaydi. Chamasi, Suqrot “donolik” deganda aqlu idrokka boʻysunishni nazarda tutgan, bu tarzda “ezgu amal va donolik” barchaga mos fazilatdir. Demak, ezgu amalli va dono jamiyatda adolat muqarrardir.

⁵⁸ Платон. Государство. – Москва: Изд. АТ, 2022. С. 22.

⁵⁹ Платон. Государство. – Москва: Изд. АТ, 2022. С. 42.

Suqrot adolatning barcha davrlar va davlatlar uchun dolzarb bo'lgan, hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan falsafiy-huquqiy masalalarini muhokama qiladi. Masalan, uning fikricha, adolatstizlik kishilar o'rtasida kelishmovchilik, nafrat va nizolarni, adolat esa hamjihatlik va do'stlikni keltirib chiqaradi⁶⁰. Davlat adolatli bo'lganida kishilar o'rtasidagi inoqlikni, do'stlik va o'zaro hamkorlikni ta'minlash muammoga aylanmaydi, agar adolatsizlik mavjud bo'lsa, bunday davlatda kelishmovchilik, nizo, bir-biridan o'ch olish, nafrat va bir-biriga ishonmaslik kabi destruktiv xatti harakatlar avj oladi. Suqrotning fikr mulohazalaridan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundaki, adolatni o'rnatgan davlatda kishilar o'rtasida hamjihatlik va do'stlik mavjud bo'ladi, bunday jamiyatda kishilar bir-birlariga, ayniqsa, davlatga, uning siyosiy institutlariga ishonadilar, adolatsizlik yuzaga kelganida esa jamiyatda ahillik yo'qoladi. Demak, davlat bilan xalq o'rtasidagi bir biriga ishonch, hamkorlik va do'stona munosabatlarning shakllanishi adolat tamoyillarining ta'minlanishiga bog'liqdir. Shunga yaqin falsafiy-huquqiy va axloqiy yondashuvni biz "Avesto"da ham uchramiz. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "Avesto"da davlatchilik adolat tamoyillari va adolatli boshqaruv bilan uyg'un keladi. Zardo'shtiylar kitobida davlatchilikning shakllanishi uch bosqichga bo'linadi: "birinchi eng qadimiy davrdagi hayotda adolat va insoniy baxt saodat hukmron bo'lgan; ikkinchi davrda ezgulik va yovuzlik ruhlari o'rtasida adolat uchun kurash davom etgan; uchinchi davrda aql-idrok, adolat tantana qilgan. "Avesto" yaxshilikdan ta'lim berib, unga sadoqatli bo'lib, yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan adolatli qonunlarni joriy qilsinlar va amalga oshirsinlar, degan ta'kidi bejiz emas"⁶¹. Adolatli davlat va adolatli boshqarish haqida Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ar-Roziy, Ibn Rushd, Nasriddin Tusiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ahmad Donish, As-Samarqandiy ham qimmatli fikrlar bildirishgan. Ular adolatni shoh, uning fazilatlari, raiyatga munosabatlari va axloqiy fazilatlari bilan bog'lashadi. Axloqiylik va adolat tamoyillari uyg'un keladi. Davlat boshqaruvini axloqiylik bilan bog'lash Sharq siyosiy falsafasi va

⁶⁰ Платон. Государство. – Москва: Изд. АТ, 2022. С. 44.

⁶¹ Жўракулов Ф., Қосимов Н. Ўзбекистонда давлат бошқаруви ривожланишининг тарихий ва замонавий асослари. Матн. – Тошкент: "Turon zamin ziyo", 2016. 12–13 б.

kratologiyasida an'anadir. Ijtimoiy davlat ushbu an'analarni zamonaviy qarashlar bilan uyg'unlashtirishi zarur, chunki davlat rahbarining axloqiy fazilatlari, adolatli ish yuritishi hali adolatli davlat, adolatli boshqaruvning o'rnatilganini bildirmaydi. To'g'ri, mamlakatni adolatli boshqarishda davlat rahbarining axloqiy fazilatlari, adolatli boshqaruvi muhim o'rin tutadi, ammo zamonaviy jamiyatlarda boshqarish subyekti faqat davlat boshlig'i emas. Fuqarolik jamiyati institutlari, parlament, mahalliy boshqaruv organlari, o'zini-o'zi boshqarish institutlari, korporatsiya va transmilliy uyushmalar kabi demokratik birlashmalar o'z manfaatlari orqali davlat boshqaruviga ta'sir etadi, uning taktikasini o'zgartirib, davr talablariga moslashtirib turadi. Ijtimoiy davlat ushbu reallikni, boshqarishga plyuralistik yondashuvni hisobga oladi.

Ijtimoiy adolat boshqa ijtimoiy voqeyliklar, ayniqsa, ijtimoiy himoya, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy hamkorlik kabilar bilan uyg'un keladi, sof ijtimoiy adolat mumkin emas. Biroq ilmiy maqsad nuqtayi nazaridan ularni alohida o'rganish, ichki xususiyatlarini alohida voqeyliklar sifatida tadqiq etish mumkin. Bu esa ijtimoiy davlatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy qonuniyatlari va mexanizmlari nimalardan iborat bo'ladi, degan savolni kun tartibiga qo'yadi.

Ilmiy va falsafiy-huquqiy, etikologik adabiyotlarni o'rganishdan ma'lum bo'ladiki, adolat va ijtimoiy adolatni ta'minlashning quyidagi qonuniyatlari va mexanizmlari mavjud:

- 1) adolat inson mavjudligining, o'y-xayollarining, orzusining tarkibiy qismidir;
- 2) ijtimoiy adolat jamiyatda tenglik va muvozanat ifodasidir;
- 3) ijtimoiy adolat go'zal va oliyjanob ma'naviy axloqiy qadriyat;
- 4) ijtimoiy adolat ideal jamiyat barpo etish haqidagi maftunkor utopiya;
- 5) har kimning o'z adolati yoki ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlari bor;
- 6) ijtimoiy adolatni o'rnatish, ta'minlash mumkin.

Insondagi o'y, xayol, fantaziya bir on ham uni tinch qoldirmaydi. Aslida u ushbu xislatlari bilan o'zini tirik va ongli mavjudot ekanini tasdiqlaydi. Adolat va ijtimoiy adolatni ta'minlash azaldan kishilarning orzusi sifatida ularning o'y-xayollari, hatto fantaziyasining ifodasi bo'lib

keladi. Utopiya adolatning yoki ijtimoiy adolatni o'rnatishning atributi sifatida mavjud. Ularning o'y-xayol olami bilan bog'liqligi inson intilishlariga, adolatli jamiyat barpo etish orzulariga quvvat beradi. Shu nuqtayi nazardan adolat haqidagi o'y-xayollar, orzular inson qalbidan barqaror voqeylik sifatida joy olgan. Aristotel barqaror va o'tkinchi narsalar haqida mulohazalar yurita turib, adolatni barqaror voqeylik ekanini ta'kidlaydi⁶². U adolat va adolatsizlik, kam adolatli va ko'p adolatli (bu ham faylasufning guruhlashidir) inson o'y-xayolidan chuqur joy olgan, ular voqeylik sifatida antinomik tushunchalardir, deb qayd qiladi. Aristotel ta'kidiga ko'ra, adolat yoki adolatsizlik voqeylikning sifat ko'rsatkichi, belgisidir. Ammo bu adolat haqidagi tasavvurlarning o'y, xayol va fantaziya mahsuli sifatida kelishini rad qilmaydi. Faylasufning o'zi "adolat insonning ruhida, qalbida mavjud", deb ta'kidlaydi⁶³.

Adolat va ijtimoiy adolatni ta'minlash haqidagi o'y-xayollar, orzular ijtimoiy davlat haqidagi fikrlardan avval keladi. O'y-xayollar va orzularning birlamchi ekani ularning ijtimoiy davlat haqidagi fikrlarda, konsepsiyalarda aks etishini shart qilib qo'yadi. Shuning uchun ijtimoiy davlatga oid fikrlarda, konsepsiyalarda utopiya elementlari bo'lishi tabiiy holdir. Masalan, yaratilgan ne'matlar va boyliklarni teng taqsimlash tamoyilini olaylik. Kapitalistik munosabatlar ustuvor, bozor iqtisodiyoti talab etadigan xususiy mulk va boylik orttirish odatiy holga aylangan sharoitda yaratilgan ne'matlar va boyliklarni jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlash mumkinmi? Bu orzu, utopiya emasmi? Lekin shunday bo'lsa-da, ijtimoiy davlat konsepsiyasining ixtirochilari mazkur utopiyani real voqeylikka aylantirish mumkinligiga ishonadilar. Demak, ijtimoiy davlat haqidagi fikr va konsepsiyalarda utopiya elementlari bo'ladi. Yirik o'zgarishlarga jur'at etgan subyekt ma'lum bir utopiyaga berilmasligi mumkin emas. ammo bu utopiya g'ayriinsoniy va g'ayritaraqqiy xususiyatga ega bo'lmasligi, jamiyatni, kishilarni go'zal va oliyjanob maqsadlar bilan yashashga undashi zarur. Agar shunday maqsad konsepsiyalarga va islohotlarga singdirilgan bo'lsa ulardagi utopiyani anglash, hatto qo'llab-quvvatlash mumkin.

Ijtimoiy adolat jamiyatda ijtimoiy tenglik va ijtimoiy muvozanat ta'minlash tamoyili sifatida keladi. Ijtimoiy adolatning ikki xususiy va

⁶² Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 2. – Москва: Мислы, 1978. С.72

⁶³ Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 2. – Москва: Мислы, 1978. С.86.

umumiy ko‘rinishlari bor. Ilmiy tadqiqotlarda adolatning ikki taqsimlash yoki distributiv adolat va tenglikni ta‘minlash yoki retributiv adolat ko‘rinishlari mavjudligi ko‘rsatiladi⁶⁴. Xususiyl ko‘rinishdagi adolat har bir kishining o‘y-xayoli va orzulari bilan bog‘liq, individual xususiyatga ega, tor ma‘nodagi subyektiv voqeylikdir. Utopiyaga, fantaziyaga berilish, kelajagini xayoliy modellar orqali ifodalash insonga xos fazilatdir. Ijtimoiy adolatni kishilar goho ana shu tasavvurlariga muvofiq voqeylik tarzida tushunadilar. Individuallik ijtimoiy adolatning umumiy (ijtimoiy) ko‘rinishiga ba‘zan zid keladi. Bu qism bilan butun, xususiyl bilan ijtimoiy voqeyliklar o‘rtasidagi ziddiyatlar, qarama-qarshi yondashuvlar mahsulidir. Ijtimoiy davlatda esa ushbu ziddiyat, qarama-qarshilik iloji boricha kam bo‘ladi. Shuning uchun ham ijtimoiy davlat jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta‘minlashni o‘zining asosiy vazifalaridan biri hisoblaydi. Ijtimoiy davlatda ijtimoiy tenglik qandaydir o‘rta ko‘rsatkich orqali ta‘minlanadi, unda boy, badavlat ham, yo‘qsil, qashshoq ham bo‘lmaydi, deb tushunmaslik zarur. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy tenglik barchaga ham huquqiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy teng imkoniyatlar yaratib berishni anglatadi. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish har bir fuqaroning ixtiyoridadir. Boy, badavlat yashash taqiqlanmaydi, balki, aksincha, kishilarning farovon yashashi qo‘llab-quvvatlanadi. Qashshoq, kambag‘al yashash ham shaxsning huquqidir. Shuning uchun ijtimoiy davlat ham fuqarosining ma‘lum bir o‘rtacha ko‘rsatkich darajasida yashashi uchun zarur shart sharoitlarni yaratib beradi. Bu o‘rta ko‘rsatkich qanday bo‘ladi, qanday parametrlardan tashkil topadi, degan savollarga javob topish uchun maxsus ilmiy izlanishlar o‘tkazilishi darkor.

AQSh va Yevropa davlatlarida bu borada ma‘lum bir izlanishlar o‘tkazilgan, tavsiyalar ishlab chiqilgan, ularni o‘rganish, milliy davlat tajribalariga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Shuni esda tutish lozimki, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy muvozanatni ta‘minlash, bolsheviklar qilganidek, “ekspluatatorlarni ekspropriatsiya qilish” tarzida amalga oshirilmasligi kerak. Jamiyatda ayrim shaxslarning haddan tashqari boyib ketish ehtimoli mudom mavjud bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy tenglik g‘oyasini yoqtirmaydi, u raqobat, kim o‘zdi tarafdoridir. Insonning barcha

⁶⁴ Якунин В.И. Понятие и реализация справедливости в современной государственной политике. — Москва: “Эксперт”, 2012; Принципы социальной справедливости и их реализация в современном мире. Материалы международной научно практической конференции. — Москва: Гуманитар университет, 2019.

faoliyatini, xatti-harakatlarini naf ko'rish, foyda olishga yo'naltiradi, bu esa jamiyatda sinfiy tabaqalanishni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy davlatda sinfiy tabaqalanish bo'lmasligiga qaratilgan siyosat olib boriladi. Adolat go'zal va oliyjanob ma'naviy axloqiy qadriyatdir. Xalq adolatga murojaat etganida, avvalo, ma'naviy-axloqiy normalarning deterministik ta'siriga ishonadi. Bu jarayonda u adolatning go'zal va oliyjanob ma'naviy axloqiy qadriyat deb tasavvur etadi⁶⁵. Umuman, Sharq falsafasida, ma'naviy axloqiy qarashlarida adolatni go'zal va oliyjanob ma'naviy axloqiy qadriyat sifatida talqin qilish Konfutsiy davridan beri mavjud. Xitoy donishmandining fikriga ko'ra, insondagi ibratli fazilat, uning "adolat haqida o'ylashidir"⁶⁶. U adolatni ezgulik, to'g'rilik, oliyjanoblik, haqiqat, insonparvarlik kabi ma'naviy-axloqiy voqeyliklar orqali tahlil qiladi. Konfutsiy shogirdi va izdoshi Mao Szi esa "Adolat Osmon ostidagi eng qimmatli narsa", adolatga erishish yo'li kishilarga o'z ehtiyojlariga muvofiq keladigan ish, amal, mashg'ulot berish, shu tarzda ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkin, deydi⁶⁷.

"Faqat mehr-muhabbat adolatlidir" degan g'oya Mao Szi falsafasi va etikasining asosi hisoblanadi. "Osmon, – deydi u, – adolatni sevadi va adolatsizlikni yaxshi ko'rmaydi. Agar kishilar adolatli ish qilsalar, Osmon yoqtirgan narsani qilgan bo'ladi. Agar men Osmon yoqtigan narsani qilsam, u ham men yoqtirgan narsani qiladi. Men nimani yaxshi ko'raman va nimani yoqtirmayman? Men baxt va farovonlikni sevaman, baxstsizlikni yomon ko'raman. Adolat ezgu amal, axloqiy fazilatdir"⁶⁸.

Ijtimoiy davlat jamiyat a'zolarida adolat tuyg'usi bilan birga yuksak axloqiy fazilatlarni ham tarbiyalashni nazarda tutadi. Davlatning adolatli bo'lishi kishilarda go'zal va oliyjanob fazilatlarni ham tarbiyalashi demakdir. Bu o'rinda adolat tamoyillarining inson o'ylari, xatti-harakatlari va axloqiga ham ijobiy ta'sir etishi namoyon bo'ladi. Ijtimoiy davlat adolatli faoliyati va adolatli boshqaruvi orqali jamiyatda gumanistik qadriyatlarning, yuksak axloqiy normalarning shakllanishiga erishadi.

⁶⁵ Отамуратов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафаси. –Ташкент: ILM Ziyo ZAKOVAT, 2025. –558б.

⁶⁶ Мудрецы Поднебесной. Симфереполь: "Реноме", 1998. С.140.

⁶⁷ Мудрецы Поднебесной. Симфереполь: "Реноме", 1998. С.167.

⁶⁸ Мудрецы Поднебесной. Симфереполь: "Реноме", 1998. С.200, 206 б.

Ijtimoiy davlat, shu jumladan, ijtimoiy adolat ham, ideal jamiyat barpo etish haqidagi maftunkor utopiya bilan burkangan. Maftunkor utopiya insonning o'y-xayollari, orzulari ifodasi sifatida uning kelajak hayot, borliq haqidagi tasavvurlarini bezaydi, unga ideal model yaratishga imkon beradi. Agar ideal modelda inson xayolini chulg'ab oladigan maftunkorlik bo'lmaganida, u ijtimoiy adolatni barqaror voqeylik, qadriyat sifatida qalbida saqlab kelmasdi⁶⁹.

Falsafaning o'zi ham maftunkor utopiya sifatida ijtimoiy ongni, kishilar subyektiv faoliyatini, gnoseologik qiziqishlarini o'ziga jalb etib keladi, undagi diskurslar ko'proq xayolot mahsullaridir. Maftunkor utopiyalik falsafada proyektiv izlanishlar va modellarni shakllantiradi, kelajak reallaikdan o'zgacha, hatto undan a'lo borliqqa aylanadi⁷⁰.

Ijtimoiy davlatdagi utopik elementlar uning tarixiy an'anaviy qarashlar bilan uyg'unligini, u mavjud tajribalarni mutlaq rad etmasligini, aksincha, ijtimoiy ong, falsafa va kratolgik ta'limotlardagi pozitiv qarashlarni o'zida mujassam etishini ko'rsatadi. Platonning "Davlat" (er. avv.360 -yil), Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Tomas Morning "Utopiya" (1516- yil), Tomazzo Kampanellaning "Quyosh shahri" (1623- yil), F.Bekonnig "Yangi Atlantida" (1627- yil), Georg Nevilning "Payns oroli" (1668- yil), Emilion Kabrening "Ikariyaga sayohat" (1840- yil), Fridrix Shelonskiyning "Kelajak dunyosida" (1895- yil), Gerbert Uellsning "Zamonaviy utopiya" (1905- yil), Aleksandr Kazansevning "Koinot Donkixodlari" va "Ming yillardan keyin" (1997- yil) asarlaridagi ijtimoiy adolat g'oyalari va mavzulari ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy asoslari sifatida qaralishi mumkin. Utopiyaning maftunkor g'oyasi uning kishilar qalbi o'yidan o'chmasligida emas, balki ijtimoiy ongda qaerdadir shunday davlat, jamiyat va makon bor unga, albatta, yetamiz, degan tasavvurning borligidadir. Ushbu tasavvur kishilarni ideal davlat va ideal jamiyat barpo etish o'yi bilan yashashga undab turadi.

⁶⁹ Кириллов А.И., Северова А.А. Социальная утопия из древности и до наших дней. – Москва: Изд. "Едитус", 2022; Желтикова И.В. Утопия и философия. Учебное пособие. – Москва: "Директ Медиа", 2021; Баталов Э.Я. В мире утопии. Пять диалогов об утопии, утопического сознания и утопических экспериментах. – Москва: Политиздат. 1989.

⁷⁰ Желтикова И.В. Утопия и философия. Учебное пособие. – Москва: Берлин: "Директ Медиа". 2021. С. 34–48.

Har kimning o'z adolati va ijtimoiy adolat haqida tasavvurlari, tushunchalari bor. Aslida bu plyuralizm, kishilarning ijtimoiy borliq va kelajak haqidagi fikrlari bir birlarinikidan farq qilishi tabiiy hol. Plyuralizmning borligi emas, balki aksincha, uning yo'qligi zararli. Biroq ijtimoiy adolat umumiy tasavvur va tushunchalarsiz mavjud bo'la olmaydi. Plyuralistik fikrlar pirovard natijada umumiy tasavvurlarda uyg'unlashuvi kerak. Ijtimoiy davlat o'zining ichki siyosati bilan adolat haqida ana shunday umumiy tasavvurlarni shakllantiradi. Ijtimoiy davlat plyuralistik yondashuvni rad qilmaydi, ular ustidan total nazorat uyg'otmaydi. Plyuralizm demokratik qadriyat sifatida ijtimoiy davlatda ham mavjud bo'ladi, ammo u umumiy ijtimoiy birlik, ahillik, hamkorlik talablarini ustuvor norma deb biladi. Bu norma ko'pincha qonunlar, huquqiy qadriyatlar tarzida keladi, plyuralistik fikrlar ushbu qadriyatlarga tayanadi.

Ijtimoiy adolatni, shu jumladan, ijtimoiy davlatni ham, o'rnatish mumkin, degan fikr insoniyat tafakkurida azaldan mavjud. Demak, ularni qaror toptirish xayol o'yinlari, utopiya emas. To'g'ri, ijtimoiy adolat va ijtimoiy davlat to'la qaror topgan davlat uchramaydi, ammo ularning asosiy tamoyillarini, eng muhim jihatlarini ilg'or davlatlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, qonun ustuvorligini ta'minlash, demokratik boshqaruv institutlarini joriy etish, inson huquq va erkinliklari uchun kurash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish, davlatning kuchli ijtimoiy himoya siyosatini qabul qilishi, shaxsning ish bilan bandligi, uning zarur bo'lganida davlatning moddiy yordamini olishi, shaxsiy hayoti xavfsizligining ta'minlangani kabilar shular jumlasidandir. Bu chora-tadbirlar BMT va boshqa xalqaro uyushmalar tomonidan davlat ichki siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha davlatlar xalqaro reytingi aniqlanadi va ularning kelgusi yillarda bajaradigan ijtimoiy va huquqiy vazifalari belgilab beriladi. Agar ijtimoiy adolat va ijtimoiy davlat barpo etish shunchaki xayoliy orzu, utopiya bo'lib qolganida pragmatizmga, ijtimoiy amaliy natijalarga qurilgan AQSh, Angliya, Shvetsiya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya o'zining strategik vazifalarini mutlaq boshqa siyosiy paradigmaga qurishgan bo'lardi. Ushbu ilg'or davlatlar erishgan yutuqlar, ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan ichki siyosati demokratik taraqqiyot yo'liga kirgan boshqa davlatlar uchun

ibrat, namuna bo'layotganining boisini endi anglasa bo'ladi. Demak, ushbu fikr-mulohazalardan ikki xulosa kelib chiqadi: birinchisi, ijtimoiy adolat va ijtimoiy davlat kelajakka qaratilgan orzular, xayoliy modellar ifodasidir. Bu tasavvurlar insoniyatni azaldan qiziqtirib, o'y-xayollarini band etib keladi. Shu ma'noda ularga utopiya sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, mazkur modellarni real voqeylikka aylantirishga, obyektivlashtirishga insoniyat tayyor emas edi. Ijtimoiy-tarixiy jarayonlardagi obyektiv va subyektiv omillar ideal davlatni va ideal jamiyatni barpo etish imkonini bermagan, natijada modellar shunchaki xayolot mahsullari bo'lib qolavergan. Bugun insoniyat, demokratik rivojlanishning mazkur bosqichida, ijtimoiy adolat va ijtimoiy davlatni barpo etish uchun obyektiv va subyektiv omillardan samarali foydalanish imkoniga ega. To'plangan siyosiy va falsafiy–huquqiy tajribalar, bilimlar ularni real voqeylikka aylantirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ijtimoiy adolat va ijtimoiy davlatni barpo etish mumkin. Ikkinchidan, insoniyat va falsafiy-huquqiy bilimlar ijtimoiy adolat va ijtimoiy davlat haqida aniq, ilmiy tasavvurlarga ega. Endi ushbu tasavvurlarni obyektivlashtirish yo'llarini qidirish, davlatlar va siyosiy institutlarni, jamiyatlarni shu paytgacha orzu, tilak va utopiya bo'lib kelgan modellarni real voqeylikka aylantirishga yo'naltirish darkor.

2.2. Ijtimoiy davlatda ijtimoiy himoya siyosati

Ijtimoiy davlatning asosiy funksiyalaridan biri ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, jamiyat a'zolarining farovon, baxtiyor va huquq va erkinlarga ega shaxslar sifatida yashashini ta'minlashdir. Kishilarga huquq va erkinliklar berish yetarli emas, ular davlatining salomatligi, bilim olishi, ish bilan ta'minlanishi, qariganida nafaqa olishi, uy-joy bilan ta'minlanishi, xususiy mulk orttirishi va merosga ega bo'lishi haqida ham qayg'urishini istashadi. Aynan ushbu vazifalarni o'z ustiga olgani tufayli davlat xalqchil, xalq esa uning manbaidir. Ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilishdir. Kapitalistik munosabatlar avj olgan XIX asrda davlatning rolini insoniylashtirish, uni jamiyat ichidagi antagonistik ziddiyatlarni ijtimoiy taraqqiyot tomon yo'naltirish ilm ahli diqqatini torta boshladi. Bu borada turli, liberal–demokratik, monarxistik, konstitutsional, anarxistik, demokratik, marksistik nazariyalar yuzaga keldi. Ularning ilmiy-falsafiy va siyosiy mohiyatiga

oid ko‘plab asarlar yozilgan⁷¹. Ular ichida ijtimoiy davlat nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy davlatning mohiyati va funksional xususiyati maxsus tadqiqotlarda ochib berilgan⁷².

I. Aristovning ta’kidlashicha, ijtimoiy davlat jamiyatdagi mulkiy va ijtimoiy ziddiyatlarni yaratilgan boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida teng taqsimlash, bir qatlamning o‘ta boyib boshqa qatlamning o‘ta qashshoqlashib ketmasligini ta’minlash uchun muvozanat o‘rnatish, ijtimoiy himoyaning samarali usullarini yaratish orqali hal qiladigan institutdir⁷³.

Ijtimoiy himoya rang-barang institutlar, usullar va mexanimlardan iborat. U jamiyatning deyarli barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat a’zolarining tub manfaatlari – yashash, mehnat qilish, bilim olish, oila qurish, turar joyni erkin tanlash, fikrini erkin bildirish, saylovlarda qatnashish, istagan dinga e’tiqod qilish kabilarni ta’minlashni yo‘lga qo‘yadi. Bu chora-tadbirlari amalga oshirishni samarali yo‘li ijtimoiy himoyaning kuchli huquqiy bazasini yaratishdir. Masalan, zamonaviy ijtimoiy davlatlar bo‘lgan Shvetsiya, Belgiya, Niderlandiya, Germaniya kabilarda nafaqat umumiy yo‘nalishdagi ijtimoiy himoya qonunlari, shuningdek, differensial ko‘rinishdagi qonunlar, direkt va ediktlar qabul qilingan. Ularda masalan, homilador yoki boquvchisiz qolgan keksa ayollarni, nafaqa yoshidagi kishilarni, yetim bolalarni, nogiron shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shvetsiya va Belgiyada qonunlar ijtimoiy himoya komissiyasi ruxsatidan o‘tgach parlamentlar tasdig‘iga yuborildi.

Ijtimoiy himoya tizimiga tashqi va ichki Xavfsizlikni ta’minlash (mudofaa va ichki ishlar vazirligi), chet ellardagi fuqarolarni himoya qilish (tashqi ishlar vazirligi, dipxizmat muassasalari), va favquloddagi xavflarni bartaraf etish (favqulodda ishlar vazirligi, yonginga qarshi kurashuvchi muassasalar), inson salomatligi va uzoq umr ko‘rishiga ko‘maklashish (sog‘liqni saqlash vazirligi, fizkultura va sport qo‘mitasi, reproduktiv salomatlik markazlari), ish vaqtida, undan keyin va mehnat ta’tilini ta’minlash (barcha korxonalar, muassasalar), o‘quvchi, talaba

⁷¹ Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетея, 2019, С.4.

⁷² Артахаштра или наука политики. – Москва: Изд. АН СССР, 1959. С.6–32.

⁷³ Древнекитайская философия в двух томах. – Москва: Мысль, 1972; Ли Сюй. Концепция справедливости в философских школах Древнего Китая “Преподаватель XXI век”. 2013 С.10–14.

va ta'lim olish bilan band Fuqarolarni qo'llab-quvvatlash (barcha ta'lim–tarbiya dargohlar, kasaba uyushmalari, jamg'armalar) kiradi. Xullas, jamiyat va davlatdagi barcha tizimlar, institutlar va idoralar u yoki darajada ijtimoiy himoyani amalga oshiradi.

Agar, shu nuqtayi nazardan yondashsak, davlat har bir institut ustiga inson manfaatlariga xizmat qilish va Konstitutsion huquqlarini himoya qilishni vazifa qilib yuklaydi. Buning uchun u har bir sohaga oid qonunlarida inson manfaatlari va huquqlarini ustuvor yo'nalish, bosh maqsad sifatida e'tirof etadi. Faqat Konstitutsiyada emas, balki har bir qonunda, qonun osti hujjatlarida, hukumat dasturlarida inson manfaatlariga xizmat qilish bosh maqsad sifatida qayd etiladi. Bu o'rinda umuminsoniy normalar, gumanitar huquq milliy qonunlarda ustuvorlik qiladi, ulardagi gumanitar maqsadlarga taalluqli mexanizmlar milliy huquq tizimiga joriy etiladi. Implementatsiya tajribalarini qayta ko'rib chiqish va ijtimoiy davlatning kratologik xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy huquqiy bazani shakllantirish talab etiladi.

Ijtimoiy davlatning shakllanishi o'zidan o'zi ro'y bermaydi, uning siyosiy–amaliy tajribasi mavjud. Bu tajriba:1) davlatchilik tarixi; 2) etnosiyosiy jarayonlar; 3) milliy mentalitet; 4) yuridik izlanishlar bilan bog'liqdir.

1. Davlatchilik tarixi zamonaviy davlatni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Hech bir davlat quruq joyda, ma'lum bir tarixiy tajribalar ta'sirisiz, sof tarzda paydo bo'lmagan. O'zbekistonda shakllanadigan ijtimoiy davlat o'zbek davlatchiligi, undagi milliy xususiyatlarga muvofiq shakllantirilgan boshqarish usullari, institutlari va texnologiyasiga tayanishi obyektiv zaruriyatdir.

Biroq savol uyg'onadi, bu tarixdan nima, qanday boshqarish usullari o'zlashtiriladi? Tarixdagi barcha usullar ham ijtimoiy davlatga to'g'ri kelavermaydi. Masalan, monarxiya yoki oilaviy dinastiya meros bo'lib o'tadigan shohlik boshqaruvini o'zlashtirish ijtimoiy davlatga mutlaq to'g'ri kelmaydi. Hudud va shaharlarni xususiy mulk qilib berish, o'ziga yaqinlarni hokim qilib tayinlash kabi usullar ham unga begona. Ijtimoiy davlatga ijtimoiy adolat, tenglik va insonning huquq va erkinliklarini e'tirof etadigan, boshqarish institutlari o'z faoliyatini gumanistik qadriyatlarga quradigan, sinfiy tabaqalanishga

mutlaq qarshi bo'lgan tajribalar to'g'ri kelishi mumkin. Bunday tajribalar mujassam davlatni tarixdan topish mushkul, demak, yuqoridagilar ayrim olgan davlatda emas, balki turli tuzumlardagi boshqarish usullarida, turli ko'rinish va usullarda uchraydi. Ushbu gumanistik, ijobiy davlatchilik tajribalari va usullarini o'zlashtirish ijtimoiy davlat vazifasiga kiradi.

Agar gap o'zbek ijtimoiy davlat va uni shakllantirish ustida ketsa, bu borada "Avesto" dagi ijtimoiy-siyosiy merosdan tortib, to mustaqillikgacha (1991) bo'lgan davlatchilik tajribalarini tahlil qilishga, ulardagi ijtimoiy davlatga xos jihatlarni o'rganishga ilmiy ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunda davlatchilik tajribalarini shunchaki misol, fakt sifatida keltirish, retrospektiv tahlil qilish yetarli emas, bu boradagi har bir fikr va boshqarish usuli falsafiy–huquqiy nuqtayi nazaridan o'rganilishi zarur.

2. Etnosiyosiy jarayonlar haqida hali ilm-fan aniq tasavvurlarga ega emas. Uning ayrim jihatlari Gerodot, Fukidid, Plutarx Ibn Xaldun, I.Gerder, A.Toynbi, L.Gumilyov asarlarida muhokama qilinadi, ammo ular etnosiyosiy jarayonlar haqida aniq tasavvurlar uyg'otmaydi. Chunki u davrda etnosiyosiy jarayonlarning o'zi nima ekanligi ayon emas edi. N.A.Nalchadjyan e'lon qilgan etnopolitologik tadqiqot natijalari esa muammoga oid izlanishlardagi yangilik⁷⁴. Shunday bo'lsa-da, etnosiyosiy jarayonlar mudom etnos, millat va davlatchilik bilan uzviy bog'liq tarzda davom etib kelgan. Masalan, Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga bostirib kelishi etnosiyosiy jarayonlarda o'zi aksini topmasligi mumkin edi? Yoki stalinizm qaror toptirgan markazlashgan ma'muriy boshqarish etnosiyosiy jarayonlarni o'z ta'siriga olmasligi mumkinmidi? Albatta, yo'q. Etnosiyosiy jarayonlarda ro'y beradigan o'zgarishlarning yo ijobiy yoki salbiy voqeylik sifatida paydo bo'lishi xususiyatlarini, negizlarini bilish har bir milliy davlat uchun muhimdir. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari kishilar azaldan intilib kelgan farovon hayot va sotsial birlik, ahillik va osoyishtalik kafolatidir⁷⁵.

⁷⁴ Алимасов В. Конфуцийлик ва Шарқ давлатчилиги. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр., 2006–30 б.

⁷⁵ Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО "Юридический центр Пресс", 2012; Верховенство права и правовое государство: проблемы теории и практики. Материали X Международной научно теоретической конференции (13–16 апреля 2015 г.) – Москва: РГУП, 2016; Шарифходжав М. Ўзбекистонда очик фукаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2012.

Milliy mentalitet etnopsixologik voqeylik bo'lsa-da, u davlatchilik yoki ijtimoiy tenglik va adolatga quriladigan davlatni barpo etish uchun o'ta muhim omil hisoblanadi. Milliy mentalitet davlat shakliga, uning qanday tamoyil va maqsadlarga xizmat qilayotganiga befarq qola olmaydi. Milliy mentalitet milliy davlatning ham asosi, ham mahsulidir. Ular dialektik uyg'unlikda keladigan ijtimoiy hodisalardir. Agar ulardan biri, ayniqsa, davlatchilik tanazzulga yuz tutsa, milliy mentalitet o'zining tayanchini, shu paytgacha saqlab kelgan idealni, "sotsiomadaniy rivojlanish istiqbolini" yo'qotadi⁷⁶. Demak, ijtimoiy davlat milliy mentalitetga nafaqat tayanadi, shu bilan birga u tasavvur etadigan "sotsiomadaniy rivojlanish istiqboli" ni YANGI mazmun, mohiyat va ideal bilan boyitishi ham zarur. Masalan, SSSR tarqatilgach, milliy respublikalarda yashovchi rus millatiga mansub kishilar mentalitetida parokandalik boshlangani sir emas. Sovet shovinizmi ta'sirida shakllangan mentalitetda yangi reallikka, ya'ni milliy davlat manfaatlarini ustuvor ahamiyati kasb etishiga ko'nikishi shart edi. Bunday transformatsiyasiz jamiyatda tenglik va adolatni, ahillik va taraqqiyotni ta'minlash qiyin edi. Davlatchilikdagi transformatsiya rus kishilari mentalitetidagi o'zgarishlarni hisobga olib, jamiyatda barqarorlikni saqlab qoladi va o'zining rivojlanishida yangi bosqichga o'tdi. Milliy mentalitetning tez obyektivlashish va davlatchilikka ta'sir etishini unutib bo'lmaydi.

4. Yuridik izlanishlarsiz, davlatchiliksiz ijtimoiy davlatga oid qarash va tasavvurlarni shakllantirish qiyin. O'zbekistonda davlatchilik, huquq sohasida, davlat hokimiyati borasida akademiklar X. Sulaymonova, H. Rahmonqulov, A.Saidov, G.A.Pugachenkova, V.S.Rtveladze, A.Bo'riyev, A.Asqarov, K.Shoniyazov, professorlar U. Tojixonov, A.Juzjoniy, I.Jabbarov, V.Alimasov, Sh.Mamadaliev, A.Ziyo, H.Boboyev, S.Hasanov kabilar maxsus tadqiqotlar o'tkazishgan. Ulardagi fikrlar va xulosalar kratologiya uchun muhimdir. Shu bilan birga, ijtimoiy davlatni yuridik nuqtayi nazardan tadqiq etish ham vazifa bo'lib turibdi. Ijtimoiy davlatning huquq fenomeni, boshqarish, iqtisodiyot, tadbirkorlik, ma'naviyat, hududlarni madaniy va iqtisodiy rivojlantirish, ijtimoiy himoya institutlari va tizimlarini

⁷⁶ Поппер К. Открытое общество и его враги. Том 1. – Москва: Культурная инициатива, 1990. С.411.

tashkil etish, ta'lim–tarbiya kabi sohalar bilan bog‘liq tomonlarini ham o‘rganish zarur. Huquqshunoslik ushbu sohalarga davlat nazariyasi nuqtayi nazaridan yondashadi. Masalan, ta'lim–tarbiya ijtimoiy davlat nuqtayi nazaridan o‘zi funksiyalarini qanday bajaradi? Ta'lim-tarbiya tizimi kishilarda bir-biriga yuksak axloqiylik, mehr-muhabbat va gumanizm nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lishni shakllantirishga da'vat etilgan. Bu tamoyillarni u, avvalo, jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy imperativlardan, davlatning strategik maqsadi bo‘lgan komil avlodni voyaga yetkazish konsepsiyasidan oladi. Ijtimoiy davlat ta'lim tarbiya qanday bo‘lishiga befarq qaray olmaydi, u yangi avlod tarbiyasiga bevosita aralashadi, ta'lim-tarbiyani samarali olib borish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladi. Masalan, 2023-yildan boshlab Qoraqolpog‘iston va Xorazm viloyati maktab o‘quvchilarini bepul ovqatlantirish tartibi joriy etildi. Bu davlatimizning ijtimoiylashuv tomon yo‘l tutganiga bir misoldir. Bunday misollarni har bir sohadan, har bir fuqaro, oila va mahalla hayotidan keltirish mumkin. Davlatimizning shunday ijtimoiylashuv ishlarini ya'ni ijtimoiy davlatga aylanib borayotganini hayotiy misollar asosida o‘rganish kratologiyaning vazifasidir.

Ijtimoiy himoya avvalgi yillarda ham mustaqil davlatimizning vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Ammo Yangi O‘zbekistonda u keng voqeylikka, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga, turli qatlamlar manfaatlarini tenglik va adolat, umumiy farovonlik tamoyili asosida uyg‘unlashtirish, jamiyat taraqqiyotiga erishish taktikasiga aylandi. Prezidentimiz ilgari surgan Taraqqiyot strategiyasi umumiy farovonlik tamoyilini hayotga tadbiq etish orqali real voqeylikka aylanadi.

Ijtimoiy davlatning ijtimoiy himoya siyosatini ishlab chiqishda inson manfaatlari, uning ma'naviy qiziqishlari, obyektiv ehtiyojlaridan kelib chiqiladi. Bu o‘rinda manfaatlar, ma'naviy qiziqish va obyektiv ehtiyojlar asosiy ko‘rsatkichlarga, mezonlarga aylanadi. Manfaatlar rang-barang. Ular inson faoliyati va xatti-harakatlarida namoyon bo‘lib, ichki siyosatga yo‘nalish beradi. Asosiy faoliyat ya'ni mehnat, o‘quv jarayoni, kasb kor orttirish, ijtimoiy munosabatlarda qatnashish kabilar shaxs manfaatlarini shakllantiradi va ularni ifoda etadi. Bu manfaatlar, xuddi ijtimoiy faoliyat turlari kabi, ratsionallashuvni taqozo etadi. Jamiyat manfaatlari bilan shaxs

manfaatlarining uyg'unlashuvi ana shu ratsionallashish jarayonida ro'y beradi. Manfaatlarni shaxsiy, guruhiy, milliy, ijtimoiy, umuminsoniy ko'rinishlarga klassifikatsiya qilish keng tarqalgan. Ijtimoiy davlat ularning barchasini hisobga oladi, milliy demokratik taraqqiyot nuqtayi nazaridan ularni uyg'unlashtiradi. Ijtimoiy himoya siyosati ana shu manfaatlar sintezidan o'tgan, davlatning ratsional asosga qurilgan, maxsus mexanizmlar (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy) bilan amalga oshiradigan faoliyati kompleksidir.

Ijtimoiy himoya umumiy tarzda va differensial tarzda amalga oshiriladi. Ijtimoiy davlatning bosh funksiyasi ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlash, biroq ular ijtimoiy himoyani umumiy va differensial tarzda olib borishni inkor qilmaydi. Ijtimoiy himoya siyosatining umumiy xususiyati barcha fuqarolarga, jamiyat a'zolariga birdek taalluqli, tegishli ekanidadir. Masalan, ta'lim olish, madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, jamoat transportlaridan foydalanish kabilar umumiy xususiyatga ega. Ba'zi kishilar (nafaqaxo'rlar, nogironlar, homilador ayollar, boquvchisini yo'qotganlar) differensial ijtimoiy himoyaga muhtojdirlar. Ijtimoiy davlat ushbu guruhdagi kishilarga alohida e'tibor qaratadi, ularning manfaatlarini himoya qilishni o'zining o'zgarmas vazifasi deb biladi. Umumiy xususiyatlarga ega ijtimoiy himoya davlatning iqtisodiy imkoniyatlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida yaratilgan ne'matlar va boyliklarning hajmi, miqdori va ko'lamiga qarab o'zgartirilishi mumkin. Ma'naviy qiziqishlar kishining psixologik kechinmalari, ushbu kechinmalar ta'sirida shakllanadigan intilishlarining ifodasi hisoblanadi. Ichki ruhiy holatlar kishi ma'naviy dunyosidan xabar beradi va uning qanday ma'naviy qiziqishlari borligini bildiradi. Barcha subyektiv voqeyliklarda ma'naviy qiziqishlar ifodasini ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan ma'naviy qiziqishlar subyektiv voqeyliklardir. Ijtimoiy davlatda ma'naviy qiziqishlar qanday ko'rinishda, shaklda yoki yo'nalishlarda keladi, degan savol uyg'onishi mumkin. Bu savolga javob topish uchun empirik tajribalarga murojaat etish, ularni ilmiy tahlil qilish lozim. Ammo, bizning fikrimizcha, bugun dadil aytish mumkinki, ijtimoiy davlat ma'naviy qiziqishlarni yanada gumanistik, yanada demokratik va yanada intensiv qiladi. Ularning gumanistikligi umuminsoniy qadriyatlarga tayanishida, demokratligi ularning shaffof va ochiqligida, intensivligi esa

jamiyatni yanada axloqiy qilganidadir. Ma'naviy qiziqishlar bir tomondan, rang– baranglashadi, ikkinchi tomondan esa, jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga axloqiy qadriyatlar tarzida singganida aks etadi. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviy qiziqishlarni ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning eng samarali omili deyish mumkin. Ijtimoiy davlat ma'naviy ehtiyojlarning milliyligini rad qilmaydi. Milliylik ma'naviy qiziqishlarning sotsiosubstansional asosidir. Ular hech qachon ushbu asossiz mavjud bo'lmaydi, rivojlanmaydi, jamiyatda, axloqiy qadriyatlar va me'yorlar bilan birgalikda, regulativ vazifasini bajara olmaydi. Ma'naviy qiziqishga ega shaxs ijtimoiy borliqdan, uning har bir qirrasidan ma'no, mohiyat topadi, hayotini zavqli, sermazmun qiladi. U ijtimoiy borliq, hayot, ayniqsa, ijtimoiy tizimlar, boshqarish usullari o'zgarib, takomillashib va modernizatsiyalashib turadigan voqeyliklar ekanini to'g'ri anglaydi va to'g'ri baholaydi. Uning ma'naviy qiziqishi ijtimoiy borliqdagi o'zgarishlarga pozitiv munosabatda bo'lganida, ushbu o'zgarishlarga pozitiv baho berganida va islohotlarda faol qatnashganidadir.

Ijtimoiy himoya obyektiv ehtiyojlardan kelib chiqadi. Jamiyatning, aholining obyektiv ehtiyojlari davlat ijtimoiy himoya siyosatining negizidir. Bu ehtiyojlarni moddiy, ma'naviy, psixologik, ekzistensial, guruhiiy, korporativ, milliy ko'rinishlarga ajratish mumkin. Bu maxsus tadqiqotlar predmetidir. Biz shuni aytishimiz kerakki, obyektiv ehtiyojlar jamiyatning real borliqqa, davlat boshqaruviga, uning ichki siyosatiga, sotsium bilan munosabatlariga nisbatan qo'yadigan talablari ifodasidir. Bu talablar davlatning strategik maqsadlariga, faoliyati yo'nalishlariga, umuman, barcha ijtimoiy siyosiy jarayonlarga ta'sir etadi. shuning uchun davlat ularni mensimasligi yoki e'tiborga olmasligi aslo mumkin emas. Davlat instituti mavjud ekan, u jamiyat talablarini hisobga olishga, hatto o'z rejalarini o'sha obyektiv ehtiyojlarga, talablarga muvofiq qayta ishlab chiqishga majbur. Bu davlat instituti va faoliyatini dinamik voqeylikka aylantiradi, davrdan orqada qolmaslik aslida jamiyatning obyektiv ehtiyojlari va talablariga muvofiq faoliyat yuritishdadir.

2.3. Ijtimoiy tenglik konsepsiyasining falsafiy-huquqiy jihatlar

Ilmiy adabiyotlarda "ijtimoiy tenglik" tushunchasiga turlicha ta'rif berishadi. Siyosiy nuqtayi nazardan u sotsium a'zolarining teng siyosiy huquqqa ega ekanini, siyosiy partiyalar tuzish, davlat ishlarida qatnashish,

saylovda ishtirok etish kabilarni anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan ijtimoiy tenglik kishilarning ishlab chiqarish vositalariga teng munosabatida, yaratilgan moddiy boyliklarni ular o'rtasida teng taqsimlanishida, huquqiy nuqtayi nazardan esa barchaning teng huquq va erkinliklarining ta'minlanishida, qonun ustuvorligi va sotsial tartiblarga rioya etilishidadir. Qisqa qilib aytganda, tenglik ijtimoiy guruhlar, kishilar va ular egalik qiladigan narsalar sifatlarining aynanligidadir. Bu sifatlar son, miqdor, hajm, ko'lam kabilarni ham ifoda etadi⁷⁷.

Ijtimoiy tenglik har bir davr va avlodlar uchun dolzarb mavzu, g'oya bo'lib keladi. Uning falsafiy-huquqiy jihatlarini, avvalo, Aristotel muhokama qilgan. U narsa va hodisalar o'rtasidagi tenglik maslalariga yakun yasab deydi: "tenglik (to ison) to'kinlik va yetishmaslik o'rtasidagi oraliqdir (meson ti). Bu oraliq esa har ikki chekka tomonidan teng uzoqlashgan bo'ladi va barchasi uchun tengdir"⁷⁸. Biroq shunday narsalar, hodisalar borki, ularda na son, na chegara, na sifat bilan oraliqni topish mumkin. Bunday paytda faylasuf "ezgulik", "ezgu amal" kategoriyalarini oraliq sifatida qarashni taklif etadi. "Ezgulik, – deydi Aristotel, –oraliqdir, yuksak amal va yetuklik uchun cho'qqiga erishishdir". Siyosatni, davlatni boshqarishni ham u ezgulik va ezgu amallar orqali ta'riflaydi. Uning fikricha, davlat shuning uchun zarurki, u kishilar o'rtasida ezgulikni targ'ib etuvchi muloqotni shakllantiradi. Bu muloqotning adolatli, teng, oraliqda bo'lishi boshqaruvchi va ijro etuvchi, hukm qiluvchi va bo'ysunuvchi qismlarning mavjudligidadir. Birinchisi boshqaradi, ikkinchisi boshqariladi. "Mazkur tamoyil barcha insoniyatda qaror topgan bo'lishi zarur"⁷⁹. Aristotelning fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, davlat kishilararo muloqot mahsuli, boshqarishning adolatli, teng, oraliqda bo'lishi uchun boshqaruvni ezgulik, ezgu amallar orqali olib borilishini taqozo etadi. Tenglik boylik ham, qashshoqlik ham emas, u ushbu ikki chegaraning o'rtasidadir. To'g'ri, ushbu ta'rifni boshqa, ayniqsa subyektiv voqeyliklarga tadbiqu boshqacharoq fikrlarga olib kelishi mumkin, ammo ijtimoiy tenglik g'oyasida gap kishilarning ijtimoiy moddiy holati, yaratilgan ijtimoiy boyliklarga egaligi, ularning shaxsga taalluqliligi,

⁷⁷ Dvorkin R. Sovereign Virtue. The Theory and Practice of Equality. London: Harvard University Press, 2002; Сорокин П. Проблемы социального равенства. Санкт Петербург: Питер, 1997; Козловский В.В., Уткин А.П., Федотова В.Г. Модернизация: от равенства к свободе. СПб.: Питер, 1995.

⁷⁸ Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 4. – Москва: Мысли, 1983. С.85.

⁷⁹ Ўша асар.

spekulyativ tahlil, diskurslar emas, ko'pchilikning yaratilgan moddiy ne'matlarga va boyliklarga daxldorligi, ularning ushbu boyliklardan real bahramandligi nazarda tutiladi. Bu o'rinda ijtimoiy tenglik g'oyasini "ekspluatatorlarni ekspropriatsiya qilish" tarzida tushunish, talqin qilish xavfi paydo bo'ladi. Haqiqatan ham, jamiyatda tengsizlik mudom asos bo'ladi. Jamiyat va davlat boshqaruvida stratifikatsiya, ijtimoiy guruhlanish mavjud. Masalan, davlat xizmatchilari (soliq to'plovchilar, harbiy xodimlar, ichki ishlar xodimlari, sanitariya gigiena talablarini nazorat qiluvchilar), fermerlar, savdo sotiq xodimlari, o'qituvchilar, yuristlar, korxonalaridagi ishchi xizmatchilar kabi ijtimoiy guruhlarsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas. Ularning har biri o'ziga xos, differensial tarzda moddiy rahbatlantiriladi, maosh oladi. Ijtimoiy tenglik shiori ostida ular mehnatiga bab barobar haq to'lanishi adolatsizlikni, tengsizlikni keltirib chiqaradi. Ushbu ijtimoiy guruhlariga qancha maosh o'rnatish davlatning suveren huquqidir. Xususiy mulk egalari, xo'jalik hisobidagi qo'shma korxonalar maoshni o'zlari o'rnatadi, ammo ular ham davlat tomonidan belgilangan minimumdan past haq to'lashi mumkin emas. Differensiatsiya u yoki bu sohani qo'llab– quvvatlash, uni yangi kuchlar bilan boyitish, faoliyatini samarali qilish maqsadini nazarda tutadi. Ijtimoiy stratifikatsiya mavjud ekan, ijtimoiy tenglikni ta'minlash masalasi davlatni bezovta qilaveradi. Bu muammodan mutlaq qutulgan, uni mutlaq hal etgan davlat uchramaydi, balki bunday tengsizlik guruhlar, mutaxassislar, korxonalar o'rtasida raqobatni shakllantiradi. Pozitiv ahamiyatga ega bo'lgan raqobat esa ijtimoiy sohalarning intensiv va ekstensiv rivojlanishiga imkon yaratib beradi.

Ijtimoiy tenglik masalasi bir qator falsafiy-huquqiy va siyosiy ahamiyatga ega savollarni kun tartibiga qo'yadi. Agar ijtimoiy stratifikatsiya saqlanib qolsa, differensiatsiya ijtimoiy borliqning, davlat boshqaruvining sotsiosubstansional asosi bo'lsa, ijtimoiy tenglik haqidagi shiorlar navbatdagi so'z o'yiniga aylanmaydimi? Yoki ijtimoiy tenglik bolshevikcha oraliq tamoyiliga muvofiq ya'ni "kambag'allar ham bo'lmasin, boylar ham bo'lmasin" tarzida amalga oshiriladimi? Har bir jamiyatda mulkka, boylik orttirishga o'ch shaxslar, guruhlar bo'lishi tabiiy holdir. Hatto ijtimoiy davlatni barpo etgan ilg'or chet davlatlarda ham bunday kishilar yetarlicha topiladi. Ularda xususiy mulkka ega bo'lish,

boylik orttirish insonning huquqi hisoblanadi. Demak, notenglik ijtimoiy davlatning ham atributi bo'lib qoladi. Biroq ijtimoiy davlat qashshoqlar bo'lmasligiga erishishi, farovon yashashi uchun har bir fuqaroning minimumga ega bo'lishini kafolatlashi zarur.

Iqtisodiy tenglikni ta'minlash davlatni repressiv usullarni qo'llashga yetaklaydi, bu demokratik tamoyillarga zid yondashuvdir. Ijtimoiy davlat iqtisodiy tenglikni emas, balki siyosiy, huquqiy tenglikni ta'minlashga intiladi, qanday iqtisodiy, moddiy ahvolda yashash fuqaroning ixtiyoridadir. Siyosiy tenglik shaxsning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda, saylovlarda, o'z manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar tuzishda qatnashishini anglatadi, huquqiy tenglik esa qonunlar tomonidan ruxsat etilgan va belgilab berilgan faoliyat turlarini amalga oshirish, iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun kreativ, ijtimoiy faollik ko'rsatish imkonidir. Demak, ijtimoiy tenglik deganda iqtisodiy, moddiy tenglik emas, siyosiy, huquqiy tenglik nazarda tutiladi. Shuning uchun ijtimoiy tenglikni, avvalo, siyosiy va huquqiy xususiyatga ega voqeylik, imkoniyat deb tushunmoq kerak. Aynan siyosiy va huquqiy voqeyliklar, imkoniyatlar shaxsga badavlat, farovon yashash imkonini beradi, uning kreativ va ijtimoiy iqtisodiy faolligini, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashini kafolatlaydi.

Ba'zi mualliflar, ijtimoiy tenglikni tabiiy hol sifatida anglashga undovchi tafakkur egalari, notenglikni qoralaydilar. Ular fikricha, notenglik g'oyasi azaldan kishilar tasavvurlarida, ijtimoiy ongda mavjud. Agar Platon va Aristotel aristokratik boshqarishni tabiiy hol, jamiyat uchun foydali, deb bilsalar, ulardan keyingi, to Vollter va Jana Jak Russogacha bo'lgan faylasuflar davlatni boshqaruvchi hukmdorlarni, aristokrat va zadogonlarni davlat boshqaruvi uchun zarur subyektlar sifatida qabul qiladilar. Hatto davlat boshqaruvi ilohiylashtirishga, sakrallashtirishga intilish ham kishilar o'rtasidagi notenglikni qo'llab quvvatlagan. Ular ochko'zlikni, birovlar mulkini o'g'irlashni, mulkparastlik va adolatsizlikni qoralashgan, bu illatlarni xudoga qarshi chiqish, ilohiyat o'rnatgan tartiblarni buzish, deb hisoblashgan, biroq ular tenglik va notenglik masalasini muhokama qilishmagan. Uyg'onish davriga kelib, avvalo, erkaklarning teng huquqli ekani haqida fikr yuritishgan, ularning huquqlarini ta'minlash masalalari ijtimoiy fikrda muhokama qilingan.

Unda ham ommaning teng huquqligi emas, balki badavlat va o'rta sinfga taalluqli erkaklarning teng huquqlari haqida fikrlar bildirilgan. Buyuk fransuz revolyutsiyasi e'lon qilgan "ozodlik, tenglik, birodarlik" shiori ilmiy adabiyotlarga ham o'tdi va, ijtimoiy siyosiy voqeylik sifatida, davlat boshqaruviga tadbiq etila boshlandi, davlat ijtimoiy tenglikni ta'minlashi zarur degan fikr ommalashdi. Inson huquq va erkinliklari haqidagi Xalqaro Billda ham ijtimoiy tenglik asosiy qadriyat va norma sifatida tilga olinadi.

XIX asrning oxirlariga kelib xotin – qizlar huquqlari, Gender tenglik masalalari kun tartibiga qo'yiladi. Angliyada 30 yoshgacha bo'lgan xotin–qizlarning erkaklar bilan teng huquqli ekani, saylovlarda qatnashishi mumkinligi 1917-yili, Shvetsariyada esa 1971-yili tan olinadi⁸⁰. XX asrning 60-yillarigacha AQSh da negrlarning teng huquqli ekani tan olinmagan, ularga ikkinchi sort kishilar sifatida muaomala qilishgan. Avtobuslarda, savdo markazlarida, madaniy xizmatlar uyushtirish o'choqlarida "qora tanlilar uchun" degan yozuvlar mavjud edi. Demak, tenglik g'oyasi Volter va Jan Jak Russo tomonidan faol targ'ib etilgan, Yevropa ijtimoiy fikriga dadil kiritilgan bo'lsa–da, uni ijtimoiy siyosiy hayotga, davlat ishlariga joriy etish, tenglikni himoya qilish mexanizmlarini yaratishga kirishilganiga bir asr ham to'lmadi. Hayratli tomoni shundaki, ijtimoiy notenglikni ijtimoiy davlat barpo etishni konstitutsiyalariga bitgan, ichki siyosatida ijtimoiy tenglikni ta'minlayotganlarini eng ulug' yutug'i sifatida e'zozlaydigan, bu tajribalarini boshqa davlatlarga hatto harbiy kuch bilan singdirishga intiladigan AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar himoya qilib kelgan. Mazkur davlatlardagi shaxsiy va ijtimoiy muammolarning o'zga xos jihatlari o'rgangan taniqli faylasuf E.Fromm ularning elitar yondashuvining mohiyatini quyidagicha ochib beradi: "Madaniyatimizning katta sektori yagona funksiyasini shaxsiy va ijtimoiy hayotning asosiy masalalari, barcha psixologik, iqtisodiy, siyosiy va axloqiy muammolarni loyqalashtirish qorong'ilashtirish) vazifasini bajaradi. Bunday tutunpardalarning bir ko'rinishi bu muammolar haddan tashqari murakkab, uni o'rtacha saviyadagi odam tushuna olmaydi, deb ta'kidlashdir. Aslida esa aksincha: shaxsiy va ijtimoiy muammolarning juda ko'pi oddiy va shu qadar oddiyki, uni amalda har qanday odam tushunishi mumkin.

⁸⁰ Некрасов Д. Социальное неравенство. Альтернативный взгляд. – Москва: Альпина ПРО, 2022. С. 93–98.

Ko‘pincha ularni go‘yo faqat “mutaxassis”, shunda ham faqat shu sohaning mutaxassisigina tushuna oladigan qilib murakkab tasvirlaydi. Bu esa odamlarning o‘zlari o‘ylashga bo‘lgan jur‘at va istakni o‘ldiradi; ulardagi dolzarb muammolar haqida o‘ylashga bo‘lgan qobiliyat va ishonchni so‘ndiradi”⁸¹. Ijtimoiy tenglikni quyidagi yo‘nalishlarda qarab chiqish, kuzatish mumkin:

- siyosiy sohadagi tenglik;
- huquq va erkinliklarni ta‘minlash sohasidagi tenglik;
- ish bilan bandlik sohasidagi tenglik;
- ta‘lim va kasb- kor orttirish sohasidagi tenglik;
- madaniy va tibbiy xizmatlar sohasidagi tenglik;
- uy– joy bilan ta‘minlanish sohasidagi tenglik;
- so‘z va fikr erkinligi.

Siyosiy tenglikka davlat, jamiyat ishlarini boshqarishda, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida, saylovlarda qatnashish, vakillik organlari orqali davlat boshqaruviga, resurslarni taqsimlash faoliyatiga, ichki siyosatiga ta‘sir o‘tkazish, hukumat idoralari rahbarlarining hisobotlarini uyushtirish va tinglash, hududlarning ijtimoiy madaniy rivojlanishiga oid rejalar tuzishda barcha fuqarolar bilan teng ishtirok etish kabilar kiradi. Bugungi ilmiy iste‘moldagi “siyosiy erkinlik” atamasi uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan ziddiyatlar, sinfiy va mulkiy to‘qnashuvlar, ma‘lum bir obyektiv va subyektiv omillar ta‘sirida shakllangan tabaqalar boshqaruviga qarshi chiqishlarning, hatto revolyutsiyalarning yakunidir. Siyosiy tenglik genezisini davlat genezisi bilan aynanlashtirish mumkin, chunki davlat institutining shakllanish jarayonlari har doim ma‘lum bir guruhlar manfaatlarining ustun yoki g‘olib kelishi natijasi bo‘lib kelgan. Bu ustunlik yoki g‘oliblik notenglik ifodasi edi. Notenglik siyosiy falsafiy va axloqiy voqeylik sifatida tenglikni nafaqat rad etadi, hatto uni obyektiv zaruratga aylantiradi. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosiy hayotda notenglikning uzoq asrlar davomida hukm surib kelganini inson tabiati, imkoniyatlari, kreativ kuchlari haqida tor, noto‘g‘ri tasavvurlarning yashab kelgani bilan izohlash mumkin. Tabaqalanishning ijtimoiy hayotdan joy olgani, ijtimoiy fikrda faqat ayrim, ilohiy sifatlarga ega kishilar, ayniqsa, saroy ahllari boshqarish ishlariga

⁸¹ Фромм Э. Озодликдан қочиш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. 290 б.

qodir, degan qarashlar siyosiy tenglik haqidagi diskurslarni deyarli yo‘qqa chiqarib keldi. Ayniqsa, falsafada Platonning davlatni aristokratlar, alohida bilimga ega kishilar, faylasuflar idora etsin, degan fikr to XX asrning ikkinchi yarmigacha aksioma sifatida tan olindi. K.Popperning Platon qarashlarini tanqidi demokratik taraqqiyotning shunday bosqichi ediki, endi elitar yondashuv g‘ayridemokratik hodisa sifatida qayd etiladigan bo‘ldi. Boshqaruvning nasldan naslga o‘tishi, davlat rahbarini elita tomonidan saylanish tartibi (masalan, sobiq sovet davlati rahbari kommunistik partiya elitasi ya’ni Politbyuro a’zolari tomonidan saylangan), butun boshqarish ishlari va siyosiy faoliyat bir partiya a’zolari qo‘lida to‘planishi qoralandi. Fuqoralarning siyosiy tengligi demokratik taraqqiyotning mezoniga aylandi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga oid barcha siyosiy rejalar, qarorlar va dasturlar qabul qilinadigan bo‘ldi. Siyosiy tenglikning ta’minlanishi BMT, YEXHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘rganilib, baholanib boriladigan bo‘ldi. Siyosiy tenglik bugun umuminsoniy, demokratik qadriyat sifatida e’tirof etiladi, davlatlarning faoliyati va ochiqligi, avvalo, ana shu qadriyat orqali baholanadi. Mazkur baholash tartibi shunchaki fikr bildirish, tavsiyalar berishga yo‘llanma emas, u mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga, chet davlatlar bilan integratsiyasiga, mollarini chetga sotishiga va chetdan texnika vositalarini, yangi ilmiy ishlanmalarni olib kelishiga, investitsiya kelishiga ta’sir etadi. Fuqarolarning siyosiy erkinligi ta’minlanmagan davlatga chet el investorlari mablag‘ ajratavermaydi, iqtisodiy hamkorlikka shoshilavermaydi, chunki ular siyosiy erkinlik ijtimoiy iqtisodiy hayotga bevosita ta’sir qilishini yaxshi bilishadi. Ijtimoiy davlat ilg‘or davlatlar bilan hamkorlik qilib, integratsiyaga kirishib rivojlanishga intiladi, bu omil uni fuqarolarning siyosiy erkinligini ta’minlash orqali siyosiy, iqtisodiy demokratiyani qo‘llab-quvvatlashini bildiradi. Bu siyosiy pozitsiya ijtimoiy davlatning xalqaro reytingini va obro‘cini, investitsiyaviy maftunkorligini, strategik maqsadi samara berishiga ishonchini oshiradi.

Ijtimoiy tenglik insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash sohasida yaratilgan imkoniyatlar ifodasidir. Bu keng miqyosli, kompleks xususiyatga ega voqeylik ko‘p jildlik tadqiqotlar predmeti bo‘lishi mumkin. Bu yerda biz shuni qayd etishimiz mumkinki, huquqiy tenglik ijtimoiy davlat amal qiladigan, uni o‘zgarmas tamoyiliga aylantirgan, har

bir rejasi va amaliy faoliyatida ularga tayanadigan, fuqaro bilan boshqaruv instituti, shaxs bilan jamiyat, inson bilan sotsium munosabatlarining ratsional, qonun ustuvorligi negizida tashkil etilishini angalatadi. Insonning huquq va erkinliklari ta'minlash ijtimoiy davlat amal qiladigan, uning huquqiy davlatligini tasdiqlaydigan tamoyil. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy davlatni huquqiy davlat, qonun ustuvorligini ta'minlashni asosiy funksiyasi deb biladigan siyosiy institut deb atashadi. Bu ajablanarli emas, chunki ijtimoiy davlat o'zining ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy farovonlik va hamkorlik kabi tub vazifalarini huquq, qonun ustuvorligi orqali amalga oshiradi. Ushbu umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish, ularning talablaridan kelib chiqib boshqaruv ishlarini tashkil etish ijtimoiy davlatning siyosiy maqsadini va strategiyasini ko'rsatadi.

Ijtimoiy davlatda deyarli barcha sohalar huquq bilan bog'liq bo'ladi yoki huquqiy omillar orqali anglanadi. Bu huquqning nisbiyligini rad etmaydi. Huquq mudom nohuquqiy normalar, ya'ni axloqiy tartiblar, an'analar bilan yonma yon yuradi, ba'zi o'rinlarda axloqiy normalarga yon bosishi, uni qo'llab – quvvatlashi mumkin. Bu huquqning insonparvarlik xususiyati bilan bog'liqdir. Shuning uchun mutaxassislar huquqni inson hayotining deyarli barcha sohalar bilan bog'liq voqeylik sifatida qarashga moyildirlar. Masalan, yuridik soha uchun mo'ljallangan maxsus darslikda huquq: birinchidan, insonning yashash huquqi, xalqlarning subyektligini belgilash huquqi ya'ni tabiiy huquqi; ikkinchidan, huquq ayrim shaxs irodasidan keng, uni o'ziga bo'ysundiradigan, obyektiv borliq talablaridan kelib chiqadigan sotsial normalar (mehnat huquqi, xalqaro huquq, moliya huquqi, mulk huquqi)dan iborat; uchinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar, tashkilotlar, korporatsiyalar foydalanadigan, rasman e'tirof etilgan imkoniyatlardir. Bu o'rinda huquq shaxs yoki boshqa sub'ektlarning huquq va erkinliklarini ifoda etadi, ularni himoyasi bilan davlat va uning yuridik institutlari shug'ullanadi. To'rtinchidan, "huquq" atamasi butun ijtimoiy huquqiy voqeyliklarni, huquqiy tizimlar va qonunlar bilan idora etiladigan yuridik jarayonlarni o'z ichiga oladi⁸². Huquqning bunday keng sohalar bilan bog'liqligi uni total voqeylikka

⁸² Теория государства и права. Учебник. Под. Ред. В.М.Корельского и В.Д. Перевалова. – Москва: НОРМА ИНФА М., 2001. С.229.

aylantirmaydi, ijtimoiy davlatda huquq markazida “ inson, uning erki, qiziqishlari va ehtiyojlari turadi”⁸³.

Yuqoridagi darslikda ko‘rsatilishicha, huquqning o‘ziga xos immanent xususiyatlari normativligida, intellektual irodaviy xarakterida, davlat tomonidan majburlash mumkinligida, formal tarzda belgilanishida, tizimlilikida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda “majburlash” atamasi e’tiroz uyg‘otishi mumkin, chunki ideal davlatda majburlash bo‘lishi mumkin emas. Majburlashni zo‘ravonlik sifatida tushunish uni ideal davlat hayotidan olib tashlashga undaydi. Majburlash ijtimoiy tenglik g‘oyasiga ziddir. Haqiqatan ham, ijtimoiy davlatda majburlash bo‘lmaydimi? Davlat va huquq fenomenlarini tadqiq etgan mutaxassislarning fikrlaridan, xulosalaridan kelib chiqsak, majburlash har qanday davlatning atributi, funksiyasidir. Busiz u oddiy, ixtiyoriy, istagan paytda tarqalib ketadigan uyushmadan farq qilmasdi. Davlatning majburlash funksiyasi jamiyatda tartib bo‘lishiga, huquqiy va axloqiy normalarga rioya etilishiga, deviant xulq-atvorni keng tarqalmasligiga, ijtimoiy ahillik va ijtimoiy hamkorlik tamoyillarining saqlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy davlatdagi majburlashni pozitiv huquqning shakllanishiga xizmat qiladigan voqeylik sifatida tushunish krak.

Ish bilan bandlik sohasidagi huquq (mehnat huquqi) inson huquq va erkinliklari tizimida markaziy o‘rinda turadi. Inson, shaxs sifatida, ijtimoiy munosabatlarda faol qatnashadigan “ijtimoiy mavjudot” (Aristotel) ekanligi uchun ham ijtimoiy foydali mehnat orqali o‘zini namoyon qilgisi keladi. Aynan ijtimoiy mehnat shaxsni jamiyat uchun foydali subyekt, o‘zining imkoniyatlari, aqlu idroki, kreativ kuchlari bilan ijtimoiy borliqni takomillashtirishga qodir irodali inson ekanini ko‘rsatadi. Bu shaxsni jamiyat tomonidan baholanishi belgisidir. Shaxs faqat o‘zining shaxsiy manfaatlari, huzur halovati va farovonligi uchun mehnat qilmaydi, u qandaydir foydali ishlari bilan yon atrofidagi kishilarning, yaqinlarining hayotini yaxshilashga hissa qo‘shgisi keladi. Shu ma’noda u ijtimoiy mavjudotdir.

Kishilarni ish bilan band etish, ularning mehnat huquqlarini ta’minlash bugun global muammolardan biriga aylangan. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ning ma’lumotlari va xulosalariga ko‘ra, 2023 va kelgusi

⁸³ Теория государства и права. Учебник. Под. Ред. В.М.Корельского и В.Д. Перевалова. – Москва: НОРМА ИНФА М., 2001. С.231.

yillarda aholini ish bilan band etishda salbiy hollar kelib chiqadi. 2020–2022– yillardagi pandemiya va dunyoning turli burchaklarida davom etayotgan harbiy to‘qnashuvlar, migratsiya oqimining kuchayishi, ba’zi mintaqalarda mehnat resurslarining ko‘payishi, ijtimoiy iqtisodiy o‘rishning kamayishi kabi turli omillar mehnat huquqini ta’minlashni muammoga aylantirmoqda. Bu borada, ayniqsa, Yevropa va Markaziy Osiyo ko‘p zarar ko‘rishi bashorat qilinadi. XMT ning ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 2023– yilda mehnat bilan band kishilar atigi bir foizni tashkil etadi, ammo ishsizlar soni 208 milliondan oshadi va 5,8% ni tashkil etadi⁸⁴. Xalqaro ekspertlarning bildirishicha, ish bilan bandlik ijtimoiy tenglikni ta’minlashga oid voqeylikdir. Insonning farovon yashashi, o‘zining huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishi aynan mehnat jarayonlarida qatnashishidadir. Xalqaro ekspertlar aholinig ko‘p qismi kam maoshli va sharoiti og‘ir ishga rozi bo‘ladi, degan xulosaga kelishgan. 1970– yildan beri jahon iqtisodiyoti stagflyatsiya sharoitida qolmoqda ya’ni iqtisodiyotda o‘rish sekinlashib, inflyatsiya, aksincha, oshib ketadi. Ishsizlikdan ko‘pincha yoshlar va ayollar qiyin ahvolga tushishadi. Ular ichida ayollar 47,4 %, erkaklar esa 72,3 %ni tashkil etgan. Ushbu raqamlar o‘rtasidagi farq ya’ni 24,9% har bir erkakka ikki ayol ishsiz to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Dunyodagi yoshlarning har beshinchisi ishlamaydi ham, o‘qimaydi ham⁸⁵. Shuning uchun XMT kishilarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha yangi xalqaro shartnoma tuzish zarurligini ta’kidlaydi, bu hujjat davlatlarning ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat o‘rnatishiga yordam beradi.

Shaxsning ta’lim olish va kasb- kor orttirish huquqi davlatda o‘rnatilgan ijtimoiy tenglik ifodasidir. Mazkur huquq davlatlarning qonunlarida, strategik maqsadlari ko‘rsatilgan dasturlarida belgilab beriladi. Ulardan tashqari, ta’lim jarayonini tashkil etish va uni ommaviy, ochiq qilishning maxsus huquqiy mexanizmlari ishlab chiqiladi, iqtidorli bolalarni alohida tartibda qo‘llab quvvatlash chora– tadbirlari ko‘riladi. Ijtimoiy davlatda o‘rta maktab ta’limi majburiy qilib qo‘yiladi, yoshlarning kasb– korga yo‘naltirish uchun kollejlari, litseylar va maxsus tayyorlov kurslari uyushtiriladi. Oliy ta’lim olish va kasb kor tanlash ixtiyoriydir. Jamiyatda qaror topgan intellektual izlanishlarni qo‘llab– quvvatlash

⁸⁴ Новости ООН. Глобальный взгляд Человеческие судьбы //news. un.org

⁸⁵ Новости ООН. Глобальный взгляд Человеческие судьбы //news. un.org

an'anasi yoshlarni oliy ta'lim olishga undaydi. Oliy ta'lim ularga aqliy, intellektual mehnat bilan shug'ullanishga imkon beradi.

Keyingi yillarda ta'lim huquqi asosan globallashtirilgan, integratsiyalashgan, mobillashtirilgan, kommersiyalashgan va distansiyali o'qitish tarzida ta'minlanmoqda. Ijtimoiy davlatlarning tajribalari ko'rsatadiki, ta'lim va kasb-kor huquq jamiyatda ijtimoiy tenglik tamoyilini qaror toptiradi, chunki ma'lumotli, bilimli inson jamiyatdagi jarayonlarga faol munosabatda bo'ladi, adolatsizlik va notenglikni bartaraf etish yo'llarini qidiradi. Bilimsiz kishi, aksincha, mavjud tartiblar bilan ko'nikib yashaydi, ularni o'zgartirishga, takomillashtirishga intilmaydi; bilimsizlik bilan boqibeg'amlik orasi bir qadam. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kishilarning ta'limga bo'lgan qiziqishi oshib bormoqda. 2017-yilgi ma'lumotga ko'ra, dunyoda bolalarning 92 % umumiy maktab ta'limiga jalb etilgan, ularning 74 % to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotga ega. Oliy ma'lumotli kishilar 30 % ni tashkil etmoqda⁸⁶.

Ijtimoiy davlatlar hisoblanadigan AQSh, Angliya, Kanada, Finlandiya, Shvetsariya, Germaniya, Irlandiya, Polsha, Rossiya va Hindistonda oliy ta'limga katta e'tibor beriladi. Ta'lim sohasini tashkil etish va kishilarning ta'lim olish huquqini ta'minlashda dunyoda Angliya yetakchi o'rinda turadi. Ta'lim tizimiga innovatsion ishlanmalarni joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi dunyoda, Irlandiyadan (75,70 ball) keyin, ikkinchi o'rinda (75,38 ball) turadi⁸⁷. Ta'lim olish va tanlash huquqi ijtimoiy tenglikni ta'minlash ko'rsatkichi sifatida qaralsa-da, bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Masalan, nima uchun keyingi yillarda milliy ta'lim tizimidan voz kechilib, g'arb andozalariga ergashish odatga aylandi? Milliy pedagogik mahorat va ta'lim tajribalari endi kerak emasmi? Ijtimoiy davlat oliy ta'limni yoki kasb-kor egallash kurslarida o'qishni bepul qilsa bo'lmaydimi?.

Ijtimoiy tenglik shaxsning madaniy va tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqini ta'minlash orqali ham shakllantiriladi. Shaxsning bu huquqini ta'minlash davlatning ushbu xizmatlarni pullik (kommersiyalashgan, narxli) va bepul (davlat dotatsiyasi, xayriya) qilishi orqali amalga oshiriladi. Chet el davlatlarida madaniy xizmatlarning barchasini kommersiya o'choqlari bajaradi. Davlat ushbu xizmatlarga

⁸⁶ <https://theworldonly.org>>amp

⁸⁷ <https://www.elib.buxdu.uz>>item

aralashmaydi. Sobiq SSSR o'rnida paydo bo'lgan respublikalarda (Pribaltika respublikalaridan tashqari) madaniy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar davlat buyurtmalarini bajaradi, davlat byudjetidan dotatsiya oladi. Ular uchun zarur kadrlarni ham davlat madaniyat va san'at o'quv yurtlari tayyorlab beradi. Ularda madaniyat va san'at davlat ideologiyasini, ijtimoiy tarbiya vazifalarini bajaruvchi tizim hisoblanadi.

Tibbiyot sohasida ham pulli (xususiy, kommersiya) va bepul (davlat, xayriya) xizmatlar ko'rsatish tartibi shakllangan. Ijtimoiy davlatda ham ushbu tartib saqlanib qoladi, ammo tibbiy xizmatlarni ommalashtirish va arzonlashtirish masalalari kun tartibida saqlanib qoladi. Inson uchun salomatlik masalasi har doim, uning qaysi davlatda yashashining ahamiyati yo'q, birinchi o'rinda turadi, shuning uchun u sifatli tibbiy xizmatlarga mudom ehtiyoj sezadi. Mazkur ehtiyojni qondirishni davlat ham o'z zimmasiga olishi lozim.

Ijtimoiy tenglik fuqoralarni uy-joy bilan ta'minlash muammosini davlat ichki siyosatining eng muhim yo'nalishiga aylantiradi. Uy joyga egalik huquqi insonning ijtimoiy hayotda, davlat va jamiyat ishlarida qatnashishida muhim omil hisoblanadi. Uy-joyga egalik qilishi orqali shaxs ma'lum bir ijtimoiy makonga, hududga va vatanga bog'langanini his qiladi, uy-joysiz kishi kosmopolit ya'ni qaerda bir burda non va boshpana bo'lsa, o'sha tomonga ketaveradigan ko'cha odamiga aylanadi. Uy-joyga egalik huquqi kishida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi, bunday huquqdan mahrum shaxsni vatan, jamiyat, xalq, oila a'zolari taqdiri qiziqitirmaydi. Ijtimoiy tenglikni ta'minlashga intiladigan davlat fuqarosini uy joyli bo'lishi haqida qayg'uradi, unga uy-joyli bo'lishga yordam beradi.

Ijtimoiy tenglik uy-joy masalasida qator muammolarni kun tartibiga qo'yadi. Masalan, yer davlat mulki hisoblanadi? Agar davlat manbai xalq bo'lsa, nega u yerga yakka xo'jayinlik qiladi? Xalqning yerga egalik huquqi yo'qmi? Yerlarni davlat xalqqa, uy-joy qurmoqchi bo'lgan fuqarolarga sotishini qanday izohlash kerak? Bu o'rinda ijtimoiy tenglik tamoyili buzilayaptiku? Demak, ijtimoiy davlat yerga mulkchilik shaklini o'zgartirishi, fuqarolarinig uy-joyga muhtojligini qondirishning ijtimoiy tenglik talablariga muvofiq keladigan yangi tartiblarini shakllantirishi kerak.

Ijtimoiy tenglik fikr va soʻz erkinligini taʼminlash bilan ham bogʻliqdir. Demokratik jamiyatda fikr va soʻz erkinligi shaxsning oʻz iqtidorini, gnoseologik qizishlari va intellektual salohiyatini namoyon etish yoki roʻyobga chiqarish imkoniyatidir. Bunday imkoniyatsiz ijtimoiy tenglik va uni taʼminlashni maqsadi qilib belgilagan ijtimoiy davlatning ham boʻlishi mumkin emas. Ijtimoiy davlatning huquqiy paradigmasi ham ana shu ijtimoiy tenglikka oid fikr va soʻz erkinligini inson huquqlari va erkinliklarining “oʻziga xos oʻlchovi” yoki koʻrsatkichi sifatida shakllantirishga erishishidadir⁸⁸.

Fikr va soʻz erkinligi shunchaki mulohazalar bildirish emas, ular kishining ijtimoiy shaxs, ongli inson, faol subyekt sifatida yashashining koʻrinishi, kafolatidir. Fikr va soʻzlari orqali shaxs oʻzini jonli va faol inson ekanini sezadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, boshqalar va davlat boshqaruvi institutlari, organlari bilan muloqotga kirishadi. Shaxsning ijtimoiy mavjudot sifatida yashashining sharti uning fikr va soʻz erkinligidadir.

2.4. Ijtimoiy farovonlik va hamkorlikni taʼminlashning falsafiy–huquqiy masalalari

Ijtimoiy davlatning maqsadi va muhim xususiyatlaridan biri aholi farovonligini taʼminlashdir. Aynan ushbu maqsad va xususiyat ijtimoiy davlat barpo etish gʻoyasini maftunkor, aholiga manzur va boshqa siyosiy tuzumlardan farqli qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, falsafiy huquqiy taʼlimotlarda farovonlik, xalqni farovon qilish borasida turli, goho qarama-qarshi yondashuvlar uchraydi. Gegel, Gomayer va Grisxaymning “Barcha kishilar uchun farovonlik quruq abstraksiyadir” degan fikrlarini keltiradi⁸⁹. Haqiqatan ham, Grisxaym “Barchaning farovonligi haqidagi gap soʻzlar tasavvurlarini koʻz-koʻz qilish uchun zarur quruq maqtanishning koʻrinishidir”, degan⁹⁰. Chamasi bu fikrlarni Gegel ham qoʻllab–quvvatlagan yoki ularga moyillik bildirgan. Ijtimoiy notenglik va adolatsizlik odatiy hol boʻlgan davrlarda barcha kishilarning, hammaning farovon, toʻkin sochin va omadli yashashini tasavvur qilish qiyin edi, albatta. To hozirgacha barchaning farovon yashashi mumkinligi haqidagi

⁸⁸ Аристов Е.В. Правовая парадигма социального государства. – Москва: Юнити Диана; Закон и право, 2016. С.203–206.

⁸⁹ Гегель. Философия права. – Москва: Мислы, 1990. С. 419.

⁹⁰ Гегель. Философия права. – Москва: Мислы, 1990. С. 419.

fikrlar utopiya, noreal rejadek tuyuladi. Ijtimoiy farovonlikni o‘zining maqsadi deb e’lon qilgan AQSh va Yevropadagi ijtimoiy davlatlar bu maqsadiga erishishmadi. Ularda aholining ma’lum bir qatlami hamon qashshoq, ishga, uy-joyga va ijtimoiy ta’minotga muhtoj yashaydi. 2020–2021-yillardagi manbalarga ko‘ra AQShda qashshoqlar 11,6% ni tashkil etadi, bu 37,9 million kishi demakdir. 2023-yil 21-iyuldagi ma’lumotga ko‘ra, AQSh aholisining 32 % qashshoqlik ostonasida turishi qayd etilgan⁹¹. Bu amerikaliklarning deyarli uchdan biri qashshoqlikda kun ko‘radi deganidir. Germaniyada esa bu ko‘rsatkichlar 20 %dan yuqori, unda har beshinchi bola qashshoq yashashga mahkum etilgan. Hatto o‘rta ta’minlangan aholining 60% dan ziyodida qashshoqlar darajasiga tushib qolish ehtimoli mavjud⁹².

Bunday raqamlarni yana keltirish mumkin. Demak, ijtimoiy davlat haqidagi ideal model hali real ijtimoiy muammolarni hal etishga olib kelavermas ekan. Bu o‘rinda gap modelda emas, balki, avvalo, davlatning ijtimoiy iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish, buning uchun iqtisodiy demokratiya talablarini bajarish, aholining ish bilan bandligini ta’minlash, militaristik rejalaridan voz kechib, xalq farovonligi haqida qayg‘urish kabi vazifalarni izchil amalga oshirishidir. Ideal modellarni yaratish va e’lon qilish oson, ammo ularni amalga oshirish, xalq farovonligini ta’minlashga qaratish aslo boshqa siyosatni talab etadi. Agar davlat o‘zining ijtimoiyligini e’lon qilsayu, ertaga xalq farovonligi va ijtimoiy himoyaga sarflanadigan mablag‘larni o‘zining gegemonistik ambitsiyalariga, da’volariga sarflasa, bunday davlatni “ijtimoiy” atash noto‘g‘ri. Gap qonunlarda e’lon qilingan maqsad va vazifalarda emas, balki ularni ijtimoiy hayotga tadbiq etishga qaratilgan amaliy siyosatdadir. Amaliy siyosat ijtimoiy davlat barpo etishning sotsiosubstansional asosidir, busiz u utopiya, quruq xayol mahsuli bo‘lib qolaveradi. Ijtimoiy farovonlikning o‘z parametrlari bor, ularga:

- ish haqi;
- to‘plangan daromad;
- iste’mol savati;
- turmush darajasi;
- urbanizatsiya;

⁹¹ [https // visas am. ru. bednost–v–ssha](https://visas.am.ru.bednost-v-ssha)

⁹² visas am.ru

- dam olish va turistik sayohat imkoniyatlari;
- uy xizmatchilari yollash imkoniyati kabilar kiradi.

Ish haqi shaxsning mehnat faoliyatiga beriladi. U yo‘llanma xodim, mutaxassis, ishchi xizmatchi “daromadining elementi, ularga tegishli ishchi kuchiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shaklidir”⁹³. Ish haqining asosi uning stavkasidir. Mutaxassislarning fikricha, bu stavka “xodimlarning o‘ziga xos tafovutlarni, ularning jismoniy kuchi va chidamligidagi, tez aks-sado berishidagi, tirishqoqligidagi mehnat natijalariga ta’sir etuvchi shu kabi xususiyatlarni hisobga olmaydi. Shu sababli ish haqining tuzilishidagi yana bir elementni mehnat faoliyatining alohida natijalaridagi farqlarni (mukofotlarni, ustama haqni, ishbay qo‘shimch haqni va shu kabilarni) aks ettiruvchi o‘zgaruvchan qismni ajratib ko‘rsatish kerak”⁹⁴. Shu tarzda ular ish haqiga moddiy yordam, ovqat puli, yo‘llanmalar va davolanish haqi, qimmatbaho sovg‘alar, qo‘shimcha tibbiy va pensiya sug‘urtasini ham kiritishadi.

Ijtimoiy davlatda ko‘pincha e’tibor eng kam ish haqini oshiirishga qaratiladi, chunki ish haqining oshishi ishchi-xizmatchining moddiy hayotiga ijobiy ta’sir etadi, uning iqtisodiy ehtiyojlarini to‘la qondirishga yordam beradi. “Eng kam miqdordagi ish haqi ish kuchining jismoniy faolligini qo‘llab- quvvatlab qolmasdan, shu bilan birga uning mehnat qilish qobiliyatini tiklashi va rivojlantirishi uchun iste’mol savatchasiga muvofiq kelishi lozim. Bu savatcha eng zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar turini o‘z ichiga oladi. Eng kam ish haqi faqat alohida olingan xodimni emas, balki uning voyaga yetmagan oila a’zolari ham qayta hosil qilinishi (tiklanishi) ni ta’min etishi kerak”⁹⁵.

Ish haqi turli ijtimoiy davlatlarda turlichadir. Masalan, 2023-yil may oyiga ko‘ra oylik ish haqlari Shvetsariyada u 5576 AQSh dollarini, AQShda 3837, Islandiyada 3712, Niderlandiyada 3150, Buyuk Britaniyada 2645, Finlandiyada 2582, Germaniyada 2744, Kanadada 2740, O‘zbekistonda esa, 2022-yilga ko‘ra, 278, 79 AQSh dollarni tashkil etgan.

⁹³ Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. 97 б.

⁹⁴ Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. 98 б.

⁹⁵ Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. 99–100 б.

106 davlat ichida respublikamiz ish haqi to‘lash bo‘yicha 96-o‘rinni egallagan⁹⁶. Agar buni ilg‘or davlatlardagi holga taqqoslasak, respublikamizda ijtimoiy davlat barpo etish borasida jiddiy o‘zgarishlar va rivojlanish ro‘y berishi zarurligini anglaymiz.

To‘plangan (yig‘ilgan) daromad shaxsning mehnat haqlaridan, mukofotlar va merosdan qolgan mablag‘lari yig‘indisidir. To‘plangan daromad, pul, moddiy boylik, valyuta, qimmatbaho metallar va narsalar tarzida shaxsga o‘zini ta‘minlanganlik, kutilmagan hodisalardan saqlanish, ehtiyot bo‘lish, salomatligi va xavfsizligi ta‘minlash imkonini beradi. Shaxs qariganida yoki nafaqaga chiqqanida ma‘lum bir jamg‘armalarga ega bo‘lishi kerak, chunki bu yoshda uning tibbiy va xavfsizlik yordamlariga, xizmatlariga zarurati oshadi. Mutaxassislarning tavsiyasiga ko‘ra, oila sarf-xarajatlarining 36% to‘planadigan daromad bo‘lishi zarur. Demak, oilaga sarflanadigan mablag‘larning shuncha qismi har oyda to‘planadigan daromadga ajratilishi, bu oila a‘zolarini kelgusida bo‘lishi ehtimoli mavjud tasodiflardan, yotib qolish yoki muhtojlikdan himoya qiladi.

Ijtimoiy davlat pul jamg‘armalarini banklarda saqlash tizimini shakllantirib, aholining ijtimoiy farovonligi va xavfsizligini ta‘minlaydi. Pul jamg‘armalari, to‘plangan daromadlar shaxsning ixtiyori bilan shakllantiriladi. Shu bilan birga, davlat mehnat haqlari va shartnomalaridan olinadigan pullardan nafaqa jamg‘armalari tashkil etadi, agar fuqaro ulardan foydalanmoqchi bo‘lsa, istagan paytida ushbu mablag‘larini yechib olish, o‘ziga sarflash imkoniga ega bo‘ladi. Mazkur operatsiyalar maxsus normativ hujjatlar bilan kafolatlangan va banki tizimi orqali amalga oshiriladi.

Aholining daromadi haqida turli nazariy konsepsiyalar yaratilgan bo‘lsa-da, uning mexanizmlari hanuzgacha yetarli aniqlanmagan. Ba‘zan salbiy hollar aholi daromadining, ayniqsa, milliy daromadning oshishiga olib keladi. Masalan, Ukrainadagi urushga qaramay, Rossiya yanada boyigan, milliardlab dollar Ukrainaga ajratayotgan g‘arb esa qashshoqlashish tomon bormoqda. 2022-yil AQSh boshqa mamalakatlariga qaraganda eng ko‘p yo‘qotishga (5,9 trillion dollar) uchragan, Shimoliy Amerika va Yevropa bilan birgalikda 10,9 trillion dollarga

⁹⁶ [https // kun.uz>news>2022/08/25](https://kun.uz/news/2022/08/25)

kambag'allashgan. Rossiyaning umumiy boyligi 600 milliardga oshgan. Unda milliardlar soni 58 mingga oshib, deyarli 408 mingga yetgan⁹⁷.

AQSh va Yevropa davlatlarining militaristik siyosati Ukraina bilan Rossiya o'rtasida kelishuvga erishishga, nizo va urushlarni to'xtatishga emas, balki Rossiyani mag'lub etishga, o'z tasavvurlarini dunyoga singdirib gegemonlikka erishishga qaratilganini payqamaslik mumkin emas. Ijtimoiy davlatlar ham shunday gegemonistik tazyiqqa uchrashi tabiiy holdir. Shuning uchun kelajakda barpo etiladigan ijtimoiy davlat tashqi imperialistik va shovinistik tazyiqlardan mutlaq xoli bo'ladi deyish qiyin. Ammo bu ularning aholi daromadini oshirishga qaratilgan siyosatini davom ettirishlariga xalaqit bermasligi zarur.

"Iste'mol savati" degan tushuncha g'arb iqtisodiyoti va mehnat, turmush sotsiologiyasida keng ishlatib kelinadi. U aholi ijtimoiy farovonligi, turmushi va kundalik ehtiyojlari uchun zarur narsalarni, tovar va ne'matlarni sotib olish imkoniyatlarining ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uning parametrlari har besh yilda bir marta o'rnatiladi va ularga muvofiq aholining nimalar iste'mol qilishi, qanday kiyim-kechaklar va xizmat turlariga ehtiyojlari borligi aniqlanadi. Ilg'or davlatlarda iste'mol savati har oyda aniqlanib, aholi e'tiboriga, muhokamasiga qo'yib boriladi. Agar iste'mol tovarlarida biror salbiy tomonga o'zgarish (masalan, go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishning qisqarishi) ro'y bersa, buning boislari izlanadi, har bir kishiga o'rnatilgan ratsion (xalqaro standart) ga amal qilish choralari ko'riladi. Har bir shaxsning farovon, sog'lom yashashi uning iste'mol qiladigan noz-ne'matlariga bog'liqligi iste'mol savati minimumini saqlashni taqozo etadi. Ijtimoiy davlat o'z fuqarolariga ana shu minimumdan kam bo'lmagan noz-ne'matlar yetkazib berish, buning uchun zarur bo'lsa, ijtimoiy himoya jamg'armalarining yordamlaridan foydalanishga intiladi. Iste'mol savati aholi farovonligining indikatori sifatida bozor iqtisodiyotiga ham ta'sir etadi⁹⁸.

⁹⁷ Goraxabar/ 10/08/23).

⁹⁸ Шайхатдинов В., Григорьев И., Плешакова И. Актуальные проблемы права социального обеспечения. 2 е изд. – Москва: Литрес, 2022: Современные проблемы развития национальной экономики. Сб. статей. Материалы Международная научно практической конференции. 12–14 июня 2018г. Москва: Литрес, 2018; Никонова О., Маяцкая И., Коржинек Т., Евсеев В. Экономические основы социальной работы. Учебник. – Москва: Литрес, 2021.

Iste'mol savatini shakllantirishga oid ilg'or davlatlar tavsiyalari qanchalik muhim bo'lmasin, unda har bir xalqning, millatning ma'lum bir turmush tarzi, salomatligi va tabiiy jug'rofik muhitga moslashgani kabi omillar borligini unuta olmaymiz. Ushbu ijtimoiy demografik, etnosotsial va etnogenetik omillar iste'mol savatini shakllantirishga ta'sir etadi, noz-ne'matlarning tarqalishida muhim o'rin tutadi.

“Turmush darajasi” deganda biz aholining noz-ne'matlarni iste'mol qilish, u yoki bu tovarlarni sotib olish va ulardan foydalanish, xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlari, uy–joy sharoiti, jamiyatdagi sotsial normalarga va ehtiyojlarga munosabatlari, kommunal xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi kabilarni nazarda tutamiz. Iste'mol savati ham turmush darajasiga oid, uni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bularning ko'rinishlari, ahamiyati va jamiyat hayotidagi o'rni masalalari iqtisodiy va sotsiologik tadqiqotlarni taqozo etadi. Biz, tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, bir narsani ta'kidlab o'tishimiz zarur, aholi turmush darajasini oshirish, uning kundalik hayotiga oid ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish ijtimoiy davlatning ham vazifasi bo'lib qoladi. Ijtimoiy davlat shaxsning turmush darajasining qanday bo'lishini, nimalarni iste'mol qilishi yoki kiyishi keragu, nimalarni iste'mol qilmasligi yoki kiymasligi kerak degan tartiblarni o'rnatmaydi. Turmush darajasini qanday bo'lishi mudom shaxslar ixtiyoridadir, davlat ularning kundalik ehtiyojlariga, istaklariga aralashmaydi. Biroq ijtimoiy davlat fuqoralari turmush darajasining pasayib ketmasligi uchun o'zining siyosiy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlaridan foydalanadi.

Urbanizatsiya ham aholi turmush darajasini, farovonligini anglatuvchi ko'rsatkichlardan biridir. Hatto ilm-fanda “urbanizatsion rivojlanish” degan tushuncha mavjud. Urbanizatsion rivojlanishni ta'minlash ijtimoiy farovonlik siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Oilaning maishiy texnika (kir yuvish mashinasi, televizor, uy kinoteatri, mobil aloqa vositalari, avtomobil, changyutgich kabilar), vositalariga egaligi, maishiy xizmat turlaridan foydalanishi, uy–xonalarni zamonaviy bezatilishi kabilar oila farovonligidan darak beradi. Ilmiy texnik kashfiyotlar har bir oilaga kirib borgan hozirgi paytda ulardan foydalanmaslik aslo mumkin emas, biroq kambag'allikdan xalos bo'lmagan davlatlar, xalqlar ham borki, ularni urbanizatsiya emas, balki kun ko'rish, ovqatlanish, non topish ko'proq tashvishga soladi. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 1,2 milliard kishi qashshoq, ular

kundalik oziq– ovqatga sarflaydigan xarajatlar 1,9 AQSh dollaridan kam. Ular toza suv ichish, tibbiy xizmatlardan, hatto hojatxonadan foydalanish, ta’lim olish imkoniyatiga ega emas. Ushbu kishilarning yarmidan ko‘pi 18 yoshga yetmagan bolalardir. Ularning 600 (deyarli 50%) millionga yaqini elektr energiyasi va gazdan foydalana olmaydi, 40% sanitariya gigiena talablariga muvofiq kelmaydigan sharoitda yashaydi, 30 % esa umuman hamma narsadan ya’ni uy joydan, suv, elektr energiyasi, gaz ta’minotidan mahrum, ovqat tayyorlash imkoniga ega emas. Birgina Hindistonda, keyingi 15 yil ichida qashshoqlar soni 415 millionga qisqargan bo‘lsa-da, bugun unda 229 million qashshoq bor. Yevropadagi qashshoqlar soni bir millionga yaqin. Hatto ijtimoiy davlatlarda ham qashshoqlar soni oshib bormoqda⁹⁹. Shunday ekan, ijtimoiy davlat modeli farovonlik masalalarini mutlaq hal etadi, degan xulosaga kelmaslik kerak, bu o‘rinda su’ektiv omil (kishilarning farovon yashashga, qo‘shimcha daromad topib o‘z turmushini yaxshilashga intilmasligi, xudo beradi, boriga shukur qilib yashashga o‘rganib qolgani)ning salbiy ta’siri borligi kuzatiladi. Urbanizatsiya yon-atrofni go‘zal, qulay, toza va tartibli qilishga yordam beradi. Badiiy estetik jihozlangan yon-atrof, oila muhiti, go‘zal va ixcham kiyim-kechak, moda insonda hayotga, yashashga ishtiyoq, zavq uyg‘otadi, umumijtimoiy miqyosda esa xalq farovonligiing ko‘rinishi sifatida keladi. Yuksak badiiy estetik didga ega kishi yaratishni, hayotni yanada go‘zal qilishni, turmushini insoniylashtirishni istaydi, unga sevib sevilib, insonning yaratgan asarlaridan zavq olib yashash xos. Go‘zallik tuyg‘usidan uzoq kishi hayotning betakror, go‘zal in’om ekani haqida o‘ylamaydi, u yo bir burda non topishni yoki badnafsini qondirishni ko‘zlaydi xolos. Go‘zallik bilan farovonlik yonma-yon yuradigan voqeyiklardir.

Farovon hayot vaqtga, ayniqsa, bo‘sh vaqtga ratsional yondashish, undan unumli foydalanish imkonini beradi. Bo‘sh vaqtda kishi dam oladi, o‘zining psixofiziologik imkoniyatlarni tiklaydi, ertaga boradigan ishi uchun, ijtimoiy vazifasini bajarish uchun kuch yig‘adi. Farovon turmushning muhim ko‘rsatkichi bo‘lgan bo‘sh vaqtga ratsional munosabat kishini intellektual va ma’anaviy axloqiy rivojlanishga undaydi. Faylasuflar mudom insonning o‘z umriga, vaqtiga o‘ta ziyraklik va talabchanlik bilan yondashishga undab kelishgan, bu bejiz emas. Inson umri vaqt (soniya, daqiqa, soat, hafta, oy, yil) larda o‘z ifodasini topadi, demak, vaqtga munosabat umrga munosabatdir. Shuning uchun ham

⁹⁹ news. un. org.17/10/22

Seneka shogirdini vaqtini kerakli narsalarga sarflashga, uni boshqalar tomonidan o'g'irlanishiga yo'l qo'ymaslikka chaqiradi. Insonda yakkayu yagona boylik u vaqt, uni behuda narsalarga sarflagan adashadi, deb ko'rsatadi faylasuf¹⁰⁰.

Maxsus tadqiqotlardan ma'lumki, farovon yashayotgan kishi bo'sh vaqtdan ratsional foydalanishga, sayohatlarga chiqishga intiladi. Sayohat kishining dunyoqarashini, bilimini oshiradi, unga turli xalqlar madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Bugun turizmga ijtimoiy iqtisodiy sohaning bir tarmog'i sifatida qaralmoqda, demak, mamlakatning taraqqiyoti sayohat xizmatlarining yo'lga qo'yilgani, fuqarolarning tashqi va ichki turizmdagi faolligi bilan o'lchanadigan bo'ladi. Ijtimoiy davlatning rivojlanishi uchun chet ellik sayohlarning kelishi muhim pozitiv holdir. Ushbu sayohlar bilan birga davlatga investitsiya keladi, ish joylari paydo bo'ladi, integratsiya kuchayadi, madaniy tajriba almashish kengayadi. Ijtimoiy davlat xalqaro aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor, chunki bunday aloqalar milliy madaniyat va taraqqiyotni boshqa davlatlarga, xalqlarga yetkazadi, xalqni xalqqa, madaniyatni madaniyatga tanitadi. Global madaniy rivojlanish avj olib borayotgan hozirgi paytda turizm imkoniyatlaridan foydalanish ijtimoiy davlatning xalqaro reytingini, imijini oshiradi, uning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Ilg'or davlatlarda uy xizmatchilari yollash farovonlik belgisi sifatida qabul qilinadi. Moddiy nuqtayi nazardan yetarli ta'minlangan, o'ziga to'q oilalar uy xizmatchilari xizmatlaridan foydalanishadi. Bunday xizmatchilar qatlami Yangi O'zbekistonda ham shakllanib bormoqda.

Ijtimoiy farovonlik asosini ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar ya'ni fuqarolarning mehnat jarayonida yaratgan moddiy boyliklari, ularning mehnat qilishga tayyorligi, jamiyat moddiy boyliklarini oshirishga qiziqishi, xullas, har bir kishining ijtimoiy mehnatga munosabati tashkil qiladi. Gegel yozganidek, "fuqarolik jamiyati individlarni ta'minlashi zarur, shu bilan birga u individlarni o'z farovonligini ta'minlashi uchun zarur mablag'lar topishga majbur etish huquqiga ham egadir"¹⁰¹. Yo'qsil kishilar uchun oila rolini davlat bajaradi, deb ko'rsatadi Gegel, bu bilan fuqarolik jamiyati, "umumhokimiyat" individlarning muhtojligida yordam beradi, ularning, vaziyati va huquqsizligidan kelib chiqadigan ishlashni

¹⁰⁰ Сенека. Нравственные письма к Луцилию. – Москва: АСТ, 2022. С. 180–181.

¹⁰¹ Гегель. Философия права. – Москва: Мисль, 1990. С. 270.

xohlamasligi, serqahrli va boshqa illatlari bilan kurashadi¹⁰². Demak, mehnatga layoqatli kishilarni, agar ular farovon yashashni istashsa, ishlashga majbur etish davlatning huquqidir. Ijtimoiy davlat ham, bizning fikrimizcha, bu huquqidan foydalanadi. Ijtimoiy mehnat korporatsiyalar, mehnat jamoalari, assosiatsiyalar, korxonalar, bozor infratuzilmalarining ijtimoiy hamkorligi negizida yuzaga keladi. Har qanday davlat ushbu ijtimoiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlashi orqaligina jamiyatda birlikni, ahillik va ittifoqni ta'minlaydi, agar shunday hamkorlik yo'lga qo'yilmasa, barcha tuzilmalar, shu jumladan, davlat instituti ham tanazzulga uchraydi.

Xalq xo'jaligi sohalarining integratsiyasi juda murakkab, ularni bir, ikki betda ifodalash, yoritish mushkul. Jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlik faqat iqtisodiyot sohasiga taalluqli emas, u ijtimoiy borliqdagi barcha yo'nalishlarga taalluqli jarayondir. Ijtimoiy davlat ushbu ijtimoiy hamkorlikni jamiyat va inson taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tashkil etadi, ularni ijtimoiy huquqiy mexanizmlar bilan regulyatsiya qiladi. Masalan, iqtisodiyot bilan madaniyat, davlat boshqaruvi bilan fuqarolik jamiyati institutlari, sud-huquq tizimi bilan ommaviy axborot vositalari, xususiy korxonalar bilan korporativ muassasalar, ta'lim-tarbiya bilan mehnat jamoalari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik usullari va yo'nalishlari sonsiz sanoqsiz, ular "o'rgimchak uyasi" sxemasidagi aloqalardir. Ijtimoiy davlatning demokratik boshqarish imkoniyatlari ushbu "o'rgimchak uyasi" sxemasini oddiy usulda, ko'rinishda tashkil etishga olib bormasligi zarur. Sohalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik mudom murakkab, ko'pqirrali va goho ziddiyatli kechadi, ularni soddalashtirish murakkab ijtimoiy munosabatlarni soddalashtirishga, primitiv shaklda uyushtirishga olib keladi, natijada ijtimoiy munosabatlardagi zavqli, qiziqarli va kreativ izlanishlarga undovchi jihatlar sun'iy tarzda yo'q qilinadi. Bu o'rinda marksistlar keng va rang barang ijtimoiy munosabatlarni proletar jamiyati va burjuaziya jamiyati tarzida qaragani qanday natijalarga olib kelgani ma'lum. Turli qatlamlar va manfaatlar mavjud ekan, ijtimoiy munosabatlar ham murakkabligicha qolaveradi. Ijtimoiy davlatning demokratik xususiyati, undagi qonun ustuvorligi ijtimoiy hamkorlikni murakkab voqeylik sifatida anglashga va tashkil etishga undaydi. Shuning uchun ijtimoiy farovonlik va ijtimoiy hamkorlik demokratik, huquqiy qadriyatlar negizida uyg'unlashib ijtimoiy davlatning shakllanishi hamda rivojlanishiga zamin yaratadi.

¹⁰² Гегель. Философия права. – Москва: Мисль, 1990. С. 270.

III BOB. IJTIMOIIY DAVLAT – HUQUQIIY DAVLAT: MODERNIZATSIYA VA EVOLYUTSION TARAQQIIYOTNI TA'MINLASHDA HUQUQIIY QADRIYATLARNING O'RNI

3.1. Ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy-konstitutsion asoslari

Ijtimoiy birlik va korporativ maqsadlarga tayanish asosida shakllanadigan davlat ma'lum bir huquqiy–konstitutsion normalar va prinsiplarga tayanadi. Hatto davlat konstitutsiyasiga ega bo'lmagan Angliya ham monarx (qirol) boshqarishi, konservativ parlament, siyosiy partiyalar, munitsipial idoralariga ya'ni ichki ijtimoiy–siyosiy boshqaruv tizimiga egadir. Shunday ekan, ijtimoiy davlatlar ham o'zining huquqiy-konstitutsion asoslariga ega bo'lishi lozim.

Ijtimoiy davlatlarning soni ham, tarqalish doirasi ham bugun kengayib bormoqda. Agar yuz yil oldin ijtimoiy davlatlar soni atigi oltita (Shvetsariya, Belgiya, AQSh, Kanada, Fransiya, Germaniya) bo'lgan bo'lsa, bugun ular soni, bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, o'ttizdan oshadi. Ular ichiga kommunistik ideologiya ustuvorligi o'rnatilgan Xitoy va avtokratik Shimoliy Koreya kabi, o'zini demokratik atovchi, davlatlar ham kiradi. Darvoqe, ijtimoiy bo'lmagan davlat yo'q, biroq, K.Popperring mashhur iborasi ("faylasuf bo'lmagan odam yo'q, ammo kimdir ko'proq faylasuf, kimdir kamroq")ga taqlid ijtimoiy bo'lmagan davlat yo'q, biroq qaysi bir davlat ko'proq ijtimoiy, qaysi bir davlat kamroq ijtimoiydir, deyishimiz mumkin. Ijtimoiy islohotlar butun jamiyat hayotiga, sotsiumda kechadigan munosabatlarga, ayniqsa, davlat boshqaruvi asoslari va mexanizmlariga ta'sir etmay qolmaydi. Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan ijtimoiy davlat ana shunday islohotlar mahsuli sifatida o'zining huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishi va bu borada yanada taraqqiy etish yo'llarini belgilab olishi tabiiy hol edi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek: "Xalqimiz siyosiy–huquqiy tafakkurning yorqin ifodasi bo'ladigan yangilanayotgan Konstitutsiyamizga tayanib, yangi O'zbekistonni, albatta, barpo etamiz"¹⁰³. Mazkur optimistik ruhdagi da'vat ijtimoiy davlat barpo etishga qaratilgan islohotlarga ishonch bilan qarashga bu borada pozitiv tajribalarni umumlashtirishga, uchrayotgan muammolarni ochiq muhokama qilishga undaydi. Ijtimoiy davlat barpo

¹⁰³ Қаранг: "Янги Ўзбекистон". 2022, 18 март

etish davlat asosi bo'lgan konstitutsiyani takomillashtirish, unga yangi davr va taraqqiyot talablariga muvofiq keladigan o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Shu maqsadda O'zbekistonda 2022-yilda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishga kirishildi. Bu esa ijtimoiy davlatning huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini belgilab berdi. Birinchi huquqiy, konstitutsiyaviy asos inson qadrini yuksaltirish, davlat organlarining inson manfaatlariga xizmat qilishiga erishish, barcha sohalarda inson sha'ni, qimmatini va qonuniy manfaatlarini ustuvorligiga erishish bilan bog'liqdir. Davlatimiz rahbari o'zining Konstitutsiyaviy islohotlar komissiyasi a'zolari oldidagi nutqida ijtimoiy davlat barpo etishdagi bosh maqsad inson qadrini yuksaltirish ekanini ta'kidlaydi. U shunday deydi: "Inson–davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbayi hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim"¹⁰⁴.

Mazkur prinsipni hayotga tadbqiq etish uchun Oliy Majlis tomonidan hududlarni ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi, joylarda yangi ish joylari ochish, kambag'allikni kamaytirish, har bir mahalla va oilada farovonlik va gender tenglikni ta'minlash borasida mahalliy kengash bilan birga ishlash modeli shakllantirildi. Bugun joylarda Oliy Majlis tomonidan shakllantirilgan "Mahalla yettiligi" –Kengash–Senat uch bo'g'inli hamkorlik tizimi faoliyat yuritmoqda¹⁰⁵. Bunday hamkorlik bir tomonidan, milliy parlament faoliyatini real hudud va real kishilar ehtiyojlari bilan bog'lash, ikkinchi tomondan, inson qadri va huquqlarini ta'minlash imkonini beradi.

Oliy Majlis deputatlari faoliyatining saylovchilari oldidagi mas'ulligi bilan bog'lanishi, ularning hududlardagi muammolarni hal etishdagi ishtiroki ijtimoiy davlatning tub maqsadiga, funksiyalariga muvofiqdir. Ijtimoiy davlat jamiyatdagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan institutdir. Sir emaski, bozor iqtisodiyoti mulkiy tafovutlarni keltirib chiqaradi, tadbirkorlik va biznes ayrim kishilarning, guruhlarining boyib ketishiga imkon beradi. G'arbdagi millioner va milliarderlar ana shu tadbirkorlik, biznes orqali boylik, mulk orttirgan, ularning turmush tarzi havas uyg'otmay qolmaydi. O'zbekiston bunday mulkiy tabaqalanish jamiyatda noroziliklar uyg'otishini biladi, shuning uchun u ijtimoiy, ayniqsa, mulkiy tafovutlarni kamaytirish siyosatini yuritadi. Biroq bu

¹⁰⁴ Қаранг: "Янги Ўзбекистон". 2022, 18 март

¹⁰⁵ Инсон қадри улуғланган юрт.

barcha bir tekisda maosh olishi zarur, kishilar mehnati va tadbirkorligiga yarasha taqdirlanishi mumkin emas, degan fikrni anglatmaydi. Mehnatiga va talantiga yarasha taqdirlanish taraqqiyot kafolatidir. Tadbirkorlik va kichik biznesga oid qonunlarda subyektlarning qancha maosh ishlab topishi cheklanmasligi qayd etiladi. Bu bozor iqtisodiyoti tartiblarga muvofiqdir.

Yangi Konstitutsiyasiga kiritilgan, inson qadrini, uning hayotini ulug'lovchi muhim o'zgarish o'lim jazosining bekor qilinishidir. Asosiy qonunimizning 25–moddasiga O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi, degan qoida kiritildi¹⁰⁶. Insonning hayoti daxlsiz ekani, uni yaratgan berishi, davlat uni olishi mumkin emasligi falsafiy–huquqiy adabiyotlarda ta'kidlanadi.

Masalan, rus faylasufi V.S.Solovev “insonga hayotni xudo beradi, shuning uchun xudodan boshqa hech kim uni olishga haqli emas”, degan¹⁰⁷. Bunday fikrni boshqa faylasuf va yuristlar ham bildirishadi, lekin oliy jazoni qo'llash tarafdorlari ham oz emas. Singapur va Xitoyda korrupsiyaga qarshi o'lim jazosi qo'llaniladi, har yili yuzga yaqin shaxslar og'ir jinoyatlarga ayblanib, qatl etiladi, shunga qaramay, jinoyatlarni tugatish imkoni bo'lmayapti. Demak, bunday istisno tarzida uchraydigan jinoyatlar uchun o'lim jazosini qo'llash g'ayriinsoniy choradir.

Xalqaro “Miranda qoidasi”ga ko'ra, shaxsni ushlash yoki hibsga olish paytida buning sabab, shaxsga huquqlari, yuridik yordam olish tartiblari tushuntirilishi zarur. Dunyodagi ijtimoiy davlatlarda ushbu qoida amal qiladi, unga ko'ra shaxs o'zimni huquqiy himoya qilishi mumkin. Yurisprudensiyaning o'ziga xos qiyin talqinlari borligi sababli shaxsga o'zini himoya qilish asoslari sodda tilda, g'ayriqonuniy xatti–harakatlarga undamasdan, tushuntirilishi kerak. Ijtimoiy davlatda shaxsga o'zini huquqiy himoya qilishga imkon berilishi, bu vazifani tag'in hibsga olayotgan subyektning o'zi bajarishining o'rnatilishi yuridik institutlar faoliyatini gumanizatsiyalashga intilish belgisidir.

Ijtimoiy davlatda insonlarni uy-joy bilan ta'minlash muhim ichki siyosat hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan obod mahalla, obod qishloq, Yangi “siti”lar, yangi Toshkent, Yangi Namangan, yangi massivlar aholimizning uy-joylarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.

¹⁰⁷ Соловьев В. Право и нравственность. – Минск: Харвест, Москва: АСТ.2001.С.17–18.

nazarda tutadi. Birgina 2024– yilda uy-joy olish va turmush sharoitini yaxshilash uchun fuqarolarga 25,1 milliard so‘m subsidiya, 40,3 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratilgan¹⁰⁸. “Mahalla byudjeti” mutlaq yangi tizim sifatida aholi turmushini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Siyosay fanlari doktori, professor Q.Quronboyevning keltirishicha, o‘tgan yilning o‘zida Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasiga 307,8 milliard tushirilgan. “Mahalla yettiligi” va “Call-markaz” aholi bilan 24 soat ishlash tartibini joriy etgan¹⁰⁹.

Ijtimoiy davlat xususiy mulkni ishonchli kafolatlaydi. Bu Konstitutsiyamizning IX bobida alohida ta’kidlanadi¹¹⁰.

Ijtimoiy davlatning huquqiy asoslari, avvalo, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan. Bu borada uning Konstitutsiyaviy islohotlar komissiyasi a’zolari oldidagi nutqi va Oliy Majlisga Murojaatlaridagi ko‘rsatmalarini eslash o‘rinlidir. Ularda ko‘rsatilgan qoida shundaki, huquqiy davlat insoniyat taraqqiyotining buyuk goyasi va kashfiyoti, Xalqimiz orzu istaklarining ifodasidir. “Avesto”dan tortib to jadid bobolarimizgacha adolat, ijtimoiy tenglik va insonparvarlik prinsiplari qaror topgan davlat barpo etishni targ‘ib etib kelishgan. Obyektiv va subyektiv to‘siqlar bois uni barpo etish mumkin bo‘lmay keldi. Yangi O‘zbekistonda zarur imkon yuzaga keldi.

Taniqli huquqshunos, akademik A.Saidovning keltirishicha, O‘zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy davlat quyidagi jihatlarni o‘zi ichiga oladi:

- davlat institutlari faoliyatida shaffoflik, ochiqlik va hisobdorlikni ta’milash;
- xalq hokimiyatchiligini, hokimiyatlarning bir-birini tiyib turishning samarali mexanizmlarni joriy etish;
- Oliy Majlisning vakolatlarini kengaytirish;
- korrupsiyaga qarshi kurash agentligi rahbarini tayinlash farmonini Senat tomonidan tasdiqlash tartibini joriy qilish;
- hukumatning korrupsiyaga qarshi kurash yillik hisobotini parlamentda tinglash;

¹⁰⁸ Куронбоев Қ. Ижтимоий давлат – Инсонпарвар давлат демакдир // “Янги Ўзбекистон”, 2024, 6 декабрь.

¹⁰⁹ Ўша жойда.

¹¹⁰ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.

– fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytiruvchi qonunchilik takliflarini kiritish institutini joriy etish kabilar muhim vazifalardan ekanini ta’kidlaydi¹¹¹. Ushbu vazifalarning har biri ijtimoiy davlatning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun muhimdir.

Shu bilan birga, bu borada yana e’tiborni talab etadigan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega muammolar ham bor. Ular qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:

- birinchidan, ijtimoiy davlatning siyosiy-falsafiy asoslarni o’rganish;
- ikkinchidan, xalqaro tajribalarni tadqiq etish;
- uchinchidan, jamiyat va fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishning zamonaviy mexanizmlarni yaratish;
- to’rtinchidan, ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya institutlari faoliyatini takomillashtirish;
- beshinchidan, fuqarolarning huquqiy savodxonligini qo’llab-quvvatlashning yangi shakl usul va mexanizmlarni yaratish.

Mazkur yo’nalishlar borasida respublikamizda milliy tajribalar mavjud, ularni umumlashtirish va ilmiy tahlil qilish tadqiqotchilar **oldidagi vazifalardir**.

Ijtimoiy davlatni barpo etish aniq jug’rofiy, etnosiyosiy va etnomadaniy makonda amalga oshiriladi. Bu o’rinda Yangi O’zbekiston tajribasiga, huquqiy–konstitutsion islohotlarga murojaat etish zarur. **Keyingi o’n yil ichida** O’zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar xalq manfaatlariga yo’naltirilgan xalq davlat institutlariga emas, davlat institutlari xalqqa xizmat qilishi kerak, degan prinsipga muvofiq amalga oshirildi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va izchil tatbiq etilgan ushbu prinsip pirovard natijada ijtimoiy davlat barpo etish maqsadiga olib keldi. Islohotlarning tayyor, ayniqsa, qotgan modeli yo’q, ular ijtimoiy taraqqiyotning dinamik talablariga muvofiq aniqlashtiriladi, boyitiladi va yangi fikrlar, g’oyalar bilan to’ldiriladi. 2016–2017-yillarda konstitutsion islohotlar o’tkazib, siyosiy strategik maqsadimizni ijtimoiy davlat barpo etishga qaratishimizni hali bilmasdik. Yetti yil ichida o’tkazilgan yangilanish va demokratik o’zgarishlar xalq va inson manfaatlarini ustuvor qilib qo’yishga, davlat boshqaruvini xalqchillashtirishga olib keldi. Bu, o’z navbatida, ijtimoiy davlat

¹¹¹ Саидов А. Конституциянинг ягона манбаи ва муаллифи – халқдир.

konsepsiyasini ishlab chiqish va konstitutsiyaga fundamental ahamiyatga ega o'zgartirishlar kiritishni obyektiv zaruratga aylantirdi. Ushbu obyektiv zarurat "konstitutsiyaviy islohotlar" atamasi bilan milliy demokratik taraqqiyot falsafasiga kirdi.

Konstitutsiyaviy islohotlarda ijtimoiy davlat barpo etish (ijtimoiy adolat qaror topgan, farovon hayot ta'minlangan) va insonning huquq va erkinliklarini kafolatlash (demokratiya hamda inson huquq va erkinliklari huquqiy davlat mezonini sifatida baholanadigan) bir-biriga bog'liq tarzda keladi. Ularni dialektik uyg'unlikda anglash kerak. Ijtimoiy davlat faqat ijtimoiy adolatni va farovon hayotni ta'minlashdan iborat emas, u insonning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishni ham kafolatlaydi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, ijtimoiy davlat birinchi konstitutsiyamizdagi "demokratik huquqiy davlat"ga zid emas. Ushbu atamaning yangi konstitutsiyada saqlab qolingani ham buni tasdiqlaydi.

Darvoqe, birinchi konstitutsiyaga ham davr talablariga muvofiq o'zgarishlar kiritilgan edi. Yuridik fanlari doktori, professor, akademik, konstitutsiyaviy islohotlar raisi A.Saidovning qayd etishicha, "Konstitutsiyamiz yillar davomida yashayotgan davrimiz, islohotlar talabi va xalqimiz ehtiyojidan kelib chiqib takomillashtirilib borildi. Hozir esa Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng ko'lamli vazifalar, xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlarini, qadr-qimmatini yanada samarali ta'minlash kabi maqsadlar mamlakatimizdagi tub islohotlarga mos yangi konstitutsiyaviy-huquqiy makonni yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda"¹¹².

Olimning fikricha, yangi konstitutsiyaviy islohotlar milliy demokratik taraqqiyotning tadrijiy davomi, xalqimiz irodasi va istaklarining, taraqqiyot strategiyasiga muvofiq keladigan, ifodasidir. Birinchi konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar yangi davr talablariga mos keladigan huquqiy islohotlar uchun yo'l ochib berdi. Bu o'sha o'zgarishlar mutlaq eskirdi, o'z vazifasini bajardi, endi ularga ehtiyoj yo'q, degani emas. Masalan, Konstitutsiyaning XVIII bobiga Oliy Majlis va siyosiy partiyalarga, XXII bobiga saylov huquqiga oid kiritilgan o'zgarishlar o'zi ahamiyatini yo'qotgan yo'q. Falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan ular insonning ijtimoiy-huquqiy makondagi o'rnini mustahkamlashga, shaxs

¹¹² Саидов А. Конституциявий ислохотларда жамоатчилик иштироки // "Янги Ўзбекистон", 2022, 30 сентябрь.

bilan hokimiyat organi o'rtasidagi integrativ uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilib keladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarni oldingi davrga, huquqiy islohotlarga qarshi qo'ymaslik, balki ushbu ikki bosqichga yaxlit, milliy demokratik taraqqiyot talablariga mos keladigan uzviy islohotlar jarayonlari sifatida qarash darkor.

Konstitutsiyaviy islohotlarning bosh subyeksi – xalq. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Konstitutsiyaviy islohotni Fuqarolarimiz fikri va qo'llab-quvvatlashi asosida, referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma'noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo'ladi”¹¹³. Birinchi Konstitutsiya 128 moddadagi iborat edi, xalqimizning taklif va tavsiyalarga muvofiq yangi Konstitutsiya 155 modda, ulardagi normalar esa 275 dan 434 taga, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir normalar 3,5 barobariga oshirildi. Fuqarolar tomonidan 223 ming taklif va tavsiyalarning har to'rtidan biri, umumlashtirilgan tarzda, yangi Asosiy qonundan joy olgan.

Ba'zi fuqarolarda, Konstitutsiyaviy islohotlar Prezident, hukumat tashabbusi, degan fikr uchraydi. Prezident va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan bu tashabbus aslida 2021-yili siyosiy partiyalar faollari tomonidan ilgari surilgan, aholining turli qatlamlari (ziyolilar, olimlar, fermerlar, Yoshlar ittifoqining faollari) tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bu tashabbus va takliflar Prezident tomonidan aniq vazifalar tarzida shakllantiriladi va Konstitutsiyaviy islohotlar komissiyasi tashkil etildi. Komissiya ishiga Oliy Majlis deputatlari, akademik hamjamiyat, huquqshunos va davlatshunoslar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari jalb etildi.

Komissiya tomonidan 193 davlat Konstitutsiyalari va ularni yaratish tajribalari, 400 dan ortiq xalqaro konvensiyalar, deklaratsiya va huquqiy-me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Turli davlatlardagi huquqshunoslar va o'zbek tadqiqotchilarini jalb etish asosida “Jahon Konstitutsiyalari”, “Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Konstitutsiyalari”, besh jildlik “Konstitutsiyaviy islohotlar: dunyo mamlakatlari tajribasi” kabi ilmiy fundamental asarlar chop etildi.

Ushbu asarlarni milliy qonunchilik va huquqiy tizimlar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish, huquq falsafasi muammolarini

¹¹³ www.yuz.uz

aniqlash va ularga ilmiy yechimlar topish uchun muhim ahamiyatga egadir. Shu paytgacha o'zbek huquqshunoslari va davlatshunoslari jahondagi konstitutsiyaviy islohotlar tajribalaridan yetarli xabardor bo'lishmagan.

Konstitutsiyaviy islohotlarning obyektiv zarurligini huquq va qonunchilik sohasida ro'y bergan o'zgarishlar yaqqol tasdiqlaydi. Keyingi yetti yil ichida Prezident tomonidan 6000 dan ziyod Farmon va Qarorlar, Harakatlar strategiyasi (2017) va Taraqqiyot strategiyasi(2022)ni amalga oshirishgan qaratilgan 70 dan ziyod davlat dasturlari, kompleks rejalar, hududlar va sohalarni rivojlantirish konsepsiyalari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarning har birida yangi ijtimoiy huquqiy makonni, yangi qonunlar va normalarni shakllantirishga qaratilgan ko'rsatmalar, yo'riqlar mavjuddir. Ularni operativ tahlil etish va amaliyotga qo'llashga ba'zan mutaxassislar, huquqshunoslar ham ulgurolmayotgani haqiqatdir.

Ammo bu Konstitutsion islohotlarni o'tkazishga, shu asosda jamiyatimizdagi ijtimoiy huquqiy makonni demokratlashtirish va liberallashtirishga xalaqit bermaydi. Subyektiv jarayonlarning obyektiv o'zgarishlardan ortda yurishi, hatto konservativligi aksiomadir.

Konstitutsion islohotlar komissiyasiga kelib tushgan taklif va mulohazalarning deyarli beshdan biri sud-huquq tizimiga, aybsizlik prezumpsiyasiga, tergov jarayonlarida ishlatiladigan zo'ravonlik va tazyiqlarning g'ayriqonuniyligini tasdiqlashga qaratilgan. Ma'lumki, Xalqaro huquqdan aybsizlik prezumpsiyasi mavjud. Ilmiy huquqiy adabiyotlarda u ishlatilsa-da, amalda tergov jarayonlarida jismoniy va ruhiy tazyiqlar o'tkazish odatiy holdir. Yuridik fanlari doktori, professor, Konstitutsiyaviy komissiya eksperti S.Raxmanovanning keltirishicha, 2017–2021-yillarda muddao tomonidan qamoq jazosiga nohaq tortilgan 2,3 ming kishi, aybsizlik prezumpsiyasiga muvofiq, oqlangan, jazoga tortilishi mumkin bo'lgan 3,5 mingdan ziyod xotin–qiz, mahalla va jamoatchilik kafilligi tufayli, yengilroq jazo tayinlanib, oilasi bag'rida qoldirilgan. Endi yangi Konstitutsiyaviy normaga “iqrорlik ko'rsatmalari ixtiyoriy ravishda yoki bosim ostida olinganidan qat'iy nazar, ular ish yuzasidan Yagona dalil bo'lsa, shaxs aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Endilikda shaxsning aybini isbotlash jarayonida iqrорlik ko'rsatmalariga asosiy urg'u bermasligi va ayblovni tergov yo'li bilan tekshirilgan boshqa dalillar majmui bilan isbotlash shart. Agar mazkur kafolat talablari

bajarilmasa, bunday holatlarda sud shaxsning aybini tasdiqlovchi dalillarning yetarli emasligi tufayli oqlov hukmini chiqaradi”¹¹⁴.

Sud-huquq tizimi faoliyatini insoniylashtirish islohotlarda ko‘zda tutilgan maqsadlardandir. Sud-huquq idoralari jazolash, o‘ch olishga emas, balki g‘ayriqonuniy xatti-haraktlarning oldini olish bilan shug‘ullanishi darkor. Bugun iqtisodiy jinoyatlar yuqoridigacha qolmoqda, ko‘p hollarda ularda xotin–qizlar ishtirok etayotgani kuzatiladi¹¹⁵. Shuning uchun Konstitutsion islohotlar xotin–qizlarning ish bilan bandligini ta‘minlash, ularning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, oilada diskriminatsiyani bartaraf etishga qaratilgan normalarni taklif etadi. To‘g‘ri, mazkur normalar maxsus qonunlar va moddalar bilan mustahkamlanishi zarur. Yangi Konstitutsiya strategik ahamiyatga ega hujjatdir, davlat qabul qiladigan qonunlar, huquqiy-me‘yoriy hujjatlar va qonunosti normalar, tartiblar unga asoslanadi.

Konstitutsion islohotlar tadbirkorlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarini kengaytirish, uzluksiz va inklyuziv ta‘limni yo‘lga qo‘yish, xalqaro aloqalarni olib borishga oid qator normalarni ham tavsiya etadiki, ular, shubhasiz, Yangi O‘zbekistonging xalqparvar, demokratik yangilanishga intilayotgan ijtimoiy davlat sifatida shakllanishiga yordam beradi. Inson qadri va huquqlari e‘zozlanadigan bu davlatning 2030-yillarga borib ilg‘or davlatlar qatoridan joy olishiga ishonsa bo‘ladi.

3.2.Jamiyatni modernizatsiyalashda huquqiy-iqtisodiy qadriyatlarning ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlar huquqiy borliq va yuridik normalar bilan uyg‘unlashmay qolmaydi. Mustaqil O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish huquq, yuridik normalar orqali amalga oshirilganini eslasak, huquqiy-iqtisodiy qadriyatlar nima ekanini anglab yetamiz. Shundan kelib chiqib biz huquqiy-iqtisodiy qadriyatlar deganda bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq keladigan va huquqiy qo‘llab-quvvatlanadigan sotsial tartiblarni tushunamiz. Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy e‘zozlanishi huquqiy-iqtisodiy qadriyatlarning sotsial mohiyatini tashkil etadi. Aynan

¹¹⁴ Раҳмонова С. Искотланган айб – исботланган айбсизликка тенг // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 24 сентябрь.

¹¹⁵ Қаранг: Абдурасулова Қ. Аёллар жиноятчиликлнинг жиноят–ҳуқуқий ва криминалогик муаммолари. – Тошкент: ТДЮИ, 2015. 5–6 б.

ushbu qadriyatlar, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatni modernizatsiyalash omili sifatida namoyon bo'ldi.

Huquqiy dogmatikaning bosh vazifalaridan biri pozitiv huquqni jamiyat hayotida qaror toptirish, kishilarda ularga nisbatan ijobiy munosabatni uyg'otish, demokratik qadriyatlarni barqaror voqeylikka, hayot tarziga aylantirishdir. Huquqiy madaniyat shunchaki, huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy xulq-atvor yig'indisi emas, ijtimoiy, huquqiy-siyosiy borliqni demokratik qadriyatlar asosida yangilash imkonidir. Huquqiy madaniyatni qadriyat sifatida anglash uchun uning ijtimoiy, siyosiy-huquqiy borliqdagi o'rnini va mohiyatini anglash darkor.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, "huquq" va "madaniyat" huquqshunoslik nuqtayi nazaridan ham, sotsiologik mohiyatiga ko'ra ham, turlicha hodisalar sifatida talqin qilinsa-da, ular o'rtasidagi bog'liqlik huquq orqali ochib berilishi mumkin. Bunday talqin ma'lum bir ilmiy asosga ega, ammo ular huquqiy madaniyatning, eng avvalo, ijtimoiy, siyosiy-falsafiy, aksiologik voqeylik ekanini inkor qila olmaydi. Buni huquqshunoslarning o'zi ham, goho to'la anglamagan tarzda tan oladilar. Masalan, yuridik fanlari doktori, professor H.Boboyev yozadi: "Keng falsafiy ma'noda aytganda, odam o'z erkini boshqa odam erkidan farqlagan, boshqa odamlar ijtimoiy munosabatlarga kirishgan va bu munosabatlarning ma'lum bir yuridik qonunlariga qurilishi zarurligini yoki qurilganini anglagan zahoti uning huquqiy madaniyati namoyon bo'ladi"¹¹⁶. "Huquqda normal teng huquqiylik(ya'ni pozitiv huquq –M.A.) ya'ni huquqiy normalar, qonunlar asosiy o'rinda turadi. Madaniyatda esa boyliklar (ma'naviy va moddiy boyliklar nazarda tutiladi –M.A.) yaratish. Shuning uchun jamiyatning huquqiy madaniyati uning huquqiy boyliklarida aks etadi, bu boyliklarning davr talabi va ehtiyojlariga mos kelishi jamiyat huquqiy madaniyatini darajasini bildiradi"¹¹⁷.

Huquqshunos olimning fikricha, "huquqiy madaniyat, huquqiy madaniy-boylik sifatida ma'lum bir ijtimoiy ehtiyojlarni ifoda etadi va shu ehtiyojlarni shakllantiradi. Ma'lumki, ijodiy ehtiyojlar ma'lum bir aholi qatlamining manfaatlari, qiziqishlari demakdir". Ayni shu nuqtayi nazardan xalq, aholi, kishilar huquqining subyektlari sifatida maydonga chiqadilar. Shuning uchun huquqiy madaniyatning bosh belgisi xalq, aholi,

¹¹⁶ Бобоев Х.Б., Ҳамроев Т., Алимасов В. Маданиятшунослик. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 238 б.

¹¹⁷ Бобоев Х.Б., Ҳамроев Т., Алимасов В. Маданиятшунослик. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 238 б.

kishilarning huquqiy madaniy boyliklar yaratishdagi ishtirokidir. Shunday huquqiy-madaniy ijodkorlik bo'lmasa, huquqiy madaniyat ham, huquqiy davlat ham bo'lmaydi¹¹⁸. Mazkur ta'rifda huquqiy madaniyatning subyektlari sifatida xalq, aholi, kishilar qaralmoqda, bu huquqiy madaniyatning obyektlari esa kimlar degan savolni uyg'otadi. Agar huquqiy madaniyatning obyekti jamiyat, ya'ni xalq, aholi, kishilar va institutlar bo'lsa, bu obyektlarni tag'in subyekt sifatida kelishi g'ayrimantiqiy holdir. Bir vaqtning o'zida jamiyat, xalq, aholi, kishilar ham subyekt, ham obyekt bo'lishi mumkin emas. Mantiqan shunday. Biroq xalq, aholi, kishilar turli qatlamlardan iborat, ularning barchasi bir xil tasavvur va bilimlarga ega emas, huquq haqida maxsus bilimlarga, tajribalarga ega qatlam, (ularga–ziyolilar, huquqshunos olimlar, yuridik institutlar va ularning xodimlari, sud-huquq tizimi mutaxassislari, ichki idoralar, ularda faoliyat olib borayotgan kadrlar va boshqalar kiradi) qolgan aholi qatlamlariga yuridik bilim, huquq haqida tasavvur va xulq-atvor normalari haqida ko'nikmalar shakllantirishi mumkin. Aynan shu nuqtayi nazardan jamiyat, xalq, aholi, kishilar huquqiy madaniyatning ham subyektlari, ham obyektlaridir. Biroq bunday dualistik yondashuv maxsus institutlar va subyektlar rolini kamaytirmaydi. Huquqiy madaniyatning ijtimoiy dolzarblashuvi va uni shakllantirish, yuksaltirish aynan ushbu institutlar, subyektlar faolligiga bog'liqdir. Jamiyat ijtimoiy faoliyatlarning nafaqat differensiallashuvini, shuningdek, chuqurlashuvini ham taqozo etmoqda. Yuridik sohadagi muammolarni, shu jumladan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishni va u orqali jamiyatni modernizatsiyalashni ham yuksak bilimli, kasb–korini kerakli darajada egallab olgan huquqshunoslarsiz hal etish mushkul.

Huquqiy madaniyatning qadriyat sifatida qaralishi uning ijtimoiy funksiyalarida namoyon bo'ladi. Ularga U.Tojixonov va A.Saidovlar quyidagilarni kiritadilar:

- regulativ;
- normativ;
- sotsiologik;
- kommunikativ;

¹¹⁸ Бобоев Ҳ.Б., Ҳамроев Т., Алимасов В. Маданиятшунослик. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 238 б.

– prognostika¹¹⁹.

Mazkur funksiyalar mavjud yuridik adabiyotlardagi yondashuvlarni davom ettiradi. Ammo keyingi yillarda paydo bo'lgan turlicha yondashuvlar huquqiy madaniyat funksiyalarini kengaytirishga olib kelmoqda. Shuning uchun bizga huquqshunos O.Nasriddinovaning guruhlashi yaqindir. Olima quyidagilarni huquqiy madaniyat funksiyalariga kiritadi:

1. Adaptiv (*moslashish*) funksiya.
2. Ma'rifiy funksiya.
3. Tarbiyaviy funksiya.
4. Regulyativ – normativ funksiya.
5. Integrativ funksiya.
6. Kommunikativ funksiya.
7. Ijtimoiylashuv funksiya.
8. Aksiologik yoki ijtimoiy-madaniy qadriyatlar (boyliklar) yaratish funksiyasi¹²⁰.

Huquqiy madaniyat va demokratik qadriyatlarni uyg'unlikda qarab, ularning mazkur funksiyalari orqali jamiyatning yangilanishga ta'sirini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Adaptatsiya inson va jamiyatning yangi ijtimoiy, siyosiy-huquqiy borliqqa moslashuvini, joriy etilgan normalarga muvofiq yashashga o'tishini anglatadi. Bu jarayon yangi tarixiy-madaniy paradigmaga o'tayotganda dolzarb muammolardan biriga aylanadi. Masalan: bozor munosabatlariga o'tishni olaylik. Davlatimiz bu borada zarur huquqiy baza yaratgan bo'lsa-da, unga to'sqinlik qilayotgan kuchlar hamon uchrab turadi. Bu mahalliy hokimiyat tizimida odatiy hol edi.

Tadqiqotchi N.Nishonovaning o'tkazgan sotsiologik savol-javoblari natijalaridan ma'lum bo'ladiki, respondentlarning 72% kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanishga "Mahalliy hokimiyatdagilar to'sqinlik qiladi", 61% "Muhim ishlashga imkon berishmaydi", – deb javob qaytarishadi¹²¹.

¹¹⁹ Тожионов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 2–т. Тошкент: ИИБ Академияси, 1998. – 288 б.

¹²⁰ Насриддинова О.Т. Ёшлар ҳуқуқий маданиятини юксалтириш фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг ҳал қилувчи омили сифатида. – Тошкент: ТДЮУ, 2007–88 б.

¹²¹ Собуров Н. Фуқароларнинг ҳуқуқий ҳулқ–атвори шакллантириш муаммолари (назария ва амалиёт). Юридик фан. номзоди... дисс. – Автореферати. – Тошкент: 2011. –163 б.

“Sizning fikringizcha, shahringizda, tumaningizda xotin–qizlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga jalb qilish uchun sharoitlar bormi?” degan savolga Buxoro viloyatidagi respondentlarning 72,0%, Qashqadaryo viloyatidagilarning 74.0%, Farg‘ona viloyatidagilarning 59.5%, Toshkent shahridagilarning 50%, Xorazm viloyatidagilarning 36.4%, Samarqand viloyatidagilarning 26.8% “Yo‘q” deb javob bergan. Demak, joylardagi davlat boshqaruvi tizimi, fuqarolarning biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab–quvvatlashga da‘vat etilgan institutlar hali ko‘ngildagiday faoliyat olib bormayaptilar¹²². Ko‘rinib turibdiki, mahaliy hokimiyat organlarining bozor iqtisodiyoti talablariga moslashuvi, adaptatsiyasi hali to‘la amalga oshganicha yo‘q. Natijada, jamiyatning demokratik qadriyatlari, ayniqsa, iqtisodiy demokratik qadriyatlarga moslashuvi boshqaruv tizimining quyi pog‘onasida qiyin kechmoqda.

Yana bir misol 2013-yil 27-sentyabrdagi xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida viloyatda ro‘yxatga olingan 47 ming 400 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektidan 3 ming 450 tasiga yaqini deyarli to‘qqizdan biri ishlamasligi qayd etilgan. Kichik biznes subyektlari o‘z ishini tashkil etishi uchun ularga binolar, yer uchastkalari ajratish, muhandislik–kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish masalalarida turli to‘siqlar mavjud. Eng yomoni, huquq va nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashishi holatlari ko‘zga tashlanadi.

2013-yilning birinchi yarmida nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyati yuzasidan 14 ta noqonuniy tekshirish o‘tkazilgani aniqlangan. Shuningdek, bir qator tumanlardagi tadbirkorlik subyektlarining ro‘yxatga olish inspeksiyalari faoliyatida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini buzish holatlari qayd etilgan¹²³. Natijada, o‘z faoliyatida yo‘l qo‘ygani uchun viloyat prokurori X.Turdiboev, viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i S.Xaydarov, Mirishkor tumani prokurori S.Yuldashev, Chiroqchi tumani ichki ishlari bo‘limi boshlig‘i N.Ishmuradov, Mirishkor tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Ayizovlar egallab turgan lavozimlaridan ozod etilgan. Bularning barchasi viloyatlarda qonunchilikni ta‘minlash, aholini huquqiy

¹²² Нишонов Н. Давлат бoшқарув тизимида хотин–қизларнинг ижтимоий–сиёсий фаолияти (фалсафий таҳлил) – Тошкент: Фан, 2013. – 161–162–б.

¹²³ Каримов И.А. Ўзбекистон эришган ютуқ ва марралар – биз танлаган ислохотлар йўлининг тасдиғидир. 22–ж. –Тошкент: Ўзбекистон, 2014 – 23–б.

madaniyatini oshirish, avvalo, yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutasaddi bo'lgan xodimlarning yetarlicha ish olib bormayotgani bilan bog'liq"¹²⁴. Bunday salbiy hollar avj olgani uchun Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ko'pgina muassasalar rahbarlari, jumladan, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hokimlari lavozimidan bo'shatilganini e'lon qiladi. U rahbarlardan xalq manfaatlarini, qonuniy talablarini bajarish bo'yicha "aniq va lo'nda javob", amaliy ish talab qiladi.

Huquqiy madaniyatning ma'rifiy funksiyasi huquq fenomenining pozitiv ahamiyati, yuridik dogmatikaning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini keng ommaga, kishilarga tushuntirish kerak. Shuning uchun ham 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi"da kishilarda, aholida huquqiy bilimlarni oshirish, ularni huquqiy-me'yoriy hujjatlar, qonunchilik faoliyati bilan tanishtirib borish, qabul qilingan qonunlar ommaviy axborot vositalarida chop etib, ularning muhokamasini uyushtirish kabilar zarurligi qayd etilgan¹²⁵.

Bugun Respublikamizda huquqiy madaniyatni targ'ib etishga deyarli barcha ijtimoiy-tarbiyaviy, ma'rifiy-targ'ibiy, jamoat tashkilotlari, milliy-madaniy markazlar, mahallalar, ilmiy muassasalar ishtirok etmoqda. Chunki huquqiy madaniyat bugun ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar, ta'lim bilan chambarchas olib borilgandagina ijobiy natija beradi¹²⁶.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, huquqiy madaniyatning hozirgi holati shundaki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganidan boshlab yuridik qadriyatlarimizni, huquqiy madaniyatimizni zamonaviy konstitutsiyaviy talablar darajasiga mos tarzda yuksaltirish zarurati tug'ildi. Bugungi kunda esa huquqiy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish ehtiyoji sezilmoqda. Chunki davlat organlari, hamda nodavlat tashkilotlarining huquqiy tarbiya jarayonidagi say'i-harakatlarini muvofiqlashtirish yetarli emas. Shu kabi masalalarni yangi asosda, mamlakat rivojlanishining hozirgi modernizatsiya va demokratlashtirish bosqichi vazifalaridan kelib chiqqan holda hal qilish muhim ahamiyatga ega¹²⁷.

¹²⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон эришган ютуқ ва марралар – биз танлаган ислохотлар йўлининг тасдиғидир. 22-ж. –Тошкент: Ўзбекистон, 2014–32–б.

¹²⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997, №9. – 7–8–б.

¹²⁶ Тожионов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 1. – Тошкент: ИИВ Академияси, 1998. – 17–19–б.

¹²⁷ Маматов Х. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари. – Тошкент: (yurist media markazi), 2009. – 8–б.

Huquqiy madaniyat kishilarining rasmiy organlarga, Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha ilmiy markaz, Ijtimoiy fikr Respublika jamoatchilik markaziga murojaatlarida, o'z navbatida, mazkur muassasalarining kishilarga javoblarida ayon bo'ladi. Masalan, 2007-yilda 8611 fuqaro Ombudsmanga shikoyat arizalar bilan murojaat etgan, 2011-yil ular soni 11204 kishiga, 2015-yil esa 11006 kishiga yetgan. X.Mamatovning keltirishicha esa, Ombudsmanning mintaqaviy vakillariga 1244 ta, markaziy idoraga 7367 ta shikoyat va arizalar berilgan, ulardan 5372 tasi O'zbekiston fuqarolaridir, murojaat etganlarni yarimidan ko'piya'ni 2848 tasi Respublikamiz xotin-qizlaridir. Shikoyat va arizalarning 19 tasi penitensiar muassalardan olingan, 1250 tasi takror berilgan. Ombudsmanga kelib tushgan shikoyat va arizalardan 2053 tasi nazorat ostiga olingan, 1499 tasi ko'rib chiqilib, ulardan 360 tasi ijobiy hal etilgan¹²⁸. Shunday misollarni biz hukumatimizning portaliga kelib tushayotgan murojaatlardan ham keltirishimiz mumkin. Masalan, Sh.M.Mirziyoyevning keltirishicha, 2016-yilning o'zidayoq, uch oy ichida hukumat portaliga 2017-yil 534 ming kishi murojaat etgan. Ularnin 6 mingdan ortig'i ko'rib chiqilmagan. Davlat ro'yxatiga olingan 4 mingdan ziyod normativ-huquqiy hujjatdan atigi mingga yaqini tizimga joylashtirilgan. Raqamlar ko'rsatadiki, fuqarolarimiz o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun qaysi institutlarga murojaat etish mumkinligini biladilar. Ularning barcha shikoyat va arizalari ijobiy hal etilgan bo'lsa-da, huquq idoralarining funksiyalarini to'g'ri anglaydilar. To'g'ri, bu ko'rsatkichlar aholining ham, ijro organlarining ham huquqiy madaniyati yuqori ekanligini anglatmaydi. Yuqorida Qashqadaryo viloyatidagi ahvolni eslang. Shunday kriminogen (*jinoyatchilikka moyil*) muhitda huquqiy madaniyat haqida so'z yuritish qiyin. Demak, huquqiy madaniyatning demokratik qadriyatlarning jamiyatni yangilashdagi o'rnini yanada oshadi. Huquqiy madaniyatning o'rnini va ahamiyatini oshirish muhim masala bo'lib qolayotganini maxsus sotsiologik kuzatuvlar ham ko'rsatadi¹²⁹.

Huquqiy tarbiya barcha tarbiyaviy jarayon kabi subyekt va obyektning bevosita aloqalarini taqozo etadi. O'zini o'zi yuridik tayyorlash

¹²⁸ Маматов Х. Хукукий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари. – Тошкент: (jurist media markazi), 2009. – 111–6.

¹²⁹ Мониторинг прав человека // Бюллетень Национального Центра Республики узбекистан по правам человека, 1997. – №2.

ya'ni huquqiy savodxonligini oshirish huquqiy tarbiyaning eng ta'sirchan shaklidir. Ming afsuski, bu borada ilmiy jamoatchilik biror nima aytolmaydi, chunki u e'tibordan chetda qolib keladi. Subyekt-obyekt aloqalarining tashkilotchisi huquq institutlari hisoblanadi, aynan ular ijtimoiy, siyosiy-huquqiy borliq uchun undagi vaziyatga mas'uldirlar. Shuning uchun ham ularning faoliyatiga talabchanlik katta, ularning huquqiy, ma'rifiy faoliyati ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi. Ya'ni, OAVda yoritilgan huquqiy targ'ibot ishlari aholiga tez yetib boradi. Respublika jamoatchilik markazining "Ijtimoiy fikr" markazi ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 97,2% Prezidentning "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni haqida OAV orqali xabardor ekanini bildirgan. Sud-huquq sohasidagi islohotlar haqidagi ma'lumotlarni respondentlarning 62,7 televidenie, 14,1% davriy matbuot, 12,0% radio, 4,7% qarindosh, do'st, hamkasb va mahalladoshlaridan, 1,6% mustaqil OAVdan olar ekan¹³⁰. Ko'rinib turibdiki, huquqiy-ma'rifiy ishlarda OAVning o'rni katta, subyekt-obyekt munosabatlarida qurilgan tadbirlar har doim ham ommaviy xarakter kasb etavermaydi.

Tadqiqotchi O.Nasritdinova Toshkent davlat Yuridik universiteti, Toshkent Kimyo texnologiya instituti va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabari o'rtasida qiyosiy sotsiologik kuzatuv o'tkazib "Respublikamizda qonunlar qaysi gazetalarda chop etiladi?" degan savolga javob izlagan. Kimyo texnologiya instituti talaba-respondentlarining 108 tasi "O'zbekiston ovozi", "Xalq so'zi", 23 tasi "Xurriyat", 13 tasi "Oila va jamiyat"; Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talaba-respondentlarining yuqoridagi tartibda 0, 145, 9, 39 tasi; Yuridik instituti talabalari-respondentlarining yuqoridagi tartibda, 5,179 ni tashkil etgan. Tadqiqotchi yuridik universiteti talabalarining barchasi to'g'ri javob bergan. Bu o'rinda ular tanlagan va o'quv jarayonlari ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'ramiz" deb xulosa chiqaradi¹³¹.

O. Nasritdinova huquqiy madaniyat va xulq atvorning shakllanishida huquqiy e'tiqod muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra,

¹³⁰ Маматов Х. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари. – Тошкент: (yurist media markazi), 2009. – 207–208–б.

¹³¹ Насриддинова О.Т. Ёшлар ҳуқуқий маданиятини юксалтириш фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг ҳал қилувчи омили сифатида. – Тошкент: ТДЮУ, 2007–11–б.

“huquqiy e’tiqod birdaniga va to’la namoyon bo’ladigan fazilat, xislat emas, uning namoyon bo’lishi uchun muhit, yuzaga kelgan vaziyat va ma’lum bir qator omillar, sabablar, turtki zarurdir. To’g’ri, ushbu omillar va vaziyat bo’lmasa—da, shaxs o’zining huquqiy bilimi, hamda huquqiy e’tiqodini namoyon qilishi mumkin. Masalan: zarur ijtimoiy muhit bo’lmasa, shaxs o’zining huquqiy bilimi va huquqiy e’tiqodini real ta’sir—kuchga ega xatti-harakatga aylantira olmaydi. U taqdirda huquqiy bilim va huquqiy e’tiqod oddiy bilimlar darajasida, shaxsning botiniy xaslari sifatida subyektiv hol bo’lib qolaveradi”. Bunday huquqiy bilim va huquqiy e’tiqod na shaxsning o’ziga, na jamiyatga foyda keltiradi. Huquqiy bilim va huquqiy e’tiqod shunda ijtimoiy foydali hamda qadrligi, qachon ular yon atrofdagi noqonuniy va nohuquqiy harakatlarning oldini olsa, ularni boshqalar o’yidan, harakatlaridan quvsa”¹³².

Huquqiy madaniyatning regulativ-normativ funksiyasi yuqoridagi huquqiy xulq-atvorlarda namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, bu o’rinda gap asosan qonunga itoatkorlik xususida ketadi.

“Yoshlarni huquqiy tarbiyalash va ular huquqiy madaniyatning maqsadi qonunga itoatkorlikni va shaxsning qonunni hurmat qilishini shakllantirishdan iboratdir. Qonunni hurmat qilish huquq me’yorlariga, individga nisbatan tashqi bo’lmish ko’rsatmalari va taqiqlar sifatida shunchaki rioya qilishgina emas, balki ularni shaxs bilan jamiyatning bir-biriga mos tushgan qadriyatlari sifatida uzviy idrok etishni anglatadi”¹³³.

Qonunga itoatkorlik normativ-regulativ ta’sir mahsuli, ammo u faqat subyekt va obyekt munosabatlari tizimi orqaligina shakllanmaydi. Regulativ–normativ, e’tiqod va huquqiy qadriyatga subyekt va obyektning huquqiy borliqqa faol subyekt sifatida munosabatlari orqali shakllanadi. Ijtimoiy–huquqiy borliq faollikni talab etadi, amalga joriy etilmagan, shaxsning xulq-atvorida o’z ifodasini topmagan e’tiqod va bilim jamiyatning yangilanishiga deyarli hech nima bermaydi. Mazkur dilemmani, ziddiyatni huquqshunoslar huquqiy ijtimoiylashuv orqali hal etishga intiladilar. Ularning fikriga ko’ra, huquqiy ijtimoiylashuv “bir tomondan, ijtimoiy shart–sharoitlar va turli institutlarning kishida ma’lum bir tushunchalar, tasavvurlar va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan

¹³² Насриддинова О.Т. Ёшлар ҳуқуқий маданиятини юксалтириш фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг ҳал қилувчи омили сифатида. – Тошкент: ТДЮУ, 2007–44–6.

¹³³ Мониторинг прав человека // Бюллетень Национального Центра Республики узбекистан по правам человека, 1997. – №2. 169–6.

maqsadli, ta'sirli harakatlari; ikkinchi tomondan, kishinig ijtimoiylashuvi jarayonidagi faoliyati, uning shaxs sifatida shakllanishi jarayonidir. Kishi ijtimoiy muhitda faoliyat ko'rsatib, uni o'zgartiradi, takomillashtiradi. Shuning uchun inson ijtimoiylashuvi jarayonida jamiyatga va o'zining ichki ma'naviy olamiga ta'sir etuvchi ham obyekt, subyekt sifatida keldi¹³⁴.

Huquqiy demokratik davlat barpo etish uchun barcha fuqarolar ham sotsial, ham huquqiy faol bo'lishi darkor. Bir kishidan bunday faoliyatni talab etish murakkab vazifa. Sotsial faol bo'lgan har doim ham huquqiy faol bo'lavermaydi. Huquqiy faol ham har doim sotsial faol bo'lavermasligi mumkin. Sotsial faollik bilan huquqiy faollik o'rtasida "xitoy devori" bo'lmasa-da, ma'lum bir farqlar mavjud. Masalan, tadbirkor-sotsial faol, ammo u o'z huquqlarini bilishi va himoya qilishda mudom faol bo'lavermaydi, u o'z huquqlarini himoya qilish uchun huquqshunos, advokatga murojaat etadi, yuridik texnologiya murakkablashgan, byurokratik vazifalar ko'paygan hozirgi sharoitda tadbirkor professional himoyachiga zarurat sezadi. Huquqiy faol shaxs ham o'z manfaatlaridan voz kechmaydi, u ham ko'proq mablag' topishga, farovon yashashga intiladi. Ayniqsa, jinoyat sodir etganlar, penitensiar (*jinoiy jazoni o'tash joylari*) muassasalarda saqlanayotganlar huquqini yaxshi o'zlashtirgan bo'ladilar va bu borada yetuk mutaxassis bilan bahslashishlari mumkin. Gap huquqini bilish va uni faol himoya qilishda emas, balki ushbu sa'y-harakatlar negizida qanday maqsad va manfaatlar yotganidadir.

Huquqiy madaniyatning integrativ funksiyasi deganda – jamiyatdan olgan barcha ta'sirlar, bilim va qarashlarning e'tiqodini shaxs huquqiy xulq-atvorida uyg'un nomoyon bo'lishi tushuniladi. Huquq fenomeni ana shu shaxsiy va ijtimoiy xislatlarini o'zida mujassam etadi. To'g'ri huquqiy xulq-atvor undagi yuridik dogmatikaga muvofiqlik qiziqish uyg'otadi, qadrlanadi. U mudom shaxsiy xislat sifatida qoraladi va baholanadi. Ammo mazkur xislatda ijtimoiy muhit va sotsiumdagi qadriyatlar munosabatlar ta'siri ham borligini e'tiboradan soqit qilib bo'lmaydi.

Huquqiy madaniyatning kommunikativ va ijtimoiylashuvi funksiyalari bir-birini taqozo etib keladi. Ijtimoiylashuvsiz kommunikativ funksiya, muloqot, aloqalarsiz esa ijtimoiylashuv yo'q. Jamiyatning

¹³⁴ Собуров Н. Фуқароларнинг ҳуқуқий хулқ – атворини шакллантириш муаммолари (назария ва амалиёт). Юридик фан. номзоди... дисс. – Автореферати. – Тошкент: 2011. – 21 б.

demokratik qadriyatlari asosida yangilanishi kommunikativ va ijtimoiylashuv funksiyalarining rolini, mohiyatini hamda, qadrini oshiradi. Huquqiy madaniyat faqat xabarlar tashish, ularni aholiga, kishilarga yetkazish emas, balki ushbu funksiyalarga ma'naviy-axloqiy mezonlar yuklaydi. Kommunikatsiya o'zidan-o'zi samarali natijalarga olib kelmaydi, ijtimoiylashuv faqat faollik mezonini emas. Ular ma'lum bir ma'naviy-axloqiy yukni tashiganida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitilganidan e'zozlidir.

Kommunikativ funksiya subyekt-obyekt o'rtasidagi muloqot yoki ushbu muloqotni yuzaga keltirgan vaziyat, holat hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning irodasi esa ushbu muloqotda namoyon bo'ladi. Ushbu muloqot shakllarini turli klassifikatsiya qilish mumkin. Ammo biz uchun muhim tomoni shundaki, ochiq fuqarolik jamiyati barcha subyekt-obyektlar o'rtasidagi aloqalarni, munosabatlarni qonunlar va ma'naviy-axloqiy imperativlar doirasida ochiq bo'lishini talab etadi. Oshkoralik ushbu muloqotning bosh talabi hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning biz uchun eng muhim jihati, xususiyati uning aksiologik mohiyatida yoki ijtimoiy-huquqiy qadriyatlar yaratganidadir¹³⁵. Huquqiy ong, huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod, huquqiy xulq-atvor, nimaiki huquqiy madaniyatning ichiga kirsam, uning atributi bo'lsa, u huquqiy qadriyat sifatida qaralishi mumkin. Xususiy madaniyat ana shu tarkibiy qismlarini o'ziga mujassam etgan, biroq ulardan keng huquqiy qadriyat hisoblanadi. Mazkur yondashishda hech qanday so'z o'yini yoki tautologiya, spekulatsiya yo'q. Eng muhimi, ular real voqeylik, yuridik dogmatika sifatida ijtimoiy, siyosiy-huquqiy borliqni yaratayotganida, jamiyatni demokratik yangilanishlarga hissa qo'shayotganidir.

Demokratik prognostik ideal, maqsad, unga to'la erishgan davlat uchramaydi. Chunki ijtimoiy, siyosiy-huquqiy borliqni takomillashtirish uzluksiz davom etadigan, tarixiy-madaniy hayotning o'zi kabi uzoq jarayondir. Bu hayotning oxiri, intixosi qayerda ekanini hech kim bilmaydi, aytolmaydi. Inson mavjud ekan, ushbu idealga, maqsadga intilib yashashdan to'xtamaydi, jamiyatni demokratik yangilashdan tinmay yashash uning qismati. Bu qismatni u goho bir kam dunyo deb qabul

¹³⁵ Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 248–249–б.

qiladi, shu tarzda u ijtimoiy, siyosiy–huquqiy borliq oldidagi ojizligini, uning ustidan mutlaq hokim bo‘lolmasligini tan oladi, aslida bu qismat fojia emas, balki inson o‘z “Meni”ni izlab yaratib yashashga berilgan imkon. Faqat shu tarzda, shu imkondan ongli foydalanganida inson ongli mavjudot sifatida yashashga haqli ekanini isbot etadi. Faqat shu tarzdagina uning faoliyati, izlaganlari, e’tiqodi, umuman hayoti oliy qadriyat hisoblanadi.

Jamiyatning demokratik yangilanishi antidemokratik muhitdan (sovet davridagi soxta demokratiyadan) farq qiladi. Demokratik qadriyat insonga xizmat qilishni, uning huquqi va erkinliklarini himoyalashni oliy maqsad deb biladi. Soxta demokratiya barcha sa’y-harakatlari markaziga totalitar davlat va tuzumga xizmat qilishni qo‘ydi. Uning g‘ayriinsoniy, g‘ayrimilliy pozitsiyasi yuridik dogmatikasini ham g‘ayriinsoniy, g‘ayrimilliy qilib qo‘ygan ediki, aynan demokratik yangilanishlar, ular asosida yuzaga kelgan yangi umuminsoniy huquqiy qadriyatlar xalqimizga erkin yashashga imkon bermoqda. Jamiyatdagi demokratik yangilanishlar:

- yangi milliy huquqiy tizim yaratilganida;
- yuridik dogmatikasi tub o‘zgarishlar sodir bo‘lganida;
- inson manfaatlariga xizmat qilish oliy maqsadga aylanganida;
- ijtimoiy, siyosiy-huquqiy borliqda oshkoralik, teng huquqlik, erkin mehnat, fikrlar plyuralizmi, iqtisodiy raqobat, bozor munosabatlari kabi umuminsoniy huquqiy qadriyatlar qaror topayotganida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yangilanishlar faqat huquqiy madaniyat zaminida yuzaga kelishi mumkin edi. Jamiyatdagi demokratik yangilanishlar ijtimoiy ongda ham o‘z aksini topadi. Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlarini tadqiqotchi S.Norqulov o‘rgangan, uning xulosalariga ko‘ra, ijtimoiy ongda transformatsiya paradigmali, o‘zgarishlar milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish asosida ro‘y bermoqda. Bu omillar qatorida globallashtirish va innovatsiya ta’sirini ham kiritish mumkin. Ular ta’sirida ro‘y berayotgan yangilanishlarning endi ilk ko‘rinishlari ko‘zga tashlanmoqda. Ular ijtimoiy–siyosiy sohada demokratizm va konstitutsionalizm tamoyillarining qaror topayotgani, iqtisodiy sohada bozor iqtisodiyoti va global integratsiyaga qo‘shilish ro‘y berayotgani, ma’naviy-ma’daniy sohada umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligining tan olayotgani,

informatsion-texnologiya sohasida internet, va global texnologik aloqa vositalarining joriy etilayotgani ta'lim-tarbiya sohasida, kollej, litsey, qo'shimcha oliy o'quv dargohlarining barpo qilinayotgani, xalqaro aloqlarda xalq diplomatiyasi, transmilliy korporatsiyalarning kengayotgani misol bo'lishi mumkin¹³⁶. Mazkur o'zgarishlar ham jamiyatda ro'y berayotgan demokratik yangilanishlar, modernizatsiya hosilasidir.

Jamiyatni modernizatsiyalashda ijtimoiy-iqtisodiy faollik, bozor iqtisodiyotiga o'tish kafolati bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlik muhim rol o'ynaydi. Tajriba ko'rsatadiki, ilg'or davlatlar erishgan yutuqlar, jamiyatni modernizatsiyalash iqtisodiy sektor, aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi orqali ro'y bergan. Masalan, AQSh iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik 85 foizni, Germaniyada 70–75 foizni tashkil etadi. Taniqli iqtisodchi va siyosatshunos, amerikalik tadqiqotchi R.Dal' "iqtisodiy demokratiyasiz rivojlanish yo'q" deb ko'rsatadi.

"Iqtisodiy demokratiya" deganda u kichik biznes va tadbirkorlikni nazarda tutadi¹³⁷. Iqtisodiy omillarga jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish omili sifatida qarash deyarli barcha tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etiladi¹³⁸.

Keyingi yetti–sakkiz yil ichida Oliy Majlis tomonidan Ijtimoiy–iqtisodiy sohaga, kichik biznes va tadbirkorlikka oid 20 dan ziyod qonun va konstitutsion normalar, Prezidentimiz tomonidan 300 ga yaqin farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Ular mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaratish, aholini ish bilan band etish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda ilg'ori davlat qatoriga chiqish kabi strategik maqsadlarga qaratilgandir.

Iqtisodiy huquqiy qadriyatlarga:

- ishbilarmonlik;
- tavakkal qilish;
- foyda keltirish;
- investitsiya kiritish;
- innovatsiyaga moyillik;

¹³⁶ Норкулов С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари – Тошкент: Navro'z, 2015. – 162–б.

¹³⁷ Каранг: Даль Р. Введение в экономическую демократию. – Москва: ИМПРА – М., 1993.

¹³⁸ Каранг: Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 1998; Мирзаев А. Фуқаролик жамияти ва демократик қадриятлар. – Тошкент: ТошДУ, 2005; Тўхлиев И. Ўзбек модели: тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014; Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш. – Тошкент: Шарқ, 2001.

- mehnat jamoasini uyushtirish va boshqarish;
- brend va imij yaratish kabilar kiradi.

Ishbilarmonlik iqtisodiy-huquqiy qadriyat sifatida kishini ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi faolligini ifoda etadi. Taniqli nemis iqtisodchi Y.Shumpeter ta'kidiga ko'ra, ishbilarmonlik nafaqat shaxsda mehnatga, shuningdek, ijtimoiy normalarga, sotsial aloqalar va Erkin mehnat tarziga ham munosabatlar ifodasidir. Kapitaldan samarali foydalanmay, ishbilarmonlik fazilatiga ega bo'lmay, iqtisodiy faol bo'lish, foyda ko'rish mumkin emas¹³⁹. Ishbilarmonlik iqtisodiy muvaffaqiyat uchun "zaruriy fazilat"dir. Usiz erkin iqtisodiy faoliyat, o'zi "men"ini namoyon etish yo'q.

Bozor iqtisodiyoti tavakkal qilishni muhim qadriyatga aylantiradi. Tavakkal kishining ixtiyoriy tashabbusi, o'zi mablag'ini tikib, foyda orttirish huquqidir. Bozor sharoitida tavakkal qilish qoralanmaydi, rad etilmaydi, u shaxsning tashabbusi, fidoiyligi belgisidir. Tavakkal qilish huquqi shaxsga o'zi ma'qul ko'rgan ishga mablag' tikishini, shu tarzda foyda topishini bildiradi. Tavakkal qilgan har doim ham yutavermaydi, u mablag'idan ajralib qolishi ham mumkin. Ixtiyoriylik prinsipiga qurilgan tavakkal shaxsga o'zini tadbirkor, ishbilarmon, fidoiy insonligini namoyon qilish imkonini beradi. Tavakkal raqobatni yuzaga keltiradi, shu ma'noda u raqobat shakli hamdir. Raqobatdan qo'rqmagan, o'zining bilimi va tashabbusiga ishonadigan kishi tavakkalga, raqobatga kirishadi. Unga yutish emas, goho raqobatning o'zi kerak. Raqobat uni ma'naviy-ruhiy chiniqtiradi, yonidagilarni sinab ko'rish imkonini beradi. Raqobat, musobaqa, kim o'zdi tavakkalni zavqli o'yinga aylantiradi. Yirik biznes egalari (D.Tramp, R. Kiyosaki, Sh.Lekter, D.Karnegi, I.Mask) undan samarali foydalanib muvaffaqiyatlarga erishgan. Ming afsuski, bizda raqobat, tavakkal qilish iqtisodiy-huquqiy qadriyat sifatida hali shakllanmadi. Oldi-sotdi biznesida u uchraydi, ammo u ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiyalash darajasida emas.

Foyda keltirish iqtisodiy munosabatlarning xususiyatidan, maqsaddan kelib chiqadigan qadriyatdir. Ishlab chiqarish jarayonidan tortib to xizmat ko'rsatish turlarigacha ma'lum bir foyda keltirishni nazarda tutadi. G'arbda keng tarqalgan pragmatizm foyda olish maqsadiga qurilgan, bu maqsad qoralanmaydi. Mehnatning, xizmatning har qanday

¹³⁹ Каранг: Шумпетер Й. Теория экономического развития. – Москва: Экономика, 1987. С.24–26.

turini taqdirlash, foyda olishini tabiiy hol sifatida qabul qilish pragmatizm falsafasining mohiyatidir.

Foyda olishini bilgan kishi mehnat va xizmat turlarini, mahsulot chiqarishni iste'molchi ehtiyojiga muvofiqlashtirishga intiladi, u iste'molchining talabi ustuvorligini biladi. Iste'molchi ehtiyojini qondirish bozor sharoitida asosiy iqtisodiy–huquqiy qadriyat ekanini anglab, munosabatlarga kirishadi. Shunday ekan, iste'molchiga, aholiga xizmat qilish foyda olishning kafolatidir. Mazkur qadriyat bozor iqtisodiyoti qonuni sifatida mehnat munosabatlariga ta'sir etadi.

Investitsiya kiritish va investor topish bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ehtiyojdir. Shu nuqtayi nazardan u iqtisodiy–huquqiy qadriyat hisoblanadi. Shaxs ushbu huquqidan foydalanganida avvalo tadbirkorlik faoliyatini rivolantirishni nazarda tutadi, mablag'ga muhtojligidan kelib chiqadi. Davlat taqdim etadigan kreditlar ham investitsiya turidir. Lekin uni olish byurokratik, ba'zan esa ta'magirlik kabi to'siqlarni yengib o'tishga majbur qiladi. Bunaqa to'siqlar hatto ilg'or davlatlarda ham uchraydi.

Investorlar, homiylar topish alohida bir san'atdir. Hatto AQSh kabi rivojlangan davlatlar ham iqtisodiy rivojlanishini investitsiya va kreditlar orqali ta'minlab keladi. Shunday ekan, investitsiya kiritish bozor iqtisodiyotida e'zozlanadigan fazilat, qadriyat hisoblanadi. Uning mehnat, iqtisodiyot va moliyaviy munosabatlar, amallar bilan bog'liqligini eslasak, u o'ta muhim iqtisodiy–huquqiy ahamiyatga, mohiyatga ega qadriyatdir. Ammo undan foydalanish alohida bilim va ko'nikmani talab etadi. Huquqiy va moliyaviy savodxonlik, bilim shular jumlasidandir¹⁴⁰.

Mehnat jamoasini uyushtirish, uni aniq maqsadga yo'naltirish tashkilotchilik qobiliyatidir. U jamoa rahbari va menejeriga o'ta muhimdir.

Tashkilotchilik e'zozlanadigan qadriyat hisoblanadi, Bozor iqtisodiyoti sharoitida, xo'jalikni va jamiyatni modernizatsiyalashda katta–kichik menejerlarga ehtiyoj oshadi, ularning faol pozitsiyasiz yangilanishni amalga oshirib bo'lmaydi. Modernizatsiya yangi tafakkurga ega va yangicha ishlashga tayyor tashkilotchilar orqali amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti hozir ham jamiyatni modernizatsiyalash manbayi va talabi bo'lib qolmoqda. Aynan bozor iqtisodiyoti iqtisodiy–huquqiy

¹⁴⁰ Каранг: Саладков В.И. Инвестиционная деятельность – Москва: Эксмо, 2019. С.12–14.

qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojlarga yo'nalish bermoqda. Jamiyatni modernizatsiyalash ham ushbu qadriyatlarga hamohang, muvofiqdir.

Brend va imijni shakllantirishda nafaqat iqtisodiy, shuningdek, psixologik motivlar ham mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lmoqchi jamoa, tadbirkor brendi va imijini yaratish haqida qayguradi. Bugun ular iqtisodiy–huquqiy qadriyat sifatida qabul qilinadi. O'zining iqtisodiy huquqlaridan foydalanish orqali tadbirkorligi haqida ijtimoiy fikr, aholiga, iste'molchilarga tanish brend yaratish zamonaviy biznes talablaridan biriga aylangan.

Jamiyatni modernizatsiyalash faqat iqtisodiy–huquqiy omillarga bog'liq emas, ammo ijtimoiy munosabatlar tizimida ular yetakchi o'rin tutadi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish orqali jamiyatni modernizatsiyalash yo'lidan bormoqda. Ijtimoiy davlat ham mazkur o'zgarishlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy davlatni eski tasavvurlar va tartiblar asosiga qurib bo'lmaydi, u modernizatsion xususiyatga ega ijtimoiy borliqda qaror topishi mumkin. Bunday ijtimoiy borliq innovatsion xususiyatga ega. Prezidentimiz konstitutsion islohotlardan oldin 2020-yilda mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini behuda ilgari surmagan edi. Ijtimoiy davlat ushbu modernizatsion va innovatsion o'zgarishlar natijasidir.

3.3. Ijtimoiy davlat va huquqiy-siyosiy qadriyatlar

Taniqli siyosatshunos va davlatshunoslarning xulosalariga ko'ra, har qanday davlat shakli ijtimoi-siyosiy mexanizmlariga, politexnologiyalarga muhtojlik sezadi. Mazkur mexanizmlar va politexnologiyalarning siyosiy–huquqiy asosi avvalgi tarixiy bosqichlar va etnosiyosiy tajribalarda mujassam, mavjud bo'ladi. Ijtimoiy davlatning shakllanishi va unda amal qiladigan siyosiy institutlar va huquqiy mexanizmlar ham evolyutsion rivojlanish tajribalariga tayanmay qololmaydi. Ijtimoiy davlat haqida huquqiy-konstitutsion normaning qabul qilinishi hali quruq joyda ham ijtimoiy davlat barpo etish mumkinligini bildirmaydi. Jamiyat va davlatning etnosiyosiy tajribalari yangi shakllantirilayotgan har qanday

institut mohiyati, maqsadi va funksional vazifalariga ta'sir etmay qolmaydi¹⁴¹.

Etnosiyosiy tajribalardagi vorisiylik qotib qolish emas, u mavjud pozitiv tajribalarni o'zlashtirishga tayyorlanishdir.

Ijtimoiy davlatning, falsafa fanlari doktori, professor V.Alimasovning ko'rsatishicha, ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy himoya va ijtimoiy hamkorlik prinsiplari mavjud. Ijtimoiy davlatning ushbu to'rt ustuni uni huquqiy-siyosiy voqeylikka aylantiradi va ularning har birini falsafiy akseologik nuqtayi nazaridan tadqiq etish mumkin¹⁴². Olimning yozishicha, ijtimoiy adolat insoniyat orzu qilib kelayotgan, ideal davlat, falsafiy-siyosiy modeldir.

Ijtimoiy tenglik fuqarolarning saylovlarda qatnashishi, uyushmalar tuzib, irodasini namoyon etishi, mahalliy tizimni manfaat va qiziqishiga muvofiq boshqarishi, mehnat turlarini erkin tanlashi kabilarda keladi¹⁴³.

Siyosiy partiyalar tuzib hokimiyat uchun kurashish demokratik davlatlarda qaror topgan huquqiy-siyosiy qadriyatdir. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan besh siyosiy partiya (Xalq demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-liberal-demokratik partiyasi, Adolat sotsial demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Ekologik partiya) siyosiy-huquqiy qadriyatlarni barqaror voqeylikka aylantirishga da'vat etilgan. Partiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun kurashish sog'lom raqobat asosidagina milliy demokratik taraqqiyotga xizmat qiladi, siyosiy ong, bilim va faollikni shakllantirish manbayiga aylanadi¹⁴⁴.

Ijtimoiy himoya siyosati esa ijtimoiy davlatning mohiyatini aks ettiradi. Uni xalq eng muhim siyosiy-huquqiy qadriyat sifatida qabul qiladi. Kambag'allik ijtimoiy hayotimizning atributi bo'lib qolayotgan xalq uchun ijtimoiy himoya davlatning obro'sini oshiradi, o'ziga ishonch va hurmat uyg'otadi.

Kapitalistik munosabatlar avj olgan XIX asrda davlatning rolini insoniylashtirish, uni jamiyat ichidagi antogonistik ziddiyatlarni ijtimoiy

¹⁴¹ Қаранг: Алексеев С.С. Государство и право. Начальный курс. – Москва: Норма, 1993; Малинова И.П. Философия права. – Екатеринбург: ЕГУ, 1995; Рянов Ф.М. Введение в правовое государство. – Уфа: УГУ, 1994; Давлат ва ҳуқуқ назарияси. А.Саидов таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2014

¹⁴² Қаранг: Алимасов В. Ижтимоий давлат нима??? Ж. "Тафаккур", 2024, 1-сон. 26 б.

¹⁴³ Қаранг: Алимасов В. Ижтимоий давлат нима??? Ж. "Тафаккур", 2024, 1-сон. 26 б.

¹⁴⁴ Қаранг: Бердикулов С.Н. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Академия, 2014.

taraqqiyot tomon yo‘naltirish ilm ahli diqqatini torta boshladi. Bu borada turli, liberal–demokratik, monarxistik, konstitutsional, anarxistik, demokratik, marksistik nazariyalar yuzaga keldi. Ularning ilmiy–falsafiy va siyosiy mohiyatiga oid ko‘plab asarlar yozilgan¹⁴⁵. Ular ichida ijtimoiy davlat nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy davlatning mohiyati va funksional xususiyati maxsus tadqiqotlarda ochib berilgan¹⁴⁶. I. Aristovning ta’kidlashicha, ijtimoiy davlat jamiyatdagi mulkiy va ijtimoiy ziddiyatlarni yaratilgan boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida teng taqsimlash, bir qatlamning o‘ta boyib boshqa qatlamning o‘ta qashshoqlashib ketmasligini ta’minlash uchun muvozanat o‘rnatish, ijtimoiy himoyaning samarali usullarini yaratish orqali hal qiladigan institutdir¹⁴⁷.

Ijtimoiy himoya rang-barang institutlar, usullar va mexanizmlardan iborat. U jamiyatning deyarli barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat a’zolarining tub manfaatlarini yashash, mehnat qilish, bilim olish, oila qurish, turar joyni erkin tanlash, fikrini erkin bildirish, saylovlarda qatnashish, istagan dinga e’tiqod qilish kabilarni ta’minlashni yo‘lga qo‘yadi. Bu chora–tadbirlarni amalga oshirishni samarali yo‘li ijtimoiy himoyaning kuchli huquqiy bazasini yaratishdir. Masalan, zamonaviy ijtimoiy davlatlar bo‘lgan Shvetsiya, Belgiya, Niderlandiya, Germaniya kabilarda nafaqat umumiy yo‘nalishdagi ijtimoiy himoya qonunlari, shuningdek, differensial ko‘rinishdagi qonunlar, direkt va ediktlar qabul qilingan. Ularda masalan, homilador yoki boquvchisiz qolgan keksa ayollarni, nafaqa yoshidagi kishilarni, yetim bolalarni, nogiron shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy–huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shvetsiya va Belgiyada qonunlar ijtimoiy himoya komissiyasi ruxsatidan o‘tgach parlamentlar tasdig‘iga yuborildi.

Ijtimoiy himoya avvalgi yillarda ham mustaqil davlatimizning vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Ammo Yangi O‘zbekistonda u keng

¹⁴⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – Тошкент, Ўзбекистон. 2014. 36–б; Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир// “Халқ сўзи”, 2010 йил 8 декабрь; Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб–интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – “Халқ сўзи”, 2017 йил 17 январь.

¹⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // “Халқ сўзи”, 2017 йил 8 февраль; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қонун ҳужжатларини тарқатиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора–тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // “Халқ сўзи”, 2017 йил 9 февраль.

¹⁴⁷ Платон. Сочинения в трех томах. Часть 2. Москва Мысль, 1972. – С. 12–14.

voqelikka, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga, turli qatlamlar manfaatlarini tenglik va adolat, umumiy farovonlik tamoyili asosida uyg‘unlashtirish, jamiyat taraqqiyotiga erishish taktikasiga aylandi. Prezidentimiz ilgari surgan Taraqqiyot strategiyasi umumiy farovonlik tamoyilini hayotga tadbiq etish orqali real voqeylikka aylanadi.

Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, huquqiy–siyosiy qadriyatlar jamiyatning demokratik taraqqiyotida yetakchi roli o‘ynaydi. Falsafa fanlari doktori, professor B.Talapovning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda milliy demokratik taraqqiyot ko‘p omilli ta’sirlar natijasi hisoblanadi. U ijtimoiy borliqning barcha tomonlariga taalluqli siyosiy, huquqiy, madaniy jarayonlarning kvinessensiyasidir¹⁴⁸. Demak, siyosiy–huquqiy qadriyatlarning jamiyat hayotining barcha sohalariga taalluqli ekani ijtimoiy davlatda ham ular ustuvor ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Siyosiy–huquqiy qadriyatlar fuqorolarning davlat va jamiyat boshqaruviga huquqiy munosabatlarni, jamiyatda amal qiladigan sotsioregulyativ normalarga muvofiq o‘zining siyosiy huquqlaridan foydalanishidir. Bu o‘rinda ijtimoiy davlat fuqorolarning ushbu huquq va erkinliklarini kafolatlashi tushuniladi.

Respondentlarimizga “Ijtimoiy davlatda sizning siyosiy huquqlaringiz kafolatlanadimi?” va “Ushbu huquqlaringizni nimalarda tasavvur etasiz?” degan bir–biriga bog‘liq ikki savol bilan murojaat etdik. Birinchi savolimizga javoblar quydagicha bo‘ldi:




¹⁴⁸ Қаранг: Талапов Б. Демократия ва Ўзбекистонда миллий демократик тараққиёт. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2008. 12 – 13 б.

Respondentlarimizning 67% ijtimoiy davlatning siyosiy huquqlarni kafolatlashiga ishonadi. Ularning sotsiodemografik tizimi quydagicha:


- ziyolilar–42%
- talaba yoshlar–30%
- ishchi– xizmatchilar–9%
- fermerlar va dala xizmatchilar(qishloq xo‘jaligi xodimlari) –8%
- xotin–qizlar–7%
- vaqtincha ishsizlar–3%
- javob bermaganlar–1%

Mazkur javoblarni quyida chizma orqali ifodalashimiz mumkin:




Ijtimoiy davlat fuqorolarning siyosiy huquqlarini kafolatlanishiga asosan ziyolilar (42%) va talaba yoshlar (30%) ishonadi. Bu javoblar etiroz uyg‘otmaydi, chunki ziyolilar va talaba yoshlar davlatimiz va jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlardan boshqa qatlamlarga nisbatan ko‘proq xabardordir. Qolgan qatlamlarda tub islohotlar haqida ijtimoiy fikr yetarli shakllanmagan. Ayniqsa, vaqtincha ishsizlar (3%) ijtimoiy davlat imkoniyatlarini yetarli tasavvur etisholmaydi. Xotin-qizlar tasavvuri yetarli emas. Bu o‘rinda xotin-qizlarimizda qandaydir sustkashlik, passivlik nazarga tashlanadi, vaholanki, davlatimiz ularni qo‘llab-quvvatlashni o‘zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy vazifasi deb biladi.

“Ushbu siyosiy huquqlaringizni nimalarda tasavvur etasiz?” degan savolga olgan javoblarimiz quyidagicha bo‘ldi.



Javoblardan ma'lum bo'ldiki, aksariyat respondentlar ijtimoiy davlatda fuqorolar siyosiy huquqlarni davlat ishlarini boshqarish (31%), viloyat, tuman hayotida qatnashish (28%), mehnat jamoasi hayotida qatnashish (16%), saylovlarda qatnashish (13%)da ko'radi. Bu javoblar o'zining ratsional asosiga ega, chunki respublikamizda ular siyosiy-huquqiy qadriyatlarga aylangan. Javoblarning aholi qatlamlariga muvofiq taqsimlanishi quyidagicha bo'ldi. Davlat va viloyat, tuman hayotida qatnashish:




Javoblar ziyolilar (44%) va xotin-qizlar (31%) ijtimoiy-siyosiy faol ekanini ko'rsatadi. Bu, avvalo, jamiyatimizda intelligentsiyaga va xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb etish izchil amalga oshirilayotgan siyosat, mamlakatimizni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishi bo'lganini tasdiqlaydi. Talaba yoshlarning esa 15% ijtimoiy-siyosiy va huquqiy


sohada ham faol bo‘lish zarurligini anglab yetgan. Ular ijtimoiy davlatda siyosiy–huquqiy faollik, bu boradagi qadriyatlar muhim o‘rin tutishini anglab yetish jarayonlaridadir, degan fikrga, xulosaga olib keladi.

Respondentlarning ijtimoiy davlat haqidagi tasavvurlari ularning O‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni (Konstitutsiya) bilan tanishishligiga bog‘liqdir. Shuning uchun biz ularga “O‘yingizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bormi?” va “Bor bo‘lsa, u nechanchi yilda chop etilgan?” degan ikkita savol bilan murojaat qildik.

Birinchi savolga olgan javoblarimiz quyidagicha bo‘ldi.



Respondentlarning 47% uyida Asosiy Qonunning borligini tasdiqlaydi. 28% esa bu javobda ikkilanadi, aniq ayta olmaydi. 18% respondent esa Asosiy qonun borligini ham yo‘qligini ham bilmaydi. 5% esa yo‘qligini aniq biladi. 2% respondent javob bermagan. Agar keyingi uch javobni qo‘shsak, 25% respondent uyida Asosiy Qonun yo‘qligi ma’lum bo‘ladi. Aholi qatlamlariga muvofiq javoblar quyidagicha taqsimlani:



Respondentlarning deyarli 56% uyida Konstitutsion islohotlardan keyin nashr qilingan Konstitutsiya uyida borligini ko'rsatadi. Ular ichida ziyolilar 22% ni, qishloq xo'jalik xodimlari 20% ni, xotin-qizlar esa 14% ni tashkil etadi. Talaba yoshlarning 31% Konstitutsiyaning 1992 yili nashr qilingan varianti borligini ta'kidlashadi. Ammo ular konstitutsion islohotlardan yetarli darajada xabardor. Buni oldingi savollarga bergan javoblari tasdiqlaydi. Bizning fikrimizcha, talaba yoshlar dars jarayonida Respublikamizda o'tkazilayotgan konstitutsion islohotlar haqida eshitishgan. Umuman olganda, respondentlarimiz konstitutsion islohotlardan xabardor ammo ularning 4% javob bermagan. Ular ushbu islohotlarni yo mohiyatiga yetishmagan yoki ular bilan qiziqishmagan. Vaholangki, Konstitutsion islohotlar haqida respublikamiz OAV yetarlicha axborot tarqatib borishgan, komissiya a'zolarining chiqishlari, aholi bilan uchrashuvlari, chet ellik ekspertlar bilan suhbatlar uyushtirilgan. Shunga qaramay, ayrim bir respondentlar yuqorida berilgan savolga javob bermaslikni ma'qul ko'rishgan. Bu ularning siyosiy huquqi, lekin butun jamiyat o'z taqdiri bilan qiziqayotgan, bu boradagi o'zgarishlarga faol munosabatda bo'layotgan bir paytda ularning loqaydligi taajjub uyg'otadi.

Ijtimoiy davlat barpo etish respublikamizda amalga oshirilayotgan modernizatsion jarayonlarning davomidir. Shuning uchun unga mamlakatimizni, siyosiy-huquqiy tizimini, davlat institutsiyalarini modernizatsiyalashning tarkibiy qismi sifatida qarash lozim. Bu o'rinda respublikamizdagi siyosiy partiyalar, OAV, modernizatsiyalashning mohiyati haqidagi ijtimoiy fikr biz uchun muhimdir. Konstitutsion

o'zgarishlar, siyosiy–huquqiy sohadagi modernizatsiya ijtimoiy davlat barpo etishni ham nazarda tutadi.

O'tkazgan sotsiologik tadqiqotlarimiz natijalari ko'rsatadiki, respondentlarning “Modernizatsiyalashuvni asosan kimlar amalga oshirayapti deb o'ylaysiz?” degan savolga javoblari quyidagicha bo'lgan:

Prezident – 83%

Vazirlar Mahkamasi – 70%

Tuman va viloyat hokimi –60%

Tadbirkorlar –43%

Huquq institutlari – 31%

Ommaviy axborot vositalari – 28%

Mahallalar – 27%

Nodavlat tashkilotlar– 12%

Siyosiy partiyalar– 10%

Fermerlar – 1%

Ko'rinib turibdiki, respondentlar Prezident faoliyatiga yuqori baho berishadi. Bu tabiiy hol. Aynan Prezidentimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tashabbuskori hisoblanadi, modernizatsiya jarayonlariga bosh–qosh bo'lmoqda. Huquq sohasidagi islohotlar, ayniqsa, demokratik huquqiy davlat qurish, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlar strategiyasi, xalqaro tashkilotlar, yirik siyosatshunoslar va huquqshunoslar tomonidan yuksak baholanayotgani respondentlar fikriga hamohangdir. Jamoatchilik fikrini o'rganuvchi “Ijtimoiy fikr” markazining keyingi yillarida o'tkazgan so'rovnoma natijalari ko'rsatadiki, respondentlarning 100% Prezident faoliyatini qo'llab–quvvatlaydi, uning tashabbuslarini mamlakatimizni modernizatsiyalashning eng samarali strategiyasi deb biladi¹⁴⁹.

Huquqiy normalar o'zidan-o'zi yuridik aksiologik voqeylikka, qadriyatlarga aylanmaydi. Qabul qilingan qonunlar, rasmiy e'tirof etilgan normalar kishilar, aholi, xalq hayot tarzidan, ongidan joy olishi, ularni qonunlar va normalarga muvofiq yashashga undashi lozim. To'g'ri, muayyan subyektiv, ayniqsa, eski tasavvur va etnostereotiplar ta'sirida ayrim qonunlar, normalar kishilar hayot tarzidan joy olmasligi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Masalan, ba'zi fuqarolar maxsus o'tish

¹⁴⁹ Узбекистан: общественное мнение– 2013 (по результатам целевого социологического исследования) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2014. №. –С. 30–31.

joylari ajratilganiga qaramay, ko'chani o'zi ma'qul ko'rgan joydan kesib o'tishadi, haydovchilar taqiqlanganiga qaramay uyali telefonda gaplashadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Serqatnov bo'lmagan ko'chalarda, fuqarolar o'zi xohlagan joydan o'tavergan, lekin bugun, ayniqsa, shaharlarda bu odat maqbul hol emas. Bu nafaqat harakatning buzilishiga, eng avvalo, yo'l qoidasini buzgan fuqaroning hayotiga xavf uyg'otadi. Demak, inson hayotiga, salomatligiga xavf soluvchi etnostereotiplardan voz kechmay qonunlarni, normalarni huquqiy qadriyatlarga aylantirish qiyin. Respublikamiz Prezidentining sud-huquq tizimidagi islohotlari mohiyatan demokratik huquqiy davlat prinsiplarini hayot tarziga aylantirishga qaratilgan¹⁵⁰.

Javoblar ichida Vazirlar Mahkamasi ikkinchi o'rinni egallaydi. Ijro hokimiyatining faoliyati islohotlarning kundalik hayotdan o'rin olishida, xalq turmushining yaxshilanayotganida, erkin yashash, ishlash va fikrlash kabi huquqiy qadriyatlarning real voqeylikka aylanayotganida aks etadi. Yon-atrofga nazar tashlagan kishi shahar, qishloq va turar joylar qanday o'zgarayotganiga ishonch hosil qiladi, zamonaviy inshootlar, kommunikatsiya, mehnat turlari ijtimoiy hayotdagi modernizatsiya jarayonlaridan darak beradi.

To'g'ri, ba'zi tadqiqotlarda mahalliy hokimiyatga, joylarda ichki ishlar idoralari va huquq institutlariga e'tirozlar mavjudligi, ular faoliyatidan aholi qoniqmayotgani, ta'magirlik, adolatsizlik, g'ayriqonuniy harakatlar, kishilar talablariga befarqlik, xalqdan begonalashuv sodir etilayotgani ta'kidlanadi.

Respondentlarning tadbirkorlarga munosabati (43%) sezilarli darajada yuqori, shu sababli ular aholi qatlamlari ichida ishbilarmonlarning modernizatsiya jarayonlarida faol qatnashayotganini bildiradilar.

Bugun tadbirkorlar nafaqat iqtisodiyotga, shuningdek, siyosat, madaniyat, xalqaro integratsiyaga oid huquqiy qadriyatlarni ham shakllantirmoqda. Masalan, Tadbirkor va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi mamlakatimiz siyosiy hayotida faol qatnashib, o'z dasturi va parlamentdagi fraksiyasi orqali tadbirkorlar huquqini himoya qilmoqda, bu borada qabul qilinayotgan qonunlarga o'z qarashlarini bildirib, ishbilarmonlik muhitini yaratmoqda.

¹⁵⁰ Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб–интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – “Халқ сўзи”, 2017 йил 17 январь.

Respublikamizda 10 mingdan ziyod nodavlat tashkilotlari va beshta siyosiy partiya faoliyat yuritadi. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, nodavlat tashkilotlari tijorat, oldi–sotdi ishlaridan tashqari barcha faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin. Ular aholiga maishiy, ma‘rifiy, xayriya ishlari, kishilarning aniq qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pullik xizmatlar ko‘rsatishi mumkin. Nodavlat va jamoat tashkilotlari hukumat idoralarining qonunlarga amal qilinishini, fuqarolarning qonuniy huquqlarini joyiga qo‘yishni nazorat qilish funksiyasini ham bajaradi. Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ma‘muriy buyruqbozlik, qog‘ozbozlik, proteksionizm kabi illatlarning yuzaga kelmasligi va ildiz otmasligi uchun fuqarolar institutlarining ijtimoiy–siyosiy faolligi zarur. Chunki “har qanday davlat tizimi, uning apparati va ma‘muriy organlari demokratik andozalarga qanchalik javob bermasin, baribir o‘z kuchini, qolaversa, o‘z zo‘ravonligini o‘tkazishga harakat qiladigan tizim bo‘lib qolaveradi. Shuning uchun ham davlat idoralari, avvalo, uning ma‘muriy organlari va tashkilotlari ustidan jamiyatda fuqarolar nazoratini o‘rnatish butun dunyoda qonunbuzarlikka, berilgan vakolat va vazifalarning suiste‘mol qilinishiga, korrupsiyaga qarshi, ayni vaqtda, barcha o‘zboshimchalik va volyuntaristik qaror qabul qilishning oldini olishga qaratilgan chora–tadbir, deb tan olinadi”¹⁵¹. To‘g‘ri, nodavlat tashkilotlarida ba‘zan dadillik, o‘z huquqlarini himoya qilish, mavjud muammolarni qonunlar doirasida hal etish, xalqaro tashkilotlar tajribasidan foydalanish yetishmaydi. Ilmiy adabiyotlarda bu kamchiliklar qayd etiladi, bu borada o‘tkazilishi zarur bo‘lgan o‘zgarishlar tilga olinadi¹⁵². “Shu bilan birga, deb yozadi F. Musayev, bu institutlarning yanada rivojlanishi, ko‘payishi, rang–baranglashishi va hokimiyat tizimlarining to‘laligicha xalq manfaatlariga xizmat qilishiga erishish borasidagi intilishlarini qo‘llab–quvvatlovchi huquqiy mexanizmlar yaratilishi lozim. Nodavlat va jamoat tashkilotlarining davlat hokimiyati bilan aloqalari ham huquqiy jihatdan to‘la belgilab berilmagan, mavjud me‘yorlar esa kun sayin o‘zgarib borayotgan hayot talablariga yetarli javob bermaydi”¹⁵³. Respondentlar

¹⁵¹ Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш: муаммолари ва ечимлари. – Тошкент, Истиқлол, 2004. –209 б.

¹⁵² Тангриев Л. Мустақиллик ва жамоат ташкилотлари. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2000. – 104 б.

¹⁵³ Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий–ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –217 б.

siyosiy partiyalarning mamlakatni modernizatsiyalashda qatnashayotgan kuch deb biladilar. Masalan, 1991-yil 14-sentyabrda tashkil etilgan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi safida bugun 500 mingdan ziyod, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil 4-fevralda tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyatida 80 mingdan ziyod fuqaro qatnashadi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 1996-yil 3-iyunda (“Fidokorlar” partiyasi bilan birlashgach, 2008-yil 20-iyulda) tuzilgan, uning safiga 70 mingdan oshiq, O‘zbekiston liberal – demokratik partiyasi 2003-yil 5-oktyabrda tashkil topgan, bugun uning faoliyatida 160 mingdan ortiq kishi qatnashmoqda. Ha, siyosiy partiyalarning joylardagi faollari, parlamentdagi fraksiyalari, matbuot organlari modernizatsiya jarayonlariga maqsadga yo‘naltirilganlik baxsh etib, ma’naviy– g‘oyaviy identifikatsiya masalalarini hal etmoqda¹⁵⁴. To‘g‘ri, respondentlar javobi (11%) juda yuqori emas. Ayniqsa, ularning dasturlariga, hokimiyat yugurdakligiga, o‘z huquqlarini himoya qilib ijtimoiy–siyosiy borliqni o‘zgartirishga keng ta’sir etolmayotganiga ko‘p e’tirozlar bildirishadi. Lekin siyosiy partiyalarning barcha tizimlarni, shu jumladan, ijtimoiy huquqiy institutlarni ham harakatga keltirayotganini ko‘rmaslik mumkin emas. Siyosiy partiyalar saylov tizimiga, milliy parlament hayotiga, davlat boshqaruviga ta’sir etib, yangi ijtimoiy–siyosiy paradigmani yaratayotgani real voqeqlikdir. Shu bilan birga, aynan siyosiy partiyalar siyosiy–huquqiy institutlar faoliyatini yuksaltirish orqali ko‘ppartiyaviylikni, demokratik saylov va boshqarishni, jamoat nazorati, hurfiylikni siyosiy–huquqiy qadriyatlar darajasiga ko‘tarishga qodir kuch bo‘la olishini unutmazlik kerak. Bizda hanuz partologik tadqiqotlar o‘tkazilmaydi, vaholanki, siyosiy jarayonlarni siyosatshunos olim yoki siyosatshunos jurnalist tahlil qilishi darkor. Siyosiy partiyalar gazetalari esa o‘zini-o‘zi ko‘klarga ko‘tarib maqtashga intiladi, ularda ijtimoiy-siyosiy borliqni, siyosiy ongda o‘zgarishlar dinamikasini, partiya nisbatan ijtimoiy fikrda kechayotgan qarashlarni tahlil qilish, o‘zini-o‘zi tanqid deyarli uchramaydi. Aynan siyosiy partiyalar, ularning matbuoti siyosiy–huquqiy hayotni jonlantirib, nafaqat o‘z a’zolari, shuningdek, keng aholining siyosiy–huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shishi lozim. Respondentlarga berilgan “Modernizatsiyalashuvni asosan nimalarda

¹⁵⁴ Ирназаров К. СМИ Узбекистана: как завоевать доверие к себе?// Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999.№-2(5-6) . -7 б.

ko‘rayapsiz?” degan savol maqsadi modernizatsiya jarayonlarini aniqlashtirish, ijtimoiy fikrdagi o‘zgarishlar dinamikasini boshqa sotsiologik so‘rovnomalar natijalariga qiyoslab tahlil qilish edi. Javoblar quyidagicha bo‘ldi:

- turmush darajasi yaxshilanayotganida– 81%
- adolatli jamiyat barpo etilayotganida– 72%
- yangi texnikalar paydo bo‘layotganida– 69%
- siyosiy–demokratik o‘zgarishlarda– 68%
- tadbirkorlikka yo‘l ochib berilganida– 56%
- innovatsion yangiliklarda– 49%
- konstitutsiyaviy huquq ta‘minlanayotganida–44%
- global integratsiyada qatnashayotganimizda– 37%
- mahalla institutlari faoliyatida– 33%
- yangi o‘quv yurtlari ochilayotganda– 21%
- huquq– tartibotdagi o‘zgarishlarda– 16%
- boshqarish tizimi takomillashayotganida–12%
- hurfikrlilik qo‘llab–quvvatlanayotganida– 4%
- fuqarolik institutlari faoliyatida– 2%

Ko‘rinib turibdiki, respondentlar modernizatsiya jarayonlarini asosan turmush darajasining yaxshilanayotgani (81%), adolatli jamiyat barpo etilayotgani (72%), yangi texnikalar paydo bo‘layotgani (69%) va siyosiy demokratik o‘zgarishlar (68%)da ko‘radilar. Javoblar ichida tadbirkorlikning qo‘llab–quvvatlanayotgani (56%) va innovatsion yangiliklar (49%) ham sezilarli darajada yuqori baholangan. Bizni bu o‘rinda respondentlarning huquq va huquqiy qadriyatlarning shakllantiruvchi institutlarga munosabati qiziqtiradi. Ularning iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni yuqori baholagani ijobiy hol, albatta. Oldingi savolimizga olgan javoblar bu o‘rinda o‘z tasdig‘ini topdi. Huquq institutlari va ularning faoliyatiga berilgan baholar har xil. Masalan, respondentlarning 44% modernizatsiya jarayonlarini konstitutsiyaviy huquq ta‘minlanayotganida ko‘rsa, 16% huquq tartibotdagi o‘zgarishlarda aks etadi, deb ko‘rsatadi. Hurfikrlilikning qo‘llab–quvvatlanayotgani 4% ni, fuqarolik institutlari faoliyati esa 2% ni tashkil etadi. Respondentlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yuridik dogmatikani shakllantirgan hujjat sifatida, ijtimoiy hayotga jiddiy ta‘sir ko‘rsatayotgani,

ijtimoiy–huquqiy qadriyatlarning shakllanish negizida Asosiy Qonunimiz yotganini sezmasligi mumkin emas. Konstitutsiya qabul qilingan kun 8–dekabrning har yili keng nishonlanishi, u bilan bog‘liq turli siyosiy, huquqiy va ommaviy–ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilayotgani kishilar ongiga ta’sir etgan. Ammo respondentlar huquq–tartibot tizimiga, hurfikrlilikni targ‘ib etish va fuqarolik institutlariga ma’lum bir e’tirozlari, tanqidiy fikrlari borligini ham ko‘rsatadilar. Huquq–tartibot tizimidagi modernizatsiya jarayonlarini tashqaridan ilg‘ash oson emas, eng muhim, fundamental o‘zgarish Asosiy Qonunimizdagi “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldir”¹⁵⁵, degan prinsip qaror topayotgani, bu o‘rinda ichki ishlar idoralariga sovet davrida shakllangan salbiy munosabatlar ta’siri uchrayotganini sezish qiyin emas. Mazkur stereotiplar qisman respondentlar javoblarida ham ko‘zga tashlanadi. Boshqa tomondan, ular ichki ishlar idoralaridagi, ularning yangi ijtimoiy–huquqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun mutlaq yangicha ishlashga intilayotganidan yetarlicha xabardor emas. Bunga ichki ishlar idoralarining sustkashligi ham sabab, albatta. Ular kechayotgan modernizatsiya jarayonlaridan aholini xabardor qilib borishga yetarli e’tibor berishmaydi, o‘z professional vazifasi bilan band bo‘lib, huquqiy targ‘ibot imkoniyatlaridan samarali foydalanishmaydi. Shuni aytib o‘tish joizki, ichki ishlar idoralari uchun mutaxassislar tayyorlovchi bilim yurtlarida yuridik aksiologiya va uning mohiyati bo‘yicha yetarli bilim berilmaydi, huquqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash texnologiyasi esa yaratilmagan. Huquq institutlarining huquqiy qadriyatlar va madaniyatni yuksaltirishdagi ustuvor o‘rnini inkor qilish mumkin emas, ammo bu jarayon aholining huquqiy bilim olishiga, huquqiy madaniyatli bo‘lishiga intilishi bilan qo‘llab–quvvatlanishi darkor.


Respublikamizda qabul qilingan 750 dan ziyod qonunlarni hatto professional yuristlar ham to‘liq o‘zlashtirishi birmuncha qiyin. Mazkur muammo yuridik maslahatxonalar, advokatura orqali hal etilishi zamonaviy voqeylikka aylanmoqda. Demak, huquqiy qadriyatlarning shakllanishi va mustahkamlanishi bir–birini qo‘llab–quvvatlovchi, bir–

¹⁵⁵ Жить ка основе высокой духовности и верховенства закона, формировать преданность Родине и народу, чувство справедливости, честность и высокую культуру общения. Учебное пособие. Отв. ред. начальник Академии МВД Республики Узбекистан генерал– майор Ш. Т.Икрамов.–Тошкент:Академия МВД Республики Узбекистан. 2015. –С. 4.

biriga peshvoz boruvchi ikki subyekt–o‘z kasbini yuqori malakali tarzda amalga oshirishga, qonunlar va qoidalardagi nozik tomonlarni yaxshi biladigan huquq institutlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga intiladigan, o‘z huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga shay fuqarolar, aholining hamkorligiga bog‘liqdir.


Siyosiy–huquqiy qadriyatlar aholining, fuqaroning huquqiy madaniyatida aks etadi. Ijtimoiy davlatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish strategik vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Respondentlarga “O‘zingizdagi huquqiy madaniyat darajasini qanday baholaysiz?” va “Yaqin kishilaringizdagi huquqiy madaniyatni–chi?” degan savollar bilan murojaat qilganmiz. Olgan javoblar quydagicha taqsimlandi.



Demak, respondentlarning 58% o‘zidagi siyosiy–huquqiy madaniyat darajasini qoniqarsiz deb biladi, 33% qoniqarli, atigi 9% yuqori deb ko‘rsatadi. Qoniqarsiz deb hisoblaydiganlar ichida ziyolilar 54% ni tashkil etadi. Bu ziyolilarni o‘ziga yuqori talabchan ekanini ko‘rsatadi. Yuqori deb hisoblaydiganlar ichida talaba yoshlar aksariyati (38%) ni tashkil qiladi.

“Yaqinlaringizdagi siyosiy–huquqiy madaniyatni–chi?” degan savolga olgan javoblarimiz quydagicha bo‘ldi:



Qoniqarsiz deb javob berganlar ichida yetakchi o‘rinda ziyolilar 62% turadi, keyin talaba yoshlar 24% va xotin–qizlar 12% ga to‘g‘ri keladi.

Yuqori deb ko'rsatganlarning 74% qishloq xo'jaligi xodimlari va 13% vaqtincha ishsizlar tashkil etadi. Xullas, respondentlarning ijtimoiy davlatda fuqorolarning siyosiy–huquqiy faolligi, u bilan bog'liq siyosiy–huquqiy qadriyatlar muhim rol o'ynashini yetarli darajada his qiladilar.

3.4. Milliy evolyutsion taraqqiyot va ijtimoiy davlatda parlamentarizm

Ijtimoiy–huquqiy borliqda parlament, parlament huquqi, parlamentarizm tamoyili, demokratik taraqqiyot belgisi sifatida qaraladi. Jamiyat va davlat hayotiga taalluqli fundamental masalalar parlamentda ko'rib chiqiladi muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Yuridik fanlari doktori, professor O.T.Husanovning yozishicha, parlamentning vujudga kelishi “birinchidan, ming yillar davomida yashab kelgan davlat hokimiyatining bir kishi (monarx) qo'lida to'planishiga barham berdi. Ikkinchidan, yakka hukmronlikni chegaraladi. Uchinchidan, davlat hokimiyatini **tarmoqlar** asosida amalga oshirish imkonini vujudga keltirdi. To'rtinchidan, hokimiyat ishlarida mamlakat aholisi (fuqarolari) ishtirok etishining samarali vositasi vujudga keldi. Beshinchidan, davlat, jamiyat faoliyatida vakillik nazorati vujudga keldi. Oltinchidan, qonun ishlab chiqish, qabul qilish professionalizm asosida olib boriladigan bo'ldi”¹⁵⁶. Mazkur belgilari va faoliyati prinsiplarga muvofiq parlament xalq manfaatlari bilan davlat hokimiyati manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi organ, institut sifatida shakllanganini ko'ramiz. Mazkur prinsipni evolyutsion taraqqiyot kafolati deyish mumkin. Chunki parlament ilgari mavjud bo'lgan monarxistik boshqarishni manfaatlar uyg'unligini ta'milash prinsipiga almashtirdi, shu tariqa antagonistik kurashlarga hojat qoldirmaydi. Jamiyatda evolyutsion rivojlanish, davlat institutlarining bir–birini nazorat qilishi taraqqiyot manbayiga aylanadi.

“Parlamentarizmning vujudga kelishi keyinchalik davlat boshqaruvineng eng demokratik, davlat boshqaruvida ko'pchilikning boshqaruvinini ta'minlaydigan respublika shaklining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi”¹⁵⁷.

Ijtimoiy davlatning demokratik huquqiy xarakteri va respublika boshqaruviga asoslanishi parlamentarizmni real voqeylikka aylantiradi. Ijtimoiy davlat–parlamentarizm prinsipiga asoslanadigan respublikadir.

¹⁵⁶ Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2013. 372 б.

¹⁵⁷ Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2013. 372 б.

Parlament huquqi ko'pchilikning davlat boshqaruvida qatnashishi huquqidir. Parlament, siyosiy–huquqiy institut sifatida, ushbu huquqni himoya qiladi, kafolatlaydi va realizatsiya qiladi. Parlament huquqi suveren voqeylik, uni hech bir davlat instituti tortib ololmaydi. Parlament huquqining suveren voqeligi evolyutsion rivojlanishning kafolatidir, chunki u ijtimoiy, xususiy va korporativ manfaatlarni uyg'unlashtiradi. Manfaatlar o'rtasida konsenssusni shakllantirish orqali evolyutsion taraqqiyotni ta'minlashni faqat parlament yo'lga qo'ya oladi.

Evolyutsiya nazariyasiga ko'ra, evolyutsiya tirik mavjudotlarga nisbatan qo'llaniladi. Iqtisodiy, madaniy, siyosiy voqeyliklar tirik mavjudot emas. Shuning uchun madaniyatga, ijtimoiy hodisaga evolyutsiya qo'llash noo'rin degan fikrni bildirishadi¹⁵⁸. Lekin keyingi yillarda sotsiobiologik yondashuv tufayli ijtimoiy, huquqiy, pedagogik va sotsiologik jarayonlarga evolyutsiya nazariyasini tadbqiq etish qaror topdi.

Falsafa fanlari doktori Yu. Myagkovaning fikricha, evolyutsiya nazariyasi biologiya doirasidan chiqib, ijtimoiy organizmlar va institutlarga ham tadbqiq etilayotgan fanlar, nazariy konsepsiyalar o'rtasida integratsiya ketayotganidan darak beradi. Biologik evolyutsiyaning ijtimoiy evolyutsiya orqali ommalashishi pozitiv ahamiyatga ega¹⁵⁹. Falsafa fanlari doktori, professor A.Vasilchikov fikricha, evolyutsiyaning universal tushunchaga aylantirilishi tor gnoseologik doiradan tashqariga chiqishga, evolyutsiyani umuminsoniy, universal voqelik sifatida talqin qilishga olib keldi. Evolyutsiya falsafasi ijtimoiy taraqqiyotga ham taalluqli rivojlanish nazariyasidir¹⁶⁰. Shunga yaqin fikrlarni boshqa tadqiqotchilar asarlarida ham kuzatamiz¹⁶¹. Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy voqeyliklar ham evolyutsiya nuqtayi nazaridan qaralishi mumkin, chunki ulardagi dinamizm, tinmay o'zgarishga moyillik evolyutsiya uchun asos bo'ladi.

Ijtimoiy evolyutsiya huquq fenomeni, uning sotsionormativ qadriyatlariga aylanishi bilan bog'liqdir.

Huquq va huquqiy qadriyatlarning sotsionormativ mohiyatini ochib berishdan avval qanday huquq va huquqiy me'yorlar qadriyat

¹⁵⁸ Каранг: Ефременко В. Механизмы культурной эволюции. Социобиология. – Москва: ЛитРес, 2020. С.13–14.

¹⁵⁹ Каранг: Мягкова Ю. Теория эволюции. – Москва: Литрес, 2018. С.42–47.

¹⁶⁰ Каранг: Васильчиков А. Философия эволюции. Гипотеза универсальной модели. – Москва: Перо, 2023. С.4–6.

¹⁶¹ Каранг: Ивантер Э.Очерки теории эволюции. – Москва: Литрес, 2021; Северцов А. Теория эволюции. 2-е изд. – Москва: Литрес, 2016.

hisoblanadi, huquqning qadriyatga aylanishi nimalar bilan bog‘liq, hamma huquqiy normalar ham qadriyatmi, degan savollarga javob berish darkor. “Huquq, bu–bir shaxs o‘zboshimchaligini boshqa bir shaxs o‘zboshimchaligi bilan umumiy erkinlik qonuni nuqtayi nazaridan taqqoslash mumkin bo‘lgan shart–sharoitlar yig‘indisi (majmuasi)dir”¹⁶². Falsafiy nuqtayi nazardan I. Kantning ushbu ta’rifini qo‘llab–quvvatlash mumkin, unda har bir inson huquqga ega ekani e’tirof etiladi. Ammo yurisprudensiya nuqtayi nazarida u to‘ldirilishi zarur. Shuning uchun U.Tojixonov va A.Saidov huquqning eng muhim sakkizta – ijtimoiylik, normativlik, majburiylik, rasmiylik, muayyan jarayonlik, shaxsiylashtirilmaganlik, institutsiyaviylik, obyektivlik kabi belgilari borligini qayd etadilar¹⁶³. Bizning fikrimizcha, ulardagi ijtimoiylik, normativlik, majburiylik, rasmiylik, shaxsiylashtirilmaganlik, institutsiyaviylik belgilarni umumlashtirib sotsionormativlik deb atash mumkin. Demak, sotsionormativlik deganda biz huquq fenomeniga xos o‘sha olti belgilarning umumiylashganini nazarda tutamiz.

Qanday huquq va huquqiy me’yorlar qadriyat hisoblanadi? Qadrlanmaydigan rasmiy me’yorlar ham bormi?

Yurisprudensiyaning predmeti asosan pozitiv huquq hisoblanadi. Pozitiv huquq esa rasmiylik, majburiylik, davlat tomonidan qabul qilinganlik, sun’iylik, barchaga yo‘naltirilganlik, xullas, umumbashariylik va davlatni uyg‘unlashtirib, bir organizm sifatida yashab, faoliyat ko‘rsatib kelishini ta’minlaydi. Pozitiv huquqdagi ijobiy xislat shundaki, u zamonaviy yurisprudensiyada “yuridik dogmatika” deb ataladi va barcha qonun, me’yor, normalar ana shu dogmatika orqali baholanadi¹⁶⁴.

Inson kundalik hayotida tez–tez duch keladigan, ijtimoiy borliqdagi o‘rnini huquqiy mexanizmlar bilan o‘rnatadigan holatlarda qo‘llaydigan me’yorlar huquqiy (yuridik) dogmatika asosini tashkil etadi. Demak, pozitiv huquq yoki yuridik dogmatika kundalik hayotimizni huquqiy regulatsiya qiladi, boshqaradi, u bizning ijtimoiy–huquqiy borlig‘imizdir. Huquqiy qadriyat deganda, biz keng falsafiy–huquqiy ma’noda ana shu borliqni tushunamiz. Bizni kundalik hayotimiz va faoliyatimizni yo‘lga qo‘yadigan, eng muhim ehtiyojlarimiz, xatti–harakatlarimiz uchun imkon,

¹⁶² Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4.Част 2. – Москва: Мысль; 1965. – С. 139.

¹⁶³ Тожионов У, Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 97–100.

¹⁶⁴ Алексеев.С.С. Право: азбука–теория–философия: Опыт комплексного исследования. – Москва: Статут, 1999. – С. 145.

shart–sharoit yaratib beradigan, ularni ma’lum bir doirada, makonda kafolatlaydigan me’yorlar, normalar, yuridik dogmatika, huquqiy qadriyatlardir.

Huquqiy qadriyatlarga:

- pozitivlik (ijobiylik) ;
- umummajburiylik;
- institutlashuv;
- harakatchanlik va barqarorlik;
- ratsionallik;
- avtoritet kabilari kiradi.

Huquq pozitiv ahamiyat kasb etganida, ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir qilib kishilarni yaratishga undaydigan o’zining asosiy funksiyasini bajaradi. Qonun shunchaki bitiladigan formal akt emas, u pirovard natijada ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyatni yuksaltirishga, kishilar hayotini yaxshilashga xizmat qilishi darkor.

S.S.Alekseyev ta’kidlaganidek, pozitiv huquq, huquq tarixi qiyosiy huquqshunoslik kabi tarmoqlarni huquq sotsiologiyasi bilan uyg’unlikda yuridik fanlarda alohida munosib o’rin egallaydi va aytish joizki, qonunchilik, yuridik tajriba, huquqiy ta’limda betakror funksiyalarni bajaradi, hamda huquq mantig’i va mohiyatini anglashda bosqich hisoblanadi¹⁶⁵. Bu o’rinda pozitiv nazariyaning pozitiv huquq bilan mohiyatan bog’liqligi, ular o’z ichiga nafaqat yuridik dogmatikani, shuningdek, yuridik tajribalarni ham olishi qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan pozitiv huquqni amaliyot, tajriba in’ikosi sifatida qarash ham lozim, degan fikr kelib chiqadi. Aslida, har qanday nazariya (huquqni pozitivga ajratish ham nazariy gnoseologik yondashuvdir) amaliyotga, ijtimoiy borliq, rivojlanish muammolarini hal etishga yo’naltirilganligi tufayli qimmatlidir. Demak, huquqning qadrli yoki qadriyat bo’lishi uchun u pozitiv, ijobiy voqeylik sifatida kelishi lozim.

To’g’ri, hodisa, voqealarni ijobiy yoki salbiy baholash qiyin mashg’ulot. Ayniqsa, huquq fenomeni bilan bog’liq qonun, me’yor va normalarni bir xil baholaydigan kishilar jamiyatini tasavvur qilish qiyin. Huquqiy me’yorlar kishilarda salbiy munosabatlar uyg’otishi odatiy hol. Shuning uchun huquqning pozitiv yoki negativ baholash mudom

¹⁶⁵ Алексеев.С.С. Право: азбука–теория–философия: Опыт комплексного исследования. – Москва: Статут, 1999. – С. 163.

qiyinchiliklarga, ziddiyatlarga duch kelgan. Biroq (mazkur muammo maxsus tadqiqotni talab etadi, bizni esa huquqning pozitiv voqeylik ekani qiziqtiradi), huquqning pozitiv xususiyati aksioma sifatida tan olingan, biz ham ushbu pastulatdan kelib chiqamiz. Ha, qonunlarga o'zgartirishlar kiritish, hatto eng asosiy yuridik dogmatika–Konstitutsiyaga ham yangi qoidalarni joriy etish odatiy holdir, buni bir tomondan, qonundagi nomukammalik, ikkinchi tomondan, hayot dinamizmining ta'siri sifatida qarash mumkin. Masalan, har yili O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, normativ hujjatlarga yuzdan ziyod o'zgarishlar kiritiladi, ular "Xalq so'zi", "Narodnoe slova" gazetalarida e'lon qilib boriladi. Bu qonunlarning salbiy hodisa ekanini emas, balki qonunchilik faoliyatining pozitivni izlashini anglatadi.

Huquq, qonun, me'yorlar umummajburiyligi bilan boshqa tartiblar va axloqiy imperativlardan farq qiladi. Huquqning sotsionormativligi aynan uning umummajburiyligida aks etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, "Huquqiy manbalar ("qonunlar")dagi yuridik normalar huquq uchun hal etuvchi ahamiyatga ega; aynan pozitiv huquqning normativ tamoyillari va aniqlashtirilgan normativ xulosalarida amaldagi xatti–harakatlarning qonuniy yoki g'ayriqonuniy–yuridik ruxsat etilgani yoki ruxsat etilmagani, undan aniq hayotiy vaziyatlarda kelib chiqadigan, huquqiy baho oladigan yuridik oqibat aniqlanadi"¹⁶⁶. Xulq–atvorning oqibatiga qarab shaxsning huquqiy majburiylikni idrok etishi, unga amal qilish doirasida, huquqiy biliminig erkin ifodasini ko'rish mumkin.

"Huquq majburlash bilan bog'liqdir, – deb yozadi A.Saidov. Immanuel Kantning huquq falsafasining mohiyatini ocha turib, – majburlash qonuniy va noqonuniy bo'lishi mumkin. Aql–idrok chegarasidan chetga chiqib, o'zboshimchalikka aylanayotgan erkinlikni chegaralagan taqdirda, u qonuniy hisoblanadi. Majburlash ozodlikni noqonuniy chegaralash va umuman huquqning amalga oshirilishiga noqonuniy to'siqlik qilishga qarshilik ko'rsatgan taqdirda ham qonuniy sanaladi"¹⁶⁷. Lekin bu huquq mudom majburlashdir, degan xulosaga olib kelmaydi, anglangan huquq va burch ixtiyoriy xatti–harakatni, zarur faoliyatni keltirib chiqaradi. Shuning uchun huquqni, qonunni faqat

¹⁶⁶ Алексеев.С.С. Право: азбука–теория–философия: Опыт комплексного исследования. – Москва: Статут, 1999. – С. 163–164.

¹⁶⁷ Саидов А. Х. Иммануэл Кантнинг фалсафий–хукукий мероси ва замонавий юриспруденция. Тўлдирилган ва қайта ишланган. Тошкент: Инсон ҳуқуқлари республика миллий маркази, 2012. – 67 б .

majburlash vositasi deb qarash to'g'ri emas. "Huquqning amalga oshirilishi uning umummajburiy bo'lishini talab etadi, – deb ko'rsatadi A.Saidov. Immanuel Kantning qarashlariga tayanib. Huquqiy umummajburiyatga kuch bilan majburiy suratda erishiladi (bunday induviduum (shaxs)ning huquqiy normaga amal qilishi, uning buzilishiga to'sqinlik qilish, buzilgan taqdirda tiklanadi). Huquq majburiy kuch ishlatmasdan o'z funksiyasini amalga oshirishga qodir emas..."¹⁶⁸. Bu fikrni I.Kant despotik boshqarishga moyil Vilgelm II ning Prussiya qiroli bo'lgach bildirganini unutib bo'lmaydi. Aslida, uning huquqiy qarashlari axloqiy imperativlari kabi umuminsoniy xususiyatlarga ega. To'g'ri, jamiyatda tub o'zgarishlar amalga oshirilayotganida, ijtimoiy hayot yangi siyosiy–huquqiy paradigmaga ehtiyoj sezganida huquq, qonun majburlash kuchiga tayanadi. Lekin ularni tashkilotchilik, ma'rifiy, didaktik imkoniyatlari ham borligini rad qilmaydi. Demak, huquqning, qonunning qadriyatga aylanishi ikki umummajburiy va ixtiyoriy tarzda ro'y beradi. To'g'rirog'i, oxirgisini ixtiyoriy–majburiy deyish ma'qulroqdir.

Umummajburiylikni ijtimoiy muhitdan, jamiyatdagi ustuvor munosabatlar va shakllanayotgan yangi paradigmadan alohida qarash mumkin emas. Aynan ijtimoiy muhit, munosabatlar va yangi paradigma huquqning qanday darajada qabul qilinayotganini, uning qanday ziddiyatlar ta'sirida qadriyatga aylanayotganini belgilab, ko'rsatib beradi. Huquq, qonun, hech qachon o'zidan o'zi umume'tirof etadigan, umume'zozlaydigan hodisa bo'lgan emas. Ijtimoiy muhit, munosabatlar va yangi paradigma bilan huquq, qonun o'rtasidagi dialektik bog'liqlik, aloqa ayrim kishilardagi, guruhlardagi deviant xatti–harakatlar orqali o'rnatiladi. Ya'ni huquqning, qonunning umummajburiyligini salbiy hol sifatida qabul qilish hollari huquqni qadriyatga aylanishi qiyin kechishini bildiradi. Agar bu qadriyat xalq ongidan, turmush tarzidan chuqur joy olsa, uning hayot tarziga aylansa, merosi bo'lsa, bunday qadriyat shubhasiz, milliy boylik sifatida kishilar qalbida yashaydi, avlodlar o'rtasidagi diaxron aloqalarni mustahkamlovchi, vorisiylikni ta'minlovchi kuch sifatida keladi. Har qanday qadriyat diaxron aloqalarni mustahkamlovchi merosga aylangandagina e'zozlanadi. U milliy, ma'naviy boylikka aylanadi. O'zbek xalqi qalbida yashayotgan adolat ezgulik tantanasiga chuqur ishonch

¹⁶⁸ Саидов А. Х. Иммануэл Кантнинг фалсафий–хуқуқий мероси ва замонавий юриспруденция. Тўлдирилган ва қайта ишланган. Тошкент: Инсон ҳуқуқлари республика миллий маркази, 2012. – 67 б.

mazkur hodisalarni kafolatlovchi huquq va qonunlarga mudom ishonch uygʻongan, ularni oʻlmas qadriyatlarga aylantirgan. Qadriyat shunchaki eʼzozlanadigan yoki unga amal qilinadigan narsa emas, u milliy, maʼnaviy merosdan, kishilar qalbidan, hayot va fikrlash tarzidan chuqur joy olishi lozim.

Huquq, qonun institutlashuvi orqali ijtimoiy borliqqa, davlat va jamiyat hayotiga, boshqaruviga taʼsir etadi. Bunday institutlashuv huquq fenomenining subyektlarida, ularning yakdillik bilan u yoki bu yuridik meʼyorni ishlab chiqqanida, amaliyotga joriy etganida namoyon boʻladi. Ana shunday yirik kuch, avvalo, davlat institutidir.

Davlat huquqning sotsionormativligini quyidagi yoʻllar orqali taʼminlaydigan institut hisoblandi. U:

- birinchidan, umumiy sotsionormativ xususiyatga ega huquqiy meʼyorlarni, qonunlarni ishlab chiqadi;
- ikkinchidan, sotsionormativ hujjatlar va meʼyorlarni ijtimoiy hayotga joriy etish mexanizmlarni yaratadi;
- uchinchidan, maxsus institutlar tashkil etadi va ularning samarali ishlashini taʼminlaydi;
- toʻrtinchidan, nodavlat institutlari bilan hamkorlik qiladi va huquqiy tartibotni taʼminlash uchun zarur amaliy chora–tadbirlar koʻradi;
- beshinchidan, huquqni milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-targʻibiy va huquqiy-madaniy institutlar tashkil etadi. Bularni U.Tojixonov va A.Saidov ham qayd etishadi¹⁶⁹.

Huquq ochiq tarzda masʼuliyatni oʻz zimmasiga olmaydigan subyektlar orqali olib boriladigan fenomen vazifa emas. U mudom tashkillanganlikni, uyushganlikni, maʼlum bir ijtimoiy–siyosiy maqsadlarga xizmat qiluvchi institutlarni taqozo etadi. Davlat, shunday institutlarning yetakchisi sifatida, huquq fenomenini uyushgan tashkilotlar, masʼuliyatini oʻz zimmasiga olgan institutlarni barpo etadi, ularga oʻzining siyosiy, maʼrifiy va boshqa vazifalarni yuklaydi. Sotsionormativ tartiblarni qaror toptirish davlat va uning institutlarning vazifasi ekani davlatni despotik institutga, kuchga aylantirmaydi. Masʼullik yoʻq joyda ogʻir mehnat bilan yaratilgan, tashkil etilgan qadriyat, normalar barbod boʻladi,

¹⁶⁹ Тожионов У, Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 197 б.

destruktiv kuchlar harakatga keladi. Bu davlatning, jamiyatning asosini yemiradi, fuqarolarning tinch, osoyishta hayotiga xavf soladi.

Sotsionormativlik hammaning bir xil fikrlashi, bir xil yashashi, bir xilda hayot kechirishi, inson hayotini mutlaq unifikatsiyalashtirish degani emas. Huquq sotsionormativ funksiyasi orqali qonun ustuvorligini, demokratiyani e'zozlab yashash tarzini shakllantiruvchi fenomendir. Huquqiy faoliyatni institutlashtirish ham hammaning bir xil tartibda fikrlashini, fikrini bir qolipda, shablonda ifoda etishini nazarda tutmaydi. Institutlashtirish ijtimoiy–huquqiy fenomenlarni ularning imkoniyatlaridan foydalanmoqchi bo'lgan kishilarni, fuqarolarni birlashgan, uyushgan holda harakat qilishini ta'minlash yo'lidir. Nafaqat davlat va uning tizimlari, shuningdek, nodavlat uyushmalari, fuqarolarning ijtimoiy tashabbuslari, harakatlari ham institutlashishga muhtojdir.

Institutlashtirish zamonaviy jamiyatlarning immanent belgilariga aylangan. Nodavlat tashkilotlarining o'sib borayotgani va davlat, jamiyat hayotidan keng o'rin egallayotgani ham institutlashtirish tamoyiliga muvofiq ro'y bermoqda. Davlat va jamiyat ushbu institutlar faoliyatini aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishda qatnashishdan manfaatdor. Demak, huquqiy qadriyat faqat davlat institut orqaligina emas, balki jamiyatni modernizatsiyalashtirishdan, taraqqiyotni ta'minlashdan manfaatdor barcha kuchlar–uyushmalar, harakatlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik institutlarining uyushgan, maqsadli faoliyati orqali shakllanadi.

Huquq, qonun bir tomondan, barqaror asosga, ikkinchi tomondan, hayot dinamizmiga mos tarzda harakatchan bo'lmog'i lozim. Huquq fenomenining sotsionormativligi ushbu ikki, goho bir–biriga muvofiq kelmaydigandek ko'rinadi.

Yuridik dogmatika barqaror normalar in'ikosidir. Uning negizini Asosiy Qonun, jamiyat rivojlanishining bosh yo'nalishini belgilab beruvchi Konstitutsiya tashkil etadi. Boshqa qonunlar me'yoriy hujjatlar, sotsionormativ tartiblar o'zgarishi, goho ularning yangi tahriri paydo bo'lishi mumkin. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi referendum to'g'risida" (2001-yil 30-avgust), "Sudlar to'g'risida"(2000-yil 14-dekabr) qabul qilingan yangi tahrirdagi qonunlar fikrimizga dalildir. Ammo O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi asosan asl holicha, ma'lum bir to'ldirishlar orqali, saqlanib

turibdi. Bugun u yuridik dogmatika sifatida harakatda, amalda. Boshqa qonunlar unga muvofiq ishlab chiqiladi, qabul qilinadi. Demak, yuridik dogmatikada bir tomondan, barqaror asos (bu asosiy qonun–Konstitutsiyadir) va davr talabiga muvofiq o‘zgartirilishi, yangi tahriri qabul qilinishi mumkin bo‘lgan harakatchan qism mavjuddir.

X.T.Odilqoriyev va Sh.U.Yakubov to‘g‘ri e’tirof etadilar: “Har bir Konstitutsiya o‘z mazmunida jamiyatning, millatning ma’naviy–madaniy, urf–odatlarini va xarakterini aks ettiradi. Xuddi shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz tabiatiga xos barcha ma’naviy–madaniy qadriyatlar, axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan. Ayni vaqtda Konstitutsiyaning o‘zi o‘zbek milliy huquqiy madaniyatining mahsuli, uning tarkibiy qismidir. Bugungi kunda Konstitutsiyamiz xalqimizning milliy–madaniy qadriyati, g‘ururi va iftixori timsolidir”¹⁷⁰.

Ijtimoiy hayot ichki ziddiyatlarga to‘la bo‘lsa–da, ularni antogonistik kurashlar ifodasi deb bilmaslik kerak, har qanday jamiyatga rang–baranglik, plyuralizm xos. Ushbu rang-baranglik, plyuralizm antogonistik kurashlarga emas, uyg‘un rivojlanishga, ijtimoiy munosabatlarni garmonik yuksaltirishga ham yetaklaydi. Huquqdagi barqarorlik va harakatchanlik bir–biriga zid voqeliklar emas, ular jamiyatdagi ustuvor ma’naviy–axloqiy muhit ta’sirida ijtimoiy munosabatlarning garmonik yuksalishiga xizmat qiladi. Barqarorlik qadriyatlarning o‘zgarishlar va modernizatsiya ko‘lamiga muvofiqligida aks etadi. Shu nuqtayi nazardan barqaror xususiyatga ega huquq qadriyat bo‘la oladi, hayot dinamizga muvofiq o‘zgaruvchan yuridik dogmatika jamiyat tomonidan e’zozlanadi.

Huquqqa ratsionallik xos. U inson aql-u idrokining, irodasining in’ikosidir. Shuning uchun huquqiy qadriyatlar tizimida yuridik bilim, huquqiy tafakkur, huquqiy xulq–atvor, yuridik ta’lim muhim o‘rin tutadi. Qonunchilik faoliyatini esa ratsional bilim va yondashishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Huquqiy qadriyatdagi ratsionallik qabul qilingan me’yorlarda subyektivizm, g‘ayrihayotiylik, ijtimoiy taraqqiyotga zid, destruktiv kuchlarning avj olishiga imkon qoldirmaslikda, real hayotiy muamolarning yechimini topishga yo‘naltirilgan normalar qabul qilishda aks etadi. Subyektivizmning huquq nazariyasida mavjudligi zararli emas, ammo u

¹⁷⁰ Одилқориев Х.Т., Якубов Ш. У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар. Монография. – Тошкент: SMI-ASIA, 2010. – 177 б.

huquqda, qonunda ustuvorlik qilsa, kimningdir istak, xohishiga xizmat qiladi, ushbu istakni, xohishni real hayotdan ustun qo'yishga sababchi bo'ladi. G'ayrihayotiylik esa huquqni, qonunni kishilarning aniq qiziqishi va ehtiyojlarini uzoqlashtiradi, normalarning ta'sirchanligini, maqsadlarini va mexanizmlarini zaiflashtiradi. Ijtimoiy taraqqiyotga zid me'yorlar esa, ba'zan totalitar davlatning tazyiqi bilan hayotda amal qilsa—da, vaqti kelib, inkor qilinadi. **Destruktiv** kuchlar huquqni, qonunni tan olmaydi, ular uchun o'z maqsad va orzulari yagona me'yordir. Shuning uchun real hayotiy muammolarni hal etishga qaratilganlik, kishilarning aniq qiziqishiga muvofiqlik, yuridik ta'lim va bilimga, huquqiy tajribaga, eksperiment, kuzatuvlarga asoslanib yaratilganlik huquqdagi ratsionallik hisoblanadi. S.S.Alekseyev yozganidek, aql-u idrokka tayanadigan yuridik bilim, tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, avvaldanoq meditsinadan qolishmaydi. Chunki u ham bizni o'rab turgan obyektiv borliqqa bevosita daxldor, u xuddi meditsina kabi, kishilarning kundalik hayoti bilan bog'liq o'tkir muammolar taqdiriga bevosita taalluqlidir”¹⁷¹. Kishilar taqdiri kundalik hayotiy muammolari aql—u idrokni, bilimni, amaliyotni aniq maqsadlarga, vazifalarga yo'naltiradi. Yuridik dogmatika real hayoti muammolarni hal etishga qaratilgan huquq, qonun, yuridik bilim va yuridik amaliyotlar majmuidir. Huquqning sotsionormativ mohiyati uning kishilarning real hayoti muammolariga va aql-u idroki qabul qila oladigan me'yorlarga muvofiqligida. Shuning uchun ham S.S.Alekseyev yuridik dogmatikaga “o'ziga yaqin manba—asos hamda spetsifik reallik xos”¹⁷², deb ko'rsatadi.

Huquq, qonun avtoritetga ega bo'lganidagina qadriyatga aylanadi. Hech qanday avtoritet (obro', hurmat, ishonch)ga ega bo'lmagan norma kishilarda begonalashuvni keltirib chiqaradi, qonunchilikka, huquq, tartibot institutlariga ishonch uyg'otmaydi. Yuridik sohadagi avtoritet kishilar orzu qilib kelgan, azaldan e'zozlab keladigan adolat, erkinlik, ezgulik, tenglikni qaror toptirgan tartib—me'yorlarga ishonishda namoyon bo'ladi. Sotsionormativ me'yorlarning mavjudligi hali huquqning samarali ishlayotganini bildirmaydi, ularning avtoriteti kishilar duch kelayotgan,

¹⁷¹ Алексеев.С.С. Право: азбука—теория—философия: Опыт комплексного исследования. — Москва: Статут, 1999. — С. 144.

¹⁷² Алексеев.С.С. Право: азбука—теория—философия: Опыт комплексного исследования. — Москва: Статут, 1999. — С. 145.

real, kundalik, hayotiy muammolarni yuqoridagi qadriyatlar orqali hal eta olishiga bog‘liqdir.

Huquqning sotsionormativ qadriyat sifatida shakllanishi qonun qabul qilish bilangina cheklanmaydi, ushbu, me’yorlar kishilar hayotidan, qalbidan e’zozlanadigan qadriyat sifatida joy olishi ham kerak.

Konstitutsiyaviy islohotlar tufayli ijtimoiy davlatda amal qiladigan, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, davlat boshqaruvining demokratik asoslarini kengaytirishga qaratilgan konstitutsiyaviy normalar 275 tadan 434 taga yetkazildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatning mutlaq vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Senat a’zolari har bir ma’muriy–hududiy birlikdan 4 nafardan saylanadigan, 9 nafari esa Prezident tomonidan tayinlanadigan bo‘ldi. Senatorning o‘zi vakolati davrida ilmiy va pedagogik ish bilan birga, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkinligi o‘rnatildi. Parlamentimizda Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha parlament komissiyasi tashkil qilindi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasiga muvofiq Parlamentda, Ombudsmen huzurida Qiynoqlarni aniqlash va oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini tuzildi. Mazkur guruhlar va Ombudsman tomonidan qiynoq holatlari bo‘yicha 2022-yilda 381 marta, 2023-yilda 603 ta monitoring o‘tkazilgan . Konstitutsiyaviy islohotlardan so‘ng, qisqa muddatda Oliy Majlis tomonidan 150 dan oshiq qonunlarga konstitutsiyaviy normalar implementatsiyasi amalga oshirilgan¹⁷³.

Parlamentimiz tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilingani (2024, 25-oktyabr) Milliy demokratik taraqqiyot va ijtimoiy davlat barpo etish uchun muhim voqeylik bo‘ldi. Unga ko‘ra, ijro hokimiyatining bosh vakolati va vazifasi xalq manfaatlariga xizmat qilishi, o‘z faoliyati bo‘yicha Parlament va Prezident oldida javobgar ekani (3–modda) ko‘rsatib qo‘yildi. Qonunning 46-moddasida Vazirlar Mahkamasi faoliyatining ochiq, shaffofligini ta’minlashga qaratilgan normalar ko‘rsatilgan. Bu esa hukumat va idoralarning xalq manfaatlariga xizmat qilishini qonuniy tarzda tasdiqlaydi.

¹⁷³ Қаранг: www.xs.uz. 2024, 11 декабрь.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqi (2024-yil 18-noyabr)da deputatlarning Asosiy qonuning yangi tahririni tayyorlash va qabul qilishga jonboz ko'rsatganlar uni ta'kidlaydi. Umuman, Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan keyingi besh yil davomida 130 dan ortiq (bu o'tgan davrlarga nisbatan 1,5 barobar ko'p) qonunlar qabul qilingan¹⁷⁴. Shu bilan birga davlatimiz rahbari to'gridan to'g'ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar kamligini, parlament nazorati to'laqonli ishlaydigan institutga hali aylanmaganini, ijtimoiy soha e'tibordan chetda qolib kelayotganini, kambag'allikni kamaytirishda deputatlar faolligi yetarli emasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u palata qo'mitalarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini kuchaytirish zarurligini uqtiradi. Chunki ijtimoiy davlatda fuqarolik jamiyati institutlariga bo'lgan talab va e'tibor keskin oshadi, ular jamiyatda huquqiy-siyosiy qadriyatlarni shakllantirishning eng samarali o'choqlariga aylanadi. Ilg'or davlatlar tajribasidan ma'lumki, davlat organlari, ayniqsa, qonun va qarorlar qabul qilishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashadi yoki ular ekspertizasidan o'tkazadi. Shunday huquqiy-siyosiy tajribani Oliy Majlis va mahalliy kengashlar faoliyatiga ham joriy etish mumkin. Parlamentning fuqarolik jamiyati va mahalliy kengashlar bilan uzviy aloqalari markaz bilan viloyat, umumiy manfaat bilan hududiy manfaatlar o'rtasidagi tafovutlarning avj olishiga yo'l qo'ymaydi, bu esa ijtimoiy-evolyutsion taraqqiyot kafolatidir.

¹⁷⁴ Qarang: Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи мажлисидаги нутқи // “Янги Ўзбекистон”, 2024, 19 ноябрь

IV BOB. YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY DAVLATNI MUSTAHKAMLASHNING FALSAFIY-HUQUQIY MASALALARI

4.1. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimini takomillashtirish borasidagi tajribalar tahlili (yuridik himoya va ijtimoiy adolat)

Ijtimoiy davlatning huquqiy davlatligi, avvalo, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratishga undaydi. O‘zbekiston inson sha’nini oliy qadriyat sifatida ulug‘lashni maqsad qilib olgan ekan, u qadriyatlar ichida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash turishini biladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “inson–jamiyat–davlat” degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz” deydi¹⁷⁵. Mazkur yangi tizim boshida inson turgani bejiz emas. Jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvi inson manfaatlariga, uning huquq va erkinliklarini va farovon yashashini ta’minlashga asoslanadi.

Yangi Konstitutsiyamizda ilk bor “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir” deb tayinlangan¹⁷⁶. Mazkur tamoyil ijtimoiy davlatning funksiyalarini belgilab beradi. Davlat institutlari o‘zining faoliyatida ushbu konstitutsiyaviy tamoyildan kelib chiqadi va unga amal qilish orqali ijtimoiy davlatni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy davlat barpo etish maqsadi e’lon qilingach, u bo’yicha xalq referendumini o‘tkazildi. Konstitutsiya loyihasi bo’yicha 222715 ta takliflar kelib tushgan. Ular jamiyat va davlat boshqaruvining barcha masalasiga taalluqlidir. Natijada Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 tagacha, normalar esa 275 tadan 434 tagacha oshdi. Referendumda qatnashganlarning 90,21 foizi konstitutsion islohotlarni ma’qullab ovoz berdi¹⁷⁷. Mazkur raqamlar fuqarolarimizning nafaqat ijtimoiy–siyosiy faolligidan darak beradi, shuningdek, ularning o‘z huquq va erkinliklaridan xabardorligi ham bildiradi. Lekin muammo shundaki, ushbu ma’qullab ovoz berganlarning ijtimoiy davlat nima degan savolga javobini o‘rganish nimagadir hech kimning esiga kelmagan. Hatto davlatshunoslarimizning o‘zlari ham bu borada rasmiy iboralarni takrorlashdan nariga o‘tishmagan. Matbuotda huquqshunoslar A. Saidov va F. Otaxonovlarning maqolalardan boshqa ilmiy ahamiyatga ega maqola

¹⁷⁵ Қаранг.: //”Янги Ўзбекистон”, 2024, 6 декабрь.

¹⁷⁶ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. 23 б.

¹⁷⁷ Қаранг: www.yuz.uz 2024, 06,12.

uchramaydi. Demak, huquqshunos va davlatshunoslarimizning o'zi ijtimoiy davlat haqida e'tiborli qarashlarga ega bo'lmagan. Ayrim fikrlar 2024-yilga kelib matbuotda uchray boshlaydi. Huquqshunos va davlatshunoslarning sustkashligi ularning inson huquqlari masalalari borasida jiddiy izlanishlar olib borganligini rad qilmaydi. Bu borada H. Raxmonqulov, U. Tojixonov, A.Juzjoniy, X.T.Odilqoriyev, R. Qayumov, Sh. Yaqubov, Sh. Jalilov, O.Husanov, Z.M.Islamov, O.Matkarimov, F. Otaxanov, faylasuflardan V.Alimasov, S.Berdiqulov, K.V.Djavakova, Sh.Mamadaliyev, N.Nishonova kabilarni eslash mumkin. Ularning ilmiy asarlarida inson huquq va erkinliklarini fundamental masalalari muhokama qilinadi. Ularning aksariyati avtokkratizm davridagi tajribalarni tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lsa-da, ulardagi konseptual xulosalar hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Sh. M. Mirziyoyev davlat tepasiga kelgach, birinchi galdagi vazifa qilib xalq bilan muloqot institutini ishga tushirdi. Natijada, joylarda Prezident xalq qabulxonalari, Vazirlar Mahkamasining tadbirkorlarni qabul qilish maskanlari, vazirliklarning ishonch telefonlari, Oliy Majlisning sayyor qabulxonalari ishga tushirildi. Oliy davlat organlarida aholi xatlari, arizalari va murojaatlari bilan ishlash guruhlarini tashkil qilindi. Katta e'tibor sud-huquq tizimini isloh qilishga, uni gumanizatsiyalashga qaratildi. Ayniqsa, 2005-yilda o'lim jazosining bekor qilinishi huquqiy-siyosiy hayotda ulkan hodisa bo'lganidan kelib chiqib, Prezident 2017- yili avf institutini ishga tushirdi. Har yili ikki marta afv etish yo'lga qo'yildi, bu inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi insonparvarlik akti edi.

Yangi Konstitutsiyamizning 40-moddasida, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida, fuqarolarning davlat institutlari va mansabdor shaxslarga murojaat qilish huquqi konstitutsion norma sifatida belgilab qo'yildi. Bu murojaatlar oqimining oshishiga sabab bo'ldi. Masalan, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga 2021-yili 2344 murojaat tushgan, 2023-yili bu ko'rsatkich 3777 taga oshgan. Ulardan 619 tasi Qonunchilik palatasi virtual qabulxonasiga, 407 tasi Prezident virtual qabulxonasiga, 1038 tasi fuqarolar qabulxonasiga 1827 tasi pochta aloqo bo'limiga tushgan. 386 ta murojaat esa deputatlar sayyor qabulxonalarida qayd etilgan¹⁷⁸.

¹⁷⁸ Қапанг: www.xs.uz 2023.08.08.

Qonunchiligimiz talablariga ko'ra, Fuqarolarning murojaatlari og'zaki, yozma yoki elektron shaklda qabul qilinadi. Oliy organlarga kelib tushgan murojaatlarning 2066 tasi yozma, 1025 tasi elektron, 146 tasi og'zaki bo'lgan. Fuqarolarimiz elektron murojaatlardan faol foydalanmoqdalar. Murojaatlar asosan Toshkent shahri (20,3 foiz), Qashqadaryo (13,4 foiz), Toshkent (11 foiz), Samarqand (9,6 foiz), Namangan (8,4 foiz), Farg'ona (6,1 foiz) viloyatlaridagi tushgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, "hududlardan yuborilgan murojaatlar soni kamaygan bo'lsa—da, ayrim hududlardan kelgan murojaatlar salmog'i yuqoriligacha qolmoqda. Masalan, Toshkent shahridan murojaatlar soni 2022—yildagidan 265 taga kamaygan, ammo jami murojaatlarning katta qismi Toshkent shahri aholisi tomonidan yuborilgan¹⁷⁹.

O'zining konstitutsion huquqlarini anglagan, bilgan fuqaro oliy organlarga murojaat etadi, ularning ko'tarayotgan muammolarga aralashishini so'raydi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda sud-huquq tizimi muhim o'rin tutadi. 2016-yildan boshlab ushbu tizimni insoniylashtirish tomon katta qadam tashlandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining chiqishlarida bu sohada g'ayriqonuniy va g'ayriinsoniy illatlar avj olganini keskin tanqid qilib keladi. Davlatning huquqiy-siyosiy strategiyasini yangilamay ushbu illatlardan qutulish, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash aslo mumkin emas edi. Prezident sud—huquq tizimidagi illatlarga, ayniqsa, Respublika Bosh prokurori R. Qodirov va birinchi Prezidentning qizi G. Karimova, ular uyushtirgan jinoiy guruhlariga qarshi kurash e'lon qilganida xalq uni qo'llab-quvvatlagan. Bu jamiyatimizda adolat tamoyilining tantanasiga ishonch edi.

Konstitutsiyaviy islohotlar sud-huquq tizimini ham insonparvarlashishga undadi.

Adolat va insonparvarlashtirish kosubstansional voqeyliklarga kiradi. Adolat tamoyili, avvalo, insoniylik tamoyilidir. Sud—huquq tizimini adolat prinsipiga muvofiq ishlashini ta'minlash insonning yuridik (huquqiy) huquqiga taalluqli jarayondir. Shuning uchun ham adolat insonga taalluqli etikalogik muammo hisoblanadi. Uni etika nuqtayi nazaridan o'rganish

¹⁷⁹ Қапанг: www.xs.uz 2023.08.08.

keng tarqalgan¹⁸⁰. Biroq adolatning yuridik (huquqiy) jihatlarini falsafiy–huquqiy va siyosiy voqeyliklarni anglash uchun o‘ta muhimdir.

Zamonaviy talqinlarda adolat, eng avvalo, qonunlarda, ularga amal qilish va tasdiqlangan normalarning to‘liq bajarilishiga erishishda. Qonunlarning kuchi ijtimoiy adolatni qaror toptirish orqali ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy munosabatlarga tartiblilik joriy etishdadir. Bu vazifalarni, avvalo, yuridik xizmat ko‘rsatish idoralari, adliya va huquqni ta‘minlash institutlari bajarishi lozim. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ijrosini ta‘minlashga qaratilgan Prezidentimizning “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” (2021, 11-may), “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” (2022, 17-mart), “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora–tadbirlari to‘g‘risida” (2022, 20-aprel), “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta‘minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” (2024, 16-avgust) kabi Qaror va Farmonlari inson huquqlari tizimini takomillashtirish, yuridik xizmatlar ko‘rsatishni yuksaltirish borasida yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Masalan, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga taalluqli farmonni olaylik. Hujjatning o‘zi falsafiy–huquqiy mohiyati bilan tadqiqotimizga taalluqlidir. U ijtimoiy munosabatlarga yuridik uyushtirilganlik, ratsional–huquqiy yo‘naltirilganlik baxsh etadi. Norma ijodkorligini aqlli tartibga solish, hujjatlarni soddalashtirish, ayrim qonunlardagi mavhumlik va bo‘shliqlarni bartaraf etish, amaldagi qonunlarni baholash, qonunosti hujjatlarini har uch yilda monitoring qilish kabi tartiblar joriy etildi. Shuningdek, unga muvofiq Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta‘sirini baholash instituti tashkil etildi.

“Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha

¹⁸⁰ Қаранг: Арендаренко А. Реализация социальной справедливости в уголовном праве России. – Москва: Литрес, 2022; Войпан В. Теория справедливости: право и экономика. – Москва: Юрицининформ, 2018; Тихомиров А. Понятие справедливости. – Москва: Solf Pub, 2024.

chora–tadbirlar to‘g‘risida” (2024, 10– fevral) gi qarorda esa qonunlar ijrosi uchun hokimiyat organlari rahbarlarining mas’ulligi oshirish nazarda tutildi. Inson huquqlarini ta’minlash joylardagi hokimiyat va adliya organlari faoliyatiga, ularning qonunlarda belgilangan adolat normalarga rioya etishiga bog‘liq bo‘lgani uchun hujjatda rahbarlar mas’ulligi ta’kidlanadi. Qonun–ijro–mas’ullik–baholash tizimi ijtimoiy munosabatlardagi tartibni shakllantiradi, ularsiz ijtimoiy davlatda adolatni o‘rnatish, inson huquqlarini ta’minlash qiyin. Ijtimoiy davlatdagi adolat tamoyili qonunlardagi normalar orqali ijtimoiy munosabatlarni “aqli yo‘lga qo‘yish” demakdir. Hayratli tomoni shundaki, shu paytgacha qonunchilikni baholashga mas’ul idora yaratilmanan edi, u bilan adliya vazirligining istagan bo‘limi yoki jamoatchilik guruhi shug‘ullanaverardi. Endi u bilan Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta’sirini baholash instituti shug‘ullanadigan bo‘ldi. Adolat mezonlarini aniqlash va unga erishish mexanizmlarni ishlab chiqish ham uning zimmasiga yuklatildi.

Mazkur institutni malakali kadrlar bilan ta’minlash, moddiy texnika bazasini shakllantirish adliya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Ma’lumki, yangi institutining tashkil etilgani, hali mavjud muammolarni to‘la bajarilganini anglatmaydi. Institutsional yondashuv muammoning bir qirradi xolos.

Ijtimoiy adolat yuridik himoya mexanizmlariga alohida talab qo‘yadi. Bu talab “adolat” tushunchasining ko‘pqirrali voqeylik sifatida talqin qilinishidan kelib chiqadi. Etikalogik, akseologik, sotsiologik va iqtisodiy tenglik sifatida qaralishi, anglanishi uni yuridik (huquqiy) talqinini murakkablashtiradi. Jamiyat faqat yuridik talqin bilan cheklanib qololmaydi, uning uchun qolgan talqinlar ham qimmatlidir. Demokratik qadriyatlarga tayanadigan ijtimoiy davlat uchun hatto adolatning etikalogik–akseologik talqinlari qimmatlidir. Jamiyatdagi ma’naviy–axloqiy muhit, gumanistik qarashlarning e’zozlanishi etikalogik–akseologik talqinga ko‘proq yon bosadi. Prezidentimiz sud-huquq tizimini gumanizatsiyalashga undayotgan paytda adolat yuridik (huquqiy) voqeylik bo‘lib qololmaydi, uning etikalogik–akseologik mohiyati ustuvorlik qila boshlaydi. Ammo bu ijtimoiy adolat faqat etikalogik–akseologik mexanizmlar orqali qaror toptiriladi, degani emas. Deviant xulq-atvor, destruktiv kuchlarning salbiy ta’siri kishilar xatti–harakatlarida, jamiyat

hayotida uchrab turayotgan ekan, ijtimoiy adolatni yuridik mexanizmlar bilan ham qaror toptirish zarur bo‘lib qoladi. Ijtimoiy davlat ideal davlat, faqat ezgulik, poklik va insonparvarlik qaror topgan siyosiy makon emas, unga ham destruktiv elementlar xosdir.

Demak, ijtimoiy adolatni faqat yangi institutlar tashkil etish bilan qaror toptirish mumkin emas, u butun ijtimoiy organizm, sohalar, akseologik va gumanistik sa’y-harakatlarning pirovard natijasi bo‘lishi mumkin. Qonunlar, huquq institutlari va mexanizmlari qanchalik kuchli bo‘lmasin, ular jamiyatdagi etnogumanistik qadriyatlar, etnosiyosiy tajribalar va axloqiy imperativlarga tayanmay samarali ta’sir etolmaydi. Davlat institutining ideal shakli etnogumanistik qadriyatlar va axloqiy imperativlar orqaligina o‘zini namoyon etishi, xalqqa xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy davlat mohiyatan gumanistik davlat, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy munosabatlarni adolatparvar qilish uning bosh funksiyalaridan biridir.

Ijtimoiy adolat ijtimoiy himoya, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy hamkorlik orqali real voqeylikka aylanadi, obyektivlashadi. Ijtimoiy davlatda ushbu prinsiplar uyg‘unlikda keladi. Masalan, ijtimoiy adolatni jamiyatdagi yordamga muhtoj kishilarni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni kamaytirish, nogironlarga zarur hayotiy sharoitlar yaratib berish, bolalar va xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash kabilarsiz qaror toptirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy adolat prinsipi barcha kishilar uchun zarur bo‘lgan yashash, o‘zini namoyon qilish, jamiyat ishlarini boshqarishda teng ishtirok etish, umumiy tartiblar va qoidalar asosida ta’lim olish, nafaqaga chiqish, mehnatga yarasha haq olish, badiiy, ilmiy va texnik ijod bilan shug‘ullaniish huquqlarini ro‘yobga chiqarish kabilarda in’ikos topadi. Konstitutsion islohotlardan keyin O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Jamoat ishlari jamg‘armasi, ularning viloyat markazlarida, tuman va shaharlarda maxsus bo‘limlari tashkil etildi. Prezidentimiz kambag‘allikni qisqartirishni umummilliy harakatga aylantirish g‘oyasini ilgari surdi. Bu ham institutsional yondashuvdir. Aslida kambag‘allikni qisqartirish 2020-yili boshlangan harakat edi, 2024-yili u keng quloq yoydi. O‘sha 2020-yilda 7,5 million kishi yoki aholimizning 23 foizi kambag‘allikda yashardi. 2023-yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 11 foizga tushdi. Ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra

kengaytirildi, kambag'allarga 12,3 trillion so'm yo'naltirildi, pensiya va nafaqalar 1,5 martaga oshirildi. Mahallalarga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun 35 trillion so'm kredit va 7 trillion so'm subsidiyalar ajratildi. Mahallalarni, ko'cha, maydon, yo'laklarni obod qilish, oilalarni gaz, suv, elektr bilan ta'minlash uchun 120 trillion so'm ajratildi. Dehqonchilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlarga 200 ming gektar yer berildi. 2024-yilga kelib 3 milliondan 5 milliongacha maosh oladigan kishilar 2 barobarga, 5 milliondan 7 milliongacha maosh oladiganlar 3 barobarga oshdi. Shunday bo'lsa-da, respublikamizdagi 14 tumanda kambag'allik qisqarmagan, aholining daromadi past qolgan¹⁸¹.

Mehnatiga yarasha haq olmaydigan, oilasini zo'rg'a boqadigan kishining ijtimoiy adolatga ishonishi yuqori bo'lmaydi. Masalan, respondentlarimizning 37 foizi ijtimoiy hayotda adolat bor, 39 foizi hamma joyda, sohalarida emas, 22 foizi adolat borligiga ishonmasligini bildiradi. Keyingi guruhdagi respondentlar aksariyati samarasiz, qo'l mehnati bilan shug'ullanuvchi ishchi-mehnatchilardir. Respublikamiz hukumati aholi kambagalligini qisqartirish borasida institutsional va iqtisodiy chora-tadbirlari ko'rmoqda, lekin muammoni faqat davlat hal etolmaydi, har bir oila, har bir shaxs qo'shimcha mablag' topish yo'llarni qidirishi darkor. Prezidentimizning "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2024, 11-avgust)gi Farmonida bolalar nafaqalarini oshirishning aniq mexanizmlari belgilab berilgan. Ular kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ba'zan shunday bo'ladiki, fuqaro davlat tomonidan bepul yuridik xizmat ko'rsatilishini, kam ta'minlanganlik muammosidan, ishsizlik holatidan qanday chiqishni bilmaydi. Yon-atrofidagilarda ham zarur tajriba yoki imkoniyat yo'q. Yillar davom etgan chorasizlik, kambag'allik kishini ojiz qilib qo'yadi, u optimist bo'lolmaydi. Ushbu ijtimoiy psixologik va iqtisodiy muammoni o'rinli hal qilishning huquqiy mexanizmlari mavjud. Ular "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun (2023, 14-yanvar)da aniq belgilab berilgan. Unga ko'ra qiyin ahvolga tushib qolgan shaxs davlat institutlariga murojaat etishi, muammolari bo'yicha yuridik yordam, maslahat olishi, kredit xizmatidan foydalanishi

¹⁸¹ Қапани:www.yuz.uz 2024.12.09.

mumkin. Mazkur qonunni sinchiklab o'qigan shaxs o'zining qiyin muammolariga huquqiy chora topish mumkinligiga iqror bo'ladi. Ijtimoiy davlat hech kimni e'tibordan chekkada qoldirmaydi, yordamga muhtoj kishining qonuniy huquqlarini himoya qiladi, unga murakkab vaziyatlardan chiqishda ko'maklashadi.

Bolalar huquqlarini ta'minlash ilk bor yuridik xizmat sifatida e'tirof etildi. Prezidentimizning "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2024, 9-avgust)gi Farmonida esa Oliy Majlis qoshida Bolalar ombudsmani, Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya tashkil etish zarurligi ko'rsatildi. Prezidentimizning "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" (2024, 15-avgust)gi Qaroriga ko'ra yetim bolalarga g'amxo'rlik qilishning mutlaq yangi institutlari (hududiy "Xalqparvar" komissiyalar), hokimliklar qoshida uy-joy ajratish bo'limlari tashkil qilindi. Ularga yetim bolalarga. 18 yoshga to'lganda ko'p xonali uy-joylardan maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo'lmagan 1 xonali, oilali bo'lsa 50 kvadrat metrdan kam bo'lmagan 2 xonali kvartiralar ajratish huquqi berildi. Kvartiralar hokimliklar tomonidan birlamchi bozordagi narxlarda sotib olinadi¹⁸². Bu o'rinda O'zbekistonning kam ta'minlangan va moddiy yordamga muhtoj aholi qatlamini yuridik va ijtimoiy himoya qilishning milliy tajribasi aks etadi. Ijtimoiy davlatning mazkur funksiyasi xalqimiz tilaklariga va ehtiyojlariga muvofiq keladi.

4.2. Ijtimoiy davlatda fuqarolar siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari

Ijtimoiy davlatning demokratik va huquqiy asoslari fuqarolarning siyosiy hayotda, davlat faoliyatini boshqarishda qanashishini kafolatlaydi. Davlat yirik siyosiy institut sifatida fuqarolarining tashabbuslariga, boshqarish ishlarida qatnashishlariga sharoit yaratadi, huquqiy mexanizmlari orqali bu faollikni yo'naltirib turadi. Agar mavjud tajribalardan kelib chiqsak, mazkur yo'naltirilganlik institutsional tarzda amalga oshiriladi. U siyosiy, shaxsiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar kabi institutsional tizimlardan iboratdir.

¹⁸² Қапани: www.yuz.uz 2024,12.08.

Siyosiy huquqlar fuqarolarning davlat organlarini tuzish, ularning faoliyatida ishtirok etish, davlat organlari va mansabdorlar faoliyatini nazorat qilish, qonunlar yaratilishi va qabul qilinishidan qatnashish, siyosat va davlat boshqarishi haqida o'z fikrlarini bildirish kabilarni o'z ichiga oladi¹⁸³. Biroq ushbu huquqlar doirasini davlat, qonunlari orqali albatta, belgilaydi. Huquqshunos O.T. Husanovning yozishicha, “siyosiy huquqlar, eng avvalo, davlatni boshqarishda ishtirok etish, davlat faoliyatiga ta'sir etish imkoniyatini yaratuvchi huquqlar bo'lgani uchun ularning miqdori, amalga oshirish chora–tadbirlari doirasi qanday bo'lishini davlat belgilaydi”¹⁸⁴. Yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq siyosiy huquq fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishini nazarda tutadi. Bunday siyosiy faoliyat siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari tuzish, saylovlar va referendumlarda qatnashish, o'zini – o'zi boshqarish organlari tuzish, davlat organlari faoliyatiga oid fikrlarini bildirish, ommaviy harakatlarda qatnashish, murojaat yoki arizalar yuborish orqali amalga oshiriladi¹⁸⁵.

Jamiyat va davlat hayotida faol qatnashish siyosiy partiyalarning funksiyalaridan biridir. Siyosiy partiyalar, funksional va institutsional xususiyatiga ko'ra, davlat boshqaruvini shakllantirish va unda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi mumkin. Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, siyosiy manfaatlariga ega partiyalar hokimiyatni xalq manfaatlariga ishlashini ta'minlashga kurashadi. Shu maqsadda u hokimiyat uchun, boshqarish institutlarida o'z vakillarining bo'lishi uchun kurashadi¹⁸⁶. Partiologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, O'zbekistondagi siyosiy partiyalar avtokratizm davri (1991–2016) dayoq hokimiyatga bo'ysundirilgan edi. Shuning uchun ham ularning dasturlarida siyosiy hokimiyatga erishish masalalari deyarli tilga olinmaydi. Ularning harakat dasturlari davlat institutlari faoliyatini qo'llab–quvvatlash, “umumiy maqsadlar” va ijtimoiy birlik shiori ostida Prezident tashabbuslari va da'vatlariga, qaror va farmonlariga ergashishdangina iborat bo'lib qolmoqda. Siyosiy

¹⁸³ Қаранг: Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2013. 168 б.

¹⁸⁴ Қаранг: Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2013. 168 б.

¹⁸⁵ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. 16–17 б.

¹⁸⁶ Қаранг: Гаджиев К.С. Политическая философия. – Москва: Аспект –пресс, 1999. С.204–208; Тўйчинв Б. Ҳуқуқ фалсафаси. – Тошкент: Университет, 1997. 103–114 б.; Алимарданов Т. Сиёсат ва ахлоқ. – Тошкент: Фан, 2007. 34–46 б.; Бердикулов С. Ўзбекистонда сиёсий партияларнинг шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Академия 2014. 12–14 б.; Қодиров А. Сиёсий маданият. – Тошкент: Фан, 2008. 34–43 б.

partiyalarning dasturlari ham, liderlari ham aksariyat xalqqa ma'lum emas. Vaholanki, jamiyat va davlatning siyosiy taraqqiyoti ularni qiziqtirishi zarur. Ijtimoiy davlat g'oyasi ham aslida Prezidentimiz tomonidan emas, balki siyosiy partiyalar tomonidan kun tartibiga qo'yilishi, syezd va kengash qarorlarida qayd etilishi, matbuotida muhokama qilinishi darkor edi.

To'g'ri, Xalq demokratik partiyasi (XDP) matbuotda ijtimoiy davlat haqida ma'lum bir qarashlarini bildiradi. Masalan, u 2024– yilgi saylovoldi dasturini “Ijtimoiy davlat uchun!” degan shior bilan “Yangi O'zbekiston” gazetasida e'lon qilgan. Ushbu dasturda 10 yo'nalishda 15 strategik qadam berilgan. 1 yo'nalishda deyiladi: “Ijtimoiy barqarorlikning tayanchi bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga intilish. Har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari va kafolati daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirishga maqsad qilganmiz”¹⁸⁷. Maqsad Prezidentimiz saylovoldi dasturi va nutqlaridan olingani shunday ko'rinib turibdi. Agar XDP kambag'allikni qisqartirish, har bir kishiga munosib yashash sharoitini yaratish, muhtojlarga yordam berishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, nega buni amalda qilmayapti? Masalan, XDPning Chirchiq shahri markazida, bozor oldida bo'limi bor. Mazkur bo'lim to'rt qavatli binoga joylashtirilganini bino bo'ylab yozilgan katta yozuvlardan bilasiz. Ushbu bino oldida yordamga muhtoj, ishsiz, ba'zilar keksa 40–50 tacha kishi har kuni ashqol–dashqollarini sotib o'tirishadi. Ularning yordamga muhtoj ekanini XDP bo'limi a'zolari ko'rmaydimi? Chirchiq shahrida ishga layoqatli yoshlarning yarmidan ziyodi bekor, nimagadir XDP bo'limi ularni ish bilan ta'minlashga oid biror tashabbus bilan chiqqani aholiga ma'lum emas. XDP dasturining ikkinchi yo'nalishi o'qiymiz: “aholini arzon uy–joy va sifatli kommunal xizmatlar bilan ta'minlash, buning uchun uy–joy qurilishini kengaytirish” zarur. “Bu tashabbuslarni ko'tarib chiqish va amalga oshirishga XDPga kim xalaqit berayapti? Nega u yangi massivlar qurish, joylarda zamonaviy infratuzilmalarni shakllantirishda ishtirok qilmayapti? U quruvchilar tashkilotchi yoki qurilish vaziri emas,

¹⁸⁷ Қаранг: “Фаравонликка хизмат қиладиган дастур”// “Янги Ўзбекистон”, 2024, 27 сентябрь.

deyishingiz mumkin. Agar XDP qurulish tashkilotchi bo'lmasa, nega xalqqa arzon uy-joy va'da qilayapti? Axir, bu vazifalarni 2017– yildan beri davlatimiz rahbari ham ta'kidlab keladi-ku?! Dastur ichida mavhum, partiya hech qachon bajarolmaydigan, quruq deklarativ maqsadlar ham bor. Masalan, oltinchi yo'nalishda "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti kuchli ijtimoiy siyosatning asosidir" deyilgan. Xo'sh, bizda bozor iqtisodiyotiga qarshi kim bor? Bozor munosabatlarini yo'lga qo'yish partiyaning vazifasimi? Bu uning imkoniyatlariga muvofiqmi? Sakkizinchi yo'nalishda partiya "ochiq, shaffof, xalqchil va demokratik davlat boshqaruvi tizimini joriy etish tarafdori" ekanini bildiradi. Unda nima yangilik bor? O'ninchi yo'nalishda XDPning "milliy manfaatlarga asoslangan ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni izchil davom ettirish" tarafdori ekani ta'kidlanadi. Xullas, XDP saylovchilariga konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklari amalga oshirish va arzon uy-joylar bilan ta'minlashdan tortib, to milliy manfaatlarga va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan tashqi siyosat yurgizishgacha va'da beradi. Dasturda partiyaning siyosiy maqsadi nima, u davlat boshqaruvidagi siyosiy vazifalarini nimada deb biladi, siyosiy raqobatda qanday taktika qo'llamoqchi va unga saylovchilarini qanday ishontirmoqchi, degan savollarga javob yo'q. Dasturda XDP siyosiy hayotni jonlashtirishga, saylovchilari va a'zolari qiziqishlarini himoya qilishga shay siyosiy kuch ekanini ko'rsata olmagan. Uning "ijtimoiy davlat uchun!" degan shiori quruq deklaratsiyadan boshqa narsa emas.

Yoki "Adolat" sotsial demokratik partiyasi (SDP)ning "Teng imkoniyatlar va adolatli jamiyat sari" deb nomlangan saylovoldi dasturini olaylik. Partiya "Ijtimoiy davlat – 2030" dasturini e'lon qiladi. Unda partiya renovatsiyaga doir qonun qabul qilish, ijtimoiy obyektlar faqat xalqniki bo'lishiga erishish, yosh mutaxassislarni kafolatlangan birinchi ish joyi bilan ta'minlash, ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish, xalq salomatligini mustahkamlash orqali aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarafdori bo'lishini bildiradi. Ijtimoiy adolatni qaror toptirish partiya siyosiy faoliyatining bosh maqsadi ekani ko'rsatiladi. Ha, ijtimoiy adolat ijtimoiy davlat barpo etishning asosiy shartlari va kafolatlaridan biridir. Ammo partiya bu siyosiy vazifasini negadir siyosiy faoliyatidan yiroq sohalar bilan bog'laydi. Siyosiy maqsadni xo'jalik ishlari, uy-joy

masalalari, ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan bog'laydi. Dasturda, masalan, hozirgi kunda respublikada 184 ta istirohat bog'larida daraxtzorlar hududlari kengaytirilib, 944 ta bino-inshoot qurilgan, 18 ta istirohat bog'ida 91 ta noqonuniy qurilmalar mavjud, 96 istirohat bog'ida 1248 ta attraksionlar noqonuniy o'rnatilgan. Shuning uchun partiya istirohat bog'lari, bolalar oromgohlari, sayilgohlar, ta'lim va tibbiyotga oid davlat obyektlari va ularning hududlarini sotish, xususiylashtirish yoki begonalashtirishni taqiqlash, bunday harakatlar uchun javobgarlikni belgilash zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, partiya maktabgacha tarbiya o'choqlariga qabul qilish tartibini qayta ko'rib chiqish, tibbiy xizmatlari yaxshilash va tibbiyot xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish kabilar bilan shug'ullanishni va'da qiladi¹⁸⁸. Bu niyatlar yaxshi, biroq SDPning siyosiy maqsadi nima? U ijtimoiy davlatni qanday siyosiy mexanizmlar va siyosiy institutlar orqali amalga oshirmoqchi? Uning mavjud siyosiy tuzumga munosabati qanday, uning qaysi jihatlari ijtimoiy davlat konsepsiyasiga muvofiq kelmaydi? kabi partiyaning funksiyasiga bevosita taalluqli savollarga javob yo'q.

"Milliy tiklanish" va Ekologiya partiyalar dasturlari ham siyosiy maqsadlarni o'z oldiga qo'ymaydi, ularni boshqa jamoat tashkilotlaridan ajratish qiyin. Masalan, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash orqali ijtimoiy davlat, farovon jamiyat barpo etishni o'zining bosh maqsadi deb biladi¹⁸⁹.

Ekologiya partiyasi iqlim, yon-atrofni himoya qilish, ko'kalamzorlashtirish kabi vazifalarni bajarishi orqali ijtimoiy davlat barpo etish mumkin deb hisoblaydi¹⁹⁰.

Xullas, respublikamizdagi siyosiy partiyalar faoliyatida mavhumlik, o'zining funksiyasini aniq bilmaslik, siyosiy institut sifatida mustaqil ishlashga intilish kuzatilmaydi. Ularning liderlari quruq deklaratsiyalar e'lon qilish bilan cheklanmoqda. Biroq respublikamizda ko'ppartiviylik tizimining qaror topgani, partiyalar o'rtasida nafaqat yakdillik, birdamlik, ittifoq, shu bilan birga, raqobat, fikrlar plyuralizmi yuzaga kelgani, fuqarolarmizda siyosiy faollik, siyosiy madaniyat ifodasi sifatida, ijobiy holdir. Siyosiy partiyalarning institutsional faoliyatida hali kamchiliklar

¹⁸⁸ Қаранг: yuz.uz.news 2024, 5 октябрь.

¹⁸⁹ Қаранг: www.xs.uz 2024. 09.10

¹⁹⁰ Қаранг: "Янги Ўзбекистон", 2023. 16 июнь.

ko‘p. Masalan, ular faoliyatida ichki demokratiya, Erkin fikr almashish, hatto alternativ dasturlar ishlab chiqish kabi tajribalar uchramaydi. Ularda faqat yuz foiz “yakdillik” hukmron. Bu siyosiy lider fikrini mutlaqlashtirishga zamin yaratadi. Vaholanki, yangilangan Konstitutsiyamizning 39– moddasida “siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalariga, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr–qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas” deb ta’kidlangan¹⁹¹.

Ijtimoiy davlat barpo etishda saylov va referendum institutlari faolligidan foydalanish lozim bo‘ladi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijalari ko‘rsatadiki, saylov va referendumlarda qatnashish siyosiy huquqni ta’minlash usulidir. Ularsiz demokratik boshqarishni yo‘lga qo‘yish qiyin.

Konstitutsion islohotlardan keyin, O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishga qaratilgan “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirishlar kiritildi. Mojaritar va proporsional saylov tartibiga muvofiq saylov hududlari 75 ta hududiy bir mandatli saylov okruglariga bo‘lindi. Qolgan 75 deputat mojaritar saylov tartibiga muvofiq saylanadi. Partiyalar ko‘rsatadigan uch nafardan biri xotin–qizlardan bo‘lishi tartibi o‘rnatildi. Saylov kodeksiga yangi institutsional vertikal tizim: Markaziy saylov komissiyasi–hududiy saylov komissiyasi–tuman va shahar saylov komissiyasi–okrug saylov komissiyasi – uchastka saylov komissiyasi buziladigan bo‘ldi. Bundan tashqari, saylov komissiyasi a’zolari saylov paytida asosiy ish joyidan bo‘shatilmaydi. Xorijdagi ovoz beruvchilar Qonunchilik palatasi ga proporsional tartibda ovoz berishi o‘rnatildi. Bir mandatli okruglarda boshqalarga nisbatan ko‘p ovoz olgan saylangan hisoblanadi. Partiyalar saylovchilarning kamida 7 foizini olganida ularga deputatlik o‘rinlari beriladi. Deputatlar, senatorlar, hokim o‘rinbosarlari, boshqa saylov komissiya a’zolari, og‘ir jinoyati uchun qamalanganlar referendum saylov uchastkasi a’zosi bo‘lishi mumkin emas¹⁹². Yana bir muhim institutsional yangilik saylovoldi tashviqotlarida sun’iy

¹⁹¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.17 б.

¹⁹² Қаранг: www.xs.uz 2023.12.10.

intellektdan foydalanishga ruxsat bergan Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil iyuldagi qarori bo'ldi¹⁹³.

Markaziy saylov komissiyasi raisi, O'zbekiston Qahramoni Z. Inomxo'jayevning ko'rsatishicha, konstitutsion isloxotlardan keyingi 2024-yil 27-oktyabrda uch turdagi saylov bir vaqtda o'tkazildi. Unga saylovchilarga zarur bo'lgan axborotlar beruvchi Call-markaz va inklyuziv saylov tizimi joriy etilgan¹⁹⁴.

Saylovlar va referendumlar paytida fuqarolar o'zining siyosiy faolligini namoyon etadilar. Ilgarilari ham bu faollikka siyosiy voqeylik sifatida qaralgan. Keyingi yillarda, ayniqsa, g'arb davlatlarida, fuqarolarning saylov va referendumlarda qatnashishi sustlashgani kuzatiladi. Ulardagi siyosiy hokimiyatning xalqdan uzoqlashishi, saylovchilar ovozining sotib olinayotgani, rasmiyatchilik, iqtisodiy muammolarining oshib borayotgani kabi omillar fuqarolarning liberal-demokratiyadan ko'ngli qolayotganini tasdiqlaydi¹⁹⁵. Hatto Shvetsiyada saylov va referendumda qatnashmagan shaxsni jarimaga tortish tartibini o'rnatilgan. Bizda aholimizning 82,7 foizi referendumda, 90 foizdan oshiqi Qonunchilik palatasiga saylovda qatnashib, o'zining siyosiy faolligini namoyon qilgan. Markaziy saylov komissiyasi ta'kidiga ko'ra, saylovlar paytida g'ayriqonuniy harakatlar, tazyiq o'tkazish, u yoki bu nomzodga ovoz berishga zo'rlash kabilar uchramagan¹⁹⁶.

Fuqarolarning siyosiy faolligi nodavlat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, o'zini-o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalar, ommaviy axborot vositalari, xalq harakatlari kabi institutlar faoliyatida qatnashishida ham namoyon bo'ladi. Institutsional nuqtayi nazaridan ular ixtiyoriy-jamoaviy tashkilotlari bo'lib, ular faoliyatida qatnashish fuqarolarning xohishidadir. O.T.Husanov yozganidek: "Har qanday mamlakatning (jamiyatning) taraqqiyoti ham, tanazzuli ham fuqoralar faoliyatiga bog'liqdir. Mamlakatda bo'layotgan siyosiy voqealarda, iqtisodiy jarayonlarda, xalqaro masalalarda fuqarolar kuzatuvchi sifatida emas, shu jarayonlarning ishtirokchisi sifatida o'zi o'rnini topsa, jamiyat

¹⁹³ Қаранг: yuz.uz.news 2024.28.09.

¹⁹⁴ Иномхўжаев З. Ватанимиз тақдири учун барчамиз масъулмиз // "Янги Ўзбекистон", 2024, 25 октябрь.

¹⁹⁵ Қаранг: RT: ИНО ТИ.Dialogue works; Елисеева Е.А. Социальная политика в странах Западной Европы. – СПб.: Изд. Санкт – Петербургского гос.ун. управления и экономики, 2015; Ролз Дж.Теория справедливости. – Москва: Изд. ЛКИ, 2010; Арон Р.Демократия и тоталитаризм. – Москва: Дашков и К., 2015; <https://ru.wikipedia.org>

¹⁹⁶ Қаранг: www. yuz.uz. 2024.07.12

rivojlanadi va bu rivojlanish fuqarolar taqdiriga jobiy ta'sir qiladi. Demak, fuqarolarning siyosiy faollik asosida jamiyat hayotida ishtirok etishi zaruratdir"¹⁹⁷. Agar ushbu fikrdan kelib chiqsak, nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari ham ijtimoiy davlat uchun obyektiv zaruratdir. Shu maqsadda O'zbekistonda "2021–2026– yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Unda "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan g'oya ilgari surilib, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab olindi.

O'zbekistonda nodavlat tashkilotlari dinamikasi 1991-yili – 95 ta, 200 yilda 2585 ta, 2017-yili 8700 ta, 2025-yili 10039 ta bo'lganini ko'rsatadi¹⁹⁸. Eng ko'p nodavlat tashkilotlari madaniy-ma'rifiy va maishiy xizmatlar ko'rsatish, qurilish va savdo–sotiq sohalarida uchraydi. Shunday bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkichlar, jahon standartlariga qiyoslaganda juda kam. Masalan, AQShda nodavlat tashkilotlari soni 1,5 millionni, Niderlandiyada 34,6 mingni tashkil qiladi¹⁹⁹. Hatto nodavlat tashkilotlari, maxsus institut sifatida, Nodavlat tashkilotlarining xalqaro asotsiatsiyasiga birlashgan. Demak, milliy demokratik taraqqiyotda o'z yo'lida davom etayotgan Yangi O'zbekistonda nodavlat tashkilotlarining soni yanada oshadi, faoliyat turlari kengayadi, fuqarolarning siyosiy huquqlarini realizatsiya qilish uchun institutsional imkoniyatlarini ishga solish izchil davom etadi. Buni Respublikamizda qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya (2021) ham tasdiqlaydi. Mazkur hujjatga ko'ra O'zbekistondagi demokratik islohotlar va jamiyatni modernizatsiyalash bevosita nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligiga ham bog'liq. Jahon tajribasi qaerda shu institutlar faol bo'lsa, fuqarolarni uyushtirib, huquq va erkinliklar, demokratik qadriyatlar uchun kurashsa, shu yerda demokratiya ham bo'ladi, inson huquq va erkinliklarini amalda tasdiqlash ham bo'ladi. Hatto davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bunday institutlarining faollari "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlanadigan bo'ldi.

Prezidentimizning "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab–quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari

¹⁹⁷ Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2015. 171 б.

¹⁹⁸ Қаранг: www.yuz.uz.news 2021.15.06; www.yuz.uz.news 2025.04.05.

¹⁹⁹ Қаранг: ru.m.wikipedia.org

to'g'risida" (2024, 26- avgust)gi Farmonida ijtimoiy davlatda fuqarolik jamiyati institutlarini institutsional mustahkamlashga oid aniq choralar taklif etilgan. Masalan, Oliy Majlis qoshida fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va joylarda uning bo'limlarini tashkil etish, "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissai uchun" ko'krak nishonini ta'sis qilish, har yili dekabr oyining ikkinchi haftasida "Fuqarolik jamiyati haftaligi"ni o'tkazish, har ikki yilda Fond tomonidan "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofotini ta'sis qilish, nodavlat tashkilotlari vakiliga Qonunchilik palatalari yig'ilishlarida qatnashishga ruxsat etish zarurligi ta'kidlandi²⁰⁰. Farmon nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilganini yuridik (rasmiy) tasdiqlaydi. Prezident farmoni yuridik kuchga ega bo'lgani uchun u fuqarolik jamiyati institutlarini institutsional mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, nodavlat tashkilotlari fuqarolik jamiyati institutlari duch kelayotgan qator muammolarni hal etish zarur.

Birinchidan, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini hududiy ehtiyojlarga muvofiq rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish darkor. Hozir ular asosan Toshkent shahri va viloyat markazlarida uchraydi, tuman, ayniqsa, qishloq joylarida ular deyarli uchramaydi.

Ikkinchidan, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlariga homiylar yordamini qo'llab-quvvatlash kerak. Ammo ushbu yordamlar shaffof bo'lishi, maxsus hisobotlarda aks etishi darkor.

Uchinchidan, grantlar doirasini kengaytirish masalasini hal qilish zarur.

To'rinchidan, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlariga kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, davlat institutlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish zarur.

Beshinchidan, ular xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish masalasini o'ylab ko'rish, bu borada huquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqish lozim.

Nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari, agar qat'iy harakat qilsa, xalqaro ahamiyatga ega tadbirlar o'tkazish tashabbuskorlari bo'lishi mumkin. Bunga Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi misol bo'lishi mumkin. 2015-yilgi Parij bitimini imzolagan O'zbekiston birinchidan, jamiyatimizda, ayniqsa, mahallalarimizda tabiatimizni asrab-

²⁰⁰ Қапани: www.xs.uz 2024.27.08

avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish madaniyatini shakllantirishni umummilliy harakatga aylantirish; ikkinchidan, “Yashil makon-2” umummilliy loyihani kuchaytirish; uchinchidan, suv solig‘i bo‘yicha tushadigan mablag‘larning bir qismini, ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun, joylarda qoldirish; to‘rtinchidan, ekologiya bilan shug‘ullanuvchi nodavlat tashkilotlarini, agrotexnologik izlanishlarni qo‘llab-quvvatlashga intilmoqda. Mazkur forumda respublikamizdagi Inson huquqlari Milliy markazi va o‘ttizdan ziyod ekologiya muammolari bilan shug‘ullanuvchi nodavlat institutlari qatnashib, Xalqaro ekspertlarga Orol bilan bog‘liq fojiani bartaraf etishda yig‘ilgan O‘zbekiston tajribalarni namoyish etdilar. BMT ning Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekistondagi vakili, akademik A.X.Saidovning qayd etishicha, Samarqand forumining maqsadi iqlim o‘zgarishi bilan inson huquqlari aloqador ekanini tasdiqlash, shu tarzda insonning yashashi uchun zarur qulay tabiiy sharoitni yaratish muammolariga yechim izlash edi²⁰¹. Biz uchun muhim jihati shunda ediki, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta‘minlashni dolzarb hayotiy muammolar bilan uyg‘unlashtirishi mumkin. Ular davlat institutlari va xalqaro uyushmalar bilan hamkorlikda global muammolarni hal etishda qatnashish imkoniyatlariga ega.

4.3. Ijtimoiy himoya va ma‘naviy-madaniy taraqqiyot strategiyasi

Ijtimoiy davlatning eng muhim funksiyalari, ustunlaridan yana biri ijtimoiy himoya va ma‘naviy-madaniy taraqqiyotni ta‘minlashdir. Jamiyat, davlat mavjud ekan, ushbu funksiyalar, obyektiv talab sifatida, mavjud bo‘ladi, ular sotsium mavjudligi va taraqqiyoti kafolati sifatida keladi. Tarixiy manbalar ko‘rsatadiki, hatto quldorlikka qurilgan Rim imperiyasida ham aholining ma‘lum bir qatlamlariga nisbatan ijtimoiy himoya mexanizmi qo‘llanilgan, “non va tomosha” tadbirlarida, maydon va amfiteatrlarda esa madaniy-ma‘rifiy xarakterdagi ommaviy tadbirlar uyushtirilgan²⁰². Bu ijtimoiylik davlatning mudom atributi bo‘lib kelganini tasdiqlaydi. Ammo hozirgi Ijtimoiy davlat ontologik mohiyatiga ko‘ra ham, tashkiliy-institutsional xususiyatiga ko‘ra ham Rim imperiyasidan tubdan farq qiladi. Zamonaviy ijtimoiy davlat qulchilikni, imperator boshqaruvini, sinfiy antogonizmni rad etadi. Uning shiori – ijtimoiy adolat,

²⁰¹ Қаранг: www.xs.uz 2024.11.06

²⁰² Қаранг: Забралова О.С. Социальное государство: понятие, сущность и виды // Актуальные проблемы российского права. 2022. Том 17. 6. С.22.; Чиркин В.Е. Конституция и социальное государство: юридические и фактические индикаторы//Ж.Российское право, 2008, 12. С.28

ijtimoiy tenglik, ijtimoiy himoya va ijtimoiy hamkorlikdir. Bu prinsiplar tagida ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqadigan ixtiyoriy-ijtimoiy kelishuv, konsensus yotadi. Pirovard natijada barcha prinsiplar inson va jamiyatni ma'naviy–madaniy taraqqiyotga eltadi.

Aholini og'ir hayotiy holatlardan olib chiqish, unga kambag'allikdan qutulishga yordam berish alohida institutsional yondashuvni taqozo etadi. Aholining kam ta'minlangan qismini moddiy qo'llab–quvvatlash boqimandalikni yuzaga keltirmasligi uchun bunday aholilarning yagona reestrini shakllantirish kerak edi. “O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish konsesiyasi” (2022, 25 iyul)da “Ijtimoiy himoya yagona reyestr” axborot tizimini joriy etish vazifa qilib qo'yildi. Ushbu hujjatda kambag'al oilalar soni oxirgi uch yilda to'rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetgani qayd etiladi. Nafaqa oladigan bolalar yoshi 14 dan 18 yoshgacha, to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha, nafaqa miqdori 1,5 barobariga oshirildi.

Ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi loyihalar ishga tushirildi. Ijtimoiy himoyani tizimli, institutsional hal etish uchun: birinchidan, moddiy yordamga muhtoj barcha oilalar va shaxslarni qamrab olgan bazani yaratish; ikkinchidan, ijtimoiy sohani raqamlashtirish; uchinchidan, aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarini belgilash; to'rtinchidan, nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma bosqich o'tish; beshinchidan, aholining muhtoj qismlarini protez va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash; oltinchidan, ijtimoiy yordamlarni bevosita mahalla darajasida amalga oshirish tartibini shakllantirish; yettinchidan, moliya vazirligi tarkibida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish; sakkizinchida, aholiga davlat tomonidan bepul ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ro'yxatini va minimal xizmatlar standartini shakllantirish vazifa qilib qo'yildi²⁰³. Ko'rinib turibdi, kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish davlat zimmasiga yuklangan, bu borada u byudjet mablag'larini ishga soladi. Mazkur farmondar oldin Prezident ko'rsatmasiga muvofiq o'zgaralar parvarishiga muhtoj va Yoshi 100 dan oshgan kishilarga uy–joy, kommunal xizmatlarni to'lashlari uchun davlat

²⁰³ Ўзбекистон Республикаси Президентнинг фармони. “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 26 июль.

byudjetidan kompensatsiya ajratish tizimi yo'lga qo'yilgan edi²⁰⁴. Keyinroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ungacha ijtimoiy himoya bo'limlari 6 ta vazirlikda tarmoq sifatida ish olib borgan. Aslida kabag'allikka qarshi kurash 2022-yildan umummilliy tus oldi va "mahallabay" tizimi ishga tushirildi. Har bir shaharcha, qishloq, ovul va mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'milash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi lavozimi ta'sis etildi. Buning natijasida, iqtisod fanlari doktori, professor O.Olimjonovning keltirishicha, 2022-yilning o'zida 1 million aholi kabag'allikdan chiqarilgan. Keyingi yillarda bu raqam yanada oshadi²⁰⁵. Shu tariqa davlat boshqaruvida, alohida institut sifatida, ijtimoiy himoya tizimi shakllantirildi. Bugun u kam ta'minlangan oilalarni va yordamga muhtoj kishilarni hisobga olish, "mahallabay" va "oilabay" tizimlari asosida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yolg'iz qariyalar va nogironlar, boquvchisiz ayollarga moddiy yordamlar ko'rsatish, aholi bandligini uyushtirish, o'zi ishini boshlamoqchi bo'lganlarga kreditlar va subsidiyalar olishga yordam berish kabi vazifalar yuklatilgan. O'tgan olti yetti yil ichida 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurildi, 2023-yilning o'zida 90 ming oila uy-joy bilan ta'minlandi, 2024-yili esa 1 million xonadonli uy-joylar barpo etildi²⁰⁶.

"Imkoniyati cheklangan kishilar" degan tushuncha davlat va jamiyatning nogironlarga bo'lgan tor, bir yoqlama munosabatini ifodalab kelgan bo'lsa, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri o'rinbosari U. Inoyatov, – yangi islohotlar davrida, avvalo Qonunchilik o'zgarib "nogironligi bo'lgan shaxslar" degan tushuncha yuzaga keldi. Shu asosda jamiyat va davlat nogironlarga imkoniyati cheklanganlar deb emas, balki shaxs sifatida munosabatda bo'lishga o'tdi. Bu munosabat uning huquqlari tan olingani va ro'yobga chiqishi uchun imkoniyat yaratganini anglatadi²⁰⁷.

Ijtimoiy himoya institutining falsafiy–huquqiy va ijtimoiy mohiyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

²⁰⁴ Қаранг: www.yuz.uz 2022.29.01

²⁰⁵ Олимжонов О. Тарихнинг янги саҳифасини яратаётган халқ // "Янги Ўзбекистон", 2023, 8 август.

²⁰⁶ Қаранг: www.yuz.uz 2024.08. 08

²⁰⁷ Иноятлов У. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегияси // "Янги Ўзбекистон", 2022, 3 март.

birinchi yo‘nalish – kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash, ijtimoiy nafaqalar belgilash, uy-joyga muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatish;

ikkinchi yo‘nalish – pensiyalar va uzoq muddatli nafaqalar tayinlash;

uchinchi yo‘nalish – mehribonlik, oilaviy bolalar uylarida, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylariga tibbiy–ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Mehr daftari”ga kirgan oilalar va fuqarolarga psixologik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatish;

to‘rtinchi yo‘nalish – haq to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish, davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan ish bilan bandalikni rag‘batlantirish, ish qidirayotgan kishilarni ga o‘rgatish, mehnat migratsiyasida bo‘lgan fuqoralarga ijtimoiy, yuridik va psixologik xizmatlar ko‘rsatish kabilardir.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri ijtimoiy himoyani differensial amalga oshirilayotganidan darak beradi.

Institutsional–differensial yondashuv tufayli konsepsiyada va Prezident farmonlarida “yo‘l xaritalari” joriy etilishi zarurligi uqtiriladi. Videoyig‘ilishlarda davlatimiz rahbari kambag‘allikni qisqartirish muammolari bilan shug‘ullanuvchi yangi tizim ya‘ni vazirlik tashkil etilganiga qaramay Navoiy, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida sezilarli o‘zgarishlarga erishilmaganini bildiradi²⁰⁸. Oilaviy kambag‘allikni qisqartirish beshta tizimda amalga oshirish o‘rnatilgan. Birinchi bosqich–tizimda “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar, shaxslarga moddiy yordamlar ko‘rsatiladi. Ulardagi har bir oilaga ijtimoiy himoya pasporti tuziladi. Ikkinchi tizim – bosqichda har bir oila va yordamga muhtojga individual ijtimoiy himoya dasturi yaratiladi. Uchinchi tizim – bosqichda oila va shaxslar aniq ga o‘qitiladi, ularning ko‘nikmalariga qarab mehnat faoliyati shakllantirildi. Navbatdagi tizim – bosqichda ularga subsidiyalar va kreditlar olishga yordam ko‘rsatiladi. Shu tariqa ijtimoiy himoya aniq maqsad va “yo‘l xaritasi” orqali amalga oshiriladi²⁰⁹. Bu chora–tadbirlar jarayonida 2023–2024-yillarda ikki milliondan oshiq kishilarga ijtimoiy himoya xizmati ko‘rsatildi, kambag‘allik raqami 11 foizgacha qisqartirildi.

²⁰⁸ Қаҳағ: www.yuz.uz 2023.26.01.

²⁰⁹ Қаҳағ: www.yuz.uz 2023.26.01.

Ijtimoiy himoya siyosati jamiyatdagi ma'naviy–madaniy muhitga, kishilar va oilalar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir etadi, ularda gumanistik qadriyatlarni va qarashlarni, faol hayotiy pozitsiya, Uchinchi Renessans g'oyasiga ishonchni shakllantiradi. Shu tarzda inson va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar uyg'unlashadi, shaxslar qalbida Yangi O'zbekistonni va ijtimoiy davlatni barpo etish hayotiy maqsadga aylanadi. Ushbu maqsadning shakllanishiga ma'naviy–madaniy sohadagi islohotlar yuqoridagi tizimli–institutsional chora–tadbirlarni to'ldiradi, ularga gumanistik mohiyat baxsh etadi.

Bugun dunyo xaritasi o'zgarib, Xalqaro va davlatlar o'rtasidagi integratsiya kuchli davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, gegemonistik maqsadlariga aylanmoqda. AQSh va Yevropadagi militaristik, gegemonistik kuchlar uchinchi jahon urushiga bois, sabab qidirayotganlari sir emas. Ularning Xitoy, Rossiya, Shimoliy Koreya, Afg'oniston, Pokiston, Eron, Yaman, Suriya, Iroq kabi davlatlarga nisbatan agressiv xatti–harakatlari xalqlarni, davlatlarni bezovta qilmoqda. Ushbu kuchlarning Markaziy Osiyoni “ikkinchi Bolqon” atayotgani (M.Olkott) behuda emas, ular mintaqamizda ham hududiy, siyosiy nizolar kelib chiqishini bashorat qiladilar. Shunday murakkab vaziyatda ma'naviy–madaniy omillar, ayniqsa, vatanparvar yosh avlodni tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida vatanparvar yosh avlodni tarbiyalash, “har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lib yashash o'tkir zaruratga aylanmoqda” deb uqtiradi. “Buyuk sarkarda davrimizning jang san'ati, harbiy sohadagi bilim va tajribasi, eng muhimi, vatanparvarlik fazilatlarini har bir yurtimiz o'g'loni uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ularning jangovar an'analarini bugun kim davom ettiradi? Sizlar, sizlar kabi millionlab farzandlarimiz, albatta”²¹⁰.

Ijtimoiy davlat–gumanistik davlat, insonparvarlik va yuksak axloqiylik va intellektual salohiyatga ega farzandlari bilan faxrlanadigan davlatdir. Unga zamonaviy harbiy bilim va texnikaviy ko'nikmalarga ega yoshlar ham kerak. Zamonaviy vositalar va harbiy taktika bilan qurollangan armiyaga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy davlatda ham saqlanib qoladi. Demak, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

²¹⁰ www.yuz.uz 2024.01.07.

barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Yoshlarni madaniyat va san‘atga jalb etish, ularning badiiy qobiliyatni rivojlantirish, bo‘sh vaqtini uyushtirish orqali intellektual salohiyatini oshirish ijtimoiy davlatda ham muhim vazifa bo‘lib qoladi. “Madaniyat, san‘at, ilm–fan, ta’lim sohasida o‘zi iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar uchun zarur sharoitlarni yaratish hududlar, vazirliklar va idoralar rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi shart. Shu maqsadda, – deydi davlatimiz rahbari, – Bo‘stonliq tumanida O‘zbekiston metallurgiya kombinatining “Yoshlik oromgohi” negizida yil davomida faoliyat yuritadigan Respublika iqtidorli yoshlar oromgohi tashkil etiladi. Oromgoh, Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar tasarrufida bo‘lib, uning barcha harakatlari “O‘zmetkombinat” tomonidan moliyalashtiriladi. Bu maskanda yoshlarimiz yil davomida aniq fanlar bilan birga, badiiy adabiyot, tasviriy san‘at va musiqa bo‘yicha ham bilim va malakasini oshiradi. Har yili ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha tuman, shahar, viloyat respublika miqyosida festivallar tashkil etiladi”²¹¹. Haqiqatan ham, ushbu ommaviy–madaniy tadbirlar yoshlarning intellektual o‘shishiga yordam beradigan, ularda badiiy–estetik ijod bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantiradigan maktab tizimga aylantirildi. Mazkur pog‘onama–pog‘ona tashkil etiladigan festivallarda o‘zining iqtidorini namoyon qilgan ikki mingga yaqin yoshlar har yili “Yoshlar oromgohi”da malaka oshiradilar, maroqli dam olib, tanlagan sohasi sirlarini egallaydilar.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosini o‘rganish va uning Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan Xalqaro tadbirlar o‘tkazish an’anaga aylandi. Xorijiy tadqiqotchilar va sayohlarning vatanimiz tarixi, madaniyati, ilm–fan bilan qiziqishi “Sharq taronalari” (Samarqand), Hunarmandchilik (Qo‘qon)va Baxshichilik (Boysun)Xalqaro festivallari, “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” Xalqaro kongressi (Samarqand) kabi tadbirlar uyushtirishga undadi. Masalan, IRCICA, ICES O, TURKSOY singari Xalqaro tashkilotlari “Al–Furqon” fondi, Xalqaro Turkiy akademiya mas’ullari hamda dunyoning 35 davlatdan 300 ga yaqin olimlar, mutaxassislar, tadqiqotchilar ishtirokida

²¹¹ www.yuz.uz 2024.01.07.

o‘tkazilgan “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” VIII–xalqaro kongressi (2024, 23–26– avgust) nafaqat milliy madaniyatimizda, shuningdek, xalqaro madaniy–ma’rifiy hayotda muhim hodisa bo‘ldi²¹².

Yoshlar o‘rtasida ilmiy va diniy bilimlarni targ‘ib etish, axborotlar asri kun tartibiga qo‘yayotgan ma’naviy–madaniy va axloqiy muammolarga samarali yechim topish ijtimoiy davlatda ham dolzarb bo‘lib qoladi. Ijtimoiy davlatning barpo etilishi ham aslida ushbu muammolarga yechim topish bilan bog‘liqdir. Yoshlarimizning islom diniga bo‘lgan qiziqishi oshib borayotgani bu borada shu kungacha e’tibordan chekkada qolib kelayotgan diniy–ma’rifiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishga undamoqda. Bizda o‘quv yurtlarida dinshunoslikka oid fanlar o‘tiladi, biroq diniy tasavvurlarning ko‘proq oila va shaxsiy–ruhiy hayotdan joy olgani yetarli eslanmaydi. To‘g‘ri, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ma’lum bir tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Masalan, hojilarni “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyatiga a’zo qilish orqali ularni ma’naviy–axloqiy tadbirlarga tortish tajribasi e’tiborlidir. Hojilardan “Yangi O‘zbekiston fidoyisi” guruhlarini tashkil etildi, unga 15 mingdan ziyod hojilar jalb qilingan²¹³.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori O.Hasanovning keltirishicha, oila–mahalla–maktab–mehnat jamoasi institutsional tizimida ma’rifatchilarning malakasini oshirish, ularni yangi targ‘ibot texnologiyasi bilan qurollantirish, metodik qo‘llanmalar yetkazib berish kabi tadbirlar olib borilmoqda. Bu tadbirlar samarasini aniq raqam yoki statistik ko‘rsatkichlarda berish qiyin, ular jamiyatimizdagi ma’naviy–axloqiy muhitda, yoshlarning vatan tarixi, ilm–fan va dunyoviy bilimlarga qiziqishida aks etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi ijtimoiy davlat manfaatlariga xizmat qilishi aksiomadir. Keyingi yetti yil ichida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlarni alohida tadqiq etish darkor. 2016-yili respublikamizda 62 ta oliy o‘quv yurti bo‘lgan, bugun ularning soni 200 dan ziyoddir. Viloyat markazlari infratuzilmalaridagi yangi oliy o‘quv yurtlari, ularning fakul’tetlari 140 dan ortadi. Ilgari oliy o‘quv yurtlari ochish faqat poytaxt vakolatida edi. Xorijiy va nodavlat universitetlar,

²¹² Қапанг: www.yuz.uz.2024.27.08

²¹³ Қапанг: www.yuz.uz 2024.30.08

filiallarining soni 95 tani tashkil qiladi. Kadrlar tayyorlashni jahon standartlari (ISCED 2011, ISCED 2013, ESG, ENGA) muvofiqlashtirish orqali universitetlar qoshida akademik litseylar, innovatsiya markazlari, texnologik ishlanmalarni amaliyotga joriy etish institutlari, byurolar tashkil qilindi. Oliy ta'limni rivojlantirishning "Universitet 3.0" konsepsiyasi ishlab chiqildi. Agar "Universitet 1.0" faqat ta'lim bersa, "Universitet 2.0" ta'lim berish va ilmiy tadqiqot olib borish, "Universitet 3.0" fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni nazarda tutadi²¹⁴. Oliy ta'lim vazirligiga innovatsiya tizimini qo'shilgani ta'lim va ilmiy tadqiqotlari amaliyot bilan bog'lashning eng maqbul yo'li bo'ldi.

Professional ta'lim tizimi uch turdagi muassasalar: 333 ta kasb-hunar maktabi, 227 ta texnikum va 112 ta kollejlardan iborat. Mazkur tizimdagi texnikumlar soni 600 ga yetkaziladigan bo'ldi. Ilgari kollejlarda turli vazirliklarga qarardi, endi ular Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tarkibida faoliyat yuritadi. Texnikumlar diplomlari 70 davlatda tan olinadi, ularni bitirganlar esa 200 dan oshiq xorijiy universitetlarga kirish imkoniga ega bo'ladi. Kadrlarni o'rganib boruvchi Milliy malaka tizimi, Ta'lim sohasidagi loyihalar ofisi, Milliy malakani rivojlantirish instituti, Vazirlar mahkamasida Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish respublika kengashi, lavozim va kasblar klassifikatorini ishlab chiquvchi ilmiy-amaliy markaz tuzildi²¹⁵. Ta'lim tizimini va undagi institut, universitet va universitetdan keyingi ta'lim tizimini optimallashtirish kun tartibiga turgan vazifalardan biridir. Xalq xo'jaligi uchun qanday kadrlar zarurligini aniq bilmay ta'lim tizimini kengaytirish maqbul yondashuv emas. Kontrakt tartibining joriy etilgani hali respublikamiz xalq xo'jaligi qanday kadrlarga muxtojligini bildirmaydi. Xullas, O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimida modernizatsiya jarayonlari davom etmoqda, ammo ularning ijobiy va salbiy tomonlari, ayniqsa, talab va ehtiyojlarga mosligi masalalari obyektiv, ilmiy tadqiq etilishi kerak.

Ma'naviy-madaniy taraqqiyotning ichki, immanent qonunlari mavjud. U, avvalo, badiiy-estetik ijod, madaniyat va san'at, aholining bo'sh vaqtini va maroqli dam olishini uyushtirish, so'z erkinligi, interaloqalardan foydalanish, sun'iy intellekt, xalqaro va millatlararo

²¹⁴ Қаранг: Ўзбекистонда олий таълим, Ж. 2022, 2 сони; Ўзбекистонда олий таълим. Ж. 2024, 1 сони.

²¹⁵ Қаранг: www.xs.uz 2024.25.09.

madaniy-ma'rifiy aloqalarni yo'lga qo'yish kabilardir. Ijtimoiy davlat bu borada yig'ilgan tajribalarni rad etmaydi, ma'naviy–madaniy sohaning o'zi evolyutsion, vorisiylik prinsipiga muvofiq rivojlanish xususiyatiga ega.

Shuning uchun ijtimoiy davlatni mutlaq yangi siyosiy voqeylik, mavjud tajribalarga tayanmasdan o'zini o'zi shakllantiradigan makon deb taqdim etish noto'g'ri. U milliy–pozitiv tajribalar, xalqaro aloqalardagi ibratli jihatlar, modellar va prinsiplarni o'zlashtirish natijasi bo'lishi mumkin. Ayrim bir sohalarni tub o'zgartirish mumkin. Masalan, aholini uy-joy bilan ta'minlash tizimiga mutlaq yangicha yondashish zarur. Respublikamizda uy-joy qurilishi jadal olib borilayotgan bo'lsa-da, uy-joylar narxi tushmayapti. Kredit tizimi, sodda qilib aytganda, aholi "cho'ntagini qoqish"ga qurilgan, qarzdor umri bo'yi kredit to'lashga majbur. Ba'zi puldor shaxslar 10–15 talab kvartiralar, 3–4 ta dang'illama hovlilar, bir kuni 1,5–2 ming dollar turadigan dachalarga ega. Ulardan deklaratsiya talab etish yo'lga qo'yilmagan. Ijara, sudxo'rlik tizimini ham ijtimoiy adolat prinsipiga qurish darkor, bu soha ham mulkdor shaxslarning yanada boyishiga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy adolatsizlikni avj oldirayotgan mazkur tizimlarni mutlaq yangilash, ularni yangi huquqiy normalar bilan tartibga solish darkor. Biz har qadamda g'arbda unaqa ekan, biz ham shunday qilishimiz darkor, degan yondashuvdan saqlanishimiz kerak. O'zimizning milliy ehtiyojlarimiz va manfaatlarimiz asosiy yo'riq bo'lishi lozim. Ma'naviy–madaniy taraqqiyotga ushbu negizda erishish mumkin.

Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi (2018, 28– noyabr)ga muvofiq O'zbekiston ijodkorlarni qo'llab–quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlar va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali, madaniyat xodimlarini malakasini oshirish instituti, Teatrshunoslar akademiyasi kabi yangi tizimlar, institutlar tashkil etildi. Madaniyat vazirligining "Xalq cholg'ulari ijrochilari", Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" va Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" respublika ko'rik– tanlovlarini an'anaviy tarzda o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Bunday ommaviy-badiiy va ma'rifiy tadbirlar milliy san'atni asrash, boyitish va ma'naviy-madaniy rejalarni hal etishga hissa qo'shadi. Shu

bilan birga, bugun kishilar ongi va dunyoqarashida tez, ba'zan esa noan'anaviy, kutilmagan o'zgarishlar sodir bo'layotganini unutish mumkin emas. Masalan, bugun ikkinchi–uchinchi sinf bolasi axborot texnologiyalaridan foydalanishda, dunyodagi voqeyalar haqida hatto mutaxassislarni ham lol qoldiradigan darajada ma'lumotlarga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugungi yoshlarning miyasi insoniyat yaratgan barcha ma'naviy boyliklar va axborotlarni ma'lum bir “algoritim-model” sifatida qabul qilish barcha ajdodlardan o'zadi²¹⁶. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish esa axborotlar o'zlashtirish doirasini keskin oshirib yuboradi, u hatto ma'naviy-ruhiy jarayonlarni regulyatsiya qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Natijada nafaqat ongni, shuningdek ma'naviy–madaniy tarbiya jarayonlarini ham regulyatsiya qilish mushkul hodisaga aylantiradi. Bu imkoniyatdan esa destruktiv kuchlar, deviant xulq-atvorga moyil shaxslar foydalanib qolishga intilishi mumkin. Ijtimoiy davlatda shunday kuchlar va shaxslar uchramasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Destruktiv ta'sir etadigan buzg'unchi xabarlar, g'oyalardan yoshlarni himoya qilish ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismidir. Demak, yoshlarni ma'naviy-madaniy tarbiyalash ijtimoiy davlatda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, ammo bu jarayon insonning huquq va erkinliklari doirasida, ularning prinsiplarini buzmaganda holda amalga oshiriladi.

4.4. Ijtimoiy davlat institutsional tizimlarini mustahkamlashning ssientik va falsafiy–huquqiy masalalari

Ijtimoiy davlatning institutsional tizimlarini mustahkamlash qator muammolarga alohida e'tibor berishga undaydi. Ular ijtimoiy davlatning, institutsional xususiyatlaridan kelib chiqadigan, funksional xususiyatlaridir. Ularni quyidagi prinsiplar tarzida qarash mumkin:

- davlat institutlarining xalqqa xizmat qilishini barqaror voqeylikka, demokratik prinsipga aylantirish;
- ijtimoiy adolat prinsipidan chekinmaslik;
- ijtimoiy tenglik prinsipiga tayanadigan bozor iqtisodiyotini davom ettirish;
- ijtimoiy himoya prinsipini saqlagan holda barcha fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok ga erishish;

²¹⁶ Қаранг: Психология и информация в XXI веке. Проблемы адаптации и трансформации сознания. Сборник. – Санкт–Петербург: Питер, 2019. С. 142–144.

- ijtimoiy hamkorlik prinsipiga tayangan holda shaxsiy va umumijtimoiy manfaatlarni uygʻunlashtirishni qoʻllab-quvvatlash;
- inson qadri, huquq va erkinliklarini taʼminlash prinsipidan kelib chiqqan holda huquqiy davlat barpo etishni davom qildirish;
- yuksak maʼrifat, madaniyat va intellektualizm eʼzozlanadigan jamiyat taraqqiyot moʻljali, ideali, ijtimoiy davlat esa uning vositasidir. Mazkur prinsiplar tadqiqot jarayonida u yoki bu talqinda yoritildi, mavzular doirasida muhokama qilindi. Biroq ular ijtimoiy davlatni barpo etish va institutsional mustahkamlashning prinsiplari, bir biriga dialektik bogʻliq, ssientik va falsafiy–huquqiy voqeyliklar sifatida endi kun tartibiga qoʻyilmoqda.

1. Davlat institutlarini xalqqa xizmat qildirish demokratiyaning bosh talablaridan biridir. Tashkiliy–institutsional yondashish, yangi tizimlar joriy etish masalaning bir tomoni, uning ikkinchi tomoni demokratiyani amalda taʼminlashdadir. Subyektlar qancha koʻp boʻlsa, xalq hokimiyatchiligini taʼminlash, demokratik boshqarishni joriy etish shunchalik murakkablashadi. Plyuralizm demokratik muhit atributi, ammo u har doim ham demokratiyaga, ijtimoiy taraqqiyotga, manfaatlarni sintezlashtirishga, uygʻurlashtirishga olib kelavermaydi. Inson ongi va ijtimoiy borliqning murakkabligi, ziddiyatli ekani demokratiyani oʻyinga yoki xayolot mahsuliga aylantirishi mumkin. Bugun liberal–demokratik gʻoyalar maskani boʻlgan Yevropa demokratik ideallarini tor guruhlar oʻyiniga aylantirgan, u inson huquqlari niqobi ostida oʻziga maʼqul kelmagan davlatga, AQSh rahnamoligida, agressiya uyushtirishga tayyor. Vetnam, Yugoslaviya, Iroq, Suriya, Afgʻoniston, Eronga uyushtirilgan tajovuzlar gʻarbning demokratiya haqidagi “lof”lari boshqa-yu amallari boshqa ekanini tasdiqlaydi. Ushbu tajovuzlar beiz ketmaydi, ular liberal-demokratik gʻoyalarga ishonchsizlik, shubha uygʻotadi, gʻarbning siyosiy modellarini, shu jumladan, ijtimoiy davlat haqidagi farazlarini ham yoʻqqa chiqaradi. Ammo gʻarb faylasuflari Kant, Monteske, Lokk, B.Rassel, A.Shveysar, G.Toro, D.Dyui, E.Fromm, R. Aron, K.Popper, R.Dal, R.Xaas, A.Rend demokratik qarashlarining tajovuzlarga aloqasi yoʻq. Ularga ssientik va falsafiy-huquqiy meros sifatida murojaat etish davom qiladi, milliy demokratik taraqqiyot esa oʻzining tarixiy-madaniy va etnosiyosiy paradigmasiga muvofiq keladigan modellar qidirishda davom

etadi. Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan ijtimoiy davlat ana shunday izlanishlar mahsuli bo'ladi.

Umumiy demokratiya bilan milliy demokratik taraqqiyot modellari o'rtasida farq bor. Umumiy demokratik qadriyatlar yuqoridagi mumtoz faylasuflarning merosidan, g'arb erishgan, gumanistik mohiyatga ega siyosiy tajribalar (masalan, hokimiyatning uchga bo'linishi, monarxiya o'rniga respublika boshqarishining o'rnatilishi, so'z erkinligi, siyosiy partiyalar tuzish va hokimiyat uchun kurash)dan foydalanish milliy demokratik modellarning shakllanishi uchun zarur. Biroq g'arb modellariga siyosiy yetuk andoza, namuna sifatida qarash milliy tajribalarni kamsitishga olib kelishini unutmaslik kerak. G'arbg mahliyolik milliy modellarni rad qilishi mumkin emas. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy davlat barpo etish modeli umumdemokratik va milliy demokratik qadriyatlar uyg'unligi mahsuli bo'ladi. Uning birinchi prinsipi, davlat institutlarini xalq manfaatlariga xizmat qildirishdir. Bu borada:

- institutsional o'zgarishlar, yangi boshqarish tizimlarini joriy etish byurokrtiyaga olib kelmasligi;
- institutlar (vazirliklar, agentliklar, hokimliklar, umuman siyosiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tizimlar) rahbarlarini tayinlashda vertikal yondashuvdan gorizontal yondashuvga o'tish;
- markaziy institutlarning ayrim funksiyalarini mahalliy institutlarga o'tkazishni izchil davom ettirish;
- institutlar va rahbarlar faoliyatini ijtimoiy nazorat qilish tizimini yaratish;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro hokimiyati tizimlarini aniqlashtirish hamda ular faoliyatini baholash tizimini ishlab chiqish;
- demokratik taraqqiyot indekslarini yaratish va ularning natijalarini matbuotda e'lon qilib borish tajribasini qo'llash;
- boshqaruvdagi rahbarlar, xodimlar shtat birligini tuman, shahar, viloyat va markaz tizimida shakllantirish;
- joylardagi xo'jalik subyektlarining faoliyatini qayta ko'rib chiqish va ulardagi davlat ulushini xususiylashtirishning huquqiy (yuridik) mexanizmlarni yaratish;

– davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish kerak. Mazkur yo‘nalishlardagi asosiy vazifalar Prezidentimizning “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirish” (2021, 10 –fevral), “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” (2022, 21-dekabr), “Respublika ijro etuvchi xokimiyat organlari faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora–tadbirlar to‘g‘risida” (2023, 25-yanvar)gi farmonlarida ko‘rsatilgan. Ssientik va falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan ular ijtimoiy davlatning ilmiy va bazaviy–yuridik talablari sifatida qaralishi mumkin.

Davlat institutlarining xalqqa xizmat qilishi qandaydir reja, tadbir yoki farmon bilangina amalga oshirilmaydi, u inson va jamiyat hayotining, aloqalarining permanent davomidir. Unga kundalik hayotdan tortib to davlat rahbariga murojaatgacha, o‘zini o‘zi boshqarish organi faoliyatida qatnashishdan tortib to Oliy Majlis qarorlarini baholashgacha bo‘lgan jarayonlar kiradi. Bugun ijtimoiy hayoti davlat, uning institutlari bilan bog‘liq bo‘lmagan fuqaro uchramaydi, ijtimoiy munosabatlarning davlat institutlari orqali yo‘lga qo‘yilganining o‘zi davlat va shaxs aloqalari ijtimoiy davlat negizini tashkil etishini anglatadi. Bu aloqalar sekinlashmaydi, balki, aksincha, yanada faollashadi. Shunday ekan, ijtimoiy davlat modeli markazida davlat va shaxs aloqalari turadi. Davlatning qaysi prinsiplarni ustuvor tutishi ana shu aloqalarning yo‘nalishiga yoki yo‘naltirilganligiga bog‘liqdir. Gipotetik tarzda bu aloqalar shaxs–davlat–taraqqiyot tizimidan iborat demokratik prinsipdir. Shaxs va Taraqqiyot o‘rtasida Davlat, ular manfaatlariga xizmat qiluvchi institut sifatida, turadi. U amal qiladigan demokratik tartiblar va qabul qiladigan qonunlar, yuridik dasturlar birinchidan, uning o‘zini xalqqa yaqinlashtiradi, ikkinchidan, taraqqiyotni ta‘minlaydi. Mazkur demokratik prinsipni barqaror voqeylikka aylantirishdan, avvalo, xalqning o‘zi manfaatdor, institutsional o‘zgarishlar tashabbuskori bo‘lishi darkor. Davlat institutida o‘z suverenligini mutlaqlashtirishga moyillik mavjud, xalq uning faoliyatiga befarq bo‘lgan zahoti u g‘ayridemokratiya tomonga burilishi, xalqqa xizmat qilishdan yiroqlashishi mumkin. Xalqda siyosiy sergaklikni shakllantirish uchun o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tashkil etiladi.

2. Ijtimoiy adolat–ijtimoiy davlat tayanadigan ustuvor prinsiplardan biridir. Undan chekinish ijtimoiy davlat barpo etishni shubha ostiga qo‘yadi. Ammo, tajriba ko‘rsatadiki, davlat hokimiyatida undan chekinishga boislari ham, imkoniyatlar ham ko‘p. Ulardan oddiy kishilar, xalq voqif bo‘lavermaydi. XXasrning 30 yillarida nemis davlati boshiga kelgan Gitlerning natsionalizm g‘oyasi xalqni qanday chalg‘itganini eslash o‘rinlidir. Agar xalqning siyosiy sergaklikni shakllangan va davlatni nazorat qilishi mumkin bo‘lganida ikkinchi jahon urushi kelib chiqmasdi. Ijtimoiy adolatni qaror toptirish faqat davlat institutining mahsuli, natijasi bo‘lolmaydi. U, avvalo, ko‘pchilikning, xalqning irodasi orqali qaror topadigan prinsipdir.

Ijtimoiy adolat keng voqeylik bo‘lgani uchun uni goho uni mavhumlashtirishga moyillik kuzatiladi. Ssiyentik va falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan u qonun talablari in‘ikosidir. Ijtimoiy davlat qonunlari orqali adolat o‘rnatishni burchi hisoblaydi. Bunday talqinda qonunni adolat bilan aynanlashtirish, qonundan chekinishni esa adolatdan chekinish tarzida tushunish kelib chiqishi mumkin. Ammo xalq talqinida adolat ezgulik, zo‘ravonlikni tiyish, tenglik, ijtimoiy tartib, yon bosish, uyushqoqlik kabi ijtimoiy–axloqiy imperativlardan iborat voqeylikdir. Qonun talqini bilan xalq talqini o‘rtasidagi farq ijtimoiy adolatni ichki ziddiyatlarga to‘la voqelik sifatida rad qilishga olib kelmaydi. Ijtimoiy davlatda qonunlar xalq tasavvurlari va an‘analariga zid tarzda qabul qilinmaydi, ammo mutlaq ular amrida ham qolmaydi. Qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishning o‘z texnologiyalari bor, ular goho mavjud tasavvurlar va an‘analarga mos kelmasligi mumkin.

– Ssiyentik va falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan ijtimoiy davlatda ijtimoiy adolat:

– umumijtimoiy xarakterga ega yuridik va axloqiy imperativlar uyg‘unligi mahsuli sifatida qaror topadi;

– ijtimoiy adolatning bosh subyekti xalq bo‘ladi, davlat instituti ushbu xalqning irodasini ifoda etadi, bu esa demokratik asosdir;

– qonun ijtimoiy adolatning yagona asosi va kafolati emas;

– ijtimoiy davlatda yuridik institutlarni gumanizatsiyalashtirish ijtimoiy adolatdagi insonparvarlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash orqali ro‘y beradi;

– adliya va boshqa davlat institutlari faoliyatini adolat mezonlari(indekslari)orqali baholash tartibi shakllantiriladi;

– adolat institutlari tarmog‘i kengayadi, mahalla, qishloq, ovul markazlarida, maktab, kollej va o‘quv yurtlarida yuridik maslahatxonalar (maslahatchilar) paydo bo‘ladi;

– ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga yordamlashishga da‘vat etilgan xalq qabulxonalarining institutsional zarurligi o‘ylab ko‘riladi.

Ijtimoiy adolatni qonunlar va institutlarni ko‘paytirish bilan qaror toptirish qiyin. Bizda yangi tizimlar va institutlar kashf etish an‘anaga aylanib qoldi, ammo ularning samarali ishlatish mexanizmlari yetarli shakllantirilmagan. Masalan, Chirchiq shahrida Mahalla fuqarolar yig‘ini, profilaktika xodimlari, Qo‘riqlash xizmati, Milliy gvardiya xodimlarining birgalikda ishlash tizimi 2022-yilda yo‘lga qo‘yildi. Milliy gvardiya yig‘itlari kunduzlari bozor va uylar atrofini aylanib yurishdi. Qo‘riqchilar soni ko‘paydi, ammo shaharda qonunbuzarlik va jinoyatlar soni kamaymadi. Tizim bor samara yo‘q. Nafaqaga chiqqan Mahalla oqsoqollarida harakatchanlik, kuyunchaklik, mahallam deb yashash yo‘q. Umrida biror marta mahallaga kelib hol so‘ramagan shaxslar Oliy Majlisga “saylangan”. Shahardagi yoshlarning yarmidan ko‘pi ishsiz, chorasizlik, ishsizlik bois o‘g‘irlik, ichkilikbozlik va deviant xulq-atvor keng tarqalgan. Prezidentimiz deydi” bizda rahbar ko‘p, mas’ullar ko‘p, lekin xalqning dardi bilan shug‘ullanadigan odam yo‘q. Hamma qarorlarni bajarsa bo‘ladi. Eng katta kamchilik– nazorat yo‘q, vazirlar, hokimlar o‘zini qiynamaydi”²¹⁷. To‘g‘ri, rivojlanishdan ortda qolayotgan tumanlar soni 2021-yili 33 ta, mahallalar soni 970 ta edi, 2024-yilga kelib ular 14 va 307 taga tushdi. Bu davlat hokimiyati institutlarining sa‘y-harakatlari tufayli, albatta.

Ijtimoiy adolat qonunlarga rioya etish va ijro intizomi orqali qaror topadi. Qonunlarning va ijro intizomining buzilishi ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonchni susaytiradi. Mas’uliyatsizlik pirovard natijada adolatsizlikka olib keladi.

Ba‘zi kishilarda adolatsizlikni yengish sindromi, ya‘ni qancha to‘siq va adolatsizlik bo‘lsa shuncha shasht, dadillik bilan adolatga intilish kuchli bo‘ladi. Bunday kishini hech nima, hatto hayotiga tajovuz ham to‘xtatolmaydi. Ammo ko‘pchilikda, xalqda adolatga ratsional yondashish, o‘z huquq va erkinliklarini izchil, asta-sekin himoya qilish instinkti

²¹⁷ www.yuz.uz

ustuvordir. Mazkur bosqlik qulay payti kelganida to‘fonga, isyonga aylanishi ham bor.

O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va Prezidentimizning davlat boshqaruvi, rahbarlarining ijro intizomi, aholining murojaatlardan ijtimoiy adolat talab etayotganlari haqidagi qator farmon va qarorlarida ko‘rsatilgan vazifalar muammoning qanchalik dolzarbligini tasdiqlaydi. Qonunlarga rioya etish, ijro intizomi qoniqarsiz bo‘lib qolayotganini tanqidiy tahlillar tasdiqlaydi. Masalan, ijro etuvchi hokimiyat institutlari faoliyatini nazorat qilish yetarli shakllantirilmagan. Ikkinchidan, ko‘pgina qonunlar va ularni anglash, tushunish va amal darajasi raxbarlarda yetarli emas. Qonunlar iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazilavermayapti. Uchinchidan, qabul qilinayotgan hujjatlar mansabdor shaxslar tomonidan o‘rganilavermaydi. To‘rtinchisi, shaxsiy so‘rov va qat’iy talabchanlik o‘rniga ko‘plab ma’lumotnomalar va ma’lumotlar to‘planmoqda. Beshinchisi, boshqarish institutlarida ijro intizomini talab qilish o‘rniga o‘rta va quyi bo‘g‘in mutaxassislarga liberal munosabat shakllangan²¹⁸. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun Prezident tomonidan samarali, tezkor, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy mexanizmlar bilan ta’minlangan “yo‘l xaritalari” ishlab chiqish, “ijro.uz” dasturini ishga tushirish, rahbar faoliyatiga oid OAV xabarlarini inobatga olib borish tartiblari ishga tushirildi. Bu yo‘nalishlar jamiyatda ijtimoiy adolat prinsipini qaror toptirish zarur. Shuningdek, Prezident tashabbusi bilan Davlat xizmatlarini uyushtirish tizimi shakllantirildi. Mazkur tizim zimmasiga bir–birlarini takrorlovchi, o‘z vakolatiga taalluqli bo‘lmagan vazifalarni bajaruvchi, davlat boshqaruvi va xo‘jalik funksiyalarini birga qo‘shib olib borish amaliyotidan qutulish, soha xodimlariga munosib ish haqi to‘lash, fuqarolarning murojaatlariga o‘z vaqtida adolat prinsiplarga muvofiq javob berishni ta’milash kabi vazifalar yuklatildi. Natijadorlik rahbarlar faoliyati mezoni qilib belgilandi. U xalqaro reyting va indekslar bilan uyg‘unlashtirildi. Prezident huzurida tashkil etilgan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tuman, shahar hokimlari faoliyati iqtisodiyot, investitsiya kiritish, qurilish, yoshlar bandligi va bo‘sh vaqtining uyushtirilishi, mahalla hayoti, aholining ular faoliyatidan qoniqishi kabilar asosiy indikatorlar qilib olindi. Shuningdek, shaharlarning qiyosiy ko‘rsatkichlari qilib: Respublika byudjetiga (kontingent) prognoz tushumini ta’minlash, “Yashirin iqtisodiyot” ulushini

²¹⁸ Қапай: www. yuz.uz

qisqartirish, Bandlikni ta'minlash orqali aholining doimiy daromad manbasini shakllantirish, To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, Mahsulotlar eksporti hajmini oshirish, Jamoatchilik fikri asosida qurulish ishlarini amalga oshirish (open budget tizimi), Go'daklar o'limini qisqartirish kabilar tasdiqlanadi²¹⁹. Mana shu ko'rsatkichlar pirovard natijada u yoki bu hududda ijtimoiy adolatning ta'minlanganini ifoda qiladi.

3. Ijtimoiy davlatda ijtimoiy tenglik prinsipiga tayanadigan bozor iqtisodiyotini davom ettirish obyektiv zaruratdir. Bozor iqtisodiyoti raqobatni, mulkiy notenglikni, tadbirkor va biznes egalarini mulk orttirishini qo'llab-quvvatlaydi. Mulkiy notenglik siyosiy notenglikka aylanishi mumkin. G'arbdagi ijtimoiy davlatlarda mulkiy notenglik tabiiy hol hisoblanadi. Mulkiy notenglik siyosiy notenglikka olib kelgani tufayli saylov tizimi, xayriya, homiylik va valonterlik, progressiv soliq kabilar amal qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy davlat fuqarolarning xususiy mulkka ega bo'lishini, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarni shakllantiradi. Mulk huquqi ijtimoiy tenglik prinsipini qaror toptirishning samarali usuli hisoblanadi. Xususiy mulkka ega kishilar o'zi mehnatining samarasini ko'radi, farovon yashash imkonidan foydalanadi, boshqalarning mulkiga tajovuz qilishdan tiyiladi. Shu nuqtayi nazardan mulk huquqini ijtimoiy tenglikka erishi kafolati deyish mumkin.

Ijtimoiy davlatda mulk huquqi inson huquq va erkinliklarining tarkibiy qismi hisoblanadi va u maxsus qonunlar, normativ hujjatlar hamda institutlar orqali himoya qilinadi. Keyingi yetti yil ichida mulk huquqini ta'minlashga oid 160 dan ortiq huquqiy-normativ hujjat, Prezidentning 30 dan oshiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Ular ichida Prezidentimizning 2022, 2023-yillardagi Oliy Majilis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomalari, "Mulk xuquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini eslash mumkin. Konstitutsiyaviy islohotlardan keyin ijtimoiy tenglikni qaror toptirish maqsadida ssientik va falsafiy-huquqiy ahamiyatga ega quyidagi institutsional tartiblar joriy etildi:

birinchidan, mulk huquqini cheklash endi faqat sud qarori bilan amalga oshirildi;

²¹⁹ Қапaғr: www.xs.uz

ikkinchidan, konstitutsiya va normativ hujjatlarga xususiy mulk daxlsiz, degan moddalar kiritildi;

uchinchidan, mulkdorlarga yetkaziladigan zararlar va ziyonlar davlat tomonidan qoplab beriladigan bo'ldi;

to'rtinchidan, ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestri hamda ko'chmas mulk obyektlari haqidagi ma'lumotlar Kadastr va ko'chmas mulklarini ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimiga o'kazildi;

beshinchidan, aholining huquqiy-moliyaviy va mulkiy savodxonligini oshirish masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy-amaliy markazlarni shakllantirishga qaror qilindi²²⁰.

Bozor iqtisodiyoti kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan ijtimoiy tenglik prinsipini qaror toptirish imkoniyati sifatida foydalanadi. Bu, ssientik va falsafiy–huquqiy nuqtayi nazardan, bir birini to'ldirib keladigan jarayonlaridir. Ijtimoiy davlatning ijtimoiy tenglikni qaror toptirish prinsipi kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga undaydi. Postindustrial davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotlarni yaratishdagi ulushi 80–85 foizni tashkil qilganida u O'zbekistonda 55 foiz atrofidadir²²¹. Kichik biznes va Tadbirkorlar sub'ektlarining soni yildan yilga oshib bormoqda. Masalan, 2016-yilda ularning har ming kishiga soni 13,2 kishi, 2019-yili 13,3 kishi, 2022-yili 17,9 kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu raqam, 2024-yil boshiga kelib 18,2 kishidan iborat bo'lgan²²². Bu, ayniqsa, mehnat zahirolari yuqori O'zbekiston uchun, uncha yuqori ko'rsatkich emas. Shuning uchun ham iqtisod fanlari doktori, professor M.Eshov yurtimizda kichik biznes va tadbirkorlik yo'nalishi qo'shiq davlatlanikiga nisbatan sekin rivojlangan, ko'rsatkichlar sezilar–sezilmas darajada bo'lgani, katta–katta bizneslar ma'lum insonlar qo'lida bo'lib, aholining asosiy qatlami ular qo'l ostida ishlaganini ko'ramiz. Oddiy odamlar uchun tadbirkorlik uddalab bo'lmas mashaqqatdek ko'rinadi. Yuqori boj to'lovlari, yer olish, korxona ochishdagi qator to'siqlar, bir amallab biznesni yo'lga qo'yish olganda ham har kuni eshik qoqadigan soliqchilarga dosh berish oson emasdi. Shu

²²⁰ Қаранг: Тешабоев А. Юксак мақсадларга фақат халқни рози қилиш орқали эришилади// “Янги Ўзбекистон”, 2023, 10 январь.

²²¹ Қаранг: www.xs.uz 2023.08.09.

²²² Қаранг: www.yuz.uz 2023.16.12

bois ham odamlar tadbirkorlik. qilishdan ko'ra "och qornim, tinch qulog'im" qabilida ish tutishni afzal bilgan"²²³.

Ijtimoiy tenglikning siyosiy jihatlari ko'proq savollar uyg'otadi. Saylov tizimi ko'pchilikning tengligidir. Ozchilikning huquqlari qanday ta'minlanadi? Ozchilikni ko'pchilikka bo'ysundirish inson huquq va erkinligini paymol qilishga, mensimaslikka olib kelmaydimi? Saylov natijalarini falsifikatsiyalashchi? Saylovchilarni sotib olishchi? Rahbarlarni tayinlash prinsipini mutlaqlashtirish demokratiya prinsipiga zid emasmi? Rahbarlar faoliyati muddatini chegaramaslik kadrlar o'sishiga g'ov bo'lib qolmoqda. Mazkur muammoni ijtimoiy tenglik prinsipi nuqtayi nazaridan qanday hal qilish mumkin? Ssientik va falsafiy-huquqiy tadqiqotlar ushbu muammolarni o'rganishi, ijtimoiy davlat taraqqiyoti talablariga muvofiq javob va yechimlar topishi kerak. Ming afsuski, bugun nazariya amaliyotdan, obyektiv borliqdagi o'zgarishlardan orqaga qolmoqda.

4. Ijtimoiy hamkorlik prinsipiga asoslangan holda shaxsiy va umumijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga erishish ijtimoiy taraqqiyot kafolatidir. Ijtimoiy davlatning institutsional va funksional shakllanishi, rivojlanishi mazkur prinsipni amalda tasdiqlash, qaror toptirish va unga muvofiq keladigan huquqiy, ma'naviy makonni yaratishdadir. Ijtimoiy davlatda huquq va axloqning yetakchi bo'lishi aksioma, ammo ularni uyg'un ijtimoiy voqeylikka aylantirish, davlat va nodavlat institutlari faoliyatiga singdirish oson emas. Bu o'rinda yuridik qarorlar yetarli emas, ijtimoiy borliqda shunday huquqiy va ma'naviy muhit yaratish, shakllantirish zarurki, unda har bir inson, har bir institut o'z faoliyatini shaxsiy va umumijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirishdan manfaatdor bo'lsin. Ma'naviy va ijtimoiy-axloqiy imperativlar yuridik voqeylikni, qonunlarni o'z ketidan ergashtirsin. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy davlat yuksak axloqiy, insonparvar davlatdir.

Ijtimoiy davlatda ham egoistik mayllarga ergashuvchi shaxslar va guruhlar bo'ladi, ular ba'zan umumijtimoiy manfaatlarni inkor etib, individualizm va konformizmni himoya qilishi mumkin. Insondagi ijtimoiy borliqqa, o'zgarishlarga moslashish, adaptatsiya ko'nikmasidan kelib chiqib ularga pedagogik-psixologik ta'sir etish mexanizmlardan foydalanish zarurati paydo bo'ladi. Bu nafaqat manfaatlarni uyg'unlashtirishga, shuningdek, insonni tarbiyalash kompleksiga ham taalluqlidir. Insonni kamol toptirish avvalgidek azaliy muammo bo'lib

²²³ Қаранг: Эшов М. Бугунги Ўзбекистон кечаги Ўзбекистон эмас// "Халқ сўзи", 2023, 8 сентябрь.

qolaveradi. Ideal izlash esa zavqli, sermashaqqat, goho iztirobli vazifa bo'lib kelgan, ushbu izlanishga yanada gumanistik va intellektalistik mohiyat baxsh etish taraqqiyot maqsadidir. Ushbu maqsadga xizmat qilish inson va ijtimoiy davlat institutlari faoliyatini oliyjanob, ezgu va insonsevar qiladi.

5. Inson ideal izlab, o'z taraqqiyotini belgilab, oliyjanob maqsadlarga intilib yashaydi. Ijtimoiy davlat ana shu ideal tomon yo'ldir. Ma'lumki, ideal tayyor holda topilmaydi, topilgan ideal esa mukammal bo'lavermaydi, yangi davr unga yangicha yondashishni taqozo etadi. Inson uchun muhimi idealdagi oliyjanob maqsadni anglashi va uni o'z hayotiga, amallariga singdirishidir. Ijtimoiy davlatning bosh xususiyati insonga bu borada yordam berishi, uning oliyjanob maqsadini iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-axloqiy mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlashidadir.

XULOSA

Mazkur monografiyada quyidagi umumnazariy xulosalarga kelindi:

1. Ijtimoiy davlatning asosiy funksiyalariga ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy siyosat yuritish, ijtimoiy tenglikka erishish, ijtimoiy farovonlikka yerishish va ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish kabilar kiradi. Ijtimoiy davlatni ushbu tamoyillar sintezi orqali tadqiq etish uning fundamental ahamiyatga ega jihatlarini anglashga yordam beradi.

2. Ijtimoiy adolatni ta'minlash insoniyatning azaldan orzusi, ideali bo'lib keladi. Ushbu ideal modelni real modelga aylantirish, obyektivlashtirish ijtimoiy davlatdan qator vazifalarni, ayniqsa muammoning ijtimoiy-huquqiy asoslari yaratishni, ular imkoniatlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Huquq va adolat, ularni uyg'unlashtirish, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga yo'naltirish ijtimoiy davlatning huquq imkoniyatlaridan samarali, ratsional va demokratik tarzda foydalanishi mahsuli bo'ladi. Shuning ushun sof ijtimoiy davlat yo'q, u mudom ijtimoiy adolat tamoyillari va ularni ta'minlovchi huquq mexanizmlari bilan uyg'un, hatto ularni taqozo etib keladi. Shu ma'noda ijtimoiy davlat huquqiy davlatdir.

3. Ijtimoiy himoya siyosati ijtimoiy davlatni boshqa davlat shakllaridan keskin farqlovshi funksiyadir. Zamonaviy davlatlarda tengsizlik, tabaqalanish, aholi bir qismining kambag'allashishi avj olayotgani kuzatiladi. Hatto ijtimoiy davlatchilik tamoyilini o'tgan asrda e'lon qilgan ayrim g'arb davlatlarida ham qashshoqlik saqlanib qolmoqda, hatto u yildan yilga oshish xususiatiga ega. Shunday paytda ijtimoiy himoya va ijtimoiy tenglikni ta'minlash funksiyalariga e'tibor berish obyektiv zaruratga aylanadi. Buni ilg'agan ijtimoiy davlat o'zining kuchli ijtimoiy himoya va ijtimoiy tenglikni ta'minlash siyosatini o'ylab chiqadi va uni izshil amalga oshiradi.

4. Ijtimoiy tenglik kishilarning iqtisodiy va moddiy tengligini anglatmaydi, u, avvalo, siyosiy va huquqiy tenglikdir. Ijtimoiy davlatda ham iqtisodiy va moddiy notenglik, stratifikatsiya va differensiatsiya qonunlariga muvofiq, saqlanib qoladi, ammo u aholi qashshoqlashib ketmasligining oldini oladi. Badavlat va farovon yashash har bir insonning istagi va huquqidir, biroq obyektiv shart-sharoitlar va mehnat resurslaridan foydalanishdagi notenglik ayrim qatlamlarning qashshoqlashishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy davlat ushbu omilni ko'ra bilishi, hisobga olishi va qashshoqlikka qarshi chora-tadbirlar ko'rishi zarur.

5. Ijtimoiy farovonlikka erishish mehnatga layoqatli barcha fuqarolarning ijtimoiy mehnat jarayonlarida faol qatnashishini shart qilib qo'yadi. Buning negizida ijtimoiy hamkorlik, ya'ni startifikatsiyalarning integratsiyalashuvi, jamiyat taraqqiyoti ushun mehnat jarayonida hamkorlik qilishi yotadi. Bunday hamkorlik faqat iqtisodiy hayotga taalluqli emas, u jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarga taalluqlidir. Ijtimoiy davlat ijtimoiy hamkorlikni uyushtirib, jamiyatdagi ahillik va ittifoqni ta'minlaydi, taraqqiyotni umumxalq harakatiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетейя, 2019, С.4.
2. Новая философская энциклопедия. В 4 томах. 2 е изд. – Москва: Мысль, 2010; [https // cfs. hse. ru social–disc–O](https://cfs.hse.ru/social-disc-O).
3. Артхашастра или наука политики. – Москва: Изд. АН СССР, 1959. с.6–32.
4. Бичехвост А.Ф. Политическая мысль Древнего Востока // Ж. Правовая политика и правовая жизнь. 2009, №4. С.195.
5. Древнекитайская философия в двух томах. – Москва: Мысль, 1972; Ли Сюй. Концепция справедливости в философских школах Древнего Китая “Преподаватель XXI век”. 2013 С.230–238.
6. Қаранг: Алимасов В. Конфуцийлик ва Шарқ давлатчилиги. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр., 2006. –30 б.
7. Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО “Юридический центр Пресс”, 2012; Верховенство права и правовое государство: проблемы теории и практики. Материалы X Международной научно теоретической конференции (13–16 апреля 2015 г.) – Москва: РГУП, 2016; Шарифходжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2012.
8. Аристов Е.В. Социальное государство: исторический аспект. Монография. – Москва: IUNITI DANA, 2021; Кричинский П.Е., Морозова О.С. Основы социального государства. Учебное пособие. – Москва: Инфра М., 2017.
9. Поппер К. Открытое общество и его враги.Том 1. – Москва: Культурная инициатива, 1990. С.128.
10. Игнатенко А.А.В поисках счастья. Общественно–политические воззрения арабо–исламских философов средневековья. – Москва: Мысль, 1989.
11. ru.m.wikipedia.org.
12. Қаранг: Гриценко Н.Н., Волгин Н.А., Попов Ю.Н., Шарков Ф.И., Шурус А.А. Основы социального гсударства. Учебник. – Москва: Изд. дом АТиСО, 2016. С.24.

13. Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ. – Тошкент: Фан, 1999. 23–26 б; Отамуродов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафси. Дарслик–Тошкент:ILM–ZIYO–ZAKOVAT, 2025.479–484б.
14. Қаранг: Кричинский П.Е., Морозова О.С. Основы социального государства. Учебное пособие. – Москва: Инфра. М., 2017. С. 57–59.
15. Қаранг: Гриценко Н.Н., Волгин Н.А., Охотский Е.В., Ппов Ю.Н., Шарков Ф.И. Основы социального государства. Учебник. 2 изд. – Москва: Изд. корпорация “Дашков и К”, 2019. С.35 – 36; Бочарев М.П. От социальных ценностей к социальному государству. – Москва: Луч, 1997 С.125 – 128.
16. ru.m. wikipedia. org.
17. Қаранг: Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетейя, 2019, С.4.
18. Қаранг: Новая философская энциклопедия. В 4 томах. 2 е изд. – Москва: Мислы, 2010; [https // cfs. hse. ru social–disc–O.C.47–51](https://cfs.hse.ru/social-disc-O.C.47-51)
19. Гартман Н. Познание в свете онтологии//Западная философия. Итоги тысячелетия. – Екатеринбург: Бишкек: Илим, 1997. С.469–470.
20. Қаранг: Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО “Юридический центр Пресс”, 2012; Верховенство права и правовое государство: проблемы теории и практики. Материали X Международной научно теоретической конференции (13 16 апрля 2015 г.) – Москва: – РГУП, 2016; Шарифходжав М. Ўзбекистонда очик фукаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2012. С.184–186.
21. Қаранг: spvochnik.ru
22. Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО ридический центр Пресс”, 2012.
23. Қаранг: Отамуродов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафси. Дарслик. – Тошкент: ILM–ZIYO ZAKOVAT, 2025, 296–297– б.
24. Салмин А.М. Современная демократия: очерки становления. – Москва: Интер пресс, 1997; Ильин В.В.Политология. – Москва: “Книжный дом” Университет, 1999; Дзоло Д. Демократия и сложность: реалистический подход. – Москва: Изд. дом. Гос. Университета Высшей школы экономики, 2010; Сохань И.

Философия благотворительности. Счастье и грех. – Киев: “Науково думка”, 2010.

25. dw.com

26. Салмин А.М. Современная демократия: очерки становления. – Москва: Интер пресс, 1997; Ильин В.В. Политология. – Москва: “Книжный дом” Университет, 1999; Дзоло Д. Демократия и сложность: реалистический подход. – Москва: Изд. дом. Гос. Университета Высшей школы экономики, 2010; Сохань И. Философия благотворительности. Счастье и грех. – Киев: “Науково думка”, 2010.

27. Конституция Соединенных Штатов Америки. – Москва: Инфра М., 1997. С.3.

28. Алексис де Токвиль. Демократия в Америки. – Москва: Наука, 1976.

29. Власихин В.А. Американский конституционализм // Ж. США Канада: политика, экономика, культура, 1999, № 10. С.69–76.

30. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>.

31. Флинт Г.С. Политика, секс, ложь. – Москва: Альфа пресс, 2008.

32. Глигич Золотарева М.В., Кирюхин К.С. Демократия в Америке? <https://doi.org/10.21686/2073-1051-2021-3-142-168>.

33. <https://spravochnik.ru/socialnaya>

34. Правовая библиотека.lagalns.com

35. Сафонов В.Е. Европейский конституционализм и его рецепция в североамериканских колониях Англии // Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г.Белинского. Ж. “Общественные науки”, 2012, №25. С. 157.

36. История государства и права зарубежных стран. Часть 1. – Москва: Норма Инфра М., 2001. С. 17). Бундай шароитда демократия ва демократик ҳуқуқ ҳақида гапириш қийин. Бироқ кейинги йилларда ўтказилган илмий изланишлар “шарқ деспотияси” ҳақидаги фикрларни рад қилади. Масалан, Қадимги Бақтрия ва Сўғд давлатларида конфедерация бошқаруви бўлганини тасдиқлайди

37. Бисмарк фон Отто. Афоризми немецкого канцлера. – Москва: Эксмо, 2019. С. 113.

38. Қаранг: <https://aussiedlerbote.be> Ве 2022/09

39. История этических учений. Учебник. Под ред А.А.Гусейнова. – Москва: Гардарики, 2003. С.263.
40. Сафронов А.В. Правовое беззоснательное: Русская правовая картина мира // Логос, 2002, №1. С.8.
41. Анисимов А.С., Агеева М.А. Понятие справедливости в современной социологии // Социология, 2011, №1. С.259.
42. Бисмарк фон Отто. Афоризмы немецкого канцлера. – Москва: Эксмо. 2019. С. 160
43. Фукуяма Ф. Сильное государство. – Москва: АСТ, 2002.
44. Гриценко Н.Н., Волгин Н.А., Попов Ю.Н., Шарков Ф.И. Шулус А.А. Основы социального государства. Учебник. – Москва: Изд. дом. АТиСО, 2016. С. 236–240.
45. Қаранг:Сорокин П.А. Социальная мобильность. – Москва: Academia LVS, 2005. С. 238–242.
46. Қаранг:Теория госудрства и права. Учебник для взов. – Москва: Изд. НОРМА ИНФРА М., 2001. С.255.
47. Қаранг: Алимасов В. Ижтимоий давлат нима? // Тафаккур, 2024, №1. – 26 б.
48. Платон. Государство. – Москва: Изд. АТ, 2022. С. 44.
49. Жўрақулов Ф., Қосимов Н. Ўзбекистонда давлат бошқаруви ривожланишининг тарихий ва замонавий асослари. Матн. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2016. 12–13 б.
50. Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 2. – Москва: Мысли, 1978. С.86.
51. Якунин В.И. Понятие и реализация справедливости в современной государственной политике. – Москва: “Эксперт”, 2012; Принципы социальной справедливости и их реализация в современном мире. Материалы международной научно практической конференции. – Москва: Гуманитар университет, 2019.
52. Отамуратов С., Алимардонов Т. Сиёсат фалсафаси. –Ташкент: ILM Ziyo ZAKOVAT, 2025. –558б.
53. Мудрецы Поднебесной. Симфереполь: “Реноме”, 1998. С.200, 206 б.
54. Кириллов А.И., Северова А.А. Социальная утопия из древности и до наших дней. – Москва: Изд. “Едитус”, 2022: Желтикова И.В.

Утопия и философия. Учебное пособие. – Москва: “Директ Медиа”, 2021; Баталов Э.Я. В мире утопии. Пять диалогов об утопии, утопического сознания и утопических экспериментах. – Москва: Политиздат. 1989.

55. Желтикова И.В. Утопия и философия. Учебное пособие. – Москва: Берлин: “Директ Медиа”. 2021. С. 34–48.

56. Соломоник А. Опыт современной философии познания. – Санкт Петербург: Алетейя, 2019, С.4.

57. Алимасов В. Конфуцийлик ва Шарқ давлатчилиги. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр., 2006–30 б.

58. Раянов Ф.М. Правовое государство и современный мир. – Москва: ООО “Юридический центр Пресс”, 2012; Верховенство права и правовое государство: проблемы теории и практики. Материали X Международной научно теоретической конференции (13–16 апреля 2015 г.) – Москва: РГУП, 2016; Шарифходжав М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2012.

59. Поппер К. Открытое общество и его враги. Том 1. – Москва: Культурная инициатива, 1990. С.411.

60. Dvorkin R. Sovereign Virtue. The Theory and Practice of Equality. London: Harward Univercity Press, 2002; Сорокин П. Проблемы социального равенства. Санкт Петербург: Питер, 1997; Козловский В.В., Уткин А.П., Федотова В.Г. Модернизация: от равенства к свободе. СПб.: Питер, 1995.

61. Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 4. – Москва: Мислы, 1983. С.85.

62. Некрасов Д. Социальное неравенство. Альтернативный взгляд. – Москва: Альпина ПРО, 2022. С. 93–98.

63. Фромм Э. Озодликдан қочиш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. 290 б.

64. Теория государства и права. Учебник. Под. Ред. В.М.Корельского и В.Д. Перевалова. – Москва: НОРМА ИНФА М., 2001. С.231.

65. Новости ООН. Глобальный взгляд Человеческие судьбы //news.un.org

66. <https://theworldonly.org>&

67. <https://www.elib.vuxdu.uz/item>
68. Аристов Е.В. Правовая парадигма социального государства. – Москва: Юнити Диана; Закон и право, 2016. С.203–206.
69. Гегель. Философия права. – Москва: Мислы, 1990. С. 419.
70. <https://visas.am.ru.bednost-v-ssha>
71. visas.am.ru
72. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. 99–100 б.
73. <https://kun.uz/news/2022/08/25>
74. Goraxabar/ 10/08/23).
75. Шайхатдинов В., Григорьев И., Плешакова И. Актуальные проблемы права социального обеспечения. 2 е изд. – Москва: Литрес, 2022: Современные проблемы развития национальной экономики. Сб. статей. Материалы Международная научно практической конференции. 12–14 июня 2018г. Москва: Литрес, 2018; Никонова О.,Маяцкая И., Коржинек Т., Евсеев В. Экономические основы социальной работы. Учебник. – Москва: Литрес, 2021.
76. [news.un.org.17/10/22](https://news.un.org/17/10/22)
77. Сенека. Нравственные письма к Луцилию. – Москва: АСТ, 2022. С. 180–181.
78. Қаранг: “Янги Ўзбекистон”. 2022,18 март
79. Инсон кадри улуғланган юрт.
80. Соловьев В. Право и нравственность. – Минск: Харвест, Москва: АСТ.2001.С.17–18.
81. Куронбоев Қ. Ижтимоий давлат – Инсонпарвар давлат демакдир // “Янги Ўзбекистон”, 2024, 6 декабрь.
82. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент:Ўзбекистон, 2023.
83. Саидов А. Конституциянинг ягона манбаи ва муаллифи – халқдир.
84. Саидов А. Конституциявий ислохотларда жамоатчилик иштироки // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 30 сентябрь.
85. Раҳмонова С. Ишотланган айб – ишотланган айбсизликка тенг // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 24 сентябрь.

86. Қаранг: Абдурасулова Қ. Аёллар жиноятчиликнинг жиноят-хукукий ва криминологик муаммолари. – Тошкент: ТДЮИ, 2015. 5–6 б.
87. Бобоев Ҳ.Б., Ҳамроев Т., Алимасоав В. Маданиятшунослик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 238 б.
88. Тожихонов У., Саидов А. Ҳукукий маданият назарияси. 2–т. Тошкент: ИИВ Академияси, 1998. – 288 б.
89. Насриддинова О.Т. Ёшлар ҳукукий маданиятини юксалтириш фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг ҳал қилувчи омили сифатида. – Тошкент: ТДЮУ, 2007–88 б.
90. Собуров Н. Фуқароларнинг ҳукукий хулқ-атворини шакллантириш муаммолари (назария ва амалиёт). Юридик фан. номзоди... дисс. – Автореферати. – Тошкент: 2011. –163 б.
91. Нишонова Н. Давлат бошқарув тизимида хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти (фалсафий таҳлил) – Тошкент: Фан, 2013. – 161–162–б.
92. Каримов И.А. Ўзбекистон эришган ютуқ ва марралар – биз танлаган ислохотлар йўлининг тасдиғидир. 22–ж. –Тошкент: Ўзбекистон, 2014–32–б.
93. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997, №9. – 7–8–б.
94. Тожихонов У., Саидов А. Ҳукукий маданият назарияси. 1. – Тошкент: ИИВ Академияси, 1998. – 17–19–б.
95. Маматов Х. Ҳукукий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари. – Тошкент: (yurist media markazi), 2009. – 111–б.
96. Мониторинг прав человека // Бюллетень Национального Центра Республики узбекистан по правам человека, 1997. – №2. 169–б.
97. Собуров Н. Фуқароларнинг ҳукукий хулқ – атворини шакллантириш муаммолари (назария ва амалиёт). Юридик фан. номзоди... дисс. – Автореферати. – Тошкент: 2011. – 21 б.
98. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳукукий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 248–249–б.
99. Норкулов С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари – Тошкент: Navro'z, 2015. – 162–б.

100. Қаранг: Даль Р. Введение в экономическую демократию. – Москва: ИМПРА – М., 1993.

101. Қаранг: Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 1998; Мирзаев А. Фуқаролик жамияти ва демократик кадриятлар. – Тошкент: ТошДУ, 2005; Тўхлиев И. Ўзбек модели: тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014; Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш. – Тошкент: Шарқ, 2001.

102. Қаранг: Шумпетер Й. Теория экономического развития. – Москва: Экономика, 1987. С.24–26.

103. Қаранг: Саладков В.И. Инвестиционная деятельность – Москва: Эксмо, 2019. С.12–14.

104. Қаранг: Алексеев С.С. Государство и право. Начальный курс. – Москва: Норма, 1993; Малинова И.П. Философия права. – Екатеринбург: ЕГУ, 1995; Рянов Ф.М. Введение в правовое государство. – Уфа: УГУ, 1994; Давлат ва ҳуқуқ назарияси. А.Саидов таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2014

105. Қаранг: Алимасов В. Ижтимоий давлат нима?// Ж. “Тафаккур”, 2024, 1–сон. 26 б.

106. Қаранг: Бердикулов С.Н. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Академия, 2014.

107. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – Тошкент, Ўзбекистон. 2014. 36–б; Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир// “Халқ сўзи”, 2010 йил 8 декабрь; Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб–интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – “Халқ сўзи”, 2017 йил 17 январь.

108. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // “Халқ сўзи”, 2017 йил 8 февраль; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қонун ҳужжатларини тарқатиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора–тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // “Халқ сўзи”, 2017 йил 9 февраль.

109. Платон. Сочинения в трех томах. Часть 2. Москва Мысль, 1972. – С. 12–14.

110. Қаранг: Талапов Б. Демократия ва Ўзбекистонда миллий демократик тараққиёт. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2008. 12 – 13 б.

111. Ўзбекистан: общественное мнение— 2013 (по результатам целевого социологического исследования) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2014. №1. –С. 30–31.

112. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб–интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – “Халқ сўзи”, 2017 йил 17 январь.

113. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш: муаммолари ва ечимлари. – Тошкент, Истиқлол, 2004. –209 б.

114. Тангриев Л. Мустақиллик ва жамоат ташкилотлари. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2000. – 104 б.

115. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий–ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –217 б.

116. Ирназаров К. СМИ Узбекистана: как завоевать доверие к себе?// Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. №2(5–6) . –7 б.

117. Жить ка основе высокой духовности и верховенства закона, формировать преданность Родине и народу, чувство справедливости, честность и высокую культуру общения. Учебное пособие. Отв. ред. начальник Академии МВД Республики Узбекистан генерал– майор Ш. Т.Икрамов.–Тошкент:Академия МВД Республики Узбекистан. 2015. –С. 4.

118. Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2013. 372 б.

119. Қаранг: Ефременко В. Механизмы культурной эволюции. Социобиология. – Москва: ЛитРес, 2020. С.13–14.

120. Қаранг: Мягкова Ю. Теория эволюции. – Москва: Литрес, 2018. С.42–47.

121. Қаранг: Васильчиков А. Философия эволюции. Гипотеза универсальной модели. – Москва: Перо, 2023. С.4–6.

122. Қаранг: Ивантер Э. Очерки теории эволюции. – Москва: Литрес, 2021; Северцов А. Теория эволюции. 2–е изд. – Москва: Литрес, 2016.

123. Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Част 2. – Москва: Мысль; 1965. – С. 139.

124. Тожиhoнов У, Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 97–100.

125. Алексеев.С.С. Право: азбука–теория–философия: Опыт комплексного исследования. – Москва: Статут, 1999. – С. 164.

126. Саидов А. Х. Иммануэл Кантнинг фалсафий–ҳуқуқий мероси ва замонавий юриспруденция. Тўлдирилган ва қайта ишланган. Тошкент: Инсон ҳуқуқлари республика миллий маркази, 2012. – 67 б .

127. Тожиhoнов У, Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 197 б.

128. Одилқориев Х.Т, Якубов Ш. У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар. Монография. – Тошкент: SMI–ASIA, 2010. – 177 б.

129. Алексеев.С.С. Право: азбука–теория–философия: Опыт комплексного исследования. – Москва: Статут, 1999. – С. 145.

130. Қаранг: www.xs.uz. 2024, 11 декабрь.

131. Қаранг: Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи мажлисидаги нутқи // “Янги Ўзбекистон”, 2024, 19 ноябрь

132. Қаранг,: //”Янги Ўзбекистон”,2024, 6 декабрь.

133. Қаранг: www.yuz.uz 2024, 06,12.

134. Қаранг: www.xs.uz 2023.08.08.

135. Қаранг: Арендаренко А. Реализация социальной справедливости в уголовном праве России. – Москва: Литрес, 2022; Войпан В. Теория справедливости: право и экономика. – Москва: Юрицининформ, 2018; Тихомиров А. Понятие справедливости. – Москва: Solf Pub, 2024.

136. Қаранг: www.yuz.uz 2024,12.08.

137. Қаранг: Ҳусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2013. 168 б.

138. Қаранг: Гаджиев К.С. Политическая философия. – Москва: Аспект –пресс, 1999. С.204–208; Тўйчинв Б. Ҳуқуқ фалсафаси. – Тошкент: Университет, 1997. 103–114 б.; Алимарданов Т. Сиёсат ва ахлоқ. – Тошкент: Фан, 2007. 34–46 б.; Бердиқулов С. Ўзбекистонда

сийсий партияларнинг шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Академия 2014. 12–14 б.; Қодиров А. Сийсий маданият. – Тошкент: Фан, 2008. 34–43 б.

139. Қаранг: “Фаравонликка хизмат қиладиган дастур”// “Янги Ўзбекистон”, 2024, 27 сентябрь.

140. Қаранг: yuz.uz.news 2024, 5 октябрь.

141. Қаранг: www.xs.uz 2024. 09.10

142. Қаранг: “Янги Ўзбекистон”, 2023. 16 июнь.

143. Қаранг: www.xs.uz 2023.12.10.

144. Қаранг: yuz.uz.news 2024.28.09.

145. Иномхўжаев З. Ватанимиз тақдири учун барчамиз масъулмиз // “Янги Ўзбекистон”, 2024, 25 октябрь.

146. Қаранг: RT: ИНО ТИ.Dialogue works; Елисеева Е.А. Социальная политика в странах Западной Европы. – СПб.: Изд. Санкт – Петербургского гос.ун. управления и экономики, 2015; Ролз Дж.Теория справедливости. – Москва: Изд. ЛКИ, 2010; Арон Р.Демократия и тоталитаризм. – Москва: Дашков и К., 2015; <https://ru.wikipedia.org>

147. Қаранг: www. yuz.uz. 2024.07.12

148. Хусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2015. 171 б.

149. Қаранг: www. yuz.uz.news 2021.15.06; www.yuz.uz.news 2025.04.05.

150. Қаранг: www.xs.uz 2024.27.08

151. Қаранг: www. xs.uz 2024.11.06

152. Қаранг: Забралова О.С. Социальное государство: понятие, сущность и виды // Актуальные проблемы российского права. 2022. Том 17. 6. С.22.; Чиркин В.Е. Конституция и социальное государство: юридические и фактические индикаторы//Ж.Российское право, 2008, 12. С.28

153. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг фармони. “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 26 июль.

154. Олимжонов О. Тарихнинг янги саҳифасини яратаётган халқ // “Янги Ўзбекистон”, 2023, 8 август.
155. Иноятов У. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегияси // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 3 март.
156. Қаранг: www.yuz.uz 2023.26.01.
157. www.yuz.uz 2024.01.07.
158. www.yuz.uz 2024.01.07.
159. Қаранг: www.yuz.uz 2024.27.08
160. Қаранг: www.yuz.uz 2024.30.08
161. Қаранг: Ўзбекистонда олий таълим, Ж. 2022, 2 сони; Ўзбекистонда олий таълим. Ж. 2024, 1 сони.
162. Қаранг: Психология и информация в XXI веке. Проблемы адаптации и трансформации сознания. Сборник. – Санкт–Петербург: Питер, 2019. С. 142–144.
163. Қаранг: www.xs.uz
164. Қаранг: Тешабоев А. Юксак мақсадларга фақат халқни рози қилиш орқали эришилади// “Янги Ўзбекистон”, 2023, 10 январь.
165. Қаранг: www.xs.uz 2023.08.09.
166. Қаранг: www.yuz.uz 2023.16.12
167. Қаранг: Эшов М. Бугунги Ўзбекистон кечаги Ўзбекистон эмас// “Халқ сўзи”, 2023, 8 сентябрь.

M.A.ATAVULLAYEV

**IJTIMOIIY DAVLAT:
GENEZISI, SHAKLLANISHI,
MUAMMOLARI
(FALSAFIY–HUQUQIY YONDASHUV)**

MONOGRAFIYA

Muharrir Z.N.Buranov

Bosishga ruxsat etildi 08.06.2026y. Bichimi 60X84 ¹/₁₆.
Bosma tabog‘i 11,25. Shartli bosma tabog‘i 11,25. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma № 067. Bahosi kelishilgan narxda.
“Ma’rifat” nashriyoti. Toshkent, Salorbo‘yi kochasi, 35A.
O‘zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Talabalar shaharchasi, O‘zMU.